

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**M.M. MAMASIDDIQOV, Z.N. ESANOVA,
D.Y. HABIBULLAYEV**

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

Yuridik kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

УДК 347.9(075)
КБК 67.410 *ya*
М23 *с*

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Mazkur o'quv qo'llanma Davlat ta'lim standarti talablari hamda «Fuqarolik protsessual huquqi» fani dasturiga muvofiq tayyorlangan bo'lib, unda fuqarolik protsessual huquqining Umumiy va Maxsus qismiga oid barcha masalalar, huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy fikrlari, sud amaliyotidan misollar, har bir mavzu bo'yicha nazorat savollari va tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati o'z aksini topgan.

Ushbu o'quv qo'llanma huquqshunoslikka yo'naltirilgan kasb-hunar kolleji o'quvchilari, amaliyot va ilmiy xodimlar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: **H.A. RAHMONQULOV** – Toshkent davlat yuridik instituti «Xalqaro xususiy huquq» kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori, akademik.

Taqrizchilar: **E. EGAMBERDIYEV** – O'zbekiston Milliy universiteti «Huquqshunoslik» fakulteti «Fuqarolik protsessi» kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori; **O.A. KAMOLOV** – O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi «Fuqarolik huquqi fanlari» kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

SO'ZBOSHI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, sud-huquq sohasida ham bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov 2010-yil 12-noyabdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli ma'ruzasida ham sud-huquq tizimini isloh etish sohasiga alohida to'xtalib, «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu — qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberalashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham biz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratganimiz bejiz emas»¹, deb ta'kidlab o'tdilar.

Darhaqiqat, ushbu Konsepsiyaning qabul qilinishi, o'z navbatida, sud-huquq sohasida keyingi bosqichda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarni belgilab olishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Ushbu konsepsiyada ilgari surilgan ustuvor vazifalardan biri sifatida aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan kollej talabalari uchun zamonaviy darslik,

¹ I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010-yil 13-noyabr.

o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash, soha mutaxassislarining bilim saviyasini yuksaltirib borishni taqozo etmoqda.

Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida «... davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur»ligini ta'kidlab o'tdilar.

Haqiqatan ham, mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, ularni har tomonlama yetuk mutaxassislar bo'lib yetishida ta'lim va tarbiya berish sohasidagi darsliklar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish, ularni yangi avlodlarini yaratish muhim vazifalardan biridir. Shu ma'noda TDYI «Fuqarolik protsessual huquqi» kafedrasida professor-o'qituvchilari M.M. Mamasiddiqov, Z.N. Esanova, D.Y. Habibullayevlar tomonidan tayyorlangan «Fuqarolik protsessual huquqi» o'quv qo'llanmasi talabalar va o'quvchilarni fuqarolik sud ishlarini yuritishga oid bilim saviyalarini yuksaltirishda, ushbu huquq sohasi bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikma hosil qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, mazkur o'quv qo'llanma hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib yozilganligi, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali o'tkazishga, talabalarning mavzularni asosiy mazmun-mohiyatini tez anglab olishi va tushunishiga yordam berishi, talabalarni darsda faol bo'lishiga va tanqidiy fikrlashga undashi, talabani o'zini o'zi baholash va mustaqil ta'lim olish uchun imkoniyat yaratishi, mavzu bo'yicha muhim ma'lumotlar va qoidalarni esda qolishida muhim manba hisoblanadi.

O'quv qo'llanmada fuqarolik protsessual huquqi fani tushunchasi, predmeti, vazifalari, manbalari, prinsiplari, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari, taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, prokuror, davlat boshqaruv organlarining fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari, tartibi, ularning protsessual huquq va majburiyatlari, sud xarajatlari, protsessual muddatlar, isbotlash va dalillar, da'vo qo'zg'atish, ishni sudda ko'rishga tayyorlash, sud

¹ I.A. Karimov. O'zbekiston Konstitutsiyasi — biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi (2009-yil 5-dekabr). T., «O'zbekiston», 2009, 26-bet.

ishni ko'rish, birinchi instansiya sudining qarorlari, sirtidan ish yuritish, buyruq tartibida ish yuritish, alohida tartibda ish yuritish, davlat organlari, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarni sudda ko'rish, sud qarorlarini yuqori instansiya sudlarida qayta tekshirish, sud va boshqa organlar qarorlarini ijro etish, hakamlik sudlari, fuqarolik protsessida chet el fuqarolari, tashkilotlar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki kabi masalalar to'liq yoritilganligi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari, nazorat savollari, mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatining berilishi o'quvchilarni mazkur fanni to'liq o'zlashtirishda, ushbu mavzular bo'yicha mustaqil ishlarni yozishda, fanni mustaqil o'zlashtirib olishga va ijodiy fikrlashda qulaylik yaratadi.

H.A. RAHMONQULOV,
Toshkent davlat yuridik instituti
«Xalqaro xususiy huquq» kafedrası
professori, yuridik fanlar doktori,
akademik

1-bob. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQINING PREDMETI, TUSHUNCHASI VA TIZIMI

1.1. Fuqarolik protsessual huquqi tushunchasi va subyektiv huquqlarni himoya qilish shakllari

Fuqarolik protsessual huquqi fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining sud orqali himoya qilinishini ta'minlaydi.

Fuqarolik protsessual huquqi — o'zida fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud va protsessning boshqa ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan protsessual normalar tizimini jamlagan huquq sohasi hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquq normalari sud protsessini olib borish tartibini belgilaydi, mazkur tartibni buzuvchi fuqarolik protsessual munosabatning har bir subyeksi uchun muayyan choralarni nazarda tutadi. Fuqarolik protsessual huquqi normalarining huquqiy tartibga solish obyektini fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

1.2. Fuqarolik protsessual huquqining predmeti

Fuqarolik protsessual huquqi huquqning mustaqil tarmog'i bo'lgani bois, huquqiy tartibga solishning o'ziga xos maxsus predmetiga ega. Shu o'rinda fuqarolik protsessual huquqi predmetining fuqarolik protsessining predmeti bilan o'zaro farqli jihatlarini ajrata bilish lozim. Masalan, sud tomonidan odil sudlovni amalga oshirish maqsadida sudda ko'rilayotgan muayyan fuqarolik ishi fuqarolik protsessining predmeti hisoblanadi. Yuridik lug'atlarda e'tirof etilishicha, fuqarolik ishi (ingl. *Civil case*) — fuqarolar va yuridik shaxslarning qonun bilan himoya qilinadigan huquq va manfaatlariga

taalluqli subyektiv fuqarolik huquqlari haqidagi nizoni hal qilishga qaratilgan, sud tomonidan fuqarolik sudi tartibida ko'riladigan va hal etiladigan ish¹.

Fuqarolik protsessual huquqining predmetini fuqarolik sud ishlarini yuritish sohasida vujudga keladigan fuqarolik protsessual munosabatlar tashkil etib, ushbu munosabatlar fuqarolik ishlari tufayli vujudga keladigan sud va protsessning boshqa ishtirokchilari, sud qarorlarini ijro etuvchi idoralar o'rtasida yuzaga keladi.

1.3. Fuqarolik protsessual huquqining manbalari va tizimi

Fuqarolik protsessual huquqining manbalari fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibini belgilovchi fuqarolik protsessual normalardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalar hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqining asosiy manbai o'zida sud ishlarini yuritishning muhim prinsiplarini mustahkamlagan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi (11, 106, 107, 108, 110, 112, 113, 114, 115, 116-moddalari). Konstitutsiya fuqarolik protsessual qonunchilikning rivojlanishidagi muhim huquqiy bazadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimizning haqiqiy mustaqil davlat maqomiga ega ekanligiga qonuniy asos soldi, uning tegishli normalarida jamiyat tuzilishida va davlat qurilishida, fuqarolarning huquq va erkinliklarga erishishida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar o'z aksini topdi va mustahkamlandi.

Fuqarolik protsessual huquqining navbatdagi muhim manbai 1997-yil 30-avgust kuni qabul qilingan va 1998-yil 1-yanvardan e'tiboran, amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi hisoblanadi. Mazkur kodeksda sud fuqarolik ishlarini ko'rish va hal etish tartibini batafsil ifoda etuvchi fuqarolik protsessual huquqining normalari mustahkamlangan. Unda sud ishlarini yuritishning asosiy prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan, sud qarorlari ustidan shikoyat va protest keltirish institutlari o'z ifodasini topgan, shuningdek, odatdagi sud ishlarini yuritishdan o'zgacha bo'lgan, sud ishlarini ixchamlashtirilgan tartibda ko'rish va hal etish, ya'ni sirdan hal qiluv qarori chiqarish, buyruq tartibida ish yuritish instituti o'rin olgan.

¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul R.A. Muhitdinov va boshq., mas'ul muharrir N. To'ychiyev. T., «Adolat», 2010, 493-bet.

Fuqarolik protsessual huquqining muhim manbai sifatida 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri)¹ muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvini qonuniy jihatdan mustahkamladi. Qonun besh bo'limdan iborat bo'lib, unda umumiy qoidalar, umumiy yurisdiksiya sudlari, O'zbekiston Respublikasining xo'jalik sudlari, sudyalarning maqomi hamda yakunlovchi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik protsessual huquqining manbasi sifatida fuqarolik protsessining alohida yo'nalishlarini tartibga soladigan boshqa qonun hujjatlari ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik protsessual huquqining bunday manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunini² ko'rsatish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri)³, «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni⁴ shular jumlasidandir.

Ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sudda ko'rish tartibini belgilovchi protsessual normalar o'z ifodasini topgan bir qator kodekslar ham fuqarolik protsessual huquqining manbasi hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, Uy-joy kodeksi, Soliq kodeksi shular jumlasidandir. Birgina Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish shakllarini (10-modda), fuqaroni sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topish (30-modda), fuqaroning muomala

¹ O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 1—2, 10-modda.

² O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995, № 9, 183-modda.

³ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 168-modda.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 169-modda.

layoqatini cheklash (31-modda), fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish (33-modda), fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish (36-modda) asoslarini nazarda tutadi.

Fuqarolik protsessual huquqining manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro shartnomalar ham e'tirof etiladi.

Fuqarolik protsessual huquqining manbalari sifatida qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham e'tirof etiladi.

Fuqarolik protsessual huquqining tizimi. Fuqarolik protsessual huquqining barcha qoidalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning tizimini tashkil qiladi. Ushbu tizimda umumiy, alohida va maxsus ahamiyat kasb etuvchi normalar mavjud bo'lib, ular birgalikda fuqarolik protsessual huquqining tizimini hosil qiladi.

Fuqarolik protsessual huquqi tarkibida birinchi instansiya, apellatsiya va kassatsiya tartibida ish yuritish, qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rish, sud qarorlarini ijro etish bosqichlarini tartibga soluvchi, umuman fuqarolik protsessining barcha bosqichlari uchun xos bo'lgan umumiy qoidalarni ajratish mumkin. Bu esa fuqarolik protsessual huquqi tizimini quyidagi ikki qismga: *Umumiy* va *Maxsus* qismga ajratish mumkinligini ko'rsatadi.

Fuqarolik protsessual huquqining Umumiy qismida Fuqarolik protsessual kodeksining «Umumiy qoidalar» deb nomlangan birinchi bo'limida mustahkamlangan quyidagi institutlar nazarda tutiladi: sudya va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish, sudga taalluqli ishlar, protsess ishtirokchilari, dalillar, sud xarajatlari, sud jarimalari, protsessual muddatlar, sud xabarnomalari va chaqiruvlari.

Fuqarolik protsessual huquqining Maxsus qismi — protsessning turli bosqichlarini (birinchi instansiya sudida ish yuritish, sud qarorlari ustidan shikoyat berish va ularni qayta ko'rish, sud qarorlarining ijrosini) tartibga soluvchi, shuningdek, fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtiroki masalasini nazarda tutuvchi normalar yig'indisidan iborat. Boshqacha qilib aytganda, Maxsus qismda fuqarolik ishlarining ayrim turkumlarini ko'rish, hal qilish uchun va fuqarolik jarayonining ayrim bosqichlari uchun maxsus ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy me'yorlar bayon etiladi¹.

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 18-bet.

1.4. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy, fuqarolik, oila, mehnat, ma'muriy huquq, xo'jalik protsessual va jinoyat protsessual huquqi hamda boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi

Fuqarolik protsessual huquqi mamlakatimiz huquq tizimining tarkibiy qismi sifatida huquqning aksariyat tarmoqlari bilan o'zaro aloqador hisoblanadi. Ayniqsa, fuqarolik protsessual huquqi moddiy huquq bilan uzviy aloqada bo'lib, o'z navbatida, moddiy huquq normasida nazarda tutilgan majburiyatlar boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilmagan taqdirda huquqni sud orqali himoya qilishning, boshqacha qilib aytganda, fuqarolik, mehnat, oila, ma'muriy va boshqa majburiyatlarni majburiy ravishda amalga oshirishning muhim shakli sifatida e'tirof etiladi. Undan tashqari, sud yuzaga kelgan fuqarolik ishini moddiy huquq normasi asosida hal etadi.

Biroq, moddiy va protsessual huquq sohalari o'zaro mustaqil va tartibga solish predmeti va uslubiga ko'ra turlicha hisoblanadi. Masalan, muayyan munosabat, xususan, mulkiy, shaxsiy nomulkiy, mehnat, oila va boshqa sohadagi ishtirokchilarning xatti-harakatlari moddiy-huquqiy sohani tartibga solishning predmeti hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqining moddiy huquq tarmoqlari bilan aloqasi keng va ko'p tomonlamadir. Moddiy huquqda fuqarolik-protsessual tUSDagi normalar, xususan, isbotlash predmeti, ishning sudga taalluqliligi, sud xarajatlaridan ozod qilish va shunga o'xshash normalar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 268-moddasida mehnat nizosini ko'rishni so'rab sudga murojaat qilish huquqi, 269-moddasida bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'rilishi lozim bo'lgan mehnat nizolari, 277-moddasida xodimlarni sud xarajatlaridan ozod qilish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, Oila kodeksining 40-moddasida nikohdan sud tartibida ajratish, 44-moddasida nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar, 45-moddasida sudning nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarishida davlat boji miqdorini belgilash, 62-moddasida otalikning sud tartibida belgilanishi masalalari bayon etilgan.

Sud muayyan fuqarolik ishi yuzasidan o'z qarorini chiqarar ekan, albatta, moddiy huquq normalarini qo'llaydi. Moddiy huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanishi sud hal qiluv qarorining bekor qilinishiga olib keladi. Undan tashqari, fuqarolik protsessining vujudga kelish shartlaridan biri — sudga taalluqli

bo'lgan moddiy-huquqiy nizoning (da'vo bo'yicha ish ko'rishda) mavjud bo'lishidir. Boshqacha qilib aytganda, moddiy huquq normalarining buzilishi, bosharti sudga himoya qilish to'g'risida murojaat qilinadigan bo'lsa, fuqarolik protsessual huquqini harakatga keltiradi. Mamlakatimiz huquq tizimining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fuqarolik protsessual huquqi boshqa huquq sohalari, xususan, Konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoyat-huquqiy sohalari bilan ham aloqador.

Fuqarolik protsessual huquqining Konstitutsiyaviy huquq bilan o'zaro aloqadorligi quyidagi ikki jihatda namoyon bo'ladi:

- har ikki huquq manbalarining umumiyliigi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbai hisoblanadi. Shu o'rinda Konstitutsiyada odil sudlovning eng muhim prinsiplari ham o'z ifodasini topgan;

- Konstitutsiyaviy huquqning ayrim kichik tarmoqlar bilan o'zaro bog'liqligi. Bu yerda gap sudlarning tuzilishi va prokuror nazorati haqida bormoqda. Sudlarning tuzilishi bilan fuqarolik protsessual huquqining ayrim prinsiplari o'rtasida umumiylik mavjud (xususan, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, odil sudlovning faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi va h.k.).

Fuqarolik protsessual huquqining ma'muriy huquq bilan o'zaro bog'liqligi fuqarolik sud ishlarini yuritishning muhim turi bo'lmish davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur ishlarning sudga taalluqliligi ma'muriy huquq manbalariga oid hujjatlarda belgilangan (masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va boshq.).

Fuqarolik protsessual huquqi jinoyat-protsessual huquqi bilan ham yaqin aloqadadir. Zotan, har ikki tarmoq protsessual hisoblanadi va odil sudlovni amalga oshiruvchi ayni bir organning — sudning faoliyat tartibini belgilaydi. Har ikki tarmoq ko'plab faoliyatning umumiy prinsiplariga ega (bevositalik, og'zakilik va boshq.). Ularning protsessual shakli, ko'pgina huquqiy institutlari (isbotlash, ishlarni birinchi instansiya sudida ko'rib chiqish, sud hujjatlarini appelatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida qayta ko'rish va h.k.) bir-biri bilan o'xshash.

Fuqarolik protsessual va xo'jalik protsessual huquqi o'rtasida juda ko'p o'xshash jihatlar ko'zga tashlanadi (masalan, prinsip-

larning, protsessual shaklning umumiyliги). Jinoyat protsessual huquqi bilan qiyoslaganda ushbu huquq sohalorida ko'riladigan nizoning xarakteri anchayin bir-biriga o'xshash. Lekin fuqarolik protsessual va xo'jalik protsessual huquqi turli sudlarning faoliyatini tartibga soladi.

1.5. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning turlari

Mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligi fuqarolik sud ishlarini yuritishning bir qator turlarini nazarda tutadi. Bular buyruq tartibidagi ishlar; da'vo tartibidagi ishlar; organlar va mansabdor shaxslar xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlar bo'yicha ishlar; alohida tartibda ko'riladigan ishlardir (FPKning 2-moddasi). Mazkur sud ishlarini yuritish turlari fuqarolik ishlarining moddiy-huquqiy xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

Buyruq tartibidagi ishlar. Sud buyrug'i ishni mazmunan ko'rmasdan, mavjud yozma hujjatlar asosida chiqariladi. Sudya ushbu holatda guvoh ko'rsatmalarini, ekspert xulosalarini tekshirmaydi, taraflarning tushuntirishlari va uchinchi shaxslarning bayonotlarini eshitmaydi.

Sud buyrug'ini chiqarish uchun qator shartlar mavjud bo'lishi talab etiladi. *Birinchi shart* shundan iboratki, undiruvchi sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan birga qarzdorning o'z zimmasiga olgan majburiyatini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. Taqdim etilgan hujjatlar ishning mohiyatini o'zida to'laqonli aks ettirishi *ikkinchi shartdir*. *Uchinchi shart* esa, nizoning mavjud bo'lmashligi. Uchinchidan, sud buyrug'i faqat qonunda belgilangan asoslar (FPKning 238²-moddasi) mavjud bo'lgandagina chiqariladi. Sud buyrug'i nizosiz talablar yuzasidan chiqarilib, qonunda belgilanmagan asoslar yuzasidan chiqarilishi mumkin emas. *To'rtinchidan*, buyruq tartibida ish yuritish jarayonida taraflar sifatida undiruvchi va qarzdor e'tirof etiladi. *Beshinchidan*, sud buyrug'i ijro hujjati kuchiga ega bo'lib, sud hujjatlarini ijro etish uchun qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi¹.

Da'vo tartibida ko'riladigan ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda muayyan huquq to'g'risidagi nizo mavjud bo'ladi.

¹ M.M. Mamasiddiqov. Buyruq tartibida ish yuritish. O'quv-amaliy qo'llanma. T., TDYI, 2007, 13—14-bet; M.M. Mamasiddiqov, U.S. Mirzayev. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining «Buyruq tartibida ish yuritish» nomli 20¹-bobiga sharh. Ilmiy-amaliy qo'llanma. T., «AL-FABA-SERVIS», 2008, 126-bet.

Sudda da'vo ishlarining yuritilishi — da'vo talabini qo'zg'atish paytidan e'tiboran boshlanadi. Buzilgan yoki nizolashilayotgan fuqarolik huquqini himoya qilish to'g'risidagi talab sifatida ko'riladigan da'vo — sudda ish ko'rishning predmeti bo'lib, da'voning dalillar asosida isbotlanishiga qarab sud tomonidan qanoatlantiriladi yoki rad qilinadi.

Shuningdek, da'vo tartibidagi ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, taraflar o'zaro teng bo'lgan fuqarolik, mehnat, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlarga doir nizolar bo'yicha buzilgan huquq yoki qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun sudga murojaat qiladilar. Bu turdagi fuqarolik ishlarida manfaatdor shaxsning da'vo arizasi yagona asos bo'lib hisoblanadi. Da'vo asli arabcha so'z bo'lib, o'z haq-huquqlarini himoya etish haqida sud orqali yoki boshqa yo'llar bilan qo'yilgan talabdir.

Fuqarolik protsessida da'volar turli xil mazmunda bo'lib, ularni bir-biridan ajratish uchun tegishli mezonlar mavjud. Bular da'voning tarkibiy qismlari, ya'ni elementlari bo'lib, ular asosan da'voning predmeti va da'voning asosiga bo'linadi. Da'voning predmeti da'vogarning talabi bo'lib, u sud orqali javobgardan talab qilinayotgan narsadan iborat. Da'vogarning javobgardan muayyan haq undirish to'g'risidagi talabi shunga misol bo'la oladi. Da'voning asosi esa da'vo talabini tasdiqlaydigan dalillardan iborat bo'lib, da'vogar o'z talabining nimaga asoslanganligini va uni tasdiqlaydigan dalillarni da'vo arizasida ko'rsatib o'tishi lozim.

Da'vo tartibida ko'riladigan ishlar o'zining quyidagi xususiyatlari bilan boshqa turdagi fuqarolik ishlarini yuritishdan farqlanadi:

- mazkur toifadagi ishlarda da'vogar va javobgar hamda ayrim hollarda uchinchi shaxslar ham ishtirok etadi;

- taraflar fuqarolik ishini o'zaro kelishuv bitimi tuzish orqali tugatishga erishishlari mumkin bo'ladi;

- fuqarolik protsessining muhim institutlari: da'vodan voz kechish, da'voni tan olish, da'voni ta'minlash, qarshi da'vo qo'zg'atish kabilar aynan mazkur sud ishlarini yuritish jarayonida qo'llaniladi;

- da'vo tartibida ko'riladigan ishlar bo'yicha sirdan hal qiluv qarori chiqarish mumkin va h.k.

Organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar

bo'yicha ish yuritish tartibi FPKning 3-kichik bo'limi (26—29-boblar)da nazarda tutilgan. Bu turdagi fuqarolik ishlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bunda protsess ishtirokchilarining munosabatlari davlat boshqaruvi organlarining faoliyati bilan bog'liq holda ko'riladi va bu to'g'ridagi shikoyatlar faqat qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollardagina sudga taalluqli bo'ladi.

Fuqarolarning ishtiroki bilan bo'ladigan bunday ishlarni ko'rib hal etishning sud tartibi sudsiz ma'muriy tartibda ko'riladigan ishlarga nisbatan muayyan ustunliklarga ega bo'lishi fuqarolik ishlarining to'g'ri hal qilinishi uchun muhim kafolatlar yaratilganligi, fuqarolar, davlat va boshqa idoralarning huquq va qonuniy manfaatlari jiddiy qo'riqlanishi bilan farqlanadi.

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha sudga ko'riladi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning ushbu turi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligi bo'yicha mansabdor shaxslar xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlar bo'yicha ishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan shikoyatlar;
- notariusning, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organining muayyan harakatlarni bajarishni rad etganligi yoki noto'g'ri bajarganligi ustidan shikoyatlar;
- prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi (FPKning 264-moddasi).

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning hay'at tarkibi tomonidan hamda yakka tartibda amalga oshirilgan va pirovard natijada:

- fuqarolarning huquqlari va erkinliklari buzilishiga;
- fuqarolarning o'z huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishi yo'lida to'sqinliklar vujudga kelishiga;
- fuqaro zimmasiga birorta g'ayriqonuniy ravishda biron-bir javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlari (qarorlari) sudga shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar jumlasiga kiradi.

Alohida tartibda ko'riladigan ishlar. Alohida ish yuritish tartibida ko'riladigan ishlar shunday fuqarolik ishlaridirki, bular yuzasidan

huquq to'g'risidagi nizo bo'lmaydi, arizachi sudga faqat o'z muddaosini bildiradi. Bu turkum ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar arizachilar va boshqa manfaatdor shaxslar hisoblanadilar va alohida tartibda ko'riladigan ishlar huquq to'g'risidagi nizoni hal etish bilan bog'liq bo'lmaydi. Agar alohida tartibda yuritiladigan ishni ko'rish vaqtida sudga taalluqli huquq to'g'risida nizo kelib chiqsa, sud arizani ko'rmasdan qoldirib, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga umumiy tartibda da'vo taqdim etishni taklif qiladi (FPKning 282-moddasi).

Alohida tartibda sud ishlarini yuritish uchun tegishli fuqarolik ishlarida huquq to'g'risidagi nizoning mavjud emasligi va buning oqibatida taraflar bo'lmashligi bu turdagi sud ishlarini yuritishni fuqarolik jarayoni huquqiga oid sud ishlarini yuritishning mustaqil turi deb hisoblashga asos bo'ladi. Alohida sud ishlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari maxsus tartibda sudlar tomonidan ko'rib hal qilinadigan fuqarolik ishlarining tabiatidan kelib chiqadi va mazkur ishlar qonunda ko'rsatilgan ayrim istisnolar bilan sud ishlarini yuritishning umumiy qoidasi asosida hal qilinadi.

FPKning 4-kichik bo'limida keltirilgan sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'riladigan ishlarga quyidagilar kiradi:

1) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlar (31-bob);

2) fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar (32-bob);

3) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar (33-bob);

4) g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish (331-bob);

5) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar (34-bob);

6) taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar (35-bob).

1.6. Fuqarolik protsessining bosqichlari

Sudlarning fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish va hal etish bilan bog'liq faoliyati ma'lum bir bosqichlarda amalga oshiriladi hamda rivojlantiriladi.

Fuqarolik protsessining bosqichlari fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalarini amalga oshirish, fuqarolik ishlarini to'g'ri

va o'z vaqtida ko'rib chiqish hamda hal etish kabi muhim maqsadga yo'naltirilgan protsessual harakatlarning yig'indisi hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida fuqarolik protsessining quyidagi bosqichlari ko'rsatib o'tilgan:

- fuqarolik ishini qo'zg'atish;
- ishni sudga ko'rishga tayyorlash;
- ishni sud majlisida ko'rish va hal qilish;
- sudning hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlari yuzasidan shikoyatlar berish va protestlar keltirish;
- sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik protsessual huquqi deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik protsessual huquqining predmeti deb nimaga aytiladi?
3. Fuqarolik protsessiga tushuncha bering.
4. Fuqarolik protsessual huquqining tizimi qanday qismlarga ajratiladi?
5. Fuqarolik protsessual huquqining Konstitutsiyaviy huquq sohasi bilan aloqadorligi nimada?
6. Fuqarolik protsessual huquqining fuqarolik, oila va mehnat huquqi sohalari bilan aloqadorligi haqida gapirib bering.
7. Fuqarolik protsessual huquqining xo'jalik protsessual va jinoyat protsessual huquqi bilan aloqadorligi nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Fuqarolik sud ishlarini yuritish deganda nimani tushunasiz?
9. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi vazifalari nimalardan iborat?
10. Qonunbuzilishining oldini olish bo'yicha sudlar tomonidan amalga oshiriladigan profilaktik choralar nimalardan iborat?
11. Fuqarolik protsessual huquqining manbalari deganda nimani tushunasiz?
12. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining tuzilishini gapirib bering.
13. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning qanday turlari mavjud va ularning o'ziga xos belgilari nimada?
14. Fuqarolik protsessining bosqichlari haqida gapiring.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.

5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
7. *S.A. Marunova*. Гражданский процесс. Т., ТГЮИ, 2009.
8. *M.M. Mamasiddiqov*. Mehnat ishlari bo'yicha yetkazilgan zararni sudda undirish. O'quv qo'llanma. T., «Adolat», 2001.
9. *M.M. Mamasiddiqov*. Mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. O'quv qo'llanma. T., «Adolat», 2004.
10. *E.E. Egamberdiyev*. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. T., «Adolat», 2000.
11. *Z.N. Esanova*. O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo tartibida sudda ko'rish. O'quv qo'llanma. T., «Yangi asr avlodi», 2002.
12. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy tamoyillari. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2006.
13. *M.M. Mamasiddiqov*. Buyruq tartibida ish yuritish. T., TDYI, 2007.
14. *Z.N. Esanova*. O'talikni belgilash to'g'risidagi fuqarolik ishini sudda ko'rish. T., TDYI, 2007.
15. *M.M. Mamasiddiqov, M.X. Karimov*. Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki. O'quv amaliy qo'llanma. T., AQHMI, 2008.
16. *M.M. Mamasiddiqov, U. Mirzayev*. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining «Buyruq tartibida ish yuritish» nomli 20'-bobiga sharh. Ilmiy-amaliy qo'llanma. T., «AL-FABA-SERVIS», 2008.
17. *D.Y. Habibullayev*. Alohida tartibda ish yuritish. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2008.
18. *M.M. Mamasiddiqov, D.Y. Habibullayev*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. (Sxema va jadvallar). O'quv-uslubiy qo'llanma. T., TDYI, 2006.
19. *Z.N. Esanova*. Fuqarolik protsessual huquqini o'rganish bo'yicha masalalar to'plami. 1-qism. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2004.
20. *Z.N. Esanova*. Fuqarolik protsessual huquqini o'rganish bo'yicha masalalar to'plami. 2-qism. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., «Maksgrafika» XF, 2005.

2-bob. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQINING PRINSIPLARI

2.1. Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari tushunchasi va tizimi

Muayyan huquq sohasining prinsiplari mazkur huquq sohasining mavjud bo'lishi va rivojlanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. «Prinsip» so'zi lotincha «*princirium*» so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida «asos», «qoida», «negiz» ma'nolarini anglatadi¹.

Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari — bu qonun normalarida mustahkamlangan, protsessual institutlarning barcha tizimlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, fuqarolik ishlarining o'z vaqtida, to'g'ri va tez ko'rib chiqilishida odil sudlovni amalga oshirishni ta'minlaydigan asosiy rahbariy qoidalardir. Ular barcha fuqarolik protsessi institutlarini o'z ichiga olib, qonuniy, asosli hamda adolatli hal qiluv qarori chiqarilishini va ularning ijro etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarini quyidagicha tasniflash mumkin: Fuqarolik protsessual huquqining tashkiliy-funksional prinsiplari: odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sudyalarni saylash va tayinlash, fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay'at tomonidan ko'rilishi, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, qonun va sud oldidagi tenglik, sud ishlari yuritiladigan til, sudda ish ko'rishning oshkoraligi prinsipi. Fuqarolik protsessual huquqining funksional prinsiplari: ishlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilish; taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi; sudda ishni ko'rishning bevositaligi va og'zakiligi prinsipi.

2.2. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarining tasnifi

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi. Fuqarolik protsessual huquqining tashkiliy-funksional prinsiplari qatorida odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi muhim o'rin tutadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi).

¹ Ruscha-o'zbekcha lug'at. 2-jild. T., O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1984, 215-bet; Гражданский процесс. Кол. авторов. М., «Спарк», 1999, стр. 25.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakatimizda sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi alohida belgilab qo'yilgan. Sudlarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi qoidalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (112-modda) belgilab qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rishga to'sqinlik qilish yoki g'ayriqonuniy sud qarori chiqarilishiga erishish maqsadida sudyalarga qanday bo'lmasin, biron-bir tarzda ta'sir etish qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan (JKning 236-moddasi).

Sudyalarni saylash va tayinlash prinsipining mohiyati shundan iboratki, unga ko'ra, fuqarolik ishlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saylanadigan va tayinlanadigan sudyalar tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi sudyalari besh yil muddatga saylanadilar. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlari sudyalari besh yil muddatga tayinlanadilar (107-modda).

Fuqarolik protsessual huquqining muhim prinsiplaridan biri sifatida fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay'at tomonidan ko'rilishi prinsipi tan olinadi. Barcha birinchi instansiya sudlarida ishlar sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi. Ishni sudyaning yakka o'zi ko'rganida u sud nomidan ish yuritadi. Ishni apellatsiya va kassatsiya tartibida ko'rish Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, nazorat tartibida ko'rish esa Rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida ishlar apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rayosatida — rayosat a'zolarining

ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenumida plenum tarkibining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda ko'riladi.

Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi prinsipi fuqarolik protsessual huquqining muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sudlarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishini ta'minlashda ularning daxlsizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sudyalarning daxlsizligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda «Sudlar to'g'risida»gi Qonun bilan kafolatlanadi. Unga ko'ra, sudyaning shaxsi daxlsiz bo'lib, sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga ham taalluqlidir. Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Sudya tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas. Shuningdek, sudya sudyalarning tegishli malaka hay'atining roziligisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Undan tashqari, sudlarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida qonunchilik sudyadan ko'rilgan yoki yurituvdagi ishlar mohiyati bo'yicha biron-bir tushuntirishlar berishni, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari, kimga bo'lmasin, tanishib chiqish uchun ishlarni taqdim etishni talab qilishni taqiqlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'z xabarlarida muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan o'zicha hal qilib qo'yishga yoki sudga boshqacha tarzda ta'sir etishga haqli bo'lmaydi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 69-moddasi).

Fuqarolik protsessual huquqining birinchi guruhga mansub bo'lgan prinsiplari ichida fuqarolarning qonun va sud oldidagi tengligi prinsipi muhim o'rin egallaydi. Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipi umum e'tirof etilgan xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o'z ifodasini topganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Mazkur prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib

chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Undan tashqari, mazkur prinsip FPKning 6-moddasida va «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, mazkur normalarga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov faqat sud tomonidan hamda barcha fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, shuningdek, boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi. Bu esa mazkur prinsip bir vaqtning o'zida sud tuzilishi va sud protsessini belgilab beradigan tashkiliy-funksional prinsip ekanligidan dalolat berib, nafaqat fuqarolik sud ishlarini yuritishda, balki xo'jalik, jinoyat sud ishlarini yuritishga ham xos bo'lgan prinsip ekanligini ko'rsatadi.

Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi Konstitutsiyaning 115-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Bu esa O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib borilishi, sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanishi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy normaning fuqarolik sud ishlarini yuritish sohasida rivojlanishi va amal qilishini ko'rsatadi.

Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga ishga taalluqli materiallar bilan o'z ona tilida to'liq tanishib chiqish, ona tilida ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, sudda so'zlash, arz bilan murojaat etish va iltimosnomalar taqdim etish, shuningdek, kodeksda belgilangan tartibda tarjimonning xizmatidan foydalanish huquqi ta'minlanadi. Sud hujjatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning ona tillariga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi (FPKning 9-moddasi).

Oshkoralik prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasi, Fuqarolik protsessual kodeksining 10-moddasi, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra, barcha sudlarda ishlar oshkora ko'riladi, davlat yoki tijorat sirlarini saqlash manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, farzandlikka olish siri va yozishmalar siri saqlanishini ta'minlash maqsadida sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan, ish sudning yopiq majlisida ko'rilishi mumkin.

FPKning 10-moddasiga muvofiq, barcha sudlarda ishlar oshkora ko'riladi, davlat yoki tijorat sirlarini saqlash manfaatlariga zid bo'lgan hollarda ishlar yopiq sud majlisida ko'riladi. Shu o'rinda 1993-yil 7-maydagi O'zbekiston Respublikasining «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi Qonuni 1-moddasiga ko'ra, davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi. Mazkur Qonunga muvofiq, davlat sirlarini saqlash — bunday sirlarga ega bo'lgan barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining mansabdor shaxslari va fuqarolarining burchidir. Davlat sirlaridan foydalanish bilan bog'liq biron-bir ishlar bunday sirlarni saqlash yuzasidan choralar ko'rilganidan keyingina amalga oshiriladi. Davlat sirlarini saqlash bo'yicha mas'uliyat davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va birlashmalarning rahbarlari zimmasiga yuklatiladi (10-modda)¹.

FPKning 10-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, farzandlikka olish siri va yozishmalar siri saqlanishini ta'minlash maqsadida sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan, ish sudning yopiq majlisida ko'rilishiga yo'l qo'yiladi.

Yopiq sud majlislarini o'tkazishda qonuniylikni ta'minlash maqsadida ish sudlov ishlari yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda ko'riladi. Mazkur jarayonda ishda ishtirok etayotgan shaxslar, zarur hollarda esa, guvoh, ekspert, mutaxassis va tarjimonlar qatnashadilar. Ish sudning yopiq majlisida ko'rilishidan qat'i nazar, ish yuzasidan sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi.

Ishlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipi (qonuniylik prinsipi). Qonuniylik prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konsti-

¹ O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993, № 5, 232-modda.

tutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari kafolatlab qo'yilgan (15-modda).

Fuqarolik protsessual kodeksiga ko'ra, sud ishlarni O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida hal qilishi shartligi, sud, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid bo'lmasa, boshqa normativ hujjatlarni, qonunga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini qo'llashi nazarda tutilgan. Shuningdek, agar nizoli munosabatni tartibga soladigan qonun bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan qonunni tatbiq etadi, bordi-yu, bunday qonun ham bo'lmasa, respublika qonun hujjatlarining umumiy asoslari va ma'nosiga tayanadi («Ishlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilish», 12-modda).

Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi fuqarolik protsessual huquqining muhim prinsiplaridan hisoblanadi. Darhaqiqat, bugungi kunda sud-huquq islohotlarining asosiy vazifasidan biri ham sud protsesslarida tortishuvchilik prinsipini kuchaytirish, taraflarning sud protsessidagi faolligini oshirish, ularga ish bo'yicha dalillar to'plash va uni sudga taqdim etish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratishdan iboratdir. Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov o'z asarlarida fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda, bu jarayonning istisnosiz barcha bosqichlarda taraflarning haqiqiy tengligini va o'zaro tortisha olishi uchun sharoit yaratishi lozimligini alohida ta'kidlagan¹.

Tortishuvchilik prinsipi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish yuzasidan o'z talab va e'tirozlarini isbotlashdagi faolligini, ular tomonidan ish materiallarini tuzish tartibini belgilaydi, protsessda sudning rolini oshiradi va shu orqali sud tomonidan qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlaydi.

Tortishuvchilik prinsipi taraflarning o'z talab va e'tirozlarini isbotlash jarayonida ko'proq namoyon bo'ladi. Mazkur prinsipga muvofiq har bir taraf o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatilgan holatlarni isbotlashi kerak, shuning uchun taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar zarur dalillarni sudga keltiradilar. Agar taqdim etilgan dalillar yetarli bo'lmasa, sud taraflarga va ishda ishtirok qiluvchi boshqa shaxslarga qo'shimcha dalillar taqdim etishni taklif qiladi. Qo'shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirsa,

¹ I.A. Karimov. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T., «O'zbekiston», 2003, 13-bet.

sud ularning iltimosiga ko'ra, dalillarni to'plashda ularga yordam berishi mumkin (FPKning 57-moddasi).

Fuqarolik protsessual huquqining tortishuvchilik prinsipi teng huquqlilik prinsipi bilan yonma-yon keladi. Zero, taraflar teng huquqli bo'lmas ekan, ular o'rtasida tortishuvning bo'lishi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Taraflarning teng huquqliligi Konstitutsiyaning 18-moddasi bilan ham kafolatlab qo'yilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Sudda ish ko'rishning bevositaligi va og'zakiligi prinsipiga ko'ra, sudda ish yuritish bevosita va og'zaki olib boriladi. Bevositalik prinsipi shundan iboratki, unga ko'ra, fuqarolik ishini hal qilayotgan sudya ish yuzasidan to'plangan dalillarni shaxsan o'zi qabul qilib olishi, sudda ish ko'rish sud majlisida tekshirilgan dalillarga asoslanishi lozim. FPKning 67-moddasida sud dalillarga ishning hamma holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda, har taraflama to'liq va xolis ko'rib chiqish asosida ichki ishonch bo'yicha baho berishi belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik protsessual huquqining og'zakilik prinsipi FPKning 11-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, ishni ko'rish og'zaki ravishda o'tadi. Ishni ko'rish jarayonida sudya almashtirilgan taqdirda, ish boshidan qayta ko'rilishi kerak. Og'zakilik prinsipiga muvofiq sud taraflarning tushuntirishlarini, uchinchi shaxslarning bayonotlarini, iltimosnomalarini, guvohlarning ko'rsatuvlarini, ekspert va mutaxassislarining xulosa va fikrlarini eshitadi. Sud majlisida ko'riladigan barcha masalalar og'zaki muhokama qilinadi. Bunday usul sudyalarga ish holatlarini oydinlashtirishlariga va ularda ish yuzasidan to'g'ri ichki tushuncha paydo bo'lishiga imkon beradi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarining mohiyati nimada?
3. Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari qanday vazifani amalga oshirishga qaratilgan?
4. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarining qanday tizimi mavjud?
5. Fuqarolik protsessual huquqining tashkiliy-funksional prinsiplari haqida gapiring.
6. Fuqarolik protsessual huquqining funksional prinsiplari haqida gapiring.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
7. *C.A. Марупова*. Гражданский процесс. T., ТГЮИ, 2009.
8. *E. Egamberdiyev*. Erkin huquq va tortishuvchilik prinsipi. «Hayot va qonun» jurnali, 1998, № 7.
9. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy tamoyillari. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2006.
10. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqining tamoyillari va ularni sud amaliyotida tatbiq etish muammolari. Monografiya. T., TDYI, 2008.
11. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). T., TDYI, 2010.

3-bob. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIY MUNOSABATLAR VA ULARNING SUBYEKTLARI

3.1. Fuqarolik protsessiga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi

Fuqarolik ishi bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud va protsess ishtirokchilari o'rtasida fuqarolik protsessual huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar yuzaga keladi va rivojlanadi.

Mazkur munosabatlar fuqarolik protsessual huquq normasi bilan tartibga solinganligi uchun ham fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar deb yuritiladi.

3.2. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar ma'lum asoslar va omillar mavjud bo'lganida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar vujudga kelishining quyidagi uch sharti nazarda tutiladi:

- protsessual huquq normalari;
- yuridik faktlar;
- huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq layoqati.

Darhaqiqat, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi asosiy omil sifatida protsessual huquq normalari e'tirof etiladi. Fuqarolik protsessiga kirishish yoki sud tomonidan protsessga jalb etilish tartibi fuqarolik protsessual huquq normalarida nazarda tutilgan bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fuqarolik protsessual huquq normalari mavjud bo'lishining o'zi yetarli bo'lmaydi. Huquqiy normalar muayyan shaxslar tomonidan sodir etiladigan harakatlar natijasida amalga oshiriladi. Fuqarolik protsessi ishtirokchilarining harakatsizligi ham protsessual huquqiy oqibatni keltirib chiqaruvchi protsessual tusdagi yuridik faktlar tarkibiga kiradi. Mazkur harakatlar (harakatsizliklar) huquqiy munosabatlarni vujudga keltirishi uchun albatta huquqiy tusga ega bo'lishi, ya'ni yuridik fakt mavjud bo'lishi talab etiladi.

Chunki yuridik faktlar ma'lum huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Bunday huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiruvchi yuridik faktlar fuqarolik protsessual huquq normalari asosida va unda nazarda tutilgan tartib hamda shakllarda sud va protsessning boshqa ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar natijasida vujudga keladi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan yuridik faktlar ichida sud tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar muhim o'rin tutadi. Masalan, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tizimi yuzaga kelishi uchun, avvalo, sud arizani qabul qilishi va ish yuritishni qo'zg'atishi shart bo'ladi.

Shunday qilib, protsessual huquqiy munosabatlar muayyan yuridik faktlar mavjud bo'lganida vujudga keladi.

Moddiy huquqiy munosabatlardan farqli ravishda protsessual-huquqiy munosabatlarni o'zgartirish yoki tugatishga sud va protsess ishtirokchilari o'rtasidagi shartnoma asos bo'la olmaydi. Biroq taraflar o'rtasida yoki uchinchi shaxslar bilan o'zaro bitimlarning tuzilishi (masalan, kelishuv bitimi) fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo'lishi mumkin (FPKning 100-moddasi).

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatning vujudga kelishidagi navbatdagi shartlardan biri mazkur munosabat subyektlarining fuqarolik protsessual huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquq layoqati bu — shaxslarga qonun bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida protsessual huquqlarga ega bo'lish va protsessual majburiyatlarni bajarish bo'yicha berilgan imkoniyat hisoblanadi.

Huquqiy munosabatning har bir subyektiga tegishli protsessual huquq va burchlarning mazmuni va hajmi uning fuqarolik jarayonida ishtirok etish roli va maqsadiga qarab har xil bo'ladi. Fuqarolik protsessual kodeksining 37-moddasiga ko'ra, barcha fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) tengligi e'tirof etiladi.

Huquq layoqatidan farqli ravishda fuqarolik protsessual muomala layoqati deganda, sudda o'z huquqlarini shaxsan himoya qilish va majburiyatlarni bajarish, shuningdek, ish yuritishni vakilga topshirish imkoniyatiga ega bo'lish tushuniladi. FPKning 38-moddasiga muvofiq, sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegishlidir.

Fuqarolik protsessual muomala layoqatining vujudga kelish vaqti jismoniy va yuridik shaxslar uchun turlicha bo'ladi. Yuridik shaxslar uchun huquq va muomala layoqati bir vaqtda vujudga keladi va uning davlat ro'yxatidan o'tgan paytiga to'g'ri keladi (Fuqarolik kodeksining 41, 44-moddalari).

Fuqarolarning protsessual muomala layoqati ham fuqaro voyaga yetgach vujudga keladi. Voyaga yetmagan, ya'ni yoshi o'n to'rt dan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning, shuningdek, muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi. Ammo bu hol voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarni bunday ishlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Ayrim hollarda voyaga yetmagan shaxslar ham fuqarolik protsessual muomala layoqatiga ega bo'ladilar. Masalan, mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Biroq bunday ishlarda voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun sud ularning ota-onalarini, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylarini jalb qilish huquqiga ega bo'ladi. Shuningdek, o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga to'la layoqatli deb e'lon qilingan (emansipatsiya) taqdirda sudda o'z huquqlari va majburiyatlarini shaxsan amalga oshirishi mumkin.

3.3. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlari va ularning tasnifi

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar subyektlari ikki guruhga bo'linadi: ishda ishtirok etuvchi shaxslar; odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning majburiy subyektlari bo'lib sud, da'vo tartibidagi organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar

bo'yicha ishlarda taraflar, shuningdek, alohida tartibda yuritiladigan ishlarda arizachi va manfaatdor shaxslar hisoblanadi.

Sud fuqarolik protsessual huquqiy munosabatning majburiy subyekti hisoblanadi. Davlat hokimiyatining muhim organi sifatida sud odil sudlovni amalga oshiradi, sud protsessiga boshchilik qiladi, sud ishlarini yuritishda eng muhim (ustun) vaziyatni egallaydi. Chunki faqat sudya tomonidan da'vo arizasi qabul qilingan taqdirdagina fuqarolik ishi qo'zg'atiladi, ish yuzasidan muayyan protsessual harakatlar amalga oshiriladi, ish mazmunan hal qilinadi va h.k. Bunday vakolatga ega bo'lmasdan turib sudlar odil sudlovni hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritish oldida turgan vazifalarni bajara olmaydi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlarining keyingi asosiy guruhini ishda ishtirok etuvchi shaxslar tashkil qiladi. Taraflar, uchinchi shaxslar, taraflar va uchinchi shaxslarning vakillari, prokuror, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanadi (FPKning 33-moddasi).

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlarining keyingi guruhini odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar tashkil etadi. Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, yozma va ashyoviy dalillarni saqlovchilar, xolislar, ijro ishlarini yuritishda mol-mulkni saqlovchilar odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar hisoblanadi (FPKning 35-moddasi).

3.4. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatlari

Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining asosiy guruhini ishda ishtirok etuvchi shaxslar tashkil qiladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar quyidagi ikki guruhlariga ajratiladi:

1) o'zining subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar. Ushbu shaxslarga taraflar va uchinchi shaxslar kiritiladi.

2) protsessda boshqa shaxslarning subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar. Mazkur shaxslar qatoriga boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilish vakolatiga ega bo'lgan prokuror va davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar kiritiladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 34-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko'rish davomida tug'iladigan hamma masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug'i ustidan shikoyat qilish, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyruqning majburiy ijrosini talab qilish, sud ijrochisining harakatlari vaqtida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadirlar.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual huquqlardan ham foydalanadilar. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishlari va o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishlari shart.

3.5. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy holati

Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari haqida shuni aytish kerakki, ushbu shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslardan farqli ravishda FPKda ko'rsatilgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqlaridan foydalana olmaydilar. Aynan ular ishning hal etilishidan moddiy manfaatdor bo'lmaganliklari tufayli ham, masalan, taraflarning protsessual huquqlaridan (da'vogarning o'z arzida bayon qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishi, da'vo talablarining miqdorini oshirishi yoki kamaytirishi, ulardan butunlay yoki qisman voz kechishi, javobgarning da'vogar talabini to'liq yoki qisman tan olishi, har ikki tarafning protsessning istalgan bosqichida kelishuv bitimi tuzish orqali ishni yakunlash huquqi shular jumlasidandir) foydalana olmaydilar. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar o'z tushuntirishlarini og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilishga, yozuvlardan foydalanishga haqlidirlar. Qolaversa, ushbu shaxslarning protsessual huquqlardan

foydalanishi protsessda kim sifatida ishtirok etishiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, ekspert ish materiallari bilan tanishish, ishda ishtirok etayotgan shaxslar va guvohlarga savollar berish, joyga borib ko'zdan kechirishda ishtirok etish va ekspert sifatida o'zini qiziqtirayotgan holatlarni aniqlash uchun o'ziga qo'shimcha materiallar berishni soddan iltimos qilishga haqli bo'ladi. Shuningdek, ekspert, basharti o'ziga berilgan materiallar yetarli bo'lmasa yoki o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni bajarish uchun yetarli bilimga ega bo'lmasa, xulosa berishdan bosh tortishi ham mumkin.

Ekspert qilib tayinlangan shaxs sudning chaqiruvi bo'yicha kelishi va o'z oldiga qo'yilgan masalalar yuzasidan xolis xulosa berishi shart. Agar ekspert sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sudning chaqiruvi bo'yicha kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi. Bila turib yolg'on xulosa berganlik, sud uzrsiz deb topgan sababga ko'ra xulosa berishdan bosh tortganlik uchun ekspert O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishincha 238 va 240-moddalari bo'yicha javobgar bo'ladi (FPKning 86-moddasi).

Ishda ishtirok etayotgan mutaxassis esa o'zining nima maqsadda sudga chaqirilayotganini bilish, agar zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarish uchun zarur bilim va malakaga ega bo'lmasa, ishni yuritishda qatnashishdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi. Fuqarolik protsessual qonunchilik mutaxassis zimmasiga ham bir qator majburiyatlarni yuklaydi. Masalan, mutaxassis sudning chaqiruvi bo'yicha kelishi, ishni ko'rishda qatnashishi, fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi bilim va malakasiga asoslanib, o'z fikrini bildirishi shart. Agar mutaxassis sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud chaqiruvi bo'yicha kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin (FPKning 91-moddasi).

Fuqarolik ishlarining ko'rilishida guvohlarning protsessual huquqiy holati o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan, FPKning 69-moddasiga ko'ra, ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi. Guvoh sifatida chaqirilgan shaxs sudga kelishi va to'g'ri ko'rsatuv berishi shart. Bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berganlik, sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra, ko'rsatuv berishni rad etganlik yoki undan bo'yin tovlaganlik uchun guvoh Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalariga muvofiq javobgar bo'ladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning o'ziga xos belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun nimalar asos bo'ladi?
4. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlari necha guruhga bo'linadi?
5. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar deganda kimlar nazarda tutiladi?
6. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanday protsessual huquq va majburiyatlari mavjud?
7. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar deganda kimlar nazarda tutiladi?
8. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning qanday protsessual huquq va majburiyatlari mavjud?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *M. M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
6. *E. E. Egamberdiyev*. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. T., «Adolat», 2000.
7. *U. Habiljonov*. Fuqarolik protsessida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari. T., 2009.

4-bob. FUQAROLIK PROTSCESSIDA TARAFLAR

4.1. Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi va ularning protsessual huquq va majburiyatlari

FPKning 39-moddasi birinchi qismiga binoan, da'vogar va javobgar fuqarolik protsessining taraflaridir. Demak, fuqarolik protsessida ikki taraf: da'vogar va javobgar ishtirok etadi.

Da'vogar deganda, o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxsga aytiladi.

Mazkur ta'rif da'vogarining fuqarolik protsessidagi ishtirokining ikki shakli mavjudligini ko'rsatadi: *birinchidan*, da'vogar deganda, o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan shaxs tushunilsa, *ikkinchidan*, da'vogar deb boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qiluvchi shaxslarning arizasiga ko'ra, ish qo'zg'atilgan shaxs tushuniladi.

Fuqarolik protsessining ikkinchi tarafi javobgar hisoblanadi. Javobgar da'vogar talabiga muvofiq sud tomonidan da'vogarining buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari yuzasidan javob berish uchun jalb etilgan shaxsdir. Da'vogarining fikricha, javobgar bu uning subyektiv huquqlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini buzgan shaxs hisoblanadi.

Shunday qilib, da'vogar va javobgar nizoli huquqiy munosabat subyektlari hisoblanib, ularning protsessual manfaatlari bir-biri bilan zid. Sud hal qiluv qarori ham, birinchi navbatda, ularga nisbatan tatbiq etiladi. Taraflar zimmasiga sud xarajatlarini to'lash majburiyati yuklatiladi.

Taraflarning protsessual huquqlari Umumiy va Maxsus huquqlarga ajratiladi. FPKning 34-moddasida hamda boshqa moddalarda nazarda tutilgan va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ham foydalanishi mumkin bo'lgan huquqlar taraflarning umumiy huquqlari hisoblanadi. FPKning 40-moddasi va boshqa moddalarda

nazarda tutilgan hamda faqat taraflargina foydalanishi mumkin bo'lgan huquqlar maxsus huquqlar sanaladi. Taraflarning maxsus huquqlari sifatida da'vogarning da'vo asosini yoki predmetini o'zgartirishga, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirishga yoxud da'vodan voz kechishga bo'lgan huquqini, javobgarning esa da'voga qarshi e'tiroz bildirish, qarshi da'vo taqdim etish yoki da'voga iqror bo'lish kabi huquqlarini ko'rsatish mumkin. Undan tashqari, taraflar jarayonning har qanday bosqichida ishni kelishuv bitimi bilan tamomlashlari mumkin (FPKning 40-moddasi).

Fuqarolik protsessida taraflar teng protsessual huquqlardan foydalanadilar. Taraflar o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan vijdonan, insofli ravishda foydalanishga majburlar. Jarayonni cho'zish yoki buzish maqsadida har qanday g'ayri-qonuniy harakatlar qilinishiga sud yo'l qo'ymaydi.

Taraflarning protsessual huquqlari ularning protsessual majburiyatlari bilan bog'liq. Taraflar protsessual majburiyatlarini sidqidildan bajarishlari lozim. Har bir taraf o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashi shart (FPKning 56-moddasi).

Taraflar ish yuritilayotgan vaqtda o'z manzili o'zgargani haqida sudga ma'lum qilishlari shart (FPKning 138-moddasi), ular qonunda nazarda tutilgan sud xarajatlari va qonunda nazarda tutilgan boshqa bir qator majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar.

Protsessual huquqlardan noto'g'ri foydalanish yoki protsessual majburiyatlarni bajarmaslik taraflar uchun salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi (masalan, da'vo arizasining harakatsiz qoldirilishi, ariza berilmagan deb topilib, da'vogarga qaytarilishi, arizani ko'rmasdan qoldirish, ishning keyinga qoldirilishi, ishni sirdan ko'rib chiqish va h.k.).

4.2. Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etish va uning turlari

Protsessda birgalikda ishtirok etish deb, muayyan fuqarolik ishining sudda ko'rilishida har ikki tarafdin ham bir necha da'vogarlar yoki bir necha javobgarlar ishtirok etishiga aytiladi.

Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etishning asosiy maqsadi sud tomonidan fuqarolik ishlarining ko'rilishini yengillashtirish, fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tez va samarali himoya qilishdan iboratdir.

Aynan sherik ishtirokchilik institutining uchinchi shaxslardan va ishga daxldor bo'lmagan taraflardan farqi sherik ishtirokchilar o'rtasida manfaatdorlik borasida o'zaro qarama-qarshilikning bo'lmashligi, ular talab va e'tirozlarining bir xilda ekanligidadir. Ushbu xususiyatlar protsessda birgalikda ishtirok etishga yo'l qo'yishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Protsessual-huquqiy mezonlarga ko'ra, ishtirokchilik quyidagi uch turga ajratiladi:

- *faol sherik ishtirokchilik* — da'vogar tarafdin bir vaqtning o'zida bir necha shaxslarning ishtirokiga aytiladi;

- *faol bo'lmagan ishtirokchilik* — javobgar tomonida bir vaqtning o'zida bir necha shaxslarning ishtirokiga aytiladi;

- *aralash sherik ishtirokchilik* — bir vaqtning o'zida da'vogar va javobgar tarafdin bir necha shaxslarning ishtirok etishiga aytiladi¹.

Nizoli huquqiy munosabat subyektlari o'rtasidagi moddiy-huquqiy aloqalar ularning xarakteriga bog'liq ravishda quyidagi ikki turga ajratiladi:

- majburiy sherik ishtirokchilik;
- nomajburiy sherik ishtirokchilik.

Majburiy sherik ishtirokchilik protsessda bir necha da'vogar va bir necha javobgarining ishtiroki hisoblanib, ulardan biri mavjud bo'lmagan taqdirda fuqarolik ishini hal qilish imkoni bo'lmaydi. Mazkur ishtirokchilik subyektlari ko'p bo'lgan nizoli moddiy-huquqiy munosabatlarning xususiyatlari bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, orderni haqiqiy emas, deb tan olish haqidagi da'vo bo'yicha javobgarlar sifatida oilaning barcha a'zolari jalb etilishi lozim; umumiy mulkdan ulushni ajratish yoki bo'lish haqidagi da'voni barcha mulkdorlarning ishtirokisiz ko'rib chiqish mumkin emas, merosga doir huquq yoxud merosni haqiqiy emas, deb tan olish haqidagi talab qonun bo'yicha barcha merosxo'rlar ishtirokida ko'rib chiqilishi lozim va h.k.

Agarda bir nechta da'vogar yoki bir da'vogarning bir nechta javobgarlarga nisbatan ilgari surilgan talablari bir-biridan mustaqil ravishda alohida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lsa, bunday ishtirokchilik nomajburiy hisoblanadi. Masalan, ota-onalarning bolalarga

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 60-bet; *M.M. Mamasiddiqov.* Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. O. Oqyulov. T., TDYI, 2010, 117-bet.

nisbatan alimant undirish haqidagi da'volari birgalikda (bir ishda), bolalarning har biriga alohida yoki barchasiga bir paytda berilishi mumkin.

Nomajburiy ishtirokchilik ishtirokchilar o'rtasidagi moddiy-huquqiy aloqa bo'lgan-bo'lmaganidan qat'i nazar, mavjud bo'ladi. Bunda maqsadga muvofiqlik hisobga olinadi (masalan, ulush majburiyatlardan hamda bir xil talablardan tashkil topgan da'volar bo'yicha).

Sherik ishtirokchilar protsessda taraflarning huquqlaridan foydalanadilar va majburiyatlarga ega bo'ladilar (FPKning 34, 40-moddalari). Da'vogarlar va javobgarlardan har biri boshqa tarafga nisbatan protsessda mustaqil ravishda ishtirok etadi va boshqa ishtirokchilarga tobe bo'lmaydi, masalan, u da'voni tan olish yoki uni rad etish borasida mustaqil qarorga kelishi mumkin. Birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishlari ham mumkin (FPK 41-moddasi). Mazkur qoida sud va taraflarning vaqtini tejashda ahamiyatli hisoblanadi.

4.3. Ishga daxldor bo'lmagan taraflar tushunchasi va ularni almashtirish tartibi

Ba'zan ishni sudda ko'rishga tayyorlash davomida yoki sudda ish ko'rish jarayonida u yoki bu tomon yoki har ikki tomon ham nizoli huquqiy munosabatning subyekti emasligi aniqlanishi mumkin. Bunday holatda ushbu taraflar ishga daxldor bo'lmagan shaxslar, deb topiladi.

Sud arz qilingan talab uni ilgari surish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan taqdim etilganligini yoki da'vogarning arizasi bo'yicha javob berishi lozim bo'lmagan shaxsga nisbatan taqdim etilganligini aniqlasa, da'vogarning roziligi bilan dastlabki da'vogar yoki javobgar ishga daxldor da'vogar yoki javobgar bilan almash-tirilishiga yo'l qo'yishi mumkin (FPKning 42-moddasi).

Ish holatlariga ko'ra, qaysi shaxsga nisbatan aynan u nizoli huquqiy munosabatlarning subyekti deb topilgan bo'lsa, ushbu shaxs daxldor bo'lgan taraf deb ataladi. Shunday qilib, taraflarning ishga daxldor bo'lish yoki bo'lmashligi haqidagi masala nizoli huquqiy munosabat subyektlarining tarkibiga bog'liq bo'ladi.

FPKning 42-moddasiga binoan, birinchi instansiya sudi da'vogarning roziligi bilan ishga daxldor bo'lmagan javobgarning almash-tirilishiga yo'l qo'yadi. Bundan kelib chiqadiki, sud da'vogar rozi bo'lgandagina ishga daxldor bo'lmagan javobgarni daxldor bo'lgan javobgar bilan almashtirishi mumkin. Agar da'vogar javobgarning

boshqa shaxs bilan almashtirilishiga rozi bo'lmasa, sud bu shaxsni ikkinchi javobgar sifatida ishga jalb qilishga haqli.

Ishga daxli bo'lmagan tarafni almashtirish sudning ajrimiga ko'ra amalga oshiriladi. Taraf almashtirilganidan yoki nizo predmeti yuzasidan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs ishga kirishganidan yoxud ikkinchi javobgar jalb qilinganidan keyin ishni ko'rish yangidan boshlanadi (FPKning 42-moddasi, beshinchi qismi). Chunki protsessda daxldor bo'lmagan javobgar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar ishga jalb etilgan daxldor bo'lgan javobgar uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi va uning uchun hech qanday huquq-majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi. Bunday holda daxldor bo'lgan javobgarning ishtirokida yangi protsessual huquqiy munosabat yuzaga keladi.

4.4. Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi, asoslari va protsessga kirishish tartibi

Protsessual huquqiy vorislik deganda, nizoli yoki sud qarori bilan belgilangan huquqiy munosabatlardan taraflardan birining protsessdan chiqib ketishi sababli taraf yoki uchinchi shaxsni boshqa shaxs (huquqiy voris) bilan almashtirish tushuniladi.

Protsessual ma'noda huquqning qabul qilinishi (huquqiy vorislik) — suda da'vo predmeti bo'lgan moddiy huquqning qabul qilinishi munosabati bilan ro'y beradi.

Nizoli yoki sudning hal qiluv qarori bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan taraflarning biri, uchinchi shaxs yoki ularning qonuniy vakili chiqib ketgan taqdirda (fuqaroning o'limi, yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, boshqa shaxs foydasiga talabdan voz kechish, qarzning boshqa shaxsга o'tkazilishi va h.k.) sud bu shaxslar ularning huquqiy vorislari bilan almashtirilishiga yo'l qo'yadi (FPKning 43-moddasi).

Huquqiy vorislik protsessning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Huquqiy vorisning protsessga kirishganligi haqida sud ajrim chiqaradi va mazkur ajrim ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Huquqiy vorisning protsessga kirishini rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat berish yoki unga nisbatan xususiy protest keltirish mumkin. Chunki FPKning 346-moddasiga muvofiq, sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qiladigan hollarda, sud tomonidan ajrim topshirilgan kundan e'tiboran, o'n kun ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa

shaxslar apellatsiya instansiyasi sudiga sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat berishlari, prokuror esa, protest keltirishi mumkinligi belgilangan.

Protsessual huquqning qabul qilinishi hollarida ishda ishtirok etish uchun yangi da'vogar yoki javobgar jalb etilishiga qadar fuqarolik ishining ko'rilishi vaqtincha to'xtatiladi. Protsessga kirayotgan huquqiy voris o'z vorisligini asoslab berishi talab etiladi. Masalan, meros huquqi haqidagi guvohnoma, yuridik shaxsning qayta tashkil qilinganligi to'g'risidagi hujjat, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilganligi yoki boshqa shaxs foydasiga talabdan voz kechilganligi haqidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim.

Huquqiy voris protsessga kirishguniga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o'rmini bo'shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, huquqiy vorisga ham shu darajada majburiydir (FPKning 42-moddasi, ikkinchi qismi).



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik protsessida taraflar sifatida kimlar e'tirof etiladi va ularga ta'rif bering.
2. Taraflarning qanday protsessual huquq va majburiyatlari bor?
3. Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etish deganda nimani tushunasiz?
4. Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etishga qaysi hollarda yo'l qo'yiladi?
5. Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etishning turlari haqida gapiring.
6. Ishga daxldor bo'lmagan taraf deganda nima tushuniladi?
7. Ishga daxldor bo'lmagan tarafni almashtirish tartibi haqida gapiring.
8. Protsessual huquqiy vorislik deganda nimani tushunasiz?
9. Protsessual huquqiy vorislikning ishga daxldor bo'lmagan tarafni almashtirish bilan farqli jihatlari nimada?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *M.M. Mamasiddiqov.* Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
6. *U. Habiljonov.* Fuqarolik protsessida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari. T., 2009.

5-bob. FUQAROLIK PROTSESSIDA UCHINCHI SHAXSLARNING ISHTIROKI

5.1. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasi va ularning turlari

Fuqarolik protsessida shunday shaxslar ham borki, ular boshqa shaxslar tomonidan boshlangan jarayonga kirib keladilar va fuqarolik-huquqiy nizolarning hal etilishidan taraflar kabi manfaatdor bo'ladilar. Da'vogar va javobgarga nisbatan ushbu shaxslar (hisob bo'yicha) uchinchi shaxslar deb e'tirof etiladi va shuning uchun ham ushbu shaxslar fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar deb nomlanadi¹.

FPKning 33-moddasiga muvofiq, uchinchi shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibiga kiradi. Uchinchi shaxslar fuqarolik protsessida taraflarga tenglashtiriladi.

Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar ishning hal etilishidan qanday mazmunda manfaatdor ekanliklari hamda ish yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarori bilan qanday oqibatlar yuzaga kelishiga qarab, quyidagi ikki turga ajratiladi:

- 1) mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar;
- 2) mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

Uchinchi shaxslar boshqa shaxslar tomonidan boshlangan protsessga kirishib, ish yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarori ma'lum darajada ularning fuqarolik moddiy huquqlariga ta'sir etib, ishning sudda hal etilishi natijasida ularga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlar vujudga keladigan shaxslar hisoblanadi.

5.2. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar

FPKning 44-moddasiga asosan nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar ishga kirishishlari mumkin. Ular

¹ *M.M. Mamasiddiqov*. Mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishda uchinchi shaxslar ishtiroki. «Xo'jalik va huquq» jurnali, 2000, № 7, 28—32-bet.

da'vogarning hamma huquqlaridan foydalanadilar va uning hamma majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar. Xususan, uchinchi shaxslar o'z arzida bayon qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga, ulardan butunlay yoki qisman voz kechishga haqli.

Undan tashqari, protsessning istalgan bosqichida kelishuv bitimi tuzish orqali ishni yakunlashga haqlidirlar. Mazkur shaxslarning da'vogarlardan birgina farqi mavjud bo'lib, u ham bo'lsa, protsessga kirishish vaqtida namoyon bo'ladi.

Uchinchi shaxsning nizo predmetiga o'zining mustaqil haqqi borligini bildirishi uning mustaqil da'vo bilan protsessda ishtirok qilishi uchun asos bo'ladi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning protsessda ishtiroki quyidagi hollarda yuz beradi:

a) agar da'vogar protsessda o'zining boshqa shaxs bilan almashirilishiga rozi bo'lmasa, bu shaxs nizo predmeti yuzasidan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida ishga kirishishga haqli bo'ladi (FPKning 42-moddasi, ikkinchi qismi);

b) sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar nizoning predmetiga nisbatan o'zlarining mustaqil talablari bilan arz qilib kirib keladilar (FPKning 44-moddasi).

Yuqoridagi ikki holatda ham uchinchi shaxslar da'vo taqdim etishning barcha talablariga rioya qilishi lozim bo'ladi. Uchinchi shaxsning ishga kirishishi umumiy asoslarga (FPKning 148—150-moddalariga) binoan, sudga ariza berish bilan qo'zg'atiladi. Ushbu shaxslar o'z arizasiga tegishli hujjatlarni ilova qilishi, arizani taraflarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan berishi, agar davlat bojini to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, tegishli bojni to'lashi lozim bo'ladi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning ishga kirib kelishlari protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga nisbatan ham huquqiy oqibat keltirib chiqaradi. Mazkur shaxslar da'vogarlar bilan bir xilda huquqiy maqomga ega bo'lganliklari sababli ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi talab etiladi. Masalan, agar uchinchi shaxs sud majlisi boshlanganidan keyin protsessga kirishadigan bo'lsa, ishni ko'rish yangidan boshlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar, yanada aniqlashtiriladigan bo'lsa, sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) kirgungiga qadar ishga kirishishlari mumkin.

Ishga uchinchi shaxsning kirishishi haqidagi masalani hal qilar ekan, sudya bu haqda ajrim qabul qiladi. FPKning 346-moddasi mazmunidan kelib chiqib, protsessda uchinchi shaxsning ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi to'g'risida sudyaning chiqargan ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun uning ustidan shikoyat berilmaydi. Uchinchi shaxsning ishda ishtirok etishi to'g'risidagi iltimosini rad qilish to'g'risidagi ajrim ustidan esa shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi mumkin.

5.3. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar

Uchinchi shaxslarning navbatdagi turiga oid normalar FPK ning 45-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish bo'yicha chiqariladigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlariga ta'sir etadigan bo'lsa, sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar da'vogar yoki javobgar tomonida ishga kirishishlari mumkin. Shuningdek, ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoki sudning tashabbusi bilan ishda ishtirok etishga jalb qilinishlari mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, uchinchi shaxslarning mazkur turi, birinchidan, shartli ravishda taraflarning biri (da'vogar yoki javobgar) tomonida turib ishtirok etadi. Ikkinchidan, ular o'rtasidagi huquqiy munosabat sud muhokamasining predmeti bo'lmaydi. Uchinchidan, ish bo'yicha chiqariladigan hal qiluv qarori uchinchi shaxslarning taraflardan biriga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlariga ta'sir etadi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalb qilish (kiritish)ning yuridik asoslaridan biri regress huquqining ro'y berishi hisoblanadi. Undan tashqari, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalb

qilish har doim ham uning regress huquqi bilan bog'liq bo'lavermaydi. Masalan, agar bolalar ta'minoti uchun aliment undirish haqida da'vo taqdim etilgan bo'lib, javobgar boshqa nikohdan tug'ilgan farzandlariga aliment to'layotganligi aniqlansa, u holda foydasiga aliment undirilayotgan manfaatdor shaxslar javobgar tomonida turib ishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxs sifatida jalb etilishi lozim. Mazkur holatda uchinchi shaxsning regress huquqi yuzaga kelmasa-da, biroq agar da'vo talabi qanoatlantirilgudek bo'lsa, bu hol boshqa nikohda bo'lgan farzandlarga to'lanayotgan aliment miqdoriga, ya'ni uchinchi shaxsning manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar tarafdarning protsessual huquqlaridan foydalanadilar va ularning protsessual majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar. Biroq arz qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, ulardan voz kechish kabi huquqlardan foydalana olmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar FPKning 34-moddasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanadilar. Nizo predmetiga mustaqil da'vo qilmaydigan uchinchi shaxslar nizoli moddiy huquqiy munosabatlar subyekti bo'lmaganligi sababli ularga qarshi da'vo qilinmaydi hamda ular ham qarshi da'vo taqdim eta olmaydi.

Agar mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi oqibatida da'vogarning huquqlari buzilganligi to'g'risida arz qilingan talablarni tan olsa, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishga haqli. Aynan shunday hollarda, da'vogor va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi tuzilishiga yo'l qo'yiladi (FPKning 45-moddasi, uchinchi qismi).

5.4. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning sherik da'vogarlardan farqi

Sherik da'vogorlar sudga birgalikda da'vo taqdim etishlari yoki boshqa da'vogor tomonidan boshlangan protsessga kirishishi mumkin. Uchinchi shaxs esa faqat boshlangan protsessga kirishadi. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxsning sherik da'vogarlardan muhim farqlanuvchi jihatlaridan biri ular manfaatining o'zaro qarama-qarshiligidadir.

Zero, uchinchi shaxsning ham, da'vogarning ham da'vo predmeti bir xilda bo'ladi va sud ularning yoki javobgarning manfaatlarini himoya qiluvchi hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxsning da'vosi bo'yicha dastlabki da'vogar va javobgar ishda javobgarning holatini egallaydi.

5.5. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarning sudda ishtirok etish xususiyatlari

Ish beruvchilarning hamda xodimlarning mehnatga oid huquqlarini, shuningdek, jamoatchilik manfaatini himoya qilish uchun sud boshqa shaxslarning iltimosiz, o'z tashabbusi bilan ishda ishtirok etish uchun korxonaning mansabdor shaxsini jalb qilish va uning zimmasiga xodimga majburiy bekor yurgan vaqti uchun ish haqi to'lashi munosabati bilan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklashi mumkin. FPKning 259-moddasida mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan yoki noqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimlarni avvalgi ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga yoki boshqa ishga o'tkazishga farmoyish bergan mansabdor shaxsni uchinchi shaxs sifatida ishda ishtirok etish uchun javobgar tomonidan jalb qilishi shartligi o'z ifodasini topgan.

Ushbu qoidaning kiritilishidan ko'zlangan maqsad mehnat shartnomasining bekor qilinishi yoki boshqa ishga o'tkazish ochiqdan ochiq qonunga xilof bo'lganligini aniqlagan sud shu protsessning o'zidayoq, mansabdor shaxs zimmasiga majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ish berilgan vaqt uchun xodimga ish haqi to'lash natijasida ish beruvchiga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash majburiyatini yuklashdan iboratdir.

Mansabdor shaxs ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zarar uchun mehnat qonunchiligida belgilangan o'zining uch oylik ish haqi miqdorida javobgar bo'ladi (MKning 274-moddasi). Shu o'rinda nima uchun mansabdor shaxsning moddiy javobgarligi qonunda chegaralab qo'yilgan savoli tug'iladi. Adabiyotlarda mansabdor shaxslarning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligining chegarasi ushbu javobgarlikning maqsadidan kelib chiqishi va mansabdor shaxslarning moddiy javobgarligi ko'proq tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishdan iborat bo'lishi ta'kidlanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar deganda kimlar tushuniladi va ularning qanday turlari mavjud?
2. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar ishtirok etishining ahamiyati nimada?
3. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar kimlar va ularning ishga kirishish asoslari haqida gapiring.
4. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning qanday protsessual huquq va majburiyatlari bor?
5. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning sherik da'vo-garlardan farqi nimada?
6. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar deganda nimani tushunasiz?
7. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni ishga jalb qilish (kirishish)ning qanday asoslari mavjud?
8. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning qanday protsessual huquq va majburiyatlari bor?
9. Uchinchi shaxslarning umumiy jihatlari va o'zaro farqlari nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarning sud-da ishtirok etishning qanday xususiyatlarini bilasiz?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
7. *M.M. Mamasiddiqov*. Mehnatga oid nizoli ishlarni sud-da ko'rishda uchinchi shaxslar ishtiroki. «Xo'jalik va huquq» jurnali, 2000, № 7.

6-bob. FUQAROLIK PROTSESSIDA PROKUROR ISHTIROKI

6.1. Prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari

Fuqarolik ishlarining ko'rilishida prokuror o'z vakolatini quyidagi to'rt usulda amalga oshiradi:

1) boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish;

2) boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda boshidan ishtirok etish;

3) o'zi ishtirok etgan va etmagan fuqarolik ishlari yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarori ustidan apellatsiya, kassatsiya protestlarini keltirish va ishlarning apellatsiya, kassatsiya tartibida ko'rib chiqilishida ishtirok etish;

4) qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari ustidan nazorat protesti keltirish va ishning nazorat tartibida qayta ko'rilishida ishtirok etish¹.

Fuqarolik protsessual qonunchilik prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etishining quyidagi uch asosini belgilaydi:

1) qonunda nazarda tutilgan hollarda;

2) sud ishda prokurorning qatnashishini zarur deb topgan hollarda;

3) prokurorning arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlarda (FPKning 46-moddasi, ikkinchi qismi).

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 11-maydagi «Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish to'g'risida»gi 22-sonli buyrug'ida ham prokurorning fuqarolik ishlarida ishtirok etishi shart bo'lgan holatlar bayon etilgan.

¹ *M.M. Mamasiddiqov, M.X. Karimov.* Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki: qonunchilikdagi yutuqlar va ayrim muammolar xususida. «Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining yangicha asoslarda shakllanishi: yutuqlar va muammolar» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2007-yil 29-noyabr). T., TDYI, 2007, 112—117-betlar.

Mamlakatimizning ko'plab qonunlarida prokurorning fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilib, sudga murojaat qilish huquqi mustahkamlab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Mehnat kodeksining 9-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat to'g'risidagi qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat olib borish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'yisunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur kodeksning «Mehnat nizosini ko'rishni so'rab sudga murojaat qilish huquqi» deb nomlangan 268-moddasiga ko'ra, prokuror xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi, mehnatning huquq bo'yicha inspektori hamda ish beruvchi bilan bir qatorda, mehnat nizosini ko'rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Oila kodeksining 51-moddasiga ko'ra esa, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas, deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning otanasi yoki homiysi, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Shuningdek, prokuror nikohni haqiqiy emas, deb topishni talab qilib sudga murojaat qilishga haqli bo'ladi. Prokuror muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi ishni sud vasiylik va homiylik organi hamda prokurorning ishtirokida ko'rib chiqadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar prokurorning da'vosiga binoan ham ko'riladi. Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar prokuror ishtirokida ko'rib chiqiladi. Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlarni ko'rishda ota-ona (ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqda prokurorga xabar berishi shartligi oila qonunchiligida o'z ifodasini topgan¹.

Prokurorning ishda ishtirok etish asoslari boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolardan ajralib turadi. Masalan, yuqorida qayd etilgan davlat boshqaruv organlari boshqa shaxslarning huquq

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008.

va qonuniy manfaatlarini himoya qilib, faqatgina qonunda ko'rsatilgan hollardagina sudda da'vo qo'zg'ata oladilar. Prokuror esa boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega bo'ladi (FPKning 46-moddasi).

Undan tashqari, davlat boshqaruv organlari protsessga qonunda ko'rsatilgan hollarda o'z vakolatlari doirasida ish yuzasidan xulosa berish maqsadida jalb qilinishlari yoki sud tashabbusi bilan kirib kelishlari mumkin. Prokuror esa boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda ishning mohiyati bo'yicha o'z fikrini bayon etish maqsadida boshidan ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Fuqarolik protsessida prokuror suddagi vakildan ham ajralib turadi. Prokuror kimningdir «shaxsiy» manfaatlarini himoya qiluvchi vakil bo'lib emas, balki qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori vakolatlarini ta'minlab, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilib ishtirok etadi. Boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilib ish qo'zg'atar ekan, prokurorga boshqa shaxslar tomonidan vakolatlar berilishi talab etilmaydi, u da'voni o'z nomidan taqdim etib, o'z harakatlari faqat qonunga asoslangan holda olib boradi.

6.2. Prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etish shakllari

Prokuror birinchi instansiya sudlarida quyidagi ikki shaklda ishtirok etadi:

- boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish;

- boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda boshidan ishtirok etish (FPKning 46-moddasi, birinchi qismi).

Prokurorning boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etishi hamda boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda boshidan ishtirok etishi uning birinchi instansiya sudida ishtirok etish shakli sifatida e'tirof etiladi. Prokuror boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat qilgan taqdirda, da'vo arizasi uchun davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi,

da'vogarning roziligi bilan o'zi arz qilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirish yoxud kamaytirish, o'z arizasidan voz kechish kabi huquqqa ega bo'ladi.

Prokuror fuqarolik protsessining ikkinchi shaklida, ya'ni boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishni ko'rishda fikr berish maqsadida boshidan ishtirok etgan taqdirda esa, da'vodan voz kechish, da'vo talablarining asosi yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirish yoxud kamaytirish kabi huquqlardan foydalana olmaydi.

Prokurorlar qaysi shaklda ishtirok etishidan qat'i nazar, FPKning 34-moddasida nazarda tutilgan protsessual huquqlardan, ya'ni ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko'rish davomida tug'iladigan hamma masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug'i ustidan shikoyat qilish, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyruqning majburiy ijrosini talab qilish, sud ijrochisining harakatlari vaqtida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

6.3. Prokurorning fuqarolik protsessidagi huquq va majburiyatlari

Prokuror FPKning 5-moddasiga muvofiq, o'z tashabbusi bilan ishga kirishishidan tashqari, sud tashabbusi (qarori) bo'yicha ham, shuningdek, qonunning maxsus, to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmasiga binoan ham ishga jalb qilinishi mumkin. Fuqarolik jarayonida qonunchilikka rioya qilinishi yuzasidan va odil sudlovni amalga oshirishda sudga ko'maklashish maqsadida prokuror qator protsessual huquqlardan foydalanadi. Uning bu huquqlari FPKning 34, 46, 47 va boshqa moddalarida belgilangan.

Prokuror boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etishga, jarayonning boshlanishida qo'zg'atilgan ishga

kirishishga, ish materiallari bilan tanishishga, ulardan ko'chirmalar va nusxalar olishga, chetlatish to'g'risida arz bildirishga, dalillar taqdim etishga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga, da'vogar, javobgarlarga va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxslarga savollar berishga, dalillarning tekshirilishida ishtirok etishga, iltimoslar qilishga, sudga og'zaki va yozma bayonotlar berishga, ish mazmuni bo'yicha, shuningdek, ishni ko'rish vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo'yicha sudga yozma va og'zaki xulosa berishga, vaj va mulohazalarni bayon qilishga, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimos, vaj va mulohazalariga qarshi e'tirozlar bildirishga, sud majlisi bayoni bilan tanishishga, bayonga izohlar berishga, sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan kassatsiya protestini bildirishga va kassatsiya instansiya ishga oid yangi materiallar topshirishga, kassatsiya instansiyada fikrlarni berishga, protestni quvvatlashga, protestni qaytib olishga, hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari qonuniy kuchga kirgan ishlarni nazorat tartibida ko'rish uchun talab qilib olishga, ishning nazorat tartibida ko'rilishida prokurorning protestini quvvatlashga, sud raislari tomonidan keltirilgan protestlar yuzasidan xulosa berishga, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlarini, ajrimlar va qarorlarni yangidan ochilgan holatlar bo'yicha qaytadan ko'rish to'g'risida iltimoslar qilishga, sud ijrochisining va qarorlarni ijro etuvchi boshqa organlarning noto'g'ri harakatlarni protest qilishga, shuningdek, FPKning 19, 310, 330, 346, 349, 351, 364-moddalari va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun bo'yicha berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanishga haqlidir¹.

Prokurorni ishda ishtirok etuvchi taraflardan farqlovchi yana bir jihati, ular tomonidan foydalaniladigan protsessual huquq va majburiyatlar hajmining o'zaro muvofiq kelmasligidadir. Prokuror fuqarolik protsessi ishtirokchisi sifatida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasidan kelib chiqib, taraflar foydalana olmaydigan ayrim protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Prokuror o'z arizasida ilgari surilgan talablarni asosli ekanligini isbotlashi shartligi shular jumlasidandir.

Prokuror fuqarolik protsessida ishtirok etar ekan, protsessning ayrim ishtirokchilari foydalana olmaydigan protsessual huquqlardan

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 75-bet.

foydalanadi. Prokurorlar ularning ishtiroki bilan ko‘riladigan fuqarolik ishlari yuzasidan sud majlisi boshlangunga qadar nizoga oid huquqiy-normativ hujjatlar hamda ish materiallarini o‘rganib chiqish vakolatiga ega bo‘lishlari shular jumlasidandir.

Prokuror ish materiallari bilan tanishish jarayonida, avvalo, mazkur ishning sudga taalluqli bo‘lishi masalasiga, boshqa shaxs nomidan arizani bergan shaxsning bu haqda qonuniy vakolatga ega ekanligi, da‘vogar tomonidan davlat boji to‘langanligi, nizo bo‘yicha javobgar to‘g‘ri jalb qilinganligi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, xususan, uchinchi shaxslarning sud majlisiga to‘liq jalb etilganligi kabi nizoning qonuniy hal etilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarga alohida e‘tibor berishi talab etiladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Prokuorning fuqarolik protsessida vazifalari nimalardan iborat?
2. O‘zbekiston Respublikasi «Prokuratura to‘g‘risida»gi (yangi tahriri) Qonunining o‘ziga xos jihatlari nimada?
3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 11-maydagi «Sudlarda fuqarolik ishlari ko‘rilishida prokuror ishtirokining samaradorligi va ta‘sirchanligini oshirish to‘g‘risida»gi 22-buyrug‘ining ahamiyati haqida gapiring.
4. Prokuorning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari nimalardan iborat?
5. Prokuorning fuqarolik protsessida ishtirok etish shakllari haqida gapiring.
6. Prokuorning fuqarolik protsessida qanday huquq va majburiyatlari mavjud?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O‘zbekiston», 2009.
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008.
5. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., «Adolat», 2005.
6. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T., «Adolat», 2008.
7. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007, № 52, (I).
8. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 1–2, 10-modda.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9–10, 168-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarni ijro etish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 169-modda.
11. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari to'plami. T., 2005.
12. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
13. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
14. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
15. *M.M. Mamasiddiqov, D.Y. Habibullayev*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. (Sxema va jadvallar). O'quv-uslubiy qo'llanma. T., TDYI, 2006.
16. *M.M. Mamasiddiqov, M. Karimov*. Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki. O'quv-amaliy qo'llanma. (Prof. Sh.Sh. Shorahmetov tahriri ostida). T., AQHMI, 2008.

7-bob. FUQAROLIK PROTSESSIDA BOSHQA SHAXSLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI, TASHKILOTLAR VA AYRIM FUQAROLARNING ISHTIROKI

7.1. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirokining ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi huquqiy jihatdan kafolatlab qo'yilgan. Shuningdek, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai bo'lib, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidan amalga oshiriladi (7-modda)¹.

Davlat hokimiyati fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, Konstitutsiyada nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirar ekan, yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu vazifani qonun bilan vakolatlar berilgan idoralari orqali amalga oshiradi. Aytish mumkinki, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda davlat organlarining o'z zimmalariga yuklatilgan Konstitutsiyaviy vazifalarni amalga oshirishning muhim usullaridan biri sudda boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilib ishtirok etishidir.

Shuning uchun ham boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining fuqarolik protsessida ishtirok etishini demokratiyaning tantanasi yoki muhim ko'rinishi deb baholashimiz mumkin. Shu ma'noda boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishininig ahamiyati beqiyos.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009, 4-bet.

Sudlarda ishtirok etish orqali davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar amalda qonunlarning ijrosini, ya'ni qonunlarning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladilar. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining fuqarolik protsessida ishtirok etishining yana muhim ahamiyatga ega bo'lgan tomoni shundan iboratki, ushbu organlar o'z ishtiroklari orqali, ish yuzasidan xolisona o'z xulosalarini berish bilan ishi bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlarining chiqarilishida sudlarga ko'maklashadilar.

7.2. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishi asoslari va shakllari

FPKning 48-moddasi tartibida fuqarolik protsessida asosan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirok etadilar. Mazkur organlar qoidaga muvofiq yuridik shaxs hisoblanadilar va fuqarolik protsessida o'zlarining qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishlari ham mumkin. Misol uchun, tashkilotga nisbatan jismoniy shaxslar tomonidan yetkazilgan zararni undirish haqidagi nizoli ishlar shular jumlasidandir. Bunday ishlarda mazkur organlar nizoli moddiy huquqiy munosabat subyektlari sifatida protsessda da'vogar, javobgar, uchinchi shaxsning huquqiy holatini egallaydilar.

Biroq FPKning 48-moddasiga muvofiq, fuqarolik protsessida mazkur shaxslar boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ishtirok etishlariga yo'l qo'yiladi. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishi, eng avvalo, jamiyat manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi. Mazkur organlarning fuqarolik protsessidagi ishtiroki ko'p jihatdan ularning boshqaruvining muayyan sohasidagi vakolatlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hollarda fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun da'vo taqdim etish yo'li bilan jamoat tashkilotlari, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning vakillari va ayrim fuqarolar ham ishtirok etishlari mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning

o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni 13-moddasiga ko'ra, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ning vakolatlaridan biri sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida, sudda, yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fuqarolarning manfaatlarini ifodalash bayon etiladi¹.

Fuqarolik kodeksining 123-moddasida ko'rsatilganidek, aldash, zo'rlik, qo'rqitish ta'siri ostida yoki bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi tufayli tuzilgan bitim, shuningdek, boshqa ba'zi g'ayriqonuniy bitimlar faqat jabrlangan shaxsning da'vosi bo'yichagina emas, davlat yoki jamoat tashkilotining da'vosi bo'yicha ham qonunda ko'rsatilgan organlarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Biron-bir fuqaroning spirtli ichimliklar yoki narkotik moddalarni suiiste'mol qilishi tufayli muomala layoqatini cheklash to'g'risida yoki ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilishi to'g'risidagi fuqarolik ishi uning oila a'zolari arizasi bo'yicha kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlarining, davolash muassasasining arizasi bo'yicha sudda vasiy, homiy organlarining vakillari ishtirokida ko'rib hal etiladi.

Mualliflik huquqidan kelib chiqadigan nizolarda muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish maqsadlarida sud ishida muallif huquqlarini himoya qilish bo'yicha respublikadagi Agentlikning vakili ishtirok etishi mumkinligi qonunda o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik kodeksining 1054-moddasida muallif vafot etganidan so'ng uning shaxsiy huquqlari himoya qilinishi mualliflar huquqlarini muhofaza qiladigan tashkilotarning da'vosi bo'yicha amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Ba'zi hollarda fuqarolik ishining to'g'ri hal qilinishidan manfaatdor bo'lgan jamoat tashkilotlari ham sudda qatnashishlari mumkin. Chunonchi, kasaba uyushmalari mehnat to'g'risidagi qonunlarga rioya qilish, xodimlarning mehnatga oid va boshqa huquq hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish kabi muhim vazifalarni bajaradilar. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi «Kasaba uyushmalari, huquqlari va ularning

¹ O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1999, № 5, 110-modda.

faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni¹ 11-moddasiga ko'ra, kasaba uyushmalari mehnatkashlarning mehnat huquqlarini himoya qilib, da'vo ariza bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Shu maqsadda kasaba uyushmalari huquqiy yordam xizmatlari va boshqa zarur idoralarga ega bo'lishi mumkin. Xodimlarning vakillik organlari boshqa ishlar bilan bir qatorda, mehnat nizolarini ko'ruvchi organlarda xodimlar manfaatini himoya qilishda qatnashishlari mumkin.

Mehnatga oid ishlarni sudda ko'rishda xodimlarga ishlab chiqarishda yetkazilgan zararlarni undirish va baxtsizlik hodisasining ro'y berishi sabablari to'g'risida xodimlar vakillik organlarining fikr berishi (FPKning 48, 49-moddalari, MKning 259-moddasida) ko'rsatilgan.

Yakka mehnat nizolarini sudda ko'rishda xodim manfaatini ifoda etuvchi taraf sifatida xodimlarning vakillik organi ishtirok etishi qonunda o'z ifodasini topgan.

FPKning 48-moddasi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishining quyidagi shakllarini nazarda tutadi:

- qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish;

- o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish, fuqarolar va davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish yuzasidan xulosalar berish uchun protsessda ishtirok etish.

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik ishini qo'zg'atish huquqiga ega bo'ladilar. Shuning uchun mazkur organlar tomonidan berilgan arizani qabul qilishdan avval sud ushbu fuqarolik ishini qo'zg'atishga mazkur davlat boshqaruvi organlari vakolatli bo'lishi yoki bo'lmasligini tekshiradi.

Shunday qilib, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilib ish qo'zg'atish uchun, nafaqat manfaatdor shaxsda

¹ O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi «Kasaba uyushmalari, huquqlari va ularning faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1992, № 9, 344-modda. O'zbekiston Respublikasi 2001-yil 7-dekabrda 320-II sonli Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2002, № 1, 20-modda.

(da'voga da'vo taqdim etish huquqi), balki sudga murojaat qilayotgan organning o'zida ham mazkur huquqning mavjudligi qonunda nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Agar qonunda davlat boshqaruvi organiga boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab fuqarolik ishini qo'zg'atish huquqi mavjud bo'lmasa, sud arizani qabul qilishni rad etadi (FPKning 152-moddasi). Fuqarolik ishi qo'zg'atilgandan keyin ushbu organlarning sudga murojaat qilish huquqi mavjud emasligi aniqlansa, berilgan ariza sud tomonidan ko'rmasdan qoldiriladi (FPKning 97-moddasi).

Davlat boshqaruvi organi qonunda nazarda tutilgan hollarda, da'voli ishlar bilan bir qatorda alohida tartibda ko'riladigan ishlarni ham qo'zg'atishi e'tirof etiladi. FPK ning 281-moddasiga ko'ra, davlat boshqaruvi organlari alohida tartibda ko'riladigan ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar qatoriga kiritilgan. Aytish mumkinki, FPKning 291, 296-moddalarida fuqaroni muomala layoqatini cheklash yoki uni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar, shuningdek, fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish yoki fuqaroning muomala layoqatini cheklashni olib tashlash to'g'risidagi ishlar homiylik yoki vasiylik organi arizasi bilan qo'zg'atilishi mumkinligi aniq belgilangan.

Shuningdek, mol-mulk (ashyo)ni egasiz deb topish to'g'risidagi ariza moliya organi yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilishi mumkinligi FPKning 298-moddasida o'z ifodasini topgan. Fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan vasiylik va homiylik organlarining murojaat etishi ko'p uchraydi.

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilib, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ham sudga murojaat qilish tartibi va shartlariga rioya qilishi talab etiladi.

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar tomonidan sudga murojaat etish qoidalariga rioya etmaslik ayrim huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Agar ish sudlovlik qoidasiga rioya etilmagan holda qabul qilingan bo'lsa, bu ish boshqa sudga yuborilishi mumkin (FPKning 146-moddasi 4-bandi). Bunday hollarda davlat boshqaruvi organi sudlovlik qoidalariga ko'ra, ishni qabul qilib olgan sudda ishning ko'rilishida ishtirok etishi kerak bo'ladi.

Soliq kodeksining 329-moddasi 10-bandiga muvofiq, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun

bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilinishini soʻrab sudga ariza bilan murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslar umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini toʻlashdan ozod qilinadi¹.

Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida daʼvo arizasi bergan davlat boshqaruvi organlari arz qilingan talablari boʻyicha tushuntirishlar berish yoki ularni asoslash uchun birinchi boʻlib soʻzga chiqadilar (FPKning 181-moddasi).

Davlat boshqaruvi organi vakili, odatda, boshqa shaxslarning manfaatini koʻzlab berilgan arizadagi talablarni qoʻllab-quvvatlaydi. Biroq, uning protsessdagi huquqiy pozitsiyasi manfaatini koʻzlanib, daʼvo qoʻzgʻatilgan shaxsning dastlabki pozitsiyasiga bogʻliq boʻlmaydi. Chunki davlat boshqaruvi organi nomidan harakat qilayotgan vakil qonunga rioya qilishi kerak. Shuning uchun ham sud muhokamasi jarayonida qoʻyilgan talablar toʻla yoki qisman asoslanmaganligi aniqlansa, u daʼvo talablaridan toʻla yoki qisman voz kechishga haqli boʻladi. Biroq, davlat boshqaruvi organi vakilining keltirilgan daʼvodan voz kechishi, manfaatini himoya qilinib ish qoʻzgʻatilgan shaxsni ishni mazmunan koʻrib chiqish talabini qoʻyish huquqidan mahrum etmaydi.

Manfaatini himoya qilinib ish qoʻzgʻatilgan shaxslarning talablari shu protsessning oʻzida hal qilinishi lozim boʻladi. Chunki mazkur shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar qatoriga kirib, ish boshqa shaxslar tomonidan qoʻzgʻatilgan boʻlishiga qaramay, sud manfaatini himoya qilinib ish qoʻzgʻatilgan shaxslarni ishda ishtirok etish uchun, albatta, jalb etadi. FPKning 49-moddasiga koʻra, koʻrsatilgan organlar, tashkilotlar va fuqarolarning boshqa shaxsning huquqlari va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga bergan oʻz arizalaridan voz kechishlari ana shu shaxsni FPKning 104-moddasi talablariga rioya qilgan holda ishni mazmunan koʻrib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilib davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishtirok etishining ikkinchi shakli oʻz zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish, fuqarolar va davlatning huquqlari hamda qonun

¹ Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami. 2007, № 52 (1).

bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish yuzasidan xulosalar berish uchun protsessda ishtirok etish hisoblanadi.

FPKning 48-moddasiga ko'ra, davlat boshqaruvi organlari:

- *birinchidan*, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar o'z tashabbuslari bilan;

- *ikkinchidan*, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tashabbusi bilan;

- *uchinchidan*, sud tomonidan jalb etilganda ishda ishtirok etishlari mumkin.

Mazkur holatda davlat boshqaruvi organlari, nafaqat qonunda nazarda tutilgan hollarda, balki FPKning 48-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun sudning ixtiyoriga muvofiq ham protsessga jalb etilishi mumkin. Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ushbu shaklda ishtirok etishi uchun asos ularning zimmalariga yuklatilgan vakolatlardan kelib chiqib, ishning to'g'ri hal etilishidan manfaatdorlik hisoblanadi. Shuning uchun mazkur shaxslarning fuqarolik protsessida ishtirok etishining ushbu shakli ularning vakolatlari va muayyan sohani boshqarishdagi funksiyalaridan kelib chiqadi.

Sudga davlat boshqaruvi organlarining xulosasi yozma ravishda taqdim etiladi va sud majlisida o'qib eshittiriladi, keyin xulosani oydinlashtirish va to'ldirish maqsadida sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar mazkur organlarning vakillariga savollar berishlari mumkin (FPKning 196-moddasi). Ushbu xulosalar ish bo'yicha haqiqiy holatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat boshqaruvi organlarining xulosalari ish materiallaridan biri hisoblanib, ushbu xulosa umumiy qoidalarga ko'ra, sud tomonidan baholanadi va sudlar tomonidan sudyalarning mustaqilligi, obyektiv haqiqat va qonuniylik tamoyillariga asoslangan holda baholanadi.

Biroq, davlat boshqaruvi organlarining xulosasi sud uchun majburiy emas va avvaldan belgilab qo'yilgan kuchga ega emas. Lekin shunday bo'lsa-da, agar sud tomonidan ushbu xulosalar e'tiborga olinmasa, sud o'z ajrimida uning sabablarini, albatta, asoslab berishi kerak.

Davlat boshqaruvi organining xulosasi, odatda, muayyan organ yoki sudga kelib tushgan materiallarni dastlabki tekshirish va o'rganib chiqish asosida bo'lim noziri tomonidan tuzilib, bo'lim boshlig'i va nozir tomonidan imzolanadi. Ba'zi bir hollarda xulosalar, hatto ishni sudga qo'zg'atishdan avval davlat boshqaruvi organ-

larining o'z tashabbusiga ko'ra ham tuzilishi mumkin (masalan, vasiylik va homiylik organining xulosasi).

Davlat boshqaruv organlarining vakili yoki xodimlarining vakillik organlari esa ishda protsess ishtirokchisi sifatidan qatnashib, o'zining xizmat burchi tufayli ishning hal bo'lishidan, asosli va qonuniy qaror chiqarilishidan manfaatdor shaxs bo'ladi.

Bunday organlar o'z xulosasini berishda faqat faktlarga baho berish bilangina cheklanmaydilar. Ular sud majlisida tekshirilgan barcha ma'lumotlarga asoslanib, sudning qanday qarori ularning fikricha to'g'ri bo'lishi to'g'risida o'z mulohazalarini ham aytishlari lozim¹.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtirokining ahamiyati nimada?
2. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari va uning fuqarolik protsessida prokuror ishtirok etish asoslaridan farqi haqida gapiring.
3. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishning qanday shakllari mavjud?
4. Davlat boshqaruv idoralarining ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar (uchinchi shaxslar, ekspert, vakil va protsessning boshqa ishtirokchilari)dan farqi nimada?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 89—90-bet.

8-bob. SUDDA VAKILLIK QILISH

8.1. Suddagi vakillik tushunchasi, asoslari va turlari

Sudda vakillik qilish mustaqil institut hisoblanib, uni fuqarolik huquqidagi vakillikdan vakil va unga ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri va maqsadi, subyekt tarkibi, ma'lum yuridik harakatlarni bajarishga berilgan topshiriqlar, keltirib chiqaruvchi oqibatlari va asoslari bo'yicha farqlash mumkin.

Sudda vakillik qilishning maqsadi — fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashda va nizoning to'g'ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o'rtasidagi moddiy-huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo'ladi.

Sudda vakillik qilish turlari quyidagilarga ajratiladi:

- qonuniy vakillik;
- shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik.

Qonuniy vakillik. FPKning 51-moddasiga muvofiq, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning otanolari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar qonuniy vakillar hisoblanadi.

Suddagi vakillikning mazkur turining vujudga kelishi uchun qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan quyidagi holatlar asos bo'lib hisoblanadi: fuqaro muomalaga layoqatsiz deb topilsa yoki muomala layoqati cheklansa, unga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlanadi, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy sur'atda boshqarib turish zarurati mavjud bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to'g'risidagi shartnoma asosida ish olib boradigan shaxs tayinlanadi va h.k. (FKning 29—34, 36-moddalari).

Qonuniy vakillik asosan qarindoshlik munosabatlari asosida yuzaga keladi. Biroq, ayrim hollarda, xususan, vasiy va homiy tayinlanganda tuman hokimining qarori asos bo'lib hisoblanadi.

Suddagi vakillikning navbatdagi turi shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik hisoblanib, FPKning 52-moddasida nazarda tutilgan. Shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'la oladilar:

1) advokatlar;

2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan yoki yon shajara bo'yicha qarindoshlar, shuningdek, er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;

3) yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha;

4) notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari – shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha;

5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari;

6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;

7) ishni ko'rayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida qatnashishga ruxsat berilgan shaxslar.

Sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishlari mumkin (FPKning 52-moddasi).

Shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik sud amaliyotida vakillikning boshqa turlariga qaraganda ko'p uchraydi. Shartnoma bo'yicha vakillik taraflarning, ya'ni vakil va ishonch bildiruvchining erklari bo'yicha belgilanib, ko'pincha topshiriq shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi¹.

8.2. Suddagi vakilning vakolatlari va uni rasmiylashtirish tartibi

Suddagi vakil protsessual harakatlarni vakolat beruvchining nomidan va uning topshirig'iga ko'ra amalga oshirar ekan, vakolatlar doirasi taraflar (da'vogar, javobgar), uchinchi shaxslar tomonidan berilgan vakolatnomada ifoda etilgan bo'lishi kerak.

Vakilning vakolatlari o'z mazmuniga ko'ra, *umumiy* va *maxsus vakolatlarga* ajratiladi.

¹ Sh.Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 72-bet.

Umumiy vakolatlar vakolat beruvchining nomidan ishtirok etayotgan va vakolatnomadan nazarda tutilgan-tutilmaganligidan qat'i nazar, har qanday vakil amalga oshirishi mumkin bo'lgan protsessual harakatlardir. Mazkur protsessual harakatlar jumlasiga ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko'rish davomida tug'iladigan hamma masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish kabilarni kiritish mumkin (FPKning 34-moddasi).

Maxsus vakolatlar shunday vakolatlarki, unga ko'ra vakil muayyan protsessual harakatlarni bu haqda vakolatnomada maxsus ko'rsatilgan bo'lsagina amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

FPKning 54-moddasiga ko'ra, shartnoma va ustav bo'yicha vakillik qiluvchining arz qilingan talablardan butunlay yoki qisman voz kechish, ularning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vogarning talablarini tan olish, kelishuv bitimi tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sudning hal qiluv qarori (ajrimi) ustidan shikoyat berish, ijro varaqasini undiruvga qaratish, da'vo qo'zg'atuvchiga tegishli deb qaror chiqarilgan mol-mulk yoki pulni olish vakolati to'g'risida har bir alohida holda vakolat beruvchi tomonidan topshirilgan vakolatnomada maxsus izoh berilishi kerak.

8.3. Sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslar

Fuqarolik protsessual qonunchilik sudda vakillik qilishi mumkin bo'lmagan shaxslar ro'yxatini belgilaydi. Unga ko'ra, quyidagilar sudda vakillik qilishi mumkin emas:

- 1) voyaga yetmagan shaxslar;
- 2) vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar;
- 3) sudyalalar, prokurorlar, tergovchilar, surishtiruvchilar, ular qonuniy vakil (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiy-lar) sifatida, shuningdek, tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organining vakili sifatida qatnashgan hollar bundan mustasno.

Ma'lumki, umumiy qoidaga ko'ra, suddagi vakillarning o'zi voyaga yetgan, ya'ni muomalaga layoqatli bo'lishi talab etiladi. Sudda vakil sifatida ishtirok etish huquqiga ega bo'lmagan shaxslardan yana biri vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar hisoblanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sudda vakillik deb nimaga aytiladi?
2. Suddagi vakillikning qanday belgilari mavjud?
3. Fuqarolik protsessidagi vakilni fuqarolik huquqidagi vakildan farqlovchi qanday belgilarni bilasiz?
4. Sudda vakillik qilish uchun nimalar asos bo'ladi?
5. Sudda vakillik qilishning turlarini ayting.
6. Qonuniy vakillarning sudda ishtirok etishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
7. Sudda shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikning o'ziga xos jihatlari haqida gapiring.
8. Suddagi vakilning vakolatlari hajmi va uni rasmiylashtirish tartibi haqida gapiring.
9. Kimlar sudda vakil bo'la olmaydilar?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997, № 2, 48-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni (1998-yil 25-dekabr).
5. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, huquqlari va ularning faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1992, № 9, 344-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008, № 22—23, 201-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizom.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2008-yil 1-maydagi «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2008-yil 2-may.
9. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. T., «Adolat», 2001.
10. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
11. *M.M. Mamasiddiqov, D.Y. Hahibullayev.* O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi (sxema va jadvallar). T., TDYI, 2006.
12. *M.M. Mamasiddiqov.* Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.

9-bob. SUD XARAJATLARI. SUD JARIMALARI

9.1. Fuqarolik protsessida sud xarajatlari tushunchasi va turlari

Sud xarajatlari deganda, fuqarolik ishini ko'rish va hal qilish bilan bog'liq ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan qonunda nazarda tutilgan xarajatlar tushuniladi.

Sud xarajatlarining joriy etilishi bir qator maqsadlarni ko'zda tutadi. Davlat boji natijasida olinadigan mablag'lar unchalik ahamiyat kasb etmasa-da, biroq, sud faoliyatini davom ettirish jarayonidagi xarajatlarni qoplashga qaratiladi.

Mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligi sud xarajatlarining quyidagi ikki turini nazarda tutadi:

- davlat boji;
- ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar.

9.2. Davlat boji

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lovdur (Soliq kodeksining 326-moddasi)¹.

Fuqarolik ishlari bo'yicha undiriladigan davlat boji fuqarolik ishini ko'rib hal qilganlik uchun davlat daromadiga undiriladigan pul summasi hisoblanadi. Soliq kodeksining 328-moddasiga ko'ra, umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat boji quyidagilardan undiriladi:

- sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan;
- organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan;
- alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan;
- sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellatsiya, kassatsiya

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007, № 52 (I).

shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan;

- hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan;

- sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun.

Davlat bojlari da'vogar tomonidan taqdim etilgan da'vo arizalaridan tashqari, javobgar taqdim etgan qarshi da'vo arizalaridan, shuningdek, uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan ham umumiy asoslarda undiriladi. Shuningdek, sud dastlabki da'vogarni uning roziligi bilan boshqa shaxs bilan almashtirganda, bu shaxs davlat bojini umumiy asoslarda to'lashi kerak bo'ladi.

Davlat bojining miqdori FPKning 105-moddasi va Vazirlar Mahkamasining «Davlat boji stavkalari to'g'risida»gi qarori bilan belgilanadi.

Da'vogar tomonidan da'vo talablari kamaytirilgan taqdirda, to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi. Da'vo summasi ko'paytirilgan taqdirda, davlat bojining yetishmayotgan summasi da'voning ko'paytirilgan summasiga muvofiq undiriladi. Da'vo birgalikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda, davlat boji da'voning umumiy summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'ygan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bir yoki bir nechta da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilgan da'vo to'liq yoki qisman qanoatlantirilganda davlat bojini undirish sudning hal qiluv qaroriga binoan har bir javobgardan belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda alohida-alohida amalga oshiriladi. Agar bunday da'vo bir nechta da'vogarlar tomonidan bir javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, davlat boji javobgardan umumiy belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda budjetga undiriladi.

9.3. Ish yuritish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar

Sud xarajatlari davlat bojidan tashqari ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga bo'linadi.

Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga quyidagilar kiradi:

- guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar;
- joyga borib ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;
- FPKning 140-moddasida nazarda tutilgan hollarda, javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar;
- sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog‘liq xarajatlar.

Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarni undirish miqdori va tartibi Fuqarolik protsessual kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi «Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarining qilgan xarajatlarini to‘lash tartibi va miqdorlari to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi¹.

Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga tegishli bo‘lgan summalar ular o‘z vazifalarini bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, xarajat taraflardan undirib olingan-olinmaganidan qat’i nazar, sud tomonidan to‘lanadi. Ekspertlar va mutaxassislar sudning topshirig‘iga muvofiq bajargan ishlari uchun haqni bu ish ularning xizmat burchlari doirasiga kirmagan taqdirda oladilar.

Mehnat munosabatlariga kirishmagan guvohlarga odatdagi mashg‘ulotlaridan qoldirilganliklari uchun amalda sarflagan vaqtlarini va joriy etilgan eng kam ish haqini hisobga olib haq to‘lanadi (FPKning 112-moddasi).

Guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan pulni yoki joyga borib ko‘zdan kechirishga ketadigan xarajatlar uchun zarur bo‘lgan pulni tegishli iltimos bilan murojaat qilgan taraf oldindan to‘lab qo‘yadi. Agar bu iltimosni ikki taraf qilgan bo‘lsa yoki guvohlarni, ekspertlarni, mutaxassislarni, tarjimonlarni chaqirish, joyga borib ko‘zdan kechirish sudning tashabbusi bilan amalga oshirilsa, buning uchun kerakli summani taraflar bah-baravar to‘laydilar.

Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislar haq ularni chaqirgan organ tomonidan bu shaxslar

¹ O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi «Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarining qilgan xarajatlarini to‘lash tartibi va miqdorlari to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1992, № 9, 359-modda. (O‘zbekiston Respublikasi 1994-yil 23-sentabrdagi 2022-XII sonli Qonuni, 1995-yil 6-maydagi 70-I sonli Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan). O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1994, № 11–12, 285-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995, № 6, 118-modda.

o'z vazifalarini bajarib bo'lganlaridan keyin, tegishli pullar ish yuzasidan qilingan xarajatlar tarzida yoki hukm etilganlardan sud xarajatlari tarzida tashqaridan olingan va undirib olingan yoki olinmaganligidan qat'i nazar, darhol to'lanishi kerak.

Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlarning yana bir turini joyga borib ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tashkil qiladi. Fuqarolik protsessual qonunchilik joyga borib ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator holatlarni nazarda tutadi. Xususan, FPKning 192-moddasiga ko'ra, sudga keltirish mumkin bo'lmagan yozma va ashyoviy dalillar ularning turgan joyida ko'zdan kechiriladi va tekshiriladi. Joyida ko'zdan kechirishni o'tkazish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Dalillarni joyida ko'zdan kechirish sudning butun tarkibi tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan, zarur hollarda esa, ekspertlar, mutaxassislar va guvohlar chaqirilgan holda o'tkaziladi. Ko'zdan kechirish joyiga borganda, raislik qiluvchi sud ish ko'rishni davom ettirishi to'g'risida e'lon qiladi, ishni ko'rish Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan qoidalarga binoan olib boriladi.

Javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar turiga mansub hisoblanadi. FPKning 140-moddasiga ko'ra, aliment undirish haqidagi, mayib bo'lish yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganligi, shuningdek, boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi da'volar bo'yicha javobgar (qarzdor)ning amaldagi yashash joyi noma'lum bo'lsa, javobgar (qarzdor) qidirilishi shart. Bunday hollarda sud ichki ishlar organlari javobgar (qarzdor)ni qidirishi to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar ichida sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog'liq xarajatlar alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlariga oid qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti haqida»gi qarorining 15-bandiga ko'ra, sud qarorlarini ijro qilish bilan bog'liq xarajatlarga mulkni tashish, saqlash va sotish; tarjimonlar, mutaxassislar va belgilangan tatibda ijro harakatlarini amalga oshirishga jalb qilingan boshqa shaxslarning ishiga haq to'lash; pochta orqali undiruvchiga undirilgan summalarni o'tkazish (jo'natish); qarzdorni, uning mulkini yoki qarzdordan sud qaroriga asosan olib berilgan bolani qidirish; ijro hujjatini ijro qilish jarayonida amalga oshiriladigan boshqa zaruriy ijro harakatlari kiradi.

9.4. Sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish va uning asoslari

FPKning 110-moddasida davlat bojini to'lashdan ozod qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Soliq kodeksining 329-moddasida umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilinadigan shaxslar ro'yxati berilgan. Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da'vogar alimentlarni undirish to'g'risidagi ishni tugatish haqida ariza bergan bo'lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, sud fuqaroning mulkiy ahvoriga qarab, uni davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilishga ham haqli bo'ladi. Bundan tashqari, sud yoki sudya ham, ayrim hollarda, fuqarolarning mulkiy ahvoriga qarab, agar to'lovlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash yoxud uning miqdorini kamaytirish imkoniyati bo'lmasa, uni davlat foydasiga undiriladigan davlat boji va boshqa sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilishga haqli.

FPKning 110-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, faqatgina jismoniy shaxs davlat bojini to'lashdan ozod qilinishi mumkin. Davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash, shuningdek, ularning miqdorini kamaytirish esa jismoniy shaxslarga ham, yuridik shaxslarga ham qo'llanilishi mumkin.

Sudlar taraflardan biri foydasiga undirilishi lozim bo'lgan sud xarajatlarini to'lashdan da'vogar yoki javobgarni ozod qilishga haqli emasliklarini nazarda tutishlari kerak. Ushbu qoida ko'rsatilgan shaxslar sud xarajatlarini davlat foydasiga to'lashdan ozod etilgan hollarda ham tatbiq etiladi. Soliq kodeksining 328-moddasi va 336-moddasining birinchi qismiga muvofiq, ushbu kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, sudlarga beriladigan arizalardan davlat boji ariza berilgunga qadar to'lanadi.

Shunga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha taraflarni sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish masalasi sudya tomonidan da'vo arizasini qabul qilish vaqtida, zarur hollarda esa hal qiluv qarori chiqarishda hal qilinadi.

9.5. Da'voning bahosi

Da'vo bahosi nizoli mulkning pul ko'rinishidagi ifodasi hisoblanadi. Da'vo bahosidan kelib chiqib davlat bojining miqdori aniqlanadi.

Da'voning bahosi quyidagicha belgilanadi:

1) pul undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — undiriladigan summaga qarab;

2) mulk talab qilish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — da'vo qilinayotgan mulkning qiymatiga qarab;

3) bir qancha mustaqil talablardan iborat da'volar bo'yicha — hamma talablarning umumiy summasiga qarab;

4) aliment undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — bir yillik to'lovlarning yig'indisiga qarab;

5) muddatli to'lovlar va pul berish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — to'lovlarning yoki beriladigan pullarning yig'indisiga qarab, lekin ko'pi bilan uch yillik yig'indisiga qarab;

6) muddatsiz yoki umrbod to'lovlar va pul berish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — to'lovlarning yoki pullarning uch yil ichidagi yig'indisiga qarab;

7) to'lovlarni yoki pul berishni kamaytirish yoxud ko'paytirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — to'lovlar yoki beriladigan pullar kamaytiriladigan yoki ko'paytiriladigan summaga, lekin ko'pi bilan bir yillik summaga qarab;

8) to'lovlarni yoki pul berishni to'xtatish to'g'risidagi da'volar bo'yicha — qolgan to'lovlar yoki pullar yig'indisiga, lekin ko'pi bilan bir yillik yig'indisiga qarab;

9) mulk ijarasi shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish haqidagi da'volar bo'yicha — shartnoma amal qilishining qolgan muddatida mulkdan foydalanish uchun to'lanadigan to'lovlarning, lekin ko'pi bilan uch yil ichidagi to'lovlarning yig'indisiga qarab;

10) xususiy mulk huquqi asosida fuqarolarga tegishli imoratlarga egalik huquqi to'g'risidagi da'volar bo'yicha — imoratning haqiqiy qiymatiga qarab, lekin bu miqdor inventarizatsiya bahosidan, inventarizatsiya bahosi bo'lmaganida esa, majburiy sug'urta bahosidan kam bo'lmasligi kerak, tashkilotlarga qarashli imoratlarga doir da'volar bo'yicha esa, imoratlarning haqiqiy bahosidan kam bo'lmasligi kerak (FPKning 105-moddasi).

Da'voning bahosi da'vogar tomonidan ko'rsatiladi. Biroq, da'vogar ko'rsatgan da'vo bahosi sud orqali talab qilinayotgan narsaning haqiqiy qiymatiga muvofiq bo'lmasa, sudya da'vo arizasini qabul qilish paytida da'voning bahosini belgilaydi.

9.6. Taraflar o'rtasida sud xarajatlarini taqsimlash

Umumiy qoidaga ko'ra, hal qiluv qarori qaysi tarafning foydasiga chiqarilgan bo'lsa, sud shu tarafga ikkinchi tarafdin, garchi bu taraf davlat daromadiga tushadigan sud xarajatlarini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa-da, ish bo'yicha qilingan hamma xarajatlarni undirib beradi (FPKning 116-moddasi). Agar arz qilingan talablar qisman qanoatlantirilgan bo'lsa, ushbu moddada ko'rsatilgan summalar javobgardan da'vogarga talablarning sud qanoatlantirgan qismiga mutanosib ravishda, javobgarga esa, da'vogardan u arz qilgan talablarning rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirib beriladi.

Yuqorida bayon etilgan qoidalar apellatsiya, kassatsiya shikoyati va nazorat tartibida protest keltirishni so'rab ariza berganda taraflar to'lagan davlat bojiga ham taalluqli hisoblanadi. Masalan, agar yuqori instansiya sudi ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirsa yoxud butunlay yoki qisman bekor qilsa va yangi hal qiluv qarori chiqarsa, shunga mutanosib ravishda sud xarajatlarining taqsimoti ham tegishlicha o'zgaradi.

Agar da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechsa, uning xarajatlarini javobgar to'lamaydi. Lekin talab qo'yilgandan so'ng ularni javobgar ixtiyoriy ravishda qanoatlantirganligi natijasida da'vogar o'z talablaridan voz kechgan bo'lsa, sud da'vogarning iltimosi bo'yicha uning ish yuzasidan qilgan hamma sud xarajatlarini javobgardan undirib beradi.

Da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan taqdirda da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardan (agar u davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa) davlat daromadiga belgilangan da'vo summasiga muvofiq undiriladi.

Taraflar kelishuv bitimi tuzish vaqtida sud xarajatlarini taqsimlash tartibini nazarda tutishlari mumkin. Agar ular o'rtasida sud xarajatlarini taqsimlash borasida kelishuvga erishilmagan bo'lsa, u holda sud bu masalani FPKning 114, 116 va 120-moddalariga muvofiq ravishda hal qiladi.

Prokurorning, shuningdek, boshqa shaxslar huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so'rab sudga murojaat qilgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning arz talablari butunlay yoki qisman rad etilganda, javobgarning sud xarajatlari unga budget mablag'lari hisobidan to'liq yoki da'vogar arz qilgan talablarning rad etilgan qismiga mutanosib ravishda qaytarib beriladi.

Talablarni qanoatlantirish rad etilganida, sud tomonidan jalb etilgan javobgarning sud xarajatlari unga budget mablag'lari hisobidan qaytariladi. Mol-mulkni xatlashni bekor qilish to'g'risidagi da'vo qanoatlantirilgan taqdirda, da'vogarning sud xarajatlari unga budget mablag'lari hisobidan qaytariladi. Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan va da'vogar to'lashdan ozod qilingan sud chiqimlari hamda davlat boji javobgardan arz qilingan talablarning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda davlat daromadiga undiriladi.

Arz qilingan talablarni qanoatlantirish rad etilgan taqdirda, sudning ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlari da'vogardan davlat daromadiga undiriladi.

9.7. Sud jarimalari, ularni solish asoslari va tartibi

Fuqarolik protsessi ishtirokchilari va sudda ko'rilayotgan fuqarolik ishlariga aloqasi bo'lgan boshqa shaxslar ham sud tomonidan jarimaga tortilishlari mumkin. Sud jarimalarini solishdan ko'zlangan asosiy maqsad sudda fuqarolik ishlarini o'z vaqtida va to'g'ri ko'rilishini ta'minlash, sud protsessida belgilangan tartibni saqlash hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o'z zimmlaridagi protsessual burchlarni bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sud jarimalari faqat Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollardagina undiriladi. Sud jarimalarini solish asoslari va uning miqdori FPKning 75, 81, 86, 166, 176, 253-moddalarida ko'rsatilgan. Xususan, ishda ishtirok etmayotgan tashkilotlar va fuqarolar sud talab qilgan yozma yoki ashyoviy dalillarni taqdim etish imkoniga ega emasliklarini sudga ma'lum qilmagan taqdirda, shuningdek, yozma yoki ashyoviy dalil taqdim etish uzrli sababsiz rad qilingan taqdirda, sud bunda aybdor bo'lgan tashkilotlarning mansabdor shaxslariga, shuningdek, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solishi mumkin.

Jarima solish tegishli mansabdor shaxslarni va fuqarolarni sud talab qilayotgan yozma dalilni taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi. Sud jarimalari ekspert yoki mutaxassislarga nisbatan ham solinishi mumkin. Masalan, agar ekspert sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra, sudning chaqiruvi bo'yicha kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi. Shuningdek, agar mutaxassis sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra, sud chaqiruvi bo'yicha kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.

Jarima solish to'g'risida ajrim chiqariladi va uning nusxasi darhol jarima solingan shaxsga jo'natiladi. Sudning jarima solish to'g'risidagi ajrimi ustidan o'n kunlik muddat ichida xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Jarima solingan shaxs sud ajrimining nusxasini olganidan keyin besh kun ichida jarima solgan suddan jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni iltimos qilishi mumkin. Bu ariza jarima solingan shaxsni chaqirgan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq, uning sudga kelmasligi arizani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sudning jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 125-modasi).



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sud xarajatlari deb nimaga aytiladi?
2. Sud xarajatlarini joriy etishdan ko'zlangan maqsad nimada?
3. Sud xarajatlarining qanday turlari mavjud?
4. Oddiy davlat bojiga misollar keltiring.
5. Proporsional davlat bojiga misollar keltiring.
6. Davlat boji nima va uning qanday turlari mavjud?
7. Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat boji nimalardan undiriladi?
8. Da'voning bahosi qanday belgilanadi?
9. Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga nimalar kiradi?
10. Kimlar sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilinadi?
11. Sud xarajatlarini qaytarish uchun nimalar asos bo'ladi?
12. Taraflar o'rtasida sud xarajatlarini taqsimlash deganda nimani tushunasiz?
13. Sud jarimalari deb nimaga aytiladi?
14. Sud jarimalarini solish uchun nimalar asos bo'ladi va uni solish tartibi qanday?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. Sh.Sh. *Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007, № 52, (I).
4. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi «Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarining qilgan xarajatlarini to'lash tartibi va miqdorlari to'g'risida»gi 661-XII sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1992, № 9, 359-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi «Davlat boji stavkalari to'g'risida»gi 533-qarori.
6. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
7. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
8. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
9. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida»gi 14-qarori.

10-bob. PROTSESSUAL MUDDATLAR

10.1. Protsessual muddatlar tushunchasi va turlari

Protsessual muddatlar deganda, fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish va hal qilish bilan bog‘liq protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan vaqt tushuniladi. Mazkur muddatlar sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar, shuningdek, ayrim hollarda ishda ishtirok etmaydigan shaxslarga nisbatan ham belgilanadi.

Protsessual harakat fuqarolik protsessual qonunchiligi bilan belilab qo‘yilgan, ishda ishtirok etuvchi taraflar, fuqarolik ishlarini ko‘ruvchi sudlar, ayrim hollarda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlardir.

Protsessual harakatni bajarish uchun protsessual me‘yorlarda belgilangan protsessual muddatlar asosan ikki turga bo‘linadi:

- qonun bilan belgilab qo‘yilgan protsessual muddatlar;
- sud tomonidan tayinlanadigan protsessual muddatlar.

Adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, protsessual muddatlar umumiy yoki maxsus normada belgilanishiga qarab, ularni umumiy va maxsus protsessual muddatlar turiga ajratish mumkinligi ta‘kidlanadi¹. Masalan, FPKning 131-moddasi birinchi va ikkinchi qismida ishni sudda ko‘rishga tayyorlash va ko‘rish muddatlari umumiy muddatlarga ajratiladi. Unga ko‘ra, fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab o‘n kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim. Undan tashqari, fuqarolik ishlari sudda ko‘rishga tayyorlab bo‘lingan kundan e‘tiboran, bir oydan kechiktirmay ko‘rilishi umumiy muddatlarga misol bo‘ladi. Protsessual muddatlar quyidagi ikki turga ajratilishi to‘g‘ri bo‘ladi.
Bular:

- qonun bilan belgilab qo‘yilgan protsessual muddatlar;
- sud tomonidan tayinlanadigan protsessual muddatlar.

¹ Гражданский процесс. Учебник. Отв. ред. проф. В.В. Ярков. М., «Волтерс Клувер», 2004, стр.103.

Qonun bilan belgilab qo'yilgan protsessual muddatlar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ajratiladi:

- *birinchidan*, sud amalga oshirishi mumkin bo'lgan protsessual muddatlar faqat qonun bilan belgilanadi. Bu o'rinda milliy qonunchilik Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 6-moddasi birinchi bandida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqadi. Mazkur moddada ko'rsatilishicha, har bir inson o'zining fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi ishlarni odilona va oshkora sud muhokamasida oqilona muddatda olib borilishi huquqiga ega;

- *ikkinchidan*, mazkur muddat xizmat tusiga ega, boshqacha qilib aytganda, mazkur muddatning o'tkazib yuborilishi fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarga nisbatan huquqiy ta'sir ko'rsatmaydi: sud qonunda belgilab qo'yilgan protsessual harakatlarni amalga oshirishga majbur hisoblanadi;

- *uchinchidan*, mazkur muddatlarni kechiktirishga istisno holatlarda, qonunda bevosita nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

10.2. Protsessual muddatlarni hisoblash, to'xtatib turish, kechiktirish va tiklash, o'tkazib yuborish oqibatlari

Protsessual muddatlar yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi. Protsessual muddatlar protsessual harakatlar bajarilishi mumkin bo'lgan davr e'tiborga olinib, aniq kalendar kuni bilan belgilanadi. Muddatning o'tishi kalendar sananing yoki muddatning boshlanishi deb belgilangan voqea yuz bergan kunning ertasidan boshlanadi. Yillar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi yilining tegishli oyi va kunida tamom bo'ladi. Oylar bilan hisoblanadigan muddat tegishli oyda va muddat oxirgi oyining tegishli kunida tamom bo'ladi.

Agar oylar bilan hisoblanadigan muddatning oxiri tegishli kuni bo'lmagan oyga to'g'ri kelsa, muddat shu oyning oxirgi kunida tamom bo'ladi. Bu muddatning oxirgi kuni ish kuni bo'lmagan kunga to'g'ri kelgan taqdirda undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tamom bo'lish kuni hisoblanadi. Muddati belgilangan protsessual harakat muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtgacha bajarilishi mumkin. Shu bilan birga muddat boshqacha tarzda ham, masalan, FPKning 127-moddasi uchinchi qismida ko'rsatilganidek, albatta, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqeani yoki harakatni ko'rsatib yoxud muayyan davrni ko'rsatib ham belgilanishi mumkin.

Agar protsessual harakat sudda bajarilishi lozim bo'lsa, belgilangan qoidalarga muvofiq sudda ish tugagan soatda muddat tamom bo'lgan hisoblanadi. Agar ariza, shikoyat, hujjatlar yoki pul summasi muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtgacha aloqa tashkilotiga topshirilgan bo'lsa, muddat o'tmagan hisoblanadi.

Ba'zi hollarda protsessual harakatlarni bajarish uchun qonunda belgilangan yoki sud tayinlagan muddatlarni ishda ishtirok etuvchi shaxslar turli sabablar bilan o'tkazib yuboradilar. Bunday hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessual harakatni bajarish uchun o'tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirib yoki tiklab berish to'g'risida tegishli sudga ariza berishi mumkin. O'tkazib yuborilgan protsessual muddatlarni uzaytirish yoki tiklash borasida shuni aytish kerakki, qonun bilan belgilangan protsessual muddatlar faqat tiklanishi, sud tomonidan tayinlangan muddatlar esa faqat uzaytirilishi mumkin.

Protsessual muddatlarni uzaytirish yoki tiklash, bu muddatlarni o'tkazib yuborganlikning sababiga bog'liq bo'ladi. Agar uning sabablari uzrli bo'lsa (kasal bo'lib qolish, uzoq muddatga xizmat safariga ketib qolish va shunga o'xshash boshqa holatlar) qonun bilan belgilangan muddat tiklanishi, sud tomonidan tayinlangan muddat esa uzaytirilishi lozim.

Sud tomonidan tayinlangan muddatlar taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosi bo'yicha, prokuroming arizasi bo'yicha va sudning o'z tashabbusi bilan ham uzaytirilishi mumkin. Protsessual muddatning uzaytirilishi muayyan protsessual harakatlar qilish uchun yangi muddatning tayinlanishidir, sud tomonidan tayinlangan muddatlar ham uzaytirilishi mumkin.

Sud tomonidan muddatning uzaytirilishi (kechiktirilishi), masalan, FPKning 140-moddasida ko'rsatilganidek, javobgarni qidirish nazarda tutilgan hollarda, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish sud majlisida taraflarning ishtirokida hal qilinadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Protsessual muddatlar deb nimaga aytiladi?
2. Protsessual muddatlarning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Fuqarolik protsessida muddatlarning qanday turlari mavjud?
4. Qonunda belgilangan protsessual muddatlarga misollar keltiring.
5. Sud tomonidan tayinlangan muddatlarga misollar keltiring.
6. Protsessual muddatlar qanday tartibda hisoblanadi?
7. Protsessual muddatlarni to'xtatib turish, kechiktirish, tiklash tartibi qanday va uni o'tkazib yuborishning qanday oqibatlari mavjud?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.

11-bob. FUQAROLIK ISHLARINING TAALLUQLILIGI

11.1. Taalluqlilik tushunchasi va turlari

Taalluqlilik shaxslarning sudga murojaat qilishga bo'lgan huquqlarini yuzaga keltiradigan yuridik shartlardan biri ekanligi uning fuqarolik protsessual huquqning asosiy institutlaridan biri hisoblanishini ko'rsatadi.

Taalluqlilik turli vakolatli organlar o'rtasida huquqiy ishlarni uning tusi va boshqa xil belgilari orqali ajratib beradigan mustaqil huquqiy va ilmiy toifa sifatida ham e'tirof etiladi.

Taalluqlilik deganda subyektiv huquqning mazmuni va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibi xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish vazifasi qonun hujjatlari bilan muayyan davlat organlari, jamoat tashkilotlari yoki boshqa vakolatli organlar zimmasiga yuklatilganligi tushuniladigan fuqarolik protsessual huquqi faniga oid ilmiy toifa hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida taalluqlilik quyidagi turlarga ajratilishi bayon etiladi:

- mustasno;
- alternativ;
- shartnomaviy;
- shartli (imperativ) taalluqlilik.

Mustasno taalluqlilik. Fuqarolik, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan aksariyat nizoli ishlar bevosita sudlarga taalluqli bo'lib, boshqa organlar tomonidan mazmunan ko'rilishi mumkin emas. Taalluqlilikning bunday turi mustasno taalluqlilik deb nomlanadi. Mustasno taalluqlilikka muvofiq, nizoli ishni sudga ko'rib hal qilish uchun sudga qadar u yoki bu organlarda mazkur ishning ko'rilishi talab etilmaydi. Masalan, xodimni ishga tiklash, voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan er va xotinni nikohdan ajratish, turar joyga nisbatan berilgan orderni haqiqiy emas, deb topish va shu kabi ko'plab fuqarolik ishlari mustasno taalluqlilikka misol bo'la oladi.

Alternativ taalluqlilikka ko'ra, subyektiv huquq to'g'risidagi nizo manfaatdor shaxslarning xohishiga ko'ra sudga yoki boshqa davlat organlari yoki jamoat tashkilotlarida ko'rilishi mumkin. Masalan, FPKning 269-moddasiga ko'ra, fuqaro o'zining huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan bevosita sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori organga, mansabdor shaxsga murojaat qilishga haqli bo'ladi. Shu o'rinda fuqaroning shikoyatini ma'muriy tartibda ko'rilishi uni sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Shartnomaviy taalluqlilik alternativ taalluqlilikka o'xshab ketadi. Bunda ham taraflar nizoni hal etish vakolatiga ega bo'lgan organni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Faqat bu yerda nizoni qaysi organda ko'rilishini taraflar o'zaro kelishib belgilaydilar. Masalan, taraflar yuzaga kelgan nizoni hal qilishni hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimini tuzishlari shular jumlasidandir.

Qonun hujjatlarida yoki shartnomalarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ishlar dastavval sudga qadarli boshqa organlarda ko'rilganidan keyingina sudga taalluqli bo'ladi. Bunday taalluqlilik turi *shartli taalluqlilik* deb nomlanadi.

11.2. Fuqarolik ishlarining sudga taalluqliligi haqidagi umumiy qoidalar

Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilashdagi mezonlar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- *birinchidan*, nizoli huquqiy munosabatning xarakteri;
- *ikkinchidan*, subyektlar tarkibi (nizoda ishtirok etuvchi shaxslarning tarkibi);
- *uchinchidan*, huquqning nizoli yoki nizosiz ekanligi;
- *to'rtinchidan*, nizodagi taraflar o'rtasida shartnomaning mavjudligi;
- *beshinchidan*, huquqiy hujjatning xarakteri (uning normativ yoki normativ emasligi);
- *oltinchidan*, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organning turi (shu o'rinda, davlat boshqaruv organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishi va ular tomonidan chiqarilgan qarorlarning ustuvorligi ham nazarda tutiladi).

Fuqarolik ishlarining, xususan, mehnat nizolarining taalluqliligini belgilashda, avvalo, nizoning qaysi turda ekanligini, yakka tartibdagi nizo bo'lsa, uning xususiyatini; mehnat qonunchiligini

qo'llash yoki yangi mehnat shartlarini belgilash bo'yicha va yana qaysi huquqiy munosabatlardan kelib chiqqanini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FPKning 31-moddasiga muvofiq, umumiy yurisdiksiya sudlariga quyidagi ishlar taalluqli bo'ladi:

1) taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolarga doir ishlar, qonunda bunday nizolarni hal qilish xo'jalik sudi yoki boshqa organlarga topshirilgan hollar bundan mustasno;

2) FPKning 279-moddasida sanab o'tilgan alohida tartibda ko'riladigan ishlar;

3) qonun bilan sudlarning vakolatiga berilgan boshqa ishlar.

Shunday qilib, taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolarga doir ishlar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga taalluqli hisoblanadi.

Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilashdagi muhim mezonlardan biri sifatida nizoli huquqiy munosabatning xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb e'tirof etish bilan bog'liq ishlar xo'jalik sudlariga taalluqlidir. Agar, yakka tartibdagi tadbirkor xo'jalik sudi tomonidan bankrot deb e'tirof etilgan va faoliyati qonunda belgilangan tartibda tugatilgan bo'lsa, uning ishtirokida vujudga kelgan barcha nizolar umumiy yurisdiksiya sudlariga taalluqlidir.

Sudlar tadbirkorlik faoliyati subyektlarining da'vosi bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishda ishchanlik obro'siga yetkazilgan ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi talabni ham asosiy da'voga qo'shib ko'rishga haqlidirlar. Bunday talabni boshqa sudga taalluqli, degan vaj bilan ishni tugatishga yoki da'vo arizasini qabul qilishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

11.3. Fuqarolik, mehnat, oila, turar-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi

Oila huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qoidalari bo'yicha belgilanadi. Oila kodeksining 11-moddasiga ko'ra, oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha, ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Xususan, Oila kodeksining 38-mod-

dasiga ko'ra, nikohdan ajratish sud tartibida, ushbu kodeksning 42 va 43-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin nikohdan ajratishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi. Shuningdek, er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo bo'lgan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Undan tashqari, agar er-xotindan biri sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa; sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli er-xotindan biri muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa; agar er-xotindan biri sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra, ular fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratiladi.

Oila kodeksining 27-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin. Mabodo, ular o'rtasida nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, shuningdek, er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi. Oila qonunchiligi aksariyat oila huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarning sudlarga taalluqli bo'lishini nazarda tutadi. Masalan, nikoh shartnomasini Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha to'la yoki qisman haqiqiy emas, deb topish sud tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, nikohni haqiqiy emas deb topish ham faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Ayrim hollarda qonun oilaviy huquqlarning notarial idoralar tomonidan himoya qilinishini nazarda tutadi. Masalan, Oila kodeksining 131-moddasiga ko'ra, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Notarial tartibda tasdiqlangan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi (Oila kodeksining 80-moddasi). Shuningdek, ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini, turmush tarzini (yoki) bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin. Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan sud tartibida amalga oshiriladi (Oila kodeksining 82-moddasi).

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarining to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi hamda hal qilinishi xodimlar va mehnat jamoalarining mehnat huquqlarining samarali himoya qilinishiga, buzilgan huquq hamda qonuniy manfaatlarining tiklanishiga asos bo'ladi. Bu borada mehnat nizolarining qanday organlar tomonidan ko'rib chiqilishi masalasini to'g'ri hal etish muhim ahamiyatga egadir.

Sudlarga berilayotgan shikoyatlar huquq to'g'risidagi nizoning mavjud emasligi bilan da'vo arizalaridan ajralib turadi va sudda ish ko'rishning protsessual tartibida ham qator o'ziga xos farqlar mavjud.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mazkur nizoli ishlarni ko'rib hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) mehnat nizolari komissiyasi;
- 2) sud organlari;
- 3) bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organlar.

Yakka tartibdagi mehnat nizolarining yuqoridagi organlarning qaysi biriga taalluqli bo'lishini belgilash ushbu nizoning mazmuniga, huquqiy munosabatlarning turiga, unda ishtirok etuvchi subyektlar tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Bevosita fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo (shahar) sudlarida ko'rilishi lozim bo'lgan mehnat nizolarining ro'yxati Mehnat kodeksining 269-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, mehnat nizolari quyidagi hollarda bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'rib chiqiladi:

- agar xodimning ish joyida mehnat nizolari komissiyasi tuzilmagan bo'lsa;
- mehnat nizolari mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'i nazar, ishga tiklash to'g'risida, mehnat shartnomasini bekor qilish vaqti va asoslari ta'rifini o'zgartirish to'g'risida, maj-

buriy progul yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun haq to'lashga doir bo'lsa;

- mehnat nizolari xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararning to'lanishi haqida bo'lsa;

- mehnat nizolari mehnat vazifalarini bajarayotganda xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilgani oqibatidagi zararni (shu jumladan, ma'naviy zararni) yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan zararning ish beruvchi tomonidan to'lanishi haqida bo'lsa;

- ish beruvchi tomonidan taklif qilingan shaxslarni ishga qabul qilmaslik, ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo'lgan (belgilangan kvota hisobidan ishga yuborilgan nogironlar va o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni; homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarni tegishincha ularning homiladorligi yoki bolasi borligini vaj qilib) ishga qabul qilmaslik yuzasidan kelib chiqqan nizolar ham bevosita sudlarda ko'rib hal qilinadi (Mehnat kodeksining 78-moddasi).

Shuningdek, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan oldindan kelishib hal etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan mehnat nizolari ham bevosita sudlar tomonidan ko'rib chiqilishiga alohida e'tibor berish lozim.

11.4. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat, arizalar bo'yicha yuritiladigan ishlarning sudga taalluqliligi

Umumiy qoida bo'yicha, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlar asosan ma'muriy tartibda ish yuritish qoidasiga amal qilgan holda ko'riladi¹. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning I-moddasiga ko'ra, ushbu kodeks qoidalari mazkur kodeksga kiritilmagan qonun hujjatlarida sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarga ham taalluqli ekanligi belgilangan. Biroq ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ayrim toifadagi ishlar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga ham taalluqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, davlat organlari va boshqa

¹ *Sh. Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 307-bet.*

organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlar faqat qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollardagina sudlarga taalluqli bo'lishini hamda sudga shikoyat qilishning o'zgacha tartibi belgilanganligini nazarda tutish lozim.

Shu o'rinda, organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishning o'zgacha tartibi deyilganda, tegishli qonun bilan o'rnatilgan maxsus tartibni tushunmoq lozim. Sud, sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishga vakolatli bo'lgan organlar uchun Jinoyat-protsessual va Fuqarolik protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda sudga shikoyat qilishning o'zgacha tartibi belgilangan.

Fuqarolik protsessual kodeksining «Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish», deb nomlangan uchinchi kichik bo'limida ushbu toifadagi ishlarga quyidagilar kirishi ko'rsatilgan:

- fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar;

- notariusning, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organlarining harakatlarni bajarishni rad etganligi yoxud ularni noto'g'ri bajarganligi ustidan berilgan shikoyatlar;

- prokurorning huquqiy aktini g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasi bo'yicha ishlar (FPKning 264-moddasi).

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlar uchun taalluqlilikning muqobil turi qo'llaniladi. Chunki fuqaro o'zining huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan o'z xohishiga ko'ra, bevosita sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori organga, mansabdor shaxsga murojaat qilishga haqli bo'ladi. Bo'ysunuv tartibidagi yuqori organ va mansabdor shaxslar shikoyatni bir oy muddat ichida ko'rib chiqishi shart. Agar fuqaroning shikoyatiga rad javobi berilsa yoki u shikoyat bergan kundan e'tiboran, bir oy ichida javob olmasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilishga haqli (FPKning 269-moddasi).

«Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq, harbiy xizmatchilar ularning

huquqlari va erkinliklarini buzayotgan harbiy boshqaruv organlari va harbiy mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va qarorlari ustidan harbiy sudga shikoyat qilishga haqli. Ushbu modda mazmuniga ko'ra, harbiy xizmatchi bo'lmaganda, harbiy boshqaruv organlarida egallab turgan lavozimi bo'yicha harbiy xizmatchilarning huquqlari va erkinliklariga taalluqli masalalarni hal etish vakolatiga ega bo'lgan shaxslarning harakatlari va qarorlari ustidan ham harbiy sudga shikoyat qilinishi mumkin.

11.5. Alohida tartibda ko'riladigan ishlarning sudga taalluqliligi

Sudlarga huquq to'g'risida nizo bo'lmagan – alohida tartibda yuritiladigan fuqarolik ishlari ham taalluqli bo'ladi. Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'riladigan ishlarga quyidagilar kiradi:

- yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar;

- fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar;

- fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar;

- mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar;

- taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar (chaqirib ish yuritish);

- shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi ishlar.

Sudga taalluqli bo'lgan alohida tartibda yuritiladigan ishlarda yuqorida ta'kidlanganidek, huquq to'g'risida nizo bo'lmaganda, biroq, mazkur ishlarda ham qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar himoya qilinadi. Xususan, sud alohida tartibda fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy, mulkiy huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki tugashiga sabab bo'ladigan faktlarni belgilaydi.

Sud quyidagi faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarni ko'radi:

- 1) shaxslarning qarindoshlik aloqalarini;

- 2) shaxs birovning qaramog'ida ekanligi faktini;

- 3) otalikni tan olish (belgilash) faktini, bolaning u yoki bu onadan tug'ilganligi faktini, shuningdek, tug'ilgan vaqtini;

4) bolalikka olish, nikoh, ajralish va o'limning qayd etilganlik faktini;

5) er-xotindan birining o'limi natijasida fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlarida nikohni ro'yxatdan o'tkazish mumkin bo'lmay qolsa, qonunda belgilangan hollarda ularning haqiqatda er-xotinlik munosabatlarida bo'lganlik faktini;

6) shaxsning huquqni vujudga keltiruvchi hujjatlarda (jamoat birlashmalariga a'zolik biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar, fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlari beradigan guvohnomalardan tashqari) ko'rsatilgan ismi, otasining ismi va familiyasi uning pasportidagi yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasidagi ismi, otasining ismi va familiyasi bilan mos kelmagan taqdirda, mazkur hujjatlarning unga tegishliligi yoki tegishli emasligi faktini;

7) baxtsiz hodisa faktini;

8) imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish faktini;

9) merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktini;

10) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni, agar qonun hujjatlarida ularni belgilashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa.

11.6. Bir-biri bilan bog'liq bir qancha talablarning sudga taalluqliligi

FPKning 32-moddasida bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ba'zilari sudga, ba'zilari esa, xo'jalik sudlariga taalluqli bo'lgan bir qancha talablar birlashtirilganida, bu talablarning hammasi sudda ko'rilishi kerakligi haqida norma mustahkamlab qo'yilgan. Xuddi shunga o'xshash qoida XPKning 23-moddasi to'rtinchi qismida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari xo'jalik sudiga, boshqalari esa umumiy yurisdiksiya sudiga taalluqli bo'lgan bir necha talab birlashtirilgan taqdirda, hamma talablar umumiy yurisdiksiya sudida ko'rilishi kerak.

Shu o'rinda qonunchilik bir-biri bilan bog'liq talablar birlashtirilganida hamma talablar umumiy yurisdiksiya sudida ko'rilishi kerakligini belgilab, bu borada umumiy yurisdiksiya sudiga ustuvorlik bermoqda. Biroq, yakka (xususiy) tadbirkorlar ishtirokidagi ishlarni ko'rib chiqish davomida sudlar tomonidan mazkur qoidani qo'llash borasida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Taalluqlilik deganda nimani tushunasiz?
2. Taalluqlilikning qanday turlari mavjud?
3. Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilash qoidalari haqida gapiring.
4. Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilashdagi mezonlar sifatida nimalar e'tirof etiladi?
5. Oila huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligini o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
6. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi haqida gapiring.
7. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat, arizalar bo'yicha yuritiladigan ishlarning sudga taalluqliligining o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
8. Alohida tartibda ko'riladigan ishlarning sudga taalluqliligi haqida gapiring.
9. Bir-biri bilan bog'liq bir qancha talablarning sudga taalluqliligi deganda nimani tushunasiz?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M. M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.

12-hob. FUQAROLIK ISHLARINING SUDLOVLILIGI

12.1. Fuqarolik ishlarining sudlovliligi tushunchasi va uning turlari

Fuqarolik ishlarining sudlovliligi deganda, sudlarga taalluqli bo'lgan ishlarning turlari hamda joylashgan hududiga qarab bir tizimdagi sud bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishini belgilab beruvchi fuqarolik protsessal huquqi normalari majmuasiga aytiladi.

Fuqarolik protsessual qonunchilik sudlovga taalluqlilikning quyidagi ikki turini belgilaydi:

- turdosh;
- hududiy.

Turdosh sudlovlilik deganda, sudlarga taalluqli bo'lgan fuqarolik ishlarining ijtimoiy ahamiyati, murakkablik darajasi va subyektlar tarkibiga qarab fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar o'rtasida taqsimlanishini tushunish lozim.

Darhaqiqat, muayyan bir fuqarolik ishi uchun turdosh sudlovlilik qoidalarini belgilash jarayonida ushbu huquqiy munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq normasida belgilangan xususiyatlar muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etishi, unda ishtirok etuvchi shaxslarning tarkibi e'tiborga olinishi talab etiladi.

Turdosh sudlovlilik qoidalarini belgilashda ko'riladigan ishning turi, nizoning predmeti nimadan iborat bo'lishi va taraflarning kimlar bo'lishiga qaraladi. Turdosh sudlovlilik qoidalarini belgilashdagi mazkur mezonlarga qo'shimcha sifatida huquqiy munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq normasida belgilangan xususiyatlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etishini ham ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

FPKning «Sudlovga taalluqlilikning umumiy qoidalari» deb nomlangan 145-moddasida ko'rsatilgan normalarni hududiy sudlovlik qoidalari sifatida e'tirof etish lozim. Chunki ushbu normada fuqarolik ishlarining hudud bo'yicha sudlovga taalluqliligi haqidagi umumiy qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, arizalarning

javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi sudga berilishi, tashkilotlarga nisbatan arizalar esa ularning organlari joylashgan hududdagi sudga berilishi haqidagi qoidalar shundan dalolat beradi.

Hududiy sudlovlik ham o'z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Da'vogarning tanlashi bo'yicha sudlovliklik. Unga ko'ra, yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan da'volar uning mol-mulki turgan joyda yoki uning so'nggi yashagan joyida qo'zg'atilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida yashash joyiga ega bo'lmagan javobgarga nisbatan da'volar O'zbekiston Respublikasida uning mol-mulki turgan joyda yoki ma'lum bo'lgan so'nggi yashash joyida qo'zg'atilishi mumkin.

Da'vogar aliment undirish to'g'risidagi, otalikni belgilash haqidagi va mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik yoxud boquvchining o'limi natijasida ko'rilgan zarar o'rni qoplash to'g'risidagi da'volarni o'zi yashab turgan joyda ham taqdim etishi mumkin.

Kemalar to'qnashuvi natijasida ko'rilgan zararining o'rni qoplash to'g'risidagi, shuningdek, suvda yordam berganlik va qutqarganlik uchun haq undirish to'g'risidagi da'volar ham javobgarning kemasi turgan yoki kema ro'yxatga olingan port joylashgan manzilda qo'zg'atilishi mumkin.

Ijro qilish joyi ko'rsatilgan shartnomalardan kelib chiqadigan da'volar shartnomani ijro qilish joyida ham qo'zg'atilishi mumkin.

Fuqaroning yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rni qoplash to'g'risidagi da'volar zarar yetkazilgan joyda ham qo'zg'atilishi mumkin.

Yuridik shaxsning filiali faoliyatidan kelib chiqadigan da'volar filial joylashgan manzilda ham qo'zg'atilishi mumkin.

Turli joylarda yashovchi yoki turuvchi bir necha javobgarga nisbatan yoki yuridik shaxs bo'lib, turli manzilda joylashgan javobgarlarga nisbatan da'vo da'vogarning tanlashi bo'yicha javobgarlardan biri yashaydigan yoki turgan joyda qo'zg'atiladi.

G'ayriqonuniy hukm qilish, g'ayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida g'ayriqonuniy qamoqqa olish, hibsga olish yoki axloq tuzatish ishlari tarzida g'ayriqonuniy ma'muriy jazo qo'llash natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar o'rni qoplash bilan bog'liq bo'lgan mehnat, pensiya va uy-joyga doir huquqlarni

tiklash, mol-mulkni yoki uning qiymatini qaytarib berish to'g'risidagi da'volar da'vogarning yashash joyida ham qo'zg'atilishi mumkin.

Agar da'vogarning voyaga yetmagan bolalari borligi, shuningdek, nogironligi yoki og'ir kasalligi tufayli u javobgar yashab turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga borishga qiynalsa, nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'volar da'vogarning yashaydigan joyida qo'zg'atilishi mumkin.

Bedarak yo'qolgan deb yoxud ruhiy holatining buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek, uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish haqidagi da'volar, da'vogarning xohishiga qarab, uning yashash joyida ko'rilishi mumkin.

2. *Sudlovga taalluqlilikning alohida hollari.* Sudlovlilikning mazkur turiga ko'ra, masalan, imoratga bo'lgan huquq to'g'risidagi, mol-mulkni xatlashdan chiqarish haqidagi, yer maydonidan foydalanish tartibini belgilash to'g'risidagi da'volar imorat, mol-mulk yoki yer maydoni joylashgan hududdagi sudning sudloviga taalluqli bo'ladi. Meros qoldiruvchining kreditorlari meros vorislar tomonidan qabul qilinguniga qadar qo'zg'atgan da'volar meros mol-mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan hududdagi sudning sudloviga tegishlidir. Yo'lovchi, bagaj yoki yuk tashish shartnomalaridan yuk tashuvchilarga nisbatan kelib chiqadigan da'volar belgilangan tartibda talab qo'yilgan transport tashkilotining organi joylashgan hududda qo'zg'atiladi.

3. *Kelishilgan sudlovga taalluqlilik* sudlovlilikning navbatdagi turi hisoblanib, unga ko'ra, taraflar o'zaro kelishib, muayyan ish uchun hududiy sudlovga taalluqlilikni o'zgartirishlari mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, sudlovga taalluqlilikning alohida hollari taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas.

4. *Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan talablarning sudlovga taalluqliligi.* Sudlovlilikning mazkur turiga ko'ra, qarshi da'vo o'zining sudlovga taalluqliligidan qat'i nazar, dastlabki da'vo ko'riladigan joydagi sudda qo'zg'atiladi. Shuningdek, jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik da'vosi, agar jinoyat ishi ko'rilayotganda arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rish uchun fuqarolik ishlarining sudlovga taalluqliligiga doir umumiy qoidalarga binoan qo'zg'atiladi.

12.2. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi

Fuqarolik protsessual qonunchilikka muvofiq, sud sudlovga taalluqlilik qoidalariga rioya qilgan holda o'zining yuritishiga qabul qilib olgan ishni, garchi, keyinchalik bu ish boshqa sudning sudloviga taalluqli bo'lib qolsa ham, mazmunan hal qilishi lozim (FPKning 146-moddasi). Biroq, istisno tarzida, faqat qonunda nazarda tutilgan holatlarda sud o'z yuritishiga qabul qilib olgan ishni boshqa sudga o'tkazishi mumkin.

Sud quyidagi hollarda ishni ko'rish uchun boshqa sudga o'tkazadi:

- muayyan ish boshqa sudda, xususan, dalillarning ko'pchilik qismi joylashgan yerdagi sudga o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqiladi deb hisoblasa;

- ilgari turar joyi noma'lum bo'lgan javobgar ishni o'zi yashab turgan joydagi sudga o'tkazishni iltimos qilsa;

- bir yoki bir necha sudya chetlatilgach, bu sudda ularni almash-tirish mumkin bo'lmay qolsa;

- ish muayyan sudga ko'rilayotganida bu ish sudlovga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda yuritishga qabul qilinganligi ma'lum bo'lib qolsa (FPKning 146-moddasi ikkinchi qismi).

Ishni bir suddan boshqasiga o'tkazish fuqarolik ishi qaysi sudning ish yuritishida bo'lsa, o'sha sudning asoslantirilgan ajrimiga asosan amalga oshiriladi. Sudning mazkur ajrimi ustidan shikoyat berish yoki unga nisbatan protest keltirish muddati o'tganidan keyin, shikoyat berilgan yoki protest keltirilgan taqdirda esa, shikoyatni yoki protestni qanoatlantirmay qoldirish haqida ajrim chiqarilganidan keyin o'tkaziladi.

Ishni bir suddan boshqasiga o'tkazish ishlarning o'z yechimini to'g'ri topishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ish bo'yicha mavjud dalillarning to'liq tekshirilishini, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Bir suddan boshqa sudga yuborilgan ish sud tomonidan ko'rish uchun qabul qilinishi kerak. Sudlovga taalluqlilik to'g'risida nizolarga yo'l qo'yilmaydi.

12.3. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlari

Fuqarolik ishlarini qaysi sudga ko'rib hal qilishni oldindan bilib olish da'vogar uchun aynan o'sha sudga murojaat qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning buzilgan yoki nizolashilayotgan subyektiv huquqni tez va to'g'ri hal qilish uchun kafolat beradi,

protsessual vaqtni tejaydi, ko'rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud hal qiluv qarori chiqarishga xizmat qiladi va ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish borasidagi masala bo'yicha xatolikka yo'l qo'yishning oldini oladi va sudlovlilik masalasini ijobiy to'g'ri hal qilish uchun kafolat beradi.

Sudlovlilik qoidalariga rioya qilmaslik o'ziga xos huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Masalan, da'vo arizasi, ariza sudlovlilik qoidalariga rioya qilinmasdan berilsa, FPKning 152-moddasining 5-bandiga asosan, ya'ni ish shu sudning sudlovliga taalluqli bo'lmaganligi uchun arizani qabul qilish rad etiladi. Biroq, shu o'rinda ta'kidlash kerakki, sudyaning ushbu bandda nazarda tutilgan asos bo'yicha arizani qabul qilishni rad etishi, basharti, yo'l qo'yilgan xatolar bartaraf etilsa, shu ish bo'yicha sudga ikkinchi marta ariza bilan murojaat etishga to'sqinlik qilmaydi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslikning navbatdagi oqibati FPKning 146-moddasida nazarda tutilgan. Unga ko'ra, ish muayyan sudda ko'rilayotganida bu ish sudlovga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda yuritishga qabul qilinganligi ma'lum bo'lib qolsa, ish ko'rish boshqa sudga o'tkaziladi.

Sudlovlilik qoidalariga rioya qilinmasdan chiqarilgan hal qiluv qarori bekor bo'lishiga olib kelmasdan, balki sudyaga nisbatan yuqori sud tomonidan xususiy ajrim chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Xususan, FPKning 316-moddasida apellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalari ishni ko'rgan sud tomonidan yo'l qo'yilgan qonunni buzish hollari hal qiluv qarorini bekor qilish, o'zgartirishga yoxud yangi hal qiluv qarori chiqarishga asos bo'lmaydi, deb topsalar, bu haqda ajrimda, qarorda yoki maxsus qabul qilindigan xususiy ajrimda ko'rsatishlari lozimligi belgilab qo'yilgan.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik ishlarining sudlovlilik deganda nimani tushunasiz?
2. Sudlovlilikning qanday turlari mavjud?
3. Turdosh sudlovlilik haqida gapiring.
4. Hududiy sudlovlilik nima va uning qanday turlari mavjud?
5. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazishning qanday asoslari mavjud?
6. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish tartibi haqida gapiring.
7. Fuqarolik ishlari sudlovlilikining xo'jalik ishlarining sudlovlilikidan qanday farqi bor?
8. Fuqarolik ishlari sudlovlilikining jinoiy ishlarining sudlovlilikidan farqini ayting.
9. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslikning qanday oqibatlari bor?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
7. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik ishlarining sudlovliligi: uni takomillashtirishning ayrim masalalari «O'zbekiston qonunchiligi tahlili» jurnali, 2007, № 2.
8. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik ishlarining sudlovliligi tushunchasi, turlari va uning ahamiyati. «O'zbekiston qonunchiligi tahlili» jurnali, 2007, № 2.

13-bob. DA'VO QO'ZG'ATISH HUQUQI

13.1. Da'vo tushunchasi

Avvalambor, «da'vo» asli arabcha so'z bo'lib, u o'z haq-huquqini himoya qilish haqida sud orqali yoki boshqa yo'llar bilan qo'yilgan talabni anglatadi¹. «Muxtasar»da esa, da'vo so'zining lug'aviy ma'nosi «talab qilmoq», deb talqin qilinadi. Shariatda da'vo birovning ustida haqi borligini qozi huzurida yoki hukm arafasida xabar berishdir. Da'vogar shunday bir shaxski, da'vo qilish uchun majbur qilinmaydi. Javobgar shunday bir shaxski, u javob berish uchun majbur qilinadi².

E.Egamberdiyevning fikricha, da'vo – bu buzilgan huquqni yoki qonuniy manfaatni himoya qilishdan bevosita manfaatdor bo'lgan shaxsning o'z huquqini yoki qonuniy manfaatini himoya qilish maqsadida grajdanlik ishini ko'rib hal qilish to'g'risidagi moddiy-huquqiy talab bilan sudga qilgan murojaati, sudda grajdanlik ishini qo'zg'atish asosi va buzilgan huquqni hamda qonuniy manfaatni himoya qilishning asosiy protsessual vositasi hisoblanadi³.

13.2. Da'voning elementlari

Da'voning bir-biridan farq qiladigan quyidagi ikki elementi mavjud:

- da'voning predmeti;
- da'voning asosi.

Mazkur elementlar birgalikda da'voning mazmunini tashkil qiladi va ayni paytda har bir aniq da'voni individuallashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. M., «Rus tili», 1981, 215-bet. *Sh.Sh. Sho-rahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 150-bet.

² Muxtasar (shariat qonunlariga qisqacha sharh). T., «Cho'lpon», 1994, 269-bet.

³ *E. Egamberdiyev*. Fuqarolik jarayoni huquqida da'vo muammolari. T., «Adolat», 1994, 8-bet.

Da'voning predmeti. Da'vo tuzilmasi murakkab huquqiy tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun ham qonunchilik unda bir qator elementlarni ajratish imkoniyatini beradi.

Da'vo elementlari deganda, da'vo tuzilmasini aks ettiruvchi ichki qismlari tushuniladi.

Da'voning birinchi elementi — bu da'vo predmeti hisoblanib, da'vogarning javobgarga nisbatan bildirilgan talabi tushuniladi. Masalan, mualliflik huquqini tan olish, ishga tiklash, yetkazilgan zararni qoplash haqidagi da'volar.

FPKning 149-moddasi birinchi qismi 4-bandida belgilanganidek, da'vogar da'vo arizasida javobgarga nisbatan bildirilayotgan o'z talabini ko'rsatishi lozim. Da'vo predmetini aniqlash huquqi faqat da'vogarga tegishlidir.

Da'vogarning moddiy-huquqiy talabi o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Darhaqiqat, da'vo qanday turda bo'lmasin, unda da'vogar tomonidan ko'rsatilgan moddiy-huquqiy talablar yuridik faktlarga asoslangan holda vujudga keladi.

Da'voning tarkibiy qismi uning predmetini tashkil qiladigan da'vogarning javobgarga bo'ladigan moddiy-huquqiy talab bilan bunday talabni keltirib chiqaradigan yuridik faktlar (da'voning asosi) birgalikda ish bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sud majlisida ko'rib chiqish ko'lamini va yo'nalishini ma'lum ma'noda aniqlab beradi.

Da'voning asosi deganda, da'vogarning talab qilish huquqini keltirib chiqaradigan yuridik faktlar, da'vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar tushuniladi.

Da'vo asosini bunday tushunishga FPKning 149-moddasi birinchi qismi 6-bandi xizmat qiladi. Da'vogar da'vo arizasida nafaqat o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlarni, balki yuridik faktlarni, ya'ni fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishini belgilaydigan holatlarni ham keltirishi lozim.

Shu o'rinda E. Egamberdiyev ham faqat yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarga da'voning asosi bo'la olishini, buning sababi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar ma'lum huquqiy munosabatlarni vujudga keltirishi, o'zgartirishi yoki bekor qilishini, agar fakt yuridik ahamiyatga ega bo'lmasa, hech qanday huquqiy

oqibat keltirib chiqarmasligini, shuning uchun da'vogar da'voning ikkinchi elementi bo'lmish da'vo asosini tashkil qiladigan, o'zining moddiy-huquqiy talablarini keltirib chiqaradigan yuridik faktlarni da'vo arizasida ko'rsatib berishi lozimligini qayd qilib o'tadi¹.

13.3. Da'voning turlari

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida da'voning predmeti bo'yicha uning protsessual xususiyatlariga qarab turlarga bo'lish tan olingan umumiy qoida hisoblanadi. Bunga ko'ra, da'volar o'z protsessual xususiyatiga qarab tan olish va undirish to'g'risidagi da'volarga bo'linadi.

Undirish to'g'risidagi da'voda sudga murojaat qilgan da'vogar, birinchidan, nizoli huquqni, uning foydasiga hal qilib berishni so'rasa, ikkinchidan, huquqni tiklashni yoki yo'l qo'yilgan qonun buzilishini bartaraf qilish uchun javobgarni ma'lum harakatlarni qilishga majbur etishni so'raydi. Boshqacha qilib aytganda, undirish haqidagi da'vo, da'vogar o'ziga ma'lum subyektiv huquqni tan olinishini, javobgarni bu tan olingan huquqqa muvofiq ma'lum harakatlarni amalga oshirishni – pul mablag'lari, mulkni berish, yer maydoni, yashash joyini ozod etish harakatlarini amalga oshirishni talab qilishi bilan tavsiflanadi.

Tan olish haqidagi da'volarda esa, da'vogar suddan nizoli huquqiy munosabatning mavjudligini yoki yo'qligini tasdiqlashni yoxud nizoli huquqning o'ziga tegishli ekanligini tan olishni so'raydi.

Tan olish haqidagi da'volar ikki turga – ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi. Tan olish haqidagi ijobiy da'vo da'vogar o'ziga ma'lum bo'lgan huquqni tan olish haqidagi talabni, masalan, yashash joyiga mulk huquqini tan olish haqidagi talabni asoslab berishdan iboratdir.

Tan olish haqidagi salbiy da'vo bo'yicha da'vogar ma'lum huquqning mavjudligini rad etadi, da'vogar o'zining biron-bir majburiyatga ega emasligini tasdiqlaydi, masalan, otalik haqidagi akt yozuvi bo'yicha nizolashish haqidagi da'vo shular jumlasidandir. Shunday qilib, tan olish haqidagi da'volarni umumiy tavsiflovchi

¹ E. Egamberdiyev. Fuqarolik jarayoni huquqida da'vo muammolari. T., «Adolat», 1994, 51-bet.

xarakteri da'vogar suddan o'ziga bir narsani olib berish yoki undirib berishni emas, balki subyektiv huquq, manfaatni tan olish yoki ularni rad etishni talab qilishidan iborat.

13.4. Da'vo qo'zg'atish

Sudga murojaat qilayotgan shaxslar fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilangan shartlar va tartibga rioya qilishlari talab etiladi. Zero, FPKning 1-moddasida har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilangan bo'lib, bu, o'z navbatida, sudga murojaat qilayotgan shaxslarga qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilish majburiyatini ham yuklaydi.

Sudda da'vo ishlarini qo'zg'atishning asosiy shartlaridan biri sudga murojaat qiluvchi shaxslar doirasini to'g'ri aniqlashdan iboratdir.

FPKning 5-moddasiga muvofiq, sud fuqarolik ishini quyidagi hollarda qo'zg'atadi:

1) o'zining huquqi yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilishni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasi bo'yicha;

2) prokurorning arizasi bo'yicha;

3) agar davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunga muvofiq boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishga haqli bo'lsalar, ularning bergan arizalari bo'yicha.

Fuqarolik ishlarini sudda qo'zg'atish quyidagi protsessual harakatlarni amalga oshirish oqibatida ro'y beradi:

- manfaatdor shaxslarning sudga murojaat qilishi;
- berilgan arizaning sud tomonidan qabul qilinishi.

Sudya shaxsning sudga murojaat etish huquqi borligiga ishonch hosil qilganidan so'ng, sudga murojaat etish qoidalari buzilmaganligini tekshirishi lozim. Bunday qoidalar quyidagilardan iboratdir:

- mazkur nizoni sudgacha bo'lgan tartibda hal qilish qoidalariga rioya qilganligini aniqlash;
- sudga bu ishning tegishlilikini aniqlash;
- vakilning mazkur ishda qatnashishga vakolatli ekanligini aniqlash;

- arizaning shakli va mazmuniga oid protsessual qonun talablariga rioya qilinganligini tekshirish;
- davlat bojining to'langanligini aniqlash.

Sudya faqat qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani qabul qilishni rad etishga haqli bo'ladi. Keltirilgan talablarning isbotlanmaganligi, da'vo muddatini o'tkazib yuborilganligi va boshqa, qonunda nazarda tutilmagan asoslar bo'yicha arizani qabul qilish va fuqarolik ishini qo'zg'atish rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Da'vo arizasi FPKning 149 va 150-moddalari talablariga rioya qilinmay berilgan hollarda harakatsiz qoldiriladi va FPKning 154-moddasiga asosan, kamchiliklarni bartaraf etish muddati ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan muddatda kamchiliklar bartaraf etilmasa, ariza berilmagan hisoblanib, da'vogarga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

13.5. Bir necha da'vo talablarini birlashtirish va ajratish

FPKning 155-moddasiga ko'ra, da'vogar bir arizada o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha talabni birlashtirishga haqli bo'ladi. Bunday hollarda da'vo asoslari va predmetlari umumiy bir-biri bilan bog'liq bo'lganida, talablar ham bir turda bo'lganida da'volarning obyekt sifatida birlashtirilishi to'g'risida so'z boradi¹.

Bir necha talablarni birlashtirish ishda ishtirok etuvchi taraflar bir xil bo'lganligi, dalillar umumiy bo'lganligi munosabati bilan bir necha fuqarolik ishining tez va o'z vaqtida samarali ko'rilishini ta'minlaydi. Bularning barchasi sudyaning, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vaqtini tejaydi, sud xarajatlari ko'payishining oldini oladi. Sud amaliyotida mehnat, turar-joy, oila huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha da'vogarlar bir-biri bilan bog'liq bo'lgan talablarni o'zaro birlashtirishlari mumkin. Masalan, ishga tiklash, majbur bekor yurgan vaqt uchun ish haqini undirish va ma'naviy zararni undirish haqidagi yoki nikohdan ajratish va aliment undirish haqidagi talablar shular jumlasidandir.

FPKning 156-moddasiga ko'ra, sudya shu sudda aynan bir taraflar ishtirok etayotgan bir turdagi bir necha ish yuritila-

¹ *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 158-bet.

yotganligini yoxud bir shaxsning turli javobgarlarga yoki bir necha da'vogarning aynan bitta javobgarga nisbatan arizalari bo'yicha bir necha ish yuritilayotganligini aniqlasa, agar bu ishlarni birlashtirish ishning o'z vaqtida va to'g'ri hal qilinishiga yordam bersa, ularni birgalikda ko'rish uchun bitta ishga birlashtirishga haqli bo'ladi.

Sudya bir necha talablarni birlashtirish huquqiga ega bo'lganidek, unga bunday talablarni ajratish huquqi ham beriladi. FPKning 157-moddasiga ko'ra, agar arizani qabul qilayotgan sudya talablarni alohida ko'rishni maqsadga muvofiq deb topsa, birlashtirilgan talablardan birini yoki bir nechasini alohida ish yuritish uchun ajratishga haqli.

Bir necha da'vogar tomonidan yoki bir necha javobgarga nisbatan talablar qo'zg'atilsa, arizani qabul qilayotgan sudya, agar talablarni alohida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topsa, ulardan biri yoki bir nechasini alohida ish yuritish uchun ajratishga haqli.

13.6. Da'voga qarshi e'tiroz bildirish

Javobgar o'ziga nisbatan qo'zg'atilgan da'voni inkor etishi va buning sabablari (vajlari)ni ko'rsatishi mumkin. Da'voni bunday asoslantirilgan ravishda inkor etishga *e'tiroz* deb aytiladi.

E'tiroz o'zining sohaviy tavsifi va mazmuni bo'yicha moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy jihatlariga ajratiladi.

Da'voga qarshi javobgarning moddiy-huquqiy himoyasi moddiy huquq borasida mazkur da'voning mohiyati bo'yicha tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Masalan, javobgar da'vogarning talabi asoslangan qonun yoki o'zga normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligini yoxud mazkur qonun yoki normativ-huquqiy hujjat o'z kuchini yo'qotgan, deb ta'kidlashi va ushbu holatni isbotlashi mumkin. Javobgar moddiy huquq me'yorlari nazarda tutgan da'voning barcha yoki alohida asoslarining yo'qligiga da'vo muddati o'tganligini ko'rsatishi mumkin.

Da'voga qarshi moddiy-huquqiy e'tirozlarning mazmuni da'vogar suddan talab qilgan subyektiv moddiy huquq turli sabablarga ko'ra, mavjud emasligi haqidagi dalillarni keltirishdan iboratdir.

Da'voga qarshi e'tirozlarning sud tomonidan e'tiborga olinishi oxir-oqibat da'vogarning da'vo talablari qanoatlantirilishini rad etishga, javobgarning manfaatlariga xizmat qiluvchi hal qiluv qarorining chiqarilishigi xizmat qiladi.

Da'voga qarshi protsessual huquqiy e'tiroz — bu mazkur sud jarayonining haqiqiy emasligini isbotlashga qaratilgan javobgar tomonidan bildirilgan dalildir. Masalan, javobgar umumiy yurisdiksiya sudiga fuqarolik ishining tegishli emasligini ko'rsatib, uni tegishlicha isbotlashi mumkin. Bu esa sud tomonidan ish yuritilishini tugatilishiga olib keladi.

13.7. Javobgar manfaatini himoya qilish

Javobgar manfaatini himoya qilishning ikkinchi protsessual vositasi qarshi da'vodir. Qarshi da'vo — javobgar da'vogarga asosiy protsessda birgalikda ko'rib chiqish uchun bergan da'vosidir.

E'tirozdan qarshi da'voning farqi shundaki, bunda da'vogarning talabiga qarshi boshqa biron-bir moddiy-huquqiy talab qo'yiladi.

FPKning 246-moddasiga muvofiq, sud ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqarguniga qadar javobgar dastlabki da'vo bilan birga ko'rib chiqilishi uchun da'vogarga nisbatan qarshi da'vo taqdim etishga haqli. Qarshi da'vo taqdim etish to'g'risidagi umumiy qoidalarga binoan amalga oshiriladi, ya'ni u FPKning 149-moddasiga muvofiq rasmiylashtirilishi, u bo'yicha davlat boji to'lanishi, javobgarlar (ya'ni birinchi da'vo bo'yicha da'vogarlar) soniga muvofiq nusxalar ilova qilinishi lozim.

Qarshi da'voni qabul qilish shartlari FPKning 247-moddasida belgilangan. Quyidagi hollarda sudya qarshi da'voni qabul qilishi shart:

- 1) qarshi da'vo dastlabki da'voni qoplashga qaratilgan bo'lsa;
- 2) qarshi da'voning qanoatlantirilishi dastlabki da'vo qanoatlantirilishini butunlay yoki qisman istisno etsa;
- 3) qarshi va dastlabki da'vo o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud bo'lib, ularni birga ko'rish nizo tezroq va to'g'ri hal qilinishiga yordam bersa.

13.8. Da'voni ta'minlash

Da'vo arizasi bilan murojaat qilgan da'vogarning asosiy maqsadi o'z talablari javobgar tarafidan ixtiyoriy bajarilmasa, ularning majburiy ijro etilishini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Ba'zi hollarda da'vogarning foydasiga qabul qilingan qaror bajarilishi juda qiyin bo'lishi yoki uni umuman bajarib bo'lmasligi mumkin. Mazkur holatning oldini olish maqsadida da'voni ta'minlash instituti joriy qilingan.

Da'voni ta'minlash choralarini ko'rmaslik sudning hal qiluv qarorining ijrosini qiyinlashtiradigan yoki uning bajarilmasligiga sabab bo'ladigan bo'lsa, ishning har qanday holatida ham da'voni ta'minlashga yo'l qo'yiladi.

Da'voni ta'minlash uchun bo'lgan asoslar FPKning 248-moddasida belgilangan. Unda ko'rsatilishicha, sud yoki sudya ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan da'voni ta'minlash choralarini ko'ra oladi.

Umumiy qoida bo'yicha da'voni ta'minlash chorasi da'vo qo'zg'atilganidan so'nggina ko'riladi. Bu qoidadan ayrim istisnolar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi qoidalari bilan belgilangan bo'lib, ba'zi sharoitlarda hali qo'zg'atilmagan da'volarni ham ta'minlash choralari ko'rilishi nazarda tutiladi. Xususan, JPKning 57-moddasi birinchi qismiga ko'ra, fuqaroviy da'vogar surishtiruvchidan, tergovchidan, prokurordan yoki suddan da'voni ta'minlash choralarini ko'rish haqida iltimos qilish huquqiga egadir.

Quyidagilar da'voni ta'minlash choralari bo'lishi mumkin:

- javobgarga tegishli bo'lgan va uning o'zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulk yoxud pul summasini xatlash;
- javobgarning muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash;
- boshqa shaxslarning javobgarga mol-mulk berishini yoki unga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishini taqiqlash;
- mol-mulkni xatlashdan chiqarish to'g'risida da'vo taqdim etilgan taqdirda, uni sotishni to'xtatish;
- agar qarzdor ijro hujjati yuzasidan da'vo tartibida nizolashayotgan bo'lsa va bunday nizolashishga qonun hujjatlarida yo'l qo'yilsa, bu hujjat bo'yicha undiruvni to'xtatish.

13.9. Jinoiy ishlarda fuqaroviy da'volar

O'zbekiston Respublikasi JPKning 56-moddasiga muvofiq, jinoyat, xuddi shuningdek, aqli noraso shaxsning jamoat uchun xavfli qilmishi shaxsga, korxonaga, muassasaga yoki tashkilotga mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lsa, ular *fuqaroviy da'vogar* deb e'tirof etiladi. Fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Voyaga yetmaganlarning, shuningdek, muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun fuqaroviy da'vo ularning qonuniy vakillari va prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Jinoyat ishidagi fuqarolik da'vosi deb, jinoyat tufayli ko'rilgan mulkiy zarar to'g'risidagi jabrlanuvchining jinoyat ishida ayblanuvchiga yoki uning harakatlari uchun moddiy javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan qilgan talabiga aytiladi.

Fuqaroviy da'vogar quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- fuqaroviy da'vo taqdim etish va uni quvvatlash;
- dalillar taqdim qilish;
- qo'zg'atilgan da'vo bo'yicha tushuntirishlar berish;
- o'z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish;
- iltimosnoma berish va rad qilish;

• surishtiruvchidan, tergovchidan, prokurordan yoki suddan da'voni ta'minlash choralari ko'rish haqida iltimos qilish;

• dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish;

• birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining majlislarida ishtirok etish;

• surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish;

• sud hukmi va ajrimining fuqaroviy da'voga tegishli qismi ustidan shikoyat qilish;

• ish bo'yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish.

Shuningdek, fuqaroviy da'vogar quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi talab etiladi:

• surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi va ularning talablariga asosan fuqaroviy da'voga tegishli bo'lgan dalillar taqdim etish;

• haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmaslik;

• ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan shaxs ayni vaqtda jabrlanuvchining barcha huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini bajaradi (JPKning 57-moddasi).



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sudda da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladigan qanday ishlarni bilasiz?
2. Da'vo deganda nimani tushunasiz?
3. Da'voning qanday elementlari bor?
4. Da'vo qanday turlarga ajratiladi?
5. Da'voga bo'lgan huquq deganda nimani tushunasiz?
6. Da'vo taqdim etishga bo'lgan huquq deganda nimani tushunasiz?
7. Da'vo talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablaridan voz kechish haqida gapiring.
8. Da'voni birlashtirish va ajratishning asoslari hamda tartibi qanday?
9. Da'voga qarshi javobgar huquqlarini himoya qilishning qanday protsessual vositalari mavjud?
10. Da'voga qarshi e'tiroz bildirishning qanday tomonlari mavjud?
11. Qarshi da'vo nima va uni qo'zg'atishning tartibi qanday?
12. Da'voni ta'minlash deganda nimani tushunasiz va uni ta'minlashdan maqsad nima?
13. Da'voni ta'minlashning qanday choralari mavjud?
14. Jinoiy ishlarda fuqaroviy da'volar deganda nimani tushunasiz?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *M.M. Mamasiddiqov.* Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
7. *E.E. Egamberdiyev.* Da'vo va uning elementlari. O'quv qo'llanma. T., «Adolat», 2000.
8. *E. Egamberdiyev.* Fuqarolik jarayoni huquqida da'vo muammolari. Yurid. fan. dok. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. T., 2007.

14-bob. FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR

14.1. Fuqarolik protsessida isbotlash tushunchasi

Fuqarolik protsessida ham ish uchun muhim bo'lgan dalillarni aniqlash borasidagi faoliyat sud orqali amalga oshiriladi va u «*dalillarni isbotlash*» deb nomlanadi. O'z navbatida, sud tomonidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar *isbotlash predmeti* deb atalsa, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni isbotlash amalga oshiriladigan vositalar *sudga oid dalillar* deyiladi.

Darhaqiqat, tortishuvchilik prinsipiga muvofiq, sud taraflarga ish bo'yicha dalillar to'plashga ko'maklashadi, agar qo'shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirsa, sud ularning iltimosnomasiga ko'ra dalillar to'plashda ularga yordam ko'rsatadi.

Isbotlash sudga oid dalillar yordamida ish holatlarini aniqlash bo'yicha faoliyat hisoblanib, taraflarning va manfaatdor shaxslarning ishga doir dalillarni to'plash, sudga taqdim etish, uni tekshirish va baholash jarayonlarida ishtirok etishi kabi protsessual harakatlari natijasida yuzaga keladi.

Suddagi isbotlashning subyektlari sifatida faqat taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar e'tirof etiladi.

14.2. Isbotlash predmeti

Sudga oid dalillar va umuman, isbotlashning barcha jarayonlari ish yuzasidan moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Shu ma'noda isbotlash predmeti fuqarolik ishini ko'rish va mazmunan hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuridik faktlar hisoblanadi.

Fuqarolik protsessi taraflarning tortishuvi asosida qurilganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir taraf o'zining talab va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashi, sudga murojaat qilgan

da'vogar o'z talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillarni taqdim etishi shart (FPKning 57-moddasi birinchi qismi, 149-moddaning birinchi qismi). Aynan mazkur faktlardan ish bo'yicha isbotlash predmeti yuzaga keladi.

Sud isbotlash predmetini taraflarning talab va e'tirozlari hamda ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan moddiy huquq normalariga amal qilgan holda belgilaydi.

Isbotlash predmetiga mansub bo'lgan faktlar tarkibi har bir fuqarolik ishi bo'yicha turlicha bo'ladi. Masalan, birgina ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha isbotlash predmeti, o'zida ma'naviy zarar uchun to'lov miqdori, javobgarning ayb darajasi va uning huquqqa xilof harakati (harakatsizligi), javobgarning jismoniy, ruhiy azoblari va ularning nimalarda ifoda etilishini mujassam etuvchi murakkab yuridik tarkib hisoblanadi.

Isbotlash predmetiga, birinchi navbatda, da'voning asosiga qo'yilgan faktlar, ya'ni da'vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar mansub bo'ladi. Isbotlash predmetiga, shuningdek, javobgar tomonidan da'voga qarshi bildirilgan e'tirozlarni asoslaydigan faktlar ham kiradi.

Ayrim hollarda taraflar o'z talab va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlarda xatolikka ham yo'l qo'yishi mumkin. Masalan, taraflar ish uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lmagan dalillarni taqdim etish holatlari uchraydi. Ayrim hollarda taraflar, aksincha, huquqiy oqibat yuzaga keltiradigan hamma dalillarni ham sudga taqdim etavermaydilar. Shuning uchun ham isbotlash predmetiga kiradigan faktik holatlar doirasini oxir-oqibat sud belgilaydi.

Sud faqat ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan dalillarnigina ko'rishga qabul qiladi, raislik qiluvchi sud majlisini boshqarib, ishning barcha holatlari, taraflarning huquq va majburiyatlari to'liq, har taraflama va xolisona aniqlanishini, sud protsessining tarbiyaviy ta'sirini ta'minlaydi, ko'rilayotgan ishga aloqasi bo'lmagan hamma narsani sud muhokamasidan chetlatadi (FPKning 58-moddasi, 164-moddasi ikkinchi qismi).

14.3. Isbotlashdan ozod qilish asoslari

Isbotlashdan ozod qilinadigan holatlar fuqarolik protsessual huquqida ikki asosga: hammaga ma'lum deb topilgan holatlarga va prejudisial (avvaldan aniqlangan faktlar, lotincha «*praejudicium*» — dastlabki hal qiluv qarori) asoslarga bo'linadi.

FPKning 60-moddasiga ko'ra, sud hammaga ma'lum deb topgan holatlarni isbotlashga muhtoj emas. Darhaqiqat, hammaga ma'lum bo'lgan, shu jumladan, sudyalarga ham ma'lum bo'lgan shunday faktlar horki, ularning bo'lgan-bo'lmaganligini isbotlash mutlaqo talab qilinmaydi.

Ta'kidlash kerakki, ma'lumotlarning tarqalganlik ko'lamiga ko'ra hammaga ma'lumlik darajasi turlicha bo'ladi, ya'ni:

- mamlakat hududidan tashqariga chiqishi, ya'ni dunyo bo'yicha ma'lum faktlar. Dunyo bo'yicha ma'lum bo'lgan faktlarga misol qilib Chernobil AESda yuz bergan avariya va uning sodir bo'lgan kunini (1986-yil 26-aprel) keltirish mumkin va h.k.;

- mamlakat hududida ma'lum faktlar;

- mahalliy tusga ega bo'lib, ish ko'rilayotgan muayyan bir viloyat yoki tuman hududida ma'lum faktlar.

Tarqatilganlik darajasiga ko'ra, hammaga ma'lum faktlar isbotlashga muhtoj emas, biroq tarqatilganlik darajasi bilan quyidagi huquqiy oqibatlar bog'liq: mamlakat doirasida hammaga ma'lum bo'lgan faktni sud qat'iy tartibda o'zining qarori bilan hal qilishi mumkin. Agar fakt, masalan, bitta tuman doirasida ma'lum bo'lsa, bu fakt dalillar bilan tasdiqlanmaydi va shu sababli sud o'z qarorida bu holat shu joyda yashovchi hamma aholiga ma'lum bo'lishi va shu tufayli bu holatning da'vogar yoki javobgar tomonidan dalillar bilan isbotlanishi zarur bo'lmasligini ko'rsatadi.

Isbotlashdan ozod qilishning ikkinchi asosi faktning preyudisialligi (muqaddam hal etilganligi) hisoblanib, unga ko'ra, bir fuqarolik ishi bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan aniqlangan faktlar, aynan shu shaxslar ishtirok etayotgan boshqa fuqarolik ishi ko'rilishida qayta isbotlanmaydi.

FPKning 60-moddasiga muvofiq, jinoyat ishi bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi sud tomonidan hukm etilgan shaxs harakatlarining fuqarolik-huquqiy oqibatlari to'g'risidagi ishini ko'rib chiqayotgan sud uchun faqat shu harakatlar sodir etilgan yoki sodir etilmaganligi va ular mazkur shaxs tomonidan sodir etilgan yoki etilmaganligi masalalari yuzasidangina majburiydir. Sud jinoyat ishidan kelib chiquvchi da'voni ko'rishda javobgarning aybdorligi masalasini muhokama qilishga haqli emas, balki faqat fuqaroviy nizoni hal qilishi mumkin. Sudning xulosasida hukmning mavjudligidan tashqari, taraflar tomonidan taqdim etilgan yoki fuqarolik ishini ko'rish jarayonida sud tomonidan to'plangan dalillar ko'rsatilishi kerak.

Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida baʼzan nizosiz va yuridik farazli (preziumpsiya) faktlar ham isbotlashdan ozod qiladigan asoslar hisoblanadi. Isbotlashdan ozod qiladigan asoslarning ushbu turi huquq fanida belgilangan yuridik faraz deb ataladi. Yuridik (huquqiy) faraz deganda, huquq normasi bilan belgilangan, muayyan huquqiy oqibatlar tugʻdiradigan va tarafdardan birini faraz qilingan faktik isbotlashdan ozod qiladigan asos tushuniladi¹.

Prezumpsiya ishda ishtirok etuvchi tarafdardan birini ishga oid maʼlum bir faktlarni isbotlashdan ozod qiladi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 260-moddasiga koʻra, qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga toʻlashi shart boʻlgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Neustoyka toʻlash haqidagi talab boʻyicha kreditor oʻziga yetkazilgan zararni isbotlash majburiyatidan ozod boʻladi.

14.4. Dalillarning tasnifi

Dalillar haqida chuqur bilimga ega boʻlish maqsadida ular tasniflanadi (klassifikatsiyalanadi).

Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida dalillarning ikki umumeʼtirof etilgan tasnifi mavjud:

- *birinchidan*, dastlabki va hosila;
- *ikkinchidan*, toʻgʻri va egri.

Dalilni dastlabki va hosila turlariga boʻlish shu va boshqa dalillarning shakllanish jarayoniga asoslangan. Dastlabki dalil bevosita birinchi manbadan olingan dalil boʻladi. Dastlabki dalil oʻz koʻzi bilan koʻrgan guvohning koʻrsatmasi boʻladi, boshqa shaxsdan faktlar toʻgʻrisida bilib olgan guvohning koʻrsatmasi hosila dalil boʻladi. Hujjatning asl nusxasi (masalan, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma) — dastlabki dalil; undan olingan nusxa — hosila. Hodisa joyida qolgan izlar yoki qandaydir predmetda qolgan izlar — dastlabki dalil; izlardan olingan nusxa, qayta ishlangan barmoq izlari pleyonkalari — hosila dalil hisoblanadi.

Hosila dalillar dastlabki dalilning mazmunini aks ettiradi, ular koʻpincha, dastlabki dalilga koʻra chalkashroq, yanglishroq boʻladi. Shuning uchun sud bevositalik prinsipiga muvofiq, dastlabki manba

¹ Sh.Sh. *Shorahmetov*. Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001. 175—176-bet.

bo'yicha ish holatini tekshirishi kerak, hosila dalillarni esa dastlabki manbani topish uchun qo'llash kerak.

Dalilning to'g'ri va egriga bo'linishi dalilning noma'lum fakt to'g'risida bitta ma'lum xulosani berish imkoniyatiga – uning borligi yoki yo'qligi yoxud tasodifiy xulosaning bir nechtaligiga asoslangan. Hattoki, alohida olingan, to'g'ri dalil deb, noma'lum fakt bo'yicha bitta ma'lum xulosani olishga imkon beradigan faktga aytiladi.

Alohida olingan egri dalil noma'lum faktga nisbatan bir nechta fikrlar, taxmin qilingan xulosalarga asos bo'ladi. Shuning uchun bitta egri dalil noma'lum fakt bo'yicha xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Agar egri dalil alohida emas, boshqa ish bo'yicha boshqa dalillar bilan olinsa, unda ularni taqqoslab turib, asoslanmagan fikrlarni chiqarib yuborish kerak va bitta xulosaga kelish kerak.

Masalan, javobgar da'vogardan qarzga pul so'rayotgan xatning sudga taqdim etilishi, taraflar o'rtasidagi qarz shartnomasining kelishuvi egri hisoblanadi. U albatta, javobgar so'ragan pulni da'vogar bergan taxminni beradi, biroq boshqa taxmin ham bundan mustasno emas, ya'ni ushbu xatga rad javobi berish. Agar javobgar olgan pulni belgilangan muddat ichida topshira olmasligini va da'vogarni kelib turishini so'rasa, endi bu egri hisoblanmaydi, balki qarz shartnomasi bo'yicha to'g'ri dalil bo'ladi, chunki boshqa hech qanday fikrlar (taxminlar) uchun asos qolmaydi.

Egri dalillar fuqarolik ishi bo'yicha to'g'ri dalillar yo'q bo'lganda ishlatiladi. Ayniqsa, to'g'ri dalillar yolg'on ma'lumotlarga ega bo'lgan kategoriyadagi ishlarda ko'pincha egri dalillarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Mulkni hisobga olishdan ozod qilish to'g'ri-sidagi ishlarda mulkning haqiqatan tegishli ekanligini aniqlash uchun ko'pincha egri dalillarga murojlat qilishga to'g'ri keladi.

Egri dalillardan foydalanish to'g'ri dalillarga qaraganda qiyinroq. To'g'ri dalilga nisbatan sudning asosiy vazifasi ularning haqiqiylikini aniqlash, agar haqiqiyliги aniqlansa, unda to'g'ri dalildan keyinchalik foydalanish qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki noma'lum faktlar to'g'ridan to'g'ri tasdiqlanadi va rad etiladi. Egri dalilning haqiqiylikini tekshirib bo'lgandan keyin, barcha fikrlarni, taxmin qilingan barcha takliflarni tekshirish vazifasi paydo bo'ladi. Buning uchun vaziyatning holatini tiklovchi barcha faktlarni bir tizimga solish uchun yoki egri dalilning chigal zanjirini yechish uchun egri dalilli ish bo'yicha barcha dalillarning majmuasi va holatlarini tekshirish kerak. Bu suddan barcha ish materiallarini sinchiklab tekshirishni talab qiladi.

Odatda, olingan manbasi bo'yicha dalillar ikki turga bo'linadi — shaxsiy va ashyoviy. Shaxsiy dalillarga taraflar va uchinchi shaxslarning tilxati, guvohlarning ko'rsatmasi, ekspertlarning xulosasi; ashyoviy dalillarga — turli shakldagi buyumlar kiradi.

Yozma dalilga kelsak, ayrim mualliflar ularni shaxsiy dalilga kiritadi, chunki ular inson tomonidan tuziladi. Boshqalar esa, hujjatlar keng ma'noda buyumlar, moddiy dunyoning obyektini hisoblanar ekan, demak, ularni ashyoviy dalillarga kiritish mumkin.

14.5. Isbotlash vositalari va ularning turlari

Sudda nizoli fuqarolik da'vosi qo'zg'atilganida, avvalo, taraflardan isbot keltirish, ya'ni da'vo talabining asosli bo'lishi yoinkining aossizligini isbotlash talab qilinadi. Fuqarolik protsessida isbotlash vositalari dalillar bo'lib hisoblanadi..

FPKning 56-moddasi isbotlash vositalarining quyidagi besh turi mavjudligini ko'rsatadi:

- *birinchidan*, taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari;

- *ikkinchidan*, guvohlarning ko'rsatuvlari;

- *uchinchidan*, yozma dalillar;

- *to'rtinchidan*, ashyoviy dalillar;

- *beshinchidan*, ekspertlarning xulosalari.

Ish bo'yicha hal qiluv qarorini chiqarishda sud tomonidan tekshirilmagan ma'lumotlarga tayanish mumkin emas, balki faqat qonunda belgilangan manbalardan isbotlash vositasi sifatida foydalanilishi lozim.

Taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari. *Taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari* qonun tomonidan yo'l qo'yilgan dalil turlaridan biri hisoblanadi (FPKning 56-moddasi birinchi qismi).

Taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari deganda, Fuqarolik protsessual kodeksi mazmunidan kelib chiqqan holda, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni sudga xabar qilishi nazarda tutiladi.

Taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari haqqoniy daliliy ma'lumotlar olish, qonun tomonidan belgilangan isbotlash vositalarini olish va o'rganish tartibi bilan amalga oshiriladi. *Taraflar va uchinchi shaxslar tushuntirishlari umumiy qoidaga ko'ra, ishni*

mazmunan ko'rib chiqayotgan sud oldida beriladi. Taraflar boshqalardan ko'ra, ishning holati bilan yaxshi tanishish va ular haqida ma'lumot berishi mumkin.

Biroq, hal qiluv qarori ular foydasiga chiqarilishidan manfaatdordirlar va shu sababli o'zlarining faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarini buzib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bularning hammasi taraflarning tushuntirishlarida hisobga olinishi kerak. Taraflar va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining o'zlariga ma'lum va ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risidagi tushuntirishlari ish yuzasidan to'plangan boshqa dalillar qatori tekshirilishi va baholanishi lozim (FPKning 68-moddasi).

Guvohlarning ko'rsatuvlari. Ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi.

Fuqarolik protsessida guvoh sifatida ishtirok etish uchun qonun bir qator talablarni ilgari suradi: guvoh bo'ladigan fuqaro ro'y bergan hodisalarni o'zlashtirishga, yodida saqlashga va so'ngra ular to'g'risida ma'lumotlar berishga qobiliyatli bo'lishi kerak. Biron-bir faktni, ish holatini to'g'ri qabul qilish, yodda saqlash va bu to'g'rida sudda to'g'ri ma'lumotlar berish uchun guvohning sezgi organlari normal bo'lishi kerak. Ammo bu organlardan birida nuqson bo'lishi, hodisani o'zlashtirishga yaroqsiz bo'lishi, uning hoshqa sezgi organlari bilan qabul qilingan faktlar to'g'risida ma'lumot berishga to'sqinlik qilmaydi. Masalan, ko'zi ojiz fuqaro qulog'i bilan eshitganlari to'g'risida guvohlik berishi mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksida guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar ro'yxati ko'rsatilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) vakil yoki himoyachi vazifalarini bajarishlari munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida — fuqarolik ishlari bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishlari bo'yicha himoyachilar;

2) jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli faktlarni to'g'ri idrok qilishga yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuv berishga layoqatsiz shaxslar (FPKning 69-moddasi).

Sud guvohni so'roqlash vaqtida bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik, sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra, ko'rsatuv berishni rad etganlik yoki undan bo'yin tovlaganlik uchun guvoh JKning 238 va 240-moddalari bo'yicha javobgar bo'lishini tushuntirishi lozim. Shu bilan birga, sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, guvoh o'ziga yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik ko'rsatmasi berishdan bosh tortishga haqli.

Yozma dalillar sifatida ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan hujjatlar, xizmatga daxldor va shaxsiy yozishmalar, ya'ni rasmiy yoki shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan xatlar e'tirof etiladi. Yozma dalillarning mazmuni sifatida, ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Yozma dalillarning keltirilgan belgilariga taraflarning yozma tushuntirishlari va ekspertlarning xulosalari ham kiradi, chunki ular ma'lum belgilar yordamida fikrni ifodalaydi va predmetda (qog'ozda) bajariladi. Binobarin, isbotlanish vositasining manbaini ko'rsatmay turib, yozma dalillarni to'liq aniqlab bo'lmaydi.

O'z navbatida, yozma dalillar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) dalolatnomalar;
- 2) hujjatlar;
- 3) rasmiy xatlar;
- 4) shaxsiy ma'nodagi xatlar.

Hujjat shunday yozma dalildirki, u ma'lum huquqqa ega bo'lgan vakolatli organ tomonidan berilib, o'zida barcha xususiyatlarni aks ettiradi (muddati, mansabdor shaxs imzosi va boshq.). Har bir hujjat (kino, fotohujjat, mashinada yozilgan hujjat) yozma dalil bo'la olmaydi. Fuqarolik protsessual qonunchiligida yozma dalillar quyidagi uch toifa yordamida paydo bo'ladi:

- 1) subyektning obyektiv haqiqatni qabul qilishi;
- 2) ma'lumotlar o'z xotirasida saqlanishi;
- 3) ma'lumotlarni predmetlarda shartli belgilar bilan mustahkamlash (harf, son, noma).

Yozma dalillar shakl jihatdan uch guruhga bo'linadi:

- oddiy shakldagi yozma hujjatlar (masalan, davlat korxonasining hadya shartnomasi);
- majburiy shakl va mohiyatdagi yozma dalillar (tijorat dalolatnomasi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma);
- keyinchalik davlat boshqarmalarida qayd qilinishi lozim bo'lgan, ammo notarial tasdiqlanadigan shartnomalar (uylarni oldi-sotdi shartnomalari).

Umumiy qoida bo'yicha, yozma dalillar taraflar va boshqa shaxslar tomonidan, agar ular ushbu dalillarni taqdim etish imkoni bo'lgandagina taqdim etilishi lozim. Agar ishtirokchilar dalillarni taqdim eta olmasalar, sud o'z tashabbusi bilan yozma dalillarni to'playdi. Shu bilan bir qatorda sudya protsess ishti-

rokchilaridan yoki ishtirokchi bo'lmagan boshqa shaxslardan yozma dalillarni talab qilib olishi lozim.

Ashyoviy dalillar deb, o'zining tashqi ko'rinishi va boshqa xususiyatlariga qarab, ishni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatli bo'lgan faktlarning mavjudligini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi narsalarga aytiladi.

Ashyoviy dalillar FPKning 56-moddasida sanab o'tilgan barcha isbotlash vositalari bilan bir xil holatni egallaydi.

Fuqarolik protsessida, qoida bo'yicha, ashyoviy dalillar sifatida nizoning predmeti hisoblangan ashyolar yuzaga chiqadi va tabiiyki, sud ashyoning nusxasini emas, bevosita o'zini (asl ashyoni) tekshiradi. Agar mulkdorga bu ashyo tarixiy, madaniy va boshqa qiymatga ega bo'lgani va uni saqlash yuzasidan ogohlantirishdan keyin da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, ashyoviy dalil sifatida, masalan, tarix va madaniyat yodgorligi hisoblanishi mumkin (FKning 190-moddasi).

Agar ashyoviy dalillarni talab qilish haqidagi iltimosnoma ishni tayyorlash bosqichida kelib tushgan bo'lsa, u holda bu masala sudya tomonidan yakka tartibda hal etiladi. Bu bosqichda sudya davlat korxonalarini, muassasalarini, jamoat birlashmalarini yoki fuqarolardan ashyoviy dalillarni sudga taqdim qilishni talab qiladi yoxud manfaatdor shaxslarga ashyoviy dalillarni taqdim qilish huquqini beradigan so'rov xatini beradi (FPKning 80-moddasi).

Ashyoviy dalillarni taqdim qilish haqida iltimosnoma sud muhokamasi bosqichida kelib tushsa, bu masalani sud ishda ishtirok etayotgan shaxslarning fikrlarini hisobga olib hal etadi. Agar talab qilinayotgan ashyoning qiymati past bo'lsa va bunday usul sud tomonidan dalillarni olishni tezlashtirsa, sud ashyoviy dalilni taqdim etish uchun olish huquqini beradigan so'rov xatini berish mumkin.

Ekspertning xulosasi. Haqiqatni aniqlash zaruriyati yuzaga kelsa, ular faqatgina maxsus bilimga ega bo'lgan ekspert (ekspertlar) xulosasi bilangina tasdiqlanishi mumkin. Ekspertlar faqat sud (sudya) ajrimiga asosan tayinlanadilar. Ekspert (ekspertlar) xulosasi ko'rilayotgan ish bo'yicha asosiy dalillar qatoriga kiradi.

Sud ekspertiza o'tkazish jarayonida uni o'tkazish tartibini to'g'ri rasmiylashtirishi va qonuniylashtirishi ish yuzasidan to'g'ri asoslangan xulosa olishning huquqiy kafolatidir.

Ekspert xulosalarining xolisligi uning ishning qanday hal qilinishidan manfaatdor emasligi, taraflarning birortasiga qarindosh

doshlik munosabatlarida emasligi bilan ta'minlanadi. Ushbu talablar buzilishi ekspertga nisbatan rad etish to'g'risida arz berish uchun asos bo'ladi. Xususan, FPKning 26-moddasiga ko'ra, quyidagi hollarda ekspertning ishda ishtirok etishi mumkin bo'lmaydi va u rad qilinadi:

- agar ekspert ishning pirovard natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa;

- agar ekspert ishda ishtirok etuvchi tarafning yoki boshqa shaxslarning qarindoshi bo'lsa;

- agar ekspert ishda ishtirok etuvchi tarafdorga yoki boshqa shaxslarga xizmat yuzasidan yoxud boshqacha tarzda qaram bo'lsa;

- ekspert taftish o'tkazgan yoki xulosa ham bergan bo'lib, ularning materiallari mazkur fuqarolik ishini qo'zg'atishga asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa.

O'z vazifalarini bajarish jarayonida ekspert bir qator zarur protsessual huquqlarga ega bo'ladi. Fuqarolik ishi bo'yicha konkret faktlar yuzasidan xulosa olish uchun ekspert tayinlash shart bo'lsa, ekspert ish materiallari bilan tanishishga, sud majlisida qatnasha borib, ishda ishtirok etayotgan shaxslarga va guvohlarga savollar berish, joyga borib ko'zdan kechirishda ishtirok etishga va ekspert sifatida o'zini qiziqtirayotgan holatlarni aniqlash uchun o'ziga qo'shimcha materiallar berishni suddan iltimos qilishga haqli bo'ladi. Ekspert, basharti, o'ziga berilgan materiallar yetarli bo'lmasa yoki o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni bajarish uchun yetarli bilimga ega bo'lmasa, xulosa berishdan bosh tortishga haqli (FPKning 87-moddasi).

Agar ekspert sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra, sudning chaqiruvi bo'yicha kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi. Bila turib yolg'on xulosa berganlik, sud uzrsiz deb topgan sababga ko'ra, xulosa berishdan bosh tortganlik uchun ekspert Jinoyat kodeksining tegishlicha 238 va 240-moddalari bo'yicha javobgar bo'ladi.

14.6. Dalillarni ta'minlash

Dalillarni ta'minlash deganda, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo'lmay qolishi yoki qiyinlashishining oldini olish maqsadida dalillarni to'plash va tekshirish qoidalari bo'yicha sud tomonidan amalga

oshiriladigan taraflarning, uchinchi shaxslarning tushuntirishlari eshitish, guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza tayinlash, yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib olish yoki ko'zdan kechirish, joyga borib ko'zdan kechirishga qaratilgan protsessual harakatlarga aytiladi.

Dalillarni ta'minlash tartibi FPKning 63-moddasida belgilangan. Bu qonunda aytilishicha, dalillarni ta'minlash sudya tomonidan Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ariza beruvchiga va boshqa manfaaddor shaxslarga dalillarni ta'minlash vaqti va joyi haqida xabar qilinadi, lekin ularning kelmay qolishi dalillarni ta'minlash haqidagi arizani ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

Keyinga qoldirish mumkin bo'lmagan hollarda, shuningdek, oqibatda ariza beruvchi bilan kimning o'rtasida nizo kelib chiqishini aniqlash mumkin bo'lmagan hollarda, dalillarni ta'minlash faqat birgina ariza beruvchining o'zini xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Dalillarni ta'minlash tartibida sudyalar taraflarning, uchinchi shaxslarning bayonotlarini eshitadi, guvohlarni so'roq qiladi, ekspertiza tayinlaydi, yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib oladi, ko'rib chiqadi yoki joyga borib ko'zdan kechirish o'tkazadi. Dalillarni ta'minlash tartibida to'plangan hamma materiallar ishni ko'radigan sudga yuboriladi yoki ariza beruvchining o'ziga beriladi.

Darhaqiqat, fuqarolik protsessual qonunchilikda ishni ko'rayotgan sudning dalillar to'plash maqsadlarida boshqa sudlarga ayrim topshiriqlar berishi mumkinligi ham nazarda tutilgan. FPKning 65-moddasiga ko'ra, ishni ko'rayotgan sud dalillarni boshqa tuman yoki shaharda to'plash zarur bo'lgan taqdirda, tegishli sudga muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirishni topshiradi.

Sud topshirig'i ajrim bilan rasmiylashtiriladi va unda ko'rayotgan ishning mazmuni, aniqlanishi zarur bo'lgan holatlar, topshiriqni bajaruvchi sud to'plashi lozim bo'lgan dalillar ko'rsatiladi. Bu ajrim qaysi sud nomiga yozilgan bo'lsa, shu sud uchun majburiydir va o'n besh kungacha bo'lgan muddat ichida bajarilishi lozim.

Sud topshirig'ini bajarish tartibi FPKning 66-moddasida belgilangan. Bu qonunda ko'rsatilishicha, sud topshirig'ini bajarish sud majlisida belgilangan tartibda o'tkaziladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar majlisning vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinadi, lekin ularning kelmasligi topshiriqni bajarishga to'sqinlik qilmaydi.

Topshiriqni bajarish vaqtida tuzilgan bayonnomalar va yig'ilgan hamma materiallar ishni ko'rayotgan sudga darhol yuboriladi. Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki topshiriqni bajarayotgan sudga ko'rsatma bergan guvohlar ishni ko'rayotgan sudga kelib qolishsa, ular umumiy tartibda bayonot yoki ko'rsatma berishadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Fuqarolik protsessida isbotlash deganda nimani tushunasiz?
2. Isbotlash predmeti deganda nimani tushunasiz?
3. Sudga oid dalillarga ta'rif bering.
4. Dalillarning qanday belgilari mavjud?
5. Isbotlashdan ozod qilishning qanday asoslari mavjud?
6. Dalillarning daxldorligi deganda nimani tushunasiz?
7. Isbotlash vositalariga yo'l qo'yilishi qoidasini tushuntirib bering.
8. Taraflar o'rtasida isbotlash burchi qanday taqsimlanadi?
9. Dalillarni tasniflang.
10. Isbotlash vositalari qanday turlarga ajratiladi?
11. Taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari haqida gapiring.
12. Yozma dalillar deganda nimani tushunasiz va ularning qanday turlari mavjud?
13. Ashyoviy dalillar haqida gapiring.
14. Sud ekspertizasiga ta'rif bering.
15. Dalillarni ta'minlashning qanday asoslari mavjud?
16. Sud topshiriqlari deganda nimani tushunasiz?
17. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2007-yil 2-oktabrdagi «Fuqarolik ishlarini ko'rishda sudlar tomonidan dalillarga oid qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarori ahamiyati va mohiyati haqida gapiring.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. (Kollej talabalari uchun). T., TDYI, 2006.
5. *M.M. Mamasiddiqov.* Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2007-yil 2-oktabrdagi «Fuqarolik ishlarini ko'rishda sudlar tomonidan dalillarga oid qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarori.

15-bob. FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA KO'RISHGA TAYYORLASH

15.1. Ishni sudda ko'rishga tayyorlashning tushunchasi va ahamiyati

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash — fuqarolik ishlarini o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish hamda hal qilishni ta'minlash maqsadida sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual harakatlarining majmuini o'zida ifoda etuvchi birinchi instansiya sudida ish yuritishning mustaqil bosqichi hisoblanadi.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash barcha sud muhokamasining asosi hisoblanadi. Sud muhokamasining yakuniy natijasi ko'p jihatdan ushbu bosqichning sifatiga bog'liq bo'ladi. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida sudya va protsess ishtirokchilarining protsessual faoliyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayonda, eng avvalo, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipiga qat'iy amal qilish lozim bo'ladi. Zero, ishni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichida o'zlarining talab va e'tirozlarini asoslovchi faktlarni, shuningdek, nizoni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni sudga taqdim etadi.

Sudga taqdim etilayotgan hujjatlar hajmi va doirasini taraflar o'zlari mustaqil belgilaydilar. Qonun taraflarning ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan dalillarni sudga taqdim etish majburiyatini belgilamaydi. Fuqarolik ishining qaysi taraf foydasiga hal etilishi ko'p jihatdan taraflarning qaysi biri ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida o'ziga berilgan imkoniyatlardan, xususan, dalillarni taqdim etish kabi protsessual harakatlardan samarali foydalanishiga ham bog'liq.

Ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlarining chiqarilishi ko'p jihatdan ishni sudda ko'rishga tayyorlash vazifalarining qay darajada amalga oshirilishiga ham bog'liq bo'ladi. FPKning 158-moddasida ishni sudda ko'rishga tayyorlash vazifalari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- taraflarning huquqiy munosabatlarini va ishni ko'rishda amal qilinishi lozim bo'lgan qonunni aniqlash;

• taraflarning talab va e'tirozlarini asoslovchi faktlarni, shuningdek, nizoni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni aniqlash;

• ishni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillar doirasini aniqlash va ularning o'z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta'minlash;

• ishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxslar tarkibi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida FPKning 158-moddasida nazarda tutilgan taraflarning huquqiy munosabatlarini va ishni ko'rishda amal qilinishi lozim bo'lgan qonunni aniqlash kabi vazifani to'g'ri amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga amal qilmaslik sud tomonidan ishni ko'rishda amal qilinishi lozim bo'lgan qonunlarning noto'g'ri qo'llanilishi, ishga daxldor bo'lmagan taraflarning ishga jalb etilishi kabi oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida sudya ishga daxldor bo'lmagan tarafni almashtirish, sherik ishtirokchilik masalalariga alohida e'tibor berishi talab etiladi. Zero, FPKning 158-moddasida ishni sudda ko'rishga tayyorlashning muhim vazifalari sifatida ishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxslar tarkibi masalasini hal etish belgilab qo'yilgan. Masalan, sud mehnatga oid nizoli ishlarni, xususan, yetkazilgan zararni undirish haqidagi ishlarni sudda ko'rishga tayyorlashda jamoaning moddiy javobgarligi to'g'risidagi ishlar bo'yicha jamoaning barcha a'zolarini sherik javobgar sifatida protsessga jalb qilish choralarini ko'rish lozim.

Shuningdek, ayrim hollarda xodimga yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan mansabdor shaxsning g'ayriqonuniy xatti-harakat (harakatsizlik)lar sodir etganligi aniq bo'lib qoladi. Bunday hollarda sudya mazkur shaxsni, albatta, sherik javobgar sifatida ishda ishtirok etish uchun jalb etishi maqsadga muvofiq. Binobarin, bu ikkinchi javobgar sifatida tegishli javobgarning protsessual holatini aniqlab olishga ham imkon yaratadi.

15.2. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudya tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash ishning murakkabligi va hajmi jihatidan qat'i nazar, sudyalarning protsessual harakatlari hisoblanib, bu harakatlar protsessning nafaqat maj-

buriy, balki mustaqil bosqichi hamdir. Sudya arizani qabul qilib, fuqarolik ishni qo'zg'atganidan so'ng, ishni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sudda ko'rishga tayyorlaydi.

Qonunda belgilanganidek, sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlashga arizani qabul qilib olganidan so'ng kirishadi.

Ishga tayyorgarlik ko'rish bosqichi protsessning muhim bosqichi sifatida sudya tomonidan maxsus ajrim chiqarilganidan so'ng, ya'ni ishni sud majlisida ko'rish uchun tayinlashdan avval boshlanadi va u ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgunga qadar davom etadi. Ishni sud muhokamasiga tayyorlashda barcha protsessual harakatlar yakka sudya tomonidan amalga oshiriladi va ishni o'z vaqtida, to'g'ri ko'rib chiqish va birinchi instansiya sud majlisida hal qilinishini belgilaydi. Qonunda ishlarni sudda ko'rishga tayyorlashda ishning cho'zilishi oldini olishni ogohlantiradi.

Sudya tomonidan chiqarilgan ajrim ishni tayyorlash uchun rasmiy ravishda kirishilganini va tamomlanishinigina bildirsa ham, ammo ishni ko'rishga oid ba'zi harakatlar oldin ham, keyinchalik ham qilinishi mumkin. Chunonchi, da'vogarning nizosini hal qilinishi uchun xolislar sudiga murojaat qilishga huquqli bo'lishi to'g'risida tushuntirishlar berish yuzasidan sudyaning qilgan harakatlari da'vo arizasi qabul qilingunga qadar ham bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, sudya da'vo arizasini qabul qilib olganidan so'ng ishni sud muhokamasiga tayyorlashni boshlaydi. Shu vaqtdan boshlab sudya o'zining yagona maqsadiga erishishi uchun qaratilgan jami protsessual harakatlarni amalga oshiradi, ya'ni birinchi sud muhokamasida ishni to'g'ri hal qilinishini ta'minlaydi. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash fuqarolik protsessining mustaqil majburiy bosqichi bo'lib, protsessning boshqa bosqichlaridan o'zining uslublari jihatidan farqlanadi.

Sudya nizoni to'g'ri va o'z vaqtida hal etilishini ta'minlash uchun turli protsessual harakatlarni sodir etishga haqlidir. Ularning eng muhimlari FPKning 160-moddasida belgilangan. Unga muvofiq, sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlash vaqtida quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1. Ishni uchinchi shaxslarning jalb etilishi yoki kirishish masalasini hal qiladi va ishda ishtirok etishga yo'l qo'yilgan uchinchi shaxslarni FPKning 159-moddasiga muvofiq so'roq qiladi.

2. Ishni ko'rishda vakillarning qatnashish masalasini hal qiladi.

3. Ishda prokurorning ishtirok etishi to'g'risidagi va tegishli davlat boshqaruvi organini sud protsessida qatnashishga jalb etish haqidagi masalani hal qiladi.

4. Ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan tashkilot yoki fuqaroning ish yakunidan manfaatdorligini aniqlasa, ularga shuningdek, prokurorga yuritilayotgan ishni va uni ko'rish vaqtini ma'lum qiladi.

5. Guvohlarni sud majlisiga chiqarish yoki ularni FPKning 72-moddasida nazarda tutilgan tartibda so'roq qilish masalasini hal qiladi.

6. Tashkilotlar yoki fuqarolardan yozma va ashyoviy dalillarni olib, sudga taqdim etish uchun ishda ishtirok etuvchi shaxslarga talabnoma beradi.

7. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini hisobga olib, ekspertiza tayinlash va mutaxassis jalb qilish masalasini hal etadi.

8. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilib, joyda ko'zdan kechirish o'tkazadi.

9. Boshqa sudlarga sud topshiriqlari yuboradi.

10. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi.

Sudya ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirmasdan turib, ishni sudda ko'rishga tayyorlash yuzasidan qilgan harakatlarini ajrim shaklida rasmiylashtiradi. Bu ajrim ustidan kassatsiya shikoyatidan alohida tartibda shikoyat qilinishi mumkin emas.

Sud amaliyotida da'vo materiallarini tahlil qilishda sudyada da'vo talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxsdan boshqa shaxsdan boshqa shaxsga nisbatan berilganligi haqida fikr tug'ilishi mumkin. Bundan tashqari, sudya qo'zg'atilgan ishda da'vo arizasida ko'rsatilmagan boshqa shaxslarning manfaatdorligini mavjudligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Ushbu hollarda sudya FPKning 44, 45-moddalari talablarini hisobga olib, ishda boshqa javobgar yoki uchinchi shaxsning qatnashishi mumkinligi haqidagi masalani ko'rib chiqadi.

15.3. Sud chaqiriqlari va sud xabarlari

Sudda ishni muhokama qilinishining vaqti va joyi haqida yoki sudning qanday protsessual harakatni amalga oshirish haqidagi axborotlar bilan manfaatdor shaxslarni boxabar qilish — sud majlisida manfaatdor shaxslarning shaxsan ishtirok etish huquqini amalga oshirish kafolatidir. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga xabar berish sudning majburiyati va sudda ishni muhokama qilishni amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi.

Qonunga muvofiq sud chaqiruv qog'ozidan foydalanadi. U xabar berishning shartlar majmuasiga rioya qilishni nazarda tutadi:

1. Sud chaqiruv qog'ozini sudda ishtirok etayotgan taraflarga sudga kelishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina jo'natiladi.

2. Sudda ishtirok etayotgan shaxslarga xabar berish uchun sud, sud chaqiruv qog'ozidan foydalanadi. Shaxslarning kelishi qonun yoki sud tarafidan nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Haqiqatning qaror topishida ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan hollarda shaxslarga, guvoh, ekspert, tarjimon, mutaxassislariga chaqiriqlar jo'natiladi. Ularga sud majlisiga yoki alohida protsessual harakatni amalga oshirish joyiga kelish talabi ko'rsatilgan. Bu shaxslarning barchasi uchun sudga kelish majburiydir.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud chaqiruv qog'ozini yoki FPKning 132-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan boshqa sud sud chaqiruv qog'ozlari jo'natiladi. Sud chaqiruv qog'ozini yoki boshqa chaqiriqning mazmuni FPKning 133-moddasida belgilangan. Haqiqatning qaror topishida ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan hollarda shaxslarni chaqirish uchun faqatgina o'ralgan shakldagi sud sud chaqiruv qog'ozlaridan foydalaniladi.

3. Sud chaqiruv qog'ozlarining yetkazib berilishi lozim bo'lgan manzillar sudga berilgan arizada ko'rsatilishi shart. Fuqarolik ishi qo'zg'atilganidan so'ng o'z manzili o'zgarishligi haqidagi ma'lumot ishda ishtirok etuvchi har bir shaxsning majburiyati bo'lib qoladi (FPKning 138 va 148-moddalari). Sudga o'z manzili o'zgarishligi haqidagi ma'lumotni taqdim etmagan yoki o'z manzilini noto'g'ri ko'rsatgan shaxslarga tegishli javobgarlik belgilangan.

Da'vogar va javobgarning ishlayotgan manzili aniq ko'rsatilgan bo'lsa, sud qonunda nazarda tutilgan holatlarda xabar berishi lozim bo'lgan shaxslarga, ko'rsatilgan manzilga sud chaqiruv qog'ozini jo'natishi mumkin.

Guvohlarni, uchinchi shaxs va sud jarayonining boshqa ishtirokchilarini chaqirish zaruriyati bo'lganida, ularning manzili bo'yicha sud tarafidan beriladi. Sud chaqiruv qog'ozini yetkazib berilishi sud tarafidan belgilanadi. Sud chaqiruv qog'ozlarini yetkazishning bir necha, ya'ni pochta bo'yicha, ishda ishtirok etuvchi shaxslar orqali sud, sud chaqiruv qog'ozini yetkazib berilishi buyurilgan boshqa shaxslar orqali, telefonogramma yoki telegramma jo'natish orqali bo'lishi mumkin.

Sud chaqiruv qog'ozida qaysi shaxsning ismi ko'rsatilgan bo'lsa, o'sha shaxsga beriladi. Agarda shaxsning o'zi bo'lmasa, uning yaqin qarindoshlariga berishi ham mumkin. Sud chaqiruv qog'ozini qabul qilgan shaxs uni olganligi haqida imzo qo'yishi lozim. Shaxsning sud chaqiruv qog'ozini olganligi haqida imzo qo'yishdan bosh tortishi sud chaqiruv qog'ozini qo'lga berilganligi bilan teng hisoblanadi (FPKning 137-moddasi).

4. Xabar berilganlik haqidagi sud chaqiruv qog'ozini qayd etish muhimdir. Bu sud chaqiruv qog'ozining tasdig'i sifatida xizmat qiladi (telegrammani jo'natish haqidagi kvitansiya, telefonogramma, faksogramma jurnalidan ko'chirma). Shunday qilib, shaxs quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirda, ya'ni xabar berishning o'z vaqtidaligi, sud chaqiruv qog'ozini shakliga rioya qilish, uning yetkazib berilishi va qo'lga topshirilishi qoidalariga rioya qilish, sud chaqiruv qog'ozini berilganining qayd etilganligi natijasida xabardor qilgan hisoblanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishni sudga ko'rishga tayyorlash deganda nimani tushunasiz?
2. Ishni sudga ko'rishga tayyorlash qanday maqsadni ko'zlaydi?
3. Ishni sudga ko'rishga tayyorlashning qanday vazifalari mavjud?
4. Ishni sudga ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudya tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar nimalardan iborat?
5. Ishni sudga ko'rishga tayyorlash qancha muddatda amalga oshiriladi?
6. Sud chaqiriqlari va sud xabarlari haqida gapiring.
7. Sudga chaqirish to'g'risidagi sud chaqiruv xatining mazmuni nimalardan iborat?
8. Sudga chaqirish to'g'risidagi chaqiruv xatini topshirishning tartibi qanday?
9. Sud chaqiruv xatini qabul qilib olishdan bosh tortishning qanday oqibatlari mavjud?
10. Javobgarni qidirish uchun qanday asoslar bor?
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash va ularni ko'rish muddatlari to'g'risida»gi qarori ahamiyati va mohiyati haqida gapiring.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
5. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
6. *B. Jamolov, A. Boboqulov*. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash. Amaliy qo'llanma. T., «Adolat», 2002.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi «Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash va ularni ko'rish muddatlari to'g'risida»gi qarori.

16-bob. FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA MUHOKAMA QILISH

16.1. Sudda ish ko'rish tushunchasi va uning ahamiyati

Sudda ishni ko'rish fuqarolik protsessining asosiy bosqichi hisoblanadi. Ushbu jarayonda odil sudlovning barcha demokratik prinsiplari to'raligicha harakatda bo'ladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida sudda ish ko'rish sud protsessining tarkibiy qismi hisoblanib, uning asosiy vazifasi birinchi instansiya sudlarida fuqarolik ishlarini mazmunan ko'rish va hal etishdan iboratdir. Sud majlisi esa sudda ish ko'rishning shakli hisoblanib, o'z navbatida, sudda ish ko'rish sud majlisisiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki fuqarolik protsessual qonunchilik sud majlisi o'tkazmasdan turib, nizoli ishlarni mazmunan ko'rish hamda hal qilish tartibini belgilamaydi.

Sud majlisida shu sudning raisi, uning o'rinbosari yoki sudya raislik qiladi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish, asosan sudning, eng avvalo, sud protsessiga raislik qilayotgan sudyaning bilim, malaka va mahoratiga bog'liq bo'ladi. Raislik qiluvchi sud majlisini boshqarib, ishning barcha holatlari, taraflarning huquq va majburiyatlari to'liq, har taraflama va xolisona aniqlanishini, sud protsessining tarbiyaviy ta'sirini ta'minlaydi, ko'rilayotgan ishga aloqasi bo'lmagan hamma narsani sud muhokamasidan chetlatadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, guvohlardan birortasi raislik qiluvchining xatti-harakatiga e'tiroz bildirsa, bu e'tirozlar sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi va masala sud tomonidan hal qilinadi. Raislik qiluvchi sud majlisida tegishli tartibni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko'radi (FPKning 164-moddasi).

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, shuningdek, sud majlisi zalida hozir bo'lgan hamma fuqarolar sud majlisida belgilangan tartibga rioya qilishlari va raislik qiluvchining farmoyishlariga so'zsiz itoat etishga

majburdirlar. Raislik qiluvchiga, shuningdek, sud majlisida zarur bo'lgan tartibni saqlab turish majburiyati ham yuklanadi.

FPKning 165-moddasiga asosan, sudya (sudyalar) majlis zaliga kirib kelganida va undan chiqib ketayotganida sud majlisi zalida hozir bo'lganlarning hammasi o'rnidan turadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar sudga murojaat qilishda, o'zlarining ko'rsatuv va tushuntirishlarini bayon qilishda tik turib gapiradilar. Bu qoidadan uzrli sababga ko'ra chetga chiqishga faqat raislik qiluvchining ruxsati bilangina yo'l qo'yilishi mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, shuningdek, sud majlisi zalida hozir bo'lgan hamma fuqarolar sud majlisida belgilangan tartibga rioya qilishlari va raislik qiluvchining farmoyishlariga so'zsiz itoat etishlari shart.

Sudning alohida xonada (maslahatxonada) chiqargan qarorlarini sud majlisi zalida hozir bo'lganlarning hammasi tik turib eshitadi.

Ishni ko'rish vaqtida tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi sud nomidan ogohlantiradi. Ishda qatnashayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzgan taqdirda sudning ajrimiga binoan, ishni ko'rishda hozir bo'lgan fuqarolar esa, raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Shuningdek, sud ishni ko'rishda hozir bo'lgan fuqarolarga, agar ular tartibni buzsalar, eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solishga haqli.

Fuqarolar ommaviy tarzda tartibni buzgan taqdirda sud ishni ko'rishni keyinga qoldirishi mumkin. Prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga itoat qilmasalar, ular ogohlantiriladi. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana itoat etmasalar, agar ularni ishga zarur yetkazmagan holda boshqa shaxs bilan almashtirishning imkoni bo'lmasa, sudning ajrimiga binoan ishni ko'rish keyinga qoldirilishi mumkin. Ayni vaqtda sud bu haqda tegishlicha yuqori turuvchi prokurorga yoki advokatlar malaka komissiyasiga ma'lum qiladi.

Sud majlisida taraf yoki uchinchi shaxs tartibni buzsa, sud tartibbuzarni ish ko'riladigan hamma vaqtga yoki uning bir qismiga majlis zalidan chiqarib yuboradi. Vaqtincha chiqarib yuborilgan shaxs sud majlisi zaliga qaytadan qo'yilganda raislik qiluvchi uni zalda bo'lmagan vaqtida qilingan protsessual harakatlar bilan tanishtiradi. Sud majlisida har ikki taraf (uchinchi shaxslar) tartibni buzsa, sud ishni ko'rishni keyinga qoldirishi mumkin.

16.2. Sud majlisida ish ko‘rishning protsessual tartibi

Fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish protsessual qonunchilik belgilab bergan qat’iy tartibda o‘tkaziladi. Sud jarayonining boshqa eng muhim bosqichini bajariladigan ishlar hajmiga qarab quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin:

- tayyorgarlik qismi;
- ish holatlarini o‘rganish yoki ishni mazmunan ko‘rishni boshlash qismi;
- sud muzokaralari qismi;
- ishning mohiyati bo‘yicha prokuror fikrini bayon etish qismi;
- sud hal qiluv qarori chiqarish va e‘lon qilish qismi.

Sud ishining tayyorgarlik qismi. Ishni ko‘rish uchun tayinlangan vaqtda sudya (sudyalar) majlis zaliga kiradi, sud majlisini ochib, qanday ish ko‘rilishini e‘lon qiladi. So‘ngra sud majlisining kotibi ish bo‘yicha chaqirilganlardan kimlar kelganligini, kelmaganlarga chaqiruv qog‘ozi topshirilgan-topshirilmaganligini, ularning kelmaganlik sabablari to‘g‘risida qanday ma‘lumotlar borligini sudga ma‘lum qiladi.

Sud kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek, mansabdor shaxslar va vakillar, shu jumladan, advokatning ham vakolatini tekshiradi.

Sud majlisining tayyorgarlik qismidagi navbatdagi harakat guvohlarning kelgan-kelmaganligi tekshirilgach, sud majlisida hozir bo‘lgan guvohlarni sud majlisi zalidan chiqarish hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida raislik qiluvchi so‘roq qilingan guvohlarning so‘roq qilinmagan guvohlar bilan muomalada bo‘lmasligi uchun choralar ko‘radi.

Guvohlar sud zalidan chiqarib yuborilganlaridan so‘ng raislik qiluvchi sudning tarkibini (sudyani) e‘lon qiladi, prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisining kotibi sifatida kimlar qatnashayotganligini ma‘lum qiladi va ishda ishtirok etayotgan shaxslarga ularni rad qilish to‘g‘risida arz qilish huquqlarini tushuntiradi.

Sud majlisining tayyorgarlik qismidagi navbatdagi protsessual harakat — ishda ishtirok etayotgan shaxslarga ularning FPKning 34-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlarini tushuntirib berish hisoblanadi. Bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko‘rsatib o‘tiladi.

Ish holatlarini o'rganish yoki ishni mazmunan ko'rishni boshlash qismi. Ishni mazmunan ko'rishni boshlash qismi raislik qiluvchining ish to'g'risidagi ma'ruzasidan boshlanadi. So'ngra raislik qiluvchi da'vogardan o'z talablarini quvvatlash-quvvatlamasligini, javobgardan da'vogarning talablarini tan olish-olmasligini va taraflarning ishni kelishuv bitimi bilan tamomlashni istash-istamasliklarini so'raydi.

Da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligi, javobgarning da'vogar talablarini tan olganligi yoki taraflar erishgan kelishuv bitimining shartlari sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi va tegishlicha, da'vogar, javobgar yoki ikkala taraf tomonidan imzolanadi. Agar da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligi, javobgarning da'vogar arz qilgan talablarni tan olganligi yoki taraflarning kelishuv bitimi ularning sudga yuborgan yozma arizalarida ifodalangan bo'lsa, mazkur arizalar ishga qo'shib qo'yilib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi.

Ish to'g'risida ma'ruza qilinganidan so'ng, sud da'vogar va uning tomonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxsning, javobgar va uning tomonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxsning, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini eshitadi. Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ariza bergan prokuror, shuningdek, boshqa shaxslar arz qilgan talablari bo'yicha tushuntirishlar berish yoki ularni asoslash uchun birinchi bo'lib so'zga chiqadilar. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bir-birlariga savollar berishga haqlidirlar.

Sud muzokaralari. Sud muzokaralari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqlaridan iborat bo'ladi. Sud muzokarasida qatnashuvchilar o'z nutqlarida sud aniqlamagan holatlarni, shuningdek, sud majlisida tekshirilmagan dalillarni vaj qilib keltirishga haqli emaslar.

FPKning 198-moddasi sud muzokaralarida so'zga chiquvchilar uchun qat'iy tartibni belgilaydi. Unga ko'ra, dastlab da'vogar va uning vakili, keyin javobgar va uning vakili so'zlaydi. Boshlangan protsessda nizo predmetiga nisbatan mustaqil talabi borligini arz qilgan uchinchi shaxs va uning vakili taraflardan keyin so'zlaydi. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talabi borligini arz qilmagan uchinchi shaxs va uning vakili shu uchinchi shaxs ishda qaysi da'vogar yoki javobgar tomonida ishtirok etuvchi bo'lsa, ana shu da'vogar yoki javobgardan keyin so'zlaydi. Boshqa shaxslarning

huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan prokuror, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar sud muzokaralarida birinchi bo'lib so'zlaydilar.

Sud tomonidan protsessda ishtirok qilishga jalb etilgan yoki protsessga o'z tashabbusi bilan kirishgan davlat boshqaruvi organlarining vakillari sud muzokaralarida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so'zlaydilar. Muzokara ishtirokchilari bir-birlariga luqma tashlashlari mumkin. Oxirgi luqma huquqiga doimo javobgar va uning vakili ega bo'ladi.

Rasmiy jihatdan sud muzokaralardagi chiqishlarning davomiyligini cheklay olmaydi. Biroq, FPKning 164-moddasiga ko'ra, raislik qiluvchi ko'rilayotgan ishga aloqasi bo'lmagan hamma narsani sud muhokamasidan chetlatish huquqiga ega. Shuning uchun sudya, agar notiq ish mohiyatidan chetga chiqsa, uni to'xtatish huquqiga ega.

Sud muzokaralaridan so'ng boshqa shaxslar tomonidan boshlangan protsessda ishtirok etayotgan prokuror ishning mohiyati bo'yicha o'z fikrini bayon etadi. Agar sud muzokaralarini eshitgach, sudya ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirishni zarur deb topsa, ishni mazmunan ko'rishni tiklash to'g'risida ajrim chiqaradi. Ishni mazmunan ko'rish tamom bo'lganidan keyin, sud muzokaralari umumiy tartibda o'tkaziladi.

Sud muzokaralarini eshitgach, sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqadi, bu haqda raislik qiluvchi sud majlisida hozir bo'lganlarga e'lon qiladi.

Sud hal qiluv qarorini chiqarish va uni e'lon qilish qismi sud majlisining yakunlovchi qismi hisoblanadi. Mazkur qismda ishni mazmunan ko'rishning yakuni sudning hal qiluv qarori tarzida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi.

Sud muzokaralarini eshitgach, sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqadi, bu haqda raislik qiluvchi sud majlisida hozir bo'lganlarga e'lon qiladi.

Hal qiluv qarori sudya tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) qabul qilinadi, yozma ravishda tuziladi va sudya tomonidan imzolanadi. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishiga doir Konstitutsiyaviy prinsipning eng muhim kafolatlaridan biri — hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishidir. Muhokama xonasida faqat ishda

ishtirok etgan sudyalargina bo'lishi talab etiladi. Hal qiluv qarorini qabul qilish vaqtida boshqa shaxslarning hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo'lsa, ushbu holat protsessual huquq normalarining buzilishi, deb baholanadi va hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo'ladi (FPKning 314-moddasi 5-bandi).

Ishni ko'rish chog'ida kelib chiqadigan hamma masalalar sudyaning yakka o'zi tomonidan, ishni sudyalar hay'ati ko'rayotgan hollarda esa, sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan hal etiladi.

16.3. Sud majlisiga chaqirilgan shaxslarning kelmay qolish oqibatlari

Sud ishining keyinga qoldirilishi ishni ko'rib chiqilishiga tayyorgarlikning lozim darajada o'tkazilmaganligi yoki sud majlisi ularning ishtirokisiz o'tmaydigan shaxslarning kelmasligi oqibatida yuz beradi. Biroq, ish ko'rishni keyinga qoldirilishi har doim ham sud yo'l qo'ygan kamchiliklar natijasidir, deyish to'g'ri bo'la-vermaydi. Masalan, sud nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarda er-xotinni yarashtirish choralarini ko'rish maqsadida taraflarning yoki ulardan birining iltimosiga yoxud o'z tashabbusiga ko'ra, ishning ko'rilishini boshqa vaqtga qoldirishga va er-xotingga yarashishlari uchun Oila kodeksining 40-moddasida ko'rsatilgan doirada muhlat belgilashga haqli bo'ladi. Bu yerda sud ishini orqaga surishni salbiy holat yoki sud tomonidan ishni ko'rishga tayyorgarlik lozim darajada amalga oshirilmagan, deb baholash mumkin emas.

Ish ko'rishni keyinga qoldirish bir qator oqibatlarni yuzaga keltiradi. Xususan, ishni ko'rish keyinga qoldirilgan taqdirda, keyinga qoldirilgan ishni ko'rish qolgan joyidan davom ettiriladi. Biroq, FPKning 33-moddasida sanab o'tilgan yangi shaxslarni, xususan, taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar jalb qilish uchun keyinga qoldirilgan ishlar bundan mustasno. Chunki bunday holda ishni ko'rish yangidan boshlanishi lozim.

Ish ko'rishni keyinga qoldirishda murakkab bo'lmagan masalalar hal etilishi bois (er-xotinni yarashtirish maqsadida muhlat belgilash va ish ko'rilishini boshqa vaqtga qoldirish haqidagi ajrim bundan

mustasno), sud o'z joyida ajrim chiqarishi mumkin. Bunday ajrim sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi. Ajrimlar chiqarilishi bilan darhol e'lon qilinadi.

Undan tashqari, ish ko'rishni keyinga qoldirish to'g'risidagi ajrim quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim: nizo predmeti va ajrim bilan hal qilinayotgan masalaning mohiyati; sudning xulosasiga olib kelgan asoslar va sud qo'llagan qonunlar; sudning hal etilayotgan masala yuzasidan xulosasi. Shunday ekan, bunday turkumdagi ajrimlarda uning ustidan shikoyat berish (protest keltirish) tartibi va muddati ko'rsatilishi nazarda tutilmagan (FPKning 237-moddasi).

Ish ko'rishni keyinga qoldirishni sud majlisidagi tanaffus yoki ish yuritishni to'xtatib turishdan farqlay bilish kerak. Ish ko'rishni keyinga qoldirish sud muhokamasini boshqa muddatga qoldirish hisoblanib, oraliqdagi muddat davomida boshqa ishni ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shuning uchun, qoidaga ko'ra, ish ko'rish keyinga qoldirilganidan so'ng ish ko'rish vaqti yangidan tayinlanadi. Agar ish ko'rish vaqtida tanaffus e'lon qilingudek bo'lsa, ish ko'rish tanaffusdan so'ng davom ettiriladi.

Tanaffus – bu sud majlisining nisbatan qisqa vaqtga keyinga surilishidir. Bunga asosiy sabab sudyalarning dam olishlariga, tushlik qilishlari uchun zarurat yoki sud majlisining davom ettirilishiga to'sqinlik qiluvchi, ammo tez va oson bartaraf qilinishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning paydo bo'lishidir.

Ish ko'rishni keyinga qoldirish, shuningdek, ish yuritishni to'xtatib turishdan o'zining asosi, huquqiy oqibati, muddati va shikoyat berish tartibi bilan o'zaro farqlanadi.

16.4. Sudda ish yuritishni to'xtatish

Har qanday fuqarolik ishini ham bir kunda, bir protsessning o'zida ko'rib chiqish mumkin bo'lmaydi (saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bundan mustasno). Ko'pincha kutilmagan sabablarga ko'ra, sud majlisini to'xtatish zarurati yuzaga keladi.

Ish yuritishni to'xtatib turish qonun bilan belgilanadigan va keng izohlashga muhtoj bo'lmagan asoslarga bog'liq holda majburiy va fakultativ asoslarga ajratiladi.

Sud FPKning 92-moddasiga muvofiq, quyidagi hollarda ish yuritishni to'xtatib turishi shart:

• agar ishda taraf bo'lgan fuqaro vafot etib, nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa yoki ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilsa;

• fuqaro (taraf) muomala layoqatini yo'qotsa;

• javobgar Qurolli Kuchlarning harakatdagi qismida bo'lsa yoki Qurolli Kuchlarning harakatdagi qismida bo'lgan da'vogar iltimos qilsa;

• fuqaroviy, jinoiy yoki ma'muriy sud ishlarini yuritish tartibida ko'rilayotgan boshqa ish hal qilinmasdan oldin ko'rishning imkoni bo'lmasa.

FPKning 93-moddasida sudning tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosiga binoan, ish yuritishni to'xtatib turish asoslari sanab o'tilgan. Unga ko'ra:

• taraf Qurolli Kuchlar tarkibida muddatli haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan bo'lsa yoki mazkur shaxslar davlatning birorta majburiyatini bajarish uchun jalb qilingan bo'lsa;

• taraf davolash muassasasida bo'lsa, shuningdek, tarafdardan birida sudga kelishga to'sqinlik qiladigan, tibbiyot muassasasining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan kasallik mavjud bo'lsa;

• ushbu kodeksning 140-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgar qidirilayotgan bo'lsa;

• taraf uzoq muddatli xizmat safarida bo'lsa yoki boshqa uzrli sababga ko'ra yo'q bo'lsa;

• sud tomonidan ekspertiza tayinlangan bo'lsa.

Sudda ish yuritishni to'xtatib turish muddatlari FPKning 94-moddasi bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, ish yuritish quyidagi vaqtga qadar to'xtatib turiladi:

1) FPKning 92-moddasi 1 va 2-bandlarida nazarda tutilgan hollarda — huquqiy voris ishga kirishguniga yoki ishga jalb qilinguniga qadar yoxud muomalaga layoqatsiz shaxsga qonuniy vakil tayinlanguniga qadar;

2) FPKning 92-moddasi 3-bandida nazarda tutilgan hollarda — taraf Qurolli Kuchlarning harakatdagi qismida bo'lishi tugaguniga qadar;

3) FPKning 92-moddasi 4-bandida nazarda tutilgan hollarda — sudning hal qiluv qarori yoki hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoki ma'muriy tartibda ko'rilayotgan ish bo'yicha qaror chiqarilguniga qadar;

4) FPKning 93-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan hollarda — tegishlicha, tarafning Qurolli Kuchlar tarkibida muddatli haqiqiy

harbiy xizmatda bo'lishi tugaguniga yoki mazkur shaxslar davlat majburiyatini bajarib bo'lguniga qadar;

5) FPKning 93-moddasi 2-bandida nazarda tutilgan hollarda — taraf davolash muassasasidan chiqquniga yoki tarafning sudga kelishiga to'sqinlik qilayotgan kasallik tuzalguniga qadar;

6) FPKning 93-moddasi 3-bandida nazarda tutilgan hollarda — javobgarni qidirish tamom bo'lguniga qadar;

7) FPKning 93-moddasi 4-bandida nazarda tutilgan hollarda — taraf qaytguniga qadar;

8) FPKning 93-moddasi 5-bandida nazarda tutilgan hollarda — ekspertiza o'tkazish tugaguniga qadar.

Sudning ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat qilinishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Ish yuritish uni to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar barham topgach, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga muvofiq yoki sudning tashabbusi bilan tiklanadi. Ish yuritish tiklanganida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni umumiy asoslarda chaqiradi.

Sud ishini to'xtatish sud qaroriga ko'ra amalga oshadi va yuqoridagi sudlarga shikoyat arizasi bilan murojaat qilish mumkin. To'xtatilgan sud ishi yana sudning o'z tashabbusi yoki ishda ishtirok qilayotgan shaxslarning iltimoslariga ko'ra qayta davom qildiriladi.

16.5. Arizani ko'rmasdan qoldirish

FPKning 97-moddasiga muvofiq, sud quyidagi hollarda arizani ko'rmasdan qoldiradi:

- ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritishga vakolati bo'lmagan shaxs bergan bo'lsa;

- sud ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo'lsa;

- ishni o'zlarining ishtirokisiz ko'rishni iltimos qilmagan taraflar ikkinchi chaqiruv bo'yicha ham uzrli sabablarsiz sudga kelmasalar, sud esa ishga oid mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas, deb hisoblasa;

- ishni o'zining ishtirokisiz ko'rishni iltimos qilmagan da'vogar ikkinchi chaqiruv bo'yicha sudga kelmasa, javobgar esa, ishni mazmunan ko'rishni talab qilmasa.

Yuqorida ko'rsatilgan asoslardan tashqari, boshqa ba'zi hollarda ham ariza ko'rmasdan qoldirilishi mumkin. Xususan, FPKning 282-moddasiga ko'ra, agar alohida tartibda yuritiladigan ishni ko'rish vaqtida sudga taalluqli huquq to'g'risida nizo kelib chiqsa, sud arizani ko'rmasdan qoldirib, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga umumiy tartibda da'vo taqdim etishni taklif qiladi.

Ariza ko'rmasdan qoldirilgan hollarda ish yuritish sudning ajrimiga binoan tamomlanadi. Bu ajrimda sud ishning hal etilishiga to'sqinlik qilayotgan, FPKning 97-moddasida sanab o'tilgan holatlarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishi shart.

Arizani ko'rmasdan qoldirishga asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan yana umumiy tartibda murojaat qilishga haqli.

16.6. Hal qiluv qarorini chiqarmasdan turib ish yuritishni tugatish

Odatda, sudda ish ko'rish sudning ishni mazmuni bo'yicha hal qiluv qarorining chiqarilishi bilan yakunlanadi. Biroq, ayrim istisno holatlarda sud ushbu qoidadan chetga chiqib, ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqarmasdan ish yuritishni tugatishga ham haqli bo'ladi. Fuqarolik protsessual huquqi protsessni ushbu tartibda tugatishning ikki shaklini nazarda tutadi:

- ish yuritishni tugatish;
- arizani ko'rmasdan qoldirish.

Ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqarmasdan ish yuritishni tugatishning mazkur shakllari yo'l qo'yish asoslari, huquqiy oqibatlari va qo'llash borasida o'zaro farqlanadi. Masalan, ishning sudga taalluqli bo'lmashligi ish yuritishni tugatishga asos bo'ladi va sudga taalluqli bo'lmagan ish bo'yicha takroran o'sha sudga murojaat qilish mumkin emas. Arizani ko'rmasdan qoldirishda esa unga asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan yana umumiy tartibda murojaat qilishga haqli bo'ladi.

Shunday qilib, sud quyidagi hollarda ish yuritishni tugatadi:

- 1) ish sudga taalluqli bo'lmasa;
- 2) ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishini qabul qilish to'g'risidagi yoxud taraf-

larning kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrimi mavjud bo'lsa;

3) da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechgan va sud bu voz kechishni qabul qilgan bo'lsa;

4) taraflar kelishuv bitimi tuzgan bo'lsalar va u sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa;

5) ishni sudda ko'rishga tayyorlash vaqtida javobgar da'vogarning talablarini tan olgan bo'lsa va bu tan olish sudya tomonidan qabul qilingan bo'lsa;

6) taraflar o'rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimi tuzilgan bo'lsa;

7) ish bo'yicha taraflardan biri bo'lgan fuqaroning vafotidan so'ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa (FPKning 100-moddasi).

Ish yuritish sudning ajrimiga binoan tugatiladi. Agar ish yuritish ishning sudga taalluqli bo'lmaganligi sababli tugatilsa, sud arizachi qaysi organga murojaat qilishi kerakligini ko'rsatishi shart bo'ladi. Ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan sudga ikkinchi marta murojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

16.7. Sud majlisining bayonnomasi

Sudning har bir sud majlisi to'g'risida, shuningdek, sud majlisidan tashqari qilingan har bir alohida protsessual harakat to'g'risida bayonnoma tuziladi (FPKning 20-moddasi). Bayonnomada barcha muhim harakatlar to'liq va aniq aks ettiriladi, chunonchi ularning amalga oshish tartibi qanday bo'lsa, bayonnomada ham shunday bo'ladi.

Sud majlisining bayonnomasida ishni ko'rishning yoki alohida protsessual harakatlarni amalga oshirishning barcha muhim jihatlari aks ettirilishi lozim. Sud majlisining bayonnomasida, xususan, quyidagilar ko'rsatiladi:

1) sud majlisi bo'lib o'tgan yil, oy, kun va joy;

2) sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt;

3) ishni ko'rayotgan sudning nomi, sud tarkibi va sud majlisining kotibi;

4) ishning nomi;

5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko'maklashayotgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

6) sudning taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirganligi;

7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko'maklashayotgan shaxslarga chaqiruv qog'ozi topshirilganligi to'g'risidagi va ular sud majlisiga kelmaganligining sabablari haqidagi ma'lumotlar;

8) raislik qiluvchining barcha farmoyishlari va sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqmasdan chiqargan ajrimlari;

9) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari;

10) sudga taqdim etilgan hamma yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

11) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalarini og'zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning fikrlari, ashyoviy va yozma dalillarni ko'zdan kechirishga taalluqli ma'lumotlar;

12) sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;

13) sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o'qib eshiritirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Bayonnomaga kotib tomonidan sud majlisining o'zida yoki alohida protsessual harakat amalga oshirilganida majlisdan tashqarida tuziladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlari ish uchun ahamiyatli deb hisoblagan holatlarni bayonnomaga kiritish to'g'risida iltimosnomalar taqdim etishga haqlidirlar. Taraflarning, uchinchi shaxslarning o'zlari qo'ygan talablardan butunlay yoki qisman voz kechganligi, qo'yilgan talablarga iqrorligi, ishni kelishuv bitimi bilan tamomlash to'g'risidagi arizalari bayonnomaga kiritilib, tegishli bo'lishiga qarab, taraflarning biri yoki ikkalasi tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaga sud majlisi tamom bo'lganidan yoki alohida protsessual harakat amalga oshirilganidan keyin kechi bilan uch kunda raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi tomonidan imzolanishi kerak. Kiritilgan barcha o'zgartirishlar, tuzatishlar, qo'shimchalar haqida bayonnomada izoh berilishi lozim.

FPKning 23-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning bayonnomaga bilan tanishishga huquqlari mavjudligi va unda yo'l qo'yilgan xatoliklar va kamchiliklarni ko'rsata olishlari ko'zda tutilgan. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining bayonnomasi bilan tanishib chiqishga va u imzolangan kundan e'tiboran, besh kun ichida unda yo'l qo'yilgan noto'g'riliklarni yoki uning to'liq emasligini ko'rsatib, bayonnomaga yuzasidan yozma ravishda fikr-mulohaza bildirishga haqlidirlar.

Bayonnoma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni raislik qiluvchi ko'rib chiqib, ularga qo'shilsa, bu fikr-mulohazalarning to'g'riligini tasdiqlaydi va sud majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yadi. Raislik qiluvchi bildirilgan fikr-mulohazalarga qo'shilmasa, ular sud majlisida ko'rib chiqiladi.

Bildirilgan fikr-mulohazalar hamma hollarda ham ishga qo'shib qo'yilishi kerak. Bayonnoma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar ular topshirilgan kundan e'tiboran, yetti kun ichida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'rib chiqilishi kerak. Biroq, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelmasligi bayonnoma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sudda ish ko'rish deganda nimani tushunasiz va uning ahamiyati qanday?
2. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlisi qanday qismlarga bo'linadi?
3. Sud majlisining tayyorgarlik qismida amalga oshiriladigan harakatlar nimalardan iborat bo'ladi?
4. Ishning mazmuni bo'yicha prokurorning fikrini yozing.
5. Ish ko'rishni keyinga qoldirishning qanday asoslari mavjud?
6. Qaysi hollarda sudda ish yuritish to'xtatilishi mumkin?
7. Arizani ko'rmasdan qoldirishning qanday asoslari mavjud?
8. Sud majlisi bayonnomasining mazmuni haqida gapiring.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
5. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi «Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash va ularni ko'rish muddatlari to'g'risida»gi qarori. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 1999.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlari to'plami. 1991—2006. I jild. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2007.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlari to'plami. 1991—2006. II jild. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2007.

17-bob. BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING QARORLARI

17.1. Sud qarorlari tushunchasi va turlari

Birinchi instansiya sudining qarorlari – bu fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish natijasida umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlari asosida yozma shaklda chiqariladigan va ijro etilishi majburiy bo'lgan protsessual hujjat hisoblanadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha hal etiladigan masalalarga ko'ra, sud qarorlari an'anaviy ravishda quyidagi ikki turga:

- hal qiluv qarorlari;
- ajrimlarga bo'linadi.

Birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan qaroriga hal qiluv qarori deb aytiladi (FPKning 203-moddasi). Bunday hal qiluv qarori sud tomonidan ko'rilayotgan asosiy masalalarga javob tariqasida — taraflardan da'vo talablari bo'yicha, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha, alohida tartibda ko'riladigan ishlar bo'yicha qabul qilinadi. Birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qilmaydigan qaroriga ajrim deb aytiladi (FPKning 237-moddasi).

Birinchi instansiya sudida fuqarolik ishlarini ko'rish, odatda hal qiluv qarori qabul qilish bilan tamom bo'ladi. Ajrim esa, fuqarolik protsessining yuritilishi yoki uning to'xtatilishi, tugatilishi masalalari bo'yicha, dalillarni to'plash, protsessga yangi shaxslarni jalb qilish, sudning hal qiluv qarorini ijro etish bo'yicha, shuningdek, tashkilotlarning ishlaridagi jiddiy kamchiliklar hamda fuqarolar tomonidan qonunning buzilishi masalalari va boshqa ba'zi masalalar bo'yicha chiqariladi¹.

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 231-bet.

Birinchi instansiya sudi tomonidan hal qiluv qarori va ajrimdan tashqari sud buyrug‘i ham qabul qilinishi mumkin. FPKning 18-moddasiga ko‘ra, ko‘rilayotgan va hal etilayotgan masalalari bo‘yicha sud hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq qabul qilishi nazarda tutilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, sud buyrug‘i sud qarorlarining alohida turi sifatida e‘tirof etilmoqda.

Birinchi instansiya sudining sud buyrug‘i o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, hal qiluv qarori bilan bir turda bo‘lib, u orqali ishning hal etilishidan bevosita manfaatdor bo‘lgan undiruvchi va qarzdorning moddiy-huquqiy holati qat‘iy belgilanadi. Biroq, moddiy huquqning nizosiz bo‘lishini talab qiluvchi ish yuritishning soddalashtirilgan mazkur shakli buzilgan huquqlarni tezkorlik bilan himoya qilish zaruratidan kelib chiqib, mazkur ko‘rinishdagi sud qarorining yuzaga kelishini taqozo etgan edi. Shuning uchun ham bizning nazarimizda, sud buyrug‘ida bayon va asoslantiruvchi qismlar mavjud bo‘lmasdan, sudya talablarni qanoatlantirishga asos bo‘lgan moddiy qonun normasini ko‘rsatish bilan cheklanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2006-yil 3-fevraldagi «Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 4-qarorining 19-bandida FPKning 238⁸-moddasi talablariga ko‘ra, sud buyrug‘i hal qiluv qaroridan farq qilib, unda bayon va asoslantiruvchi qismlar mavjud bo‘lmasdan, talablarni qanoatlantirishga asos bo‘lgan moddiy qonun normasini ko‘rsatish bilan chegaralanishiga sudlarning e‘tibori qaratilsin, deb tushuntirish beriladi¹.

17.2. Sudning hal qiluv qarori mohiyati va ahamiyati

Sudning hal qiluv qarori – bu nizoni mazmunan hal qiluvchi va buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlar yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni tiklovchi, ishni mazmunan ko‘rish asosida sud tomonidan qonunda nazarda tutilgan protsessual shaklda qabul qilinadigan protsessual hujjat hisoblanadi.

Har bir fuqarolik ishi bo‘yicha bitta hal qiluv qarori chiqariladi. Hal qiluv qarori sud ishlarini yuritish turlarining buyruq tartibida ish yuritish turidan boshqa barcha turlarida chiqarilishi mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi axborotnomasi, 2006, № 1.

Bular da'vo tartibidagi ishlar, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlar hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlardir. Mazkur sud ishlarini yuritish davomida fuqarolik protsessual qonunda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga rioya qilgan holda hal qiluv qarori chiqariladi. Lekin shu bilan birga qonunda ushbu toifadagi ishlar uchun ayrim istisno va qo'shimcha qoidalarni ham nazarda tutishi mumkin.

Sud hal qiluv qarori fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalashga, huquqiy nigilizmga barham berishga, huquqni targ'ib qilishga yordam beradi.

Sudning hal qiluv qarori dalillardan foydalangan holda ishning haqiqiy holatini belgilashga, moddiy va protsessual huquq me'yorlarini tatbiq etish bilan fuqarolarning va yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan tashkilotlar va boshqa jamoat birlashmalarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgandir.

17.3. Sudning hal qiluv qarorini chiqarish tartibi

Sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozim (FPKning 18-moddasi uchinchi qismi). Sud hal qiluv qaroriga nisbatan belgilangan ushbu talablarga rioya etmaslik qarorning yuqori turuvchi sudlar tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga olib keladi.

Sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yilgan muhim talab uning qonuniy bo'lishi hisoblanadi. Sud ishda talab qilinayotgan holatlardan qat'i nazar, moddiy huquq normasini qo'llash yoki qo'llashni rad etish haqida qaror chiqaradi, lekin har qanday holatda ham huquqiy normaning mazmunini izohlaydi va uni ish holatlariga nisbatan tatbiq etadi. Fuqarolik ishlari yuritilayotganda jarayonning barcha bosqichida, buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanganligi hal qiluv qarorining bekor qilinishiga asos bo'ladigan protsessual normalarga qat'iy va aniq rioya qilinishi lozim (FPKning 314-moddasi).

Huquqqa, inson huquq va erkinliklariga daxldor, ularga ta'sir ko'rsatuvchi har qanday normativ-huquqiy hujjat jamoatchilik e'tibori uchun rasmiy ravishda nashr etilmasa, qo'llanilishi mumkin emas. Shunday qilib, sud ishlarni O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida hal qilishi shart. Sud, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid bo'lmasa, boshqa

normativ hujjatlarni ham qo'llashi mumkin. Chunki nizoli munosabatni tartibga soladigan qonun bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan qonunni tatbiq etadi, bordi-yu, bunday qonun ham bo'lmasa, respublika qonun hujjatlarining umumiy asoslari va ma'nosiga tayanishi qonunda nazarda tutilgan (FPKning 12-moddasi).

Sud O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi. Zero, hal qiluv qarorining qonuniyligi sudlar tomonidan umum e'tirof etilgan prinsip va normalarga, mamlakat xalqaro shartnomalariga rioya etilishini anglatadi. Shuning uchun ham, basharti, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi nazarda tutilgan (FPKning 3-moddasi).

Hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yilgan navbatdagi talab — uning asosli bo'lishidir. FPKning 18-moddasi ikkinchi qismida asoslilik tushunchasi berilgan bo'lib, unga ko'ra, sud hal qiluv qarorini faqat sud majlisida tekshirilgan materiallar bilan asoslashi belgilangan.

Hal qiluv qarorining asosliliigi uning qonuniyligi bilan uzviy bog'liq. Agar sud hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yilgan birinchi talab, ya'ni uning qonuniy bo'lishi hal qiluv qarorining huquqiy tomoni bo'lsa, asoslilik esa uning faktologik tomoni hisoblanadi.

Darhaqiqat, moddiy huquq normalarini to'g'ri tatbiq etish uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlab olish talab etiladi. Hal qiluv qarorida sud muhokamasida ishtirok etgan taraflar tomonidan to'liq bayon qilingan, ishni hal etishda muhim ahamiyat kasb etgan holatlarning barchasi bayon etilsa hamda taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi holatlarni tasdiqlovchi dalillar keltirilsa, asosli deb hisoblanadi.

Sudning hal qiluv qaroriga qo'yilgan navbatdagi talab — uning adolatli bo'lishi hisoblanadi (FPKning 18-moddasi uchinchi qismi). Ta'kidlash joizki, fuqarolik protsessual qonunchilikda hal qiluv qarorining adolatli bo'lishi, deganda nima anglashilishi to'g'risida norma mustahkamlanmagan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Sudning hal qiluv qarori haqida»gi 13-qarorida ham mazkur talab haqida hech qanday tushuntirish berilmagan.

Biroq, hal qiluv qarorlariga qo'yilgan mazkur talab, ayniqsa, masalan, ma'naviy zararni undirish, moddiy zarar yoki boshqa mol-mulkni undirishga oid fuqarolik ishlari bo'yicha da'vo talablarini qanoatlantirishda taraflarning, xususan, javobgarning iqtisodiy imkoniyatlariga va boshqa ish holatlariga muvofiq bo'lishi kabilarda ko'proq namoyon bo'ladi.

17.4. Hal qiluv qarorining mazmuni

Sudning hal qiluv qarori protsessual hujjat sifatida aniq va ravshan ifodalangan quyidagi to'rt qismdan:

- kirish;
- bayon;
- asoslantiruvchi;
- xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Har bir qism o'zining matni va mazmuniga ega bo'lib, ular birgalikda sud hal qiluv qarorini tashkil qiladi. Shuning uchun hal qiluv qarorini yozishda sudlar FPKning 206-moddasi bilan belgilangan birin-ketinlikka rioya qilishlari talab etiladi.

Hal qiluv qarorining kirish qismi. Sud hal qiluv qarorining kirish qismida sud hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarishi, albatta, ko'rsatilishi shart.

Hal qiluv qarorining kirish qismida, shuningdek, quyidagilar ko'rsatilishi talab etiladi:

- hal qiluv qarorining chiqarilgan vaqti va joyi. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, hal qiluv qarorining chiqarilgan vaqti uni qabul qilgan sudya (sudyalar) tomonidan imzolangan kun hisoblanadi¹;
- hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi;
- sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi;
- taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar;
- nizo predmeti.

Sud hal qiluv qarorining bayon qismi ishning aniq holatlariga ko'ra ancha keng hajmli bo'ladi.

Hal qiluv qarorining bayon qismi taraflar va boshqa shaxslar ish holatlarini qanday bayon qilgan bo'lsalar shunday tuziladi. Ushbu qismda da'vo talablarini, javobgar e'tirozlarining qisqacha mazmuni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushun-

¹ Гражданский процесс. Учебник. Отв. ред. проф. В.В. Ярков. М., «Волтерс Клувер», 2004, стр. 307.

tirishlari aks ettiriladi. Da'vogarning da'voni o'zgartirganligi (da'vo-ning asosini yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablarining miqdorini oshirish yoki kamaytirish, da'vodan voz kechish) shu yerda ko'rsatilmog'i kerak. Ushbu ma'lumotlar qanoatlantirish kerak bo'lgan da'vo predmetini aniqlashda kerak bo'ladi.

Sud o'zgartirilgan talablar yuzasidan qaror chiqarishi lozim. Ammo da'vodan to'liq voz kechilishi sud tomonidan qabul qilinsa, sud qaror emas, balki ish yuritishni tugatish haqidagi ajrimni qabul qiladi. Hal qiluv qarorining bayon qilish qismida, shuningdek, taraflar va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning protsessual ahamiyat kasb etuvchi arzlari ham ko'rsatilishi mumkin.

Hal qiluv qarorining asoslantirish qismida sudning ish bo'yicha chiqargan xulosasining faktik va huquqiy asoslari bayon etilishi lozim. Jumladan, hal qiluv qarorining ushbu qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, ishning holatlari to'g'risidagi sud xulosalariga asos bo'lgan dalillar, sud u yoki bu dalilni rad qilishda asoslangan xulosalar, shuningdek, nizoli munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq me'yorlari (fuqarolik, oila, yer, mehnat, uy-joy to'g'risidagi va boshqa qonunlar) keltirilmog'i, qonunning nomi, moddasi, bandi, boshqa qonun hujjatlarining soni va qabul qilingan sanasi hamda protsessual huquqiy me'yorlari ko'rsatilmog'i lozim.

Hal qiluv qarorining asoslantirish qismida sud taraflar topshirgan hujjatlarni, sud majlisida aniqlangan faktlarni tahlil qilib, taraflar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida chiqarilgan xulosa va bu munosabatlarga berilgan yuridik bahoni ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, sud hal qiluv qarorining ushbu qismida dalillarga baho beriladi, qanday faktlar aniqlangan deb hisoblangani va da'vogarning qanday talablari yoki javobgarining qanday e'tirozlarini to'g'ri deb topilgani va qanday qonunlarga binoan to'g'ri deb hisoblangani ko'rsatib o'tiladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi va yuridik shaxsning nomi to'liq keltirilishi, da'vo talablarining qanoatlantirilganligi (to'liq yoki qisman) yoki butunlay yoxud qisman rad etish haqidagi sudning xulosasi aniq aks ettirilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, sud xarajatlarining taqsimlanishi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko'rsatilishi shart. Hal qiluv qarorining xulosa qismi qarorni ijro etish chog'ida tushunmovchiliklar va nizolar vujudga kelmasligi uchun tushunarli va aniq tarzda ifoda etilmog'i kerak.

Sud hal qiluv qarorining xulosa qismida, shuningdek, qarorni ijro qilish uchun qabul qilingan choralar ko'rsatiladi. Masalan, qonunda belgilangan alohida hollarda ish holatlariga qarab, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, uni ijro etish muddati va qarorni darhol ijro etish shartlari ko'rsatilishi mumkin.

17.5. Hal qiluv qarorini tuzatish

Fuqarolik protsessual kodeksi hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan undagi kamchiliklarni tuzatishning quyidagi usullarini belgilaydi:

1. *Hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolar va ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish.* FPKning 213-moddasiga binoan, sud hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolarni va ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni o'z tashabbusi bilan yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra tuzatishi mumkin. Tuzatish kiritish masalasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi. Bu shaxslarning sudga kelmaganliklari tuzatish kiritish masalasini ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

2. *Qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish.* Sud hal qiluv qarorida arz qilingan da'vo talablariga to'liq va asoslantirilgan javob berilishi kerak hamda sud xarajatlari masalalari hal etilishi lozim. Agar bunday talablar qondirilmagan bo'lsa, sud qo'shimcha hal qiluv qarori qabul qilish orqali ushbu kamchiliklarni bartaraf etadi (FPKning 214-moddasi).

Ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqargan sud ishda ishtirok etayotgan shaxslarning arizalariga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarishi mumkin:

- huquq to'g'risidagi masalani hal qilib, undiriladigan summa miqdorini, topshirilishi lozim bo'lgan mulkni yoki javobgar bajarishi lozim bo'lgan harakatlarni ko'rsatmagan bo'lsa;
- arz qilingan talablarning birortasi bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar dalillar keltirgan va tushuntirishlar bergan bo'lsalar-u, lekin bu xususda hal qiluv qarori chiqarilmagan bo'lsa;
- hal qiluv qarorida sud xarajatlarini taqsimlash ko'rsatilmagan bo'lsa.

Ish bo'yicha qo'shimcha hal qiluv qarori FPKning 214-moddasida belgilangan holatlardagina va faqat ishni ko'rish chog'ida

aniqlangan haqiqiy holatlar asosida chiqarilishi mumkin. Qo‘shimcha hal qiluv qarori chiqarish masalasi hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e‘tiboran, o‘n kundan kechikmay qo‘zg‘atilishi mumkin. Agar sudning hal qiluv qaroriga apellatsiya, kassatsiya shikoyati berilgan yoki protest keltirilgan va shu bilan bir vaqtda qo‘shimcha hal qiluv qarori chiqarish masalasi ham qo‘yilgan bo‘lsa, sud avval qo‘shimcha hal qiluv qarori chiqarish masalasini hal qilib, keyin ishni yuqori bosqich sudiga ko‘rish uchun yuboradi.

Qo‘shimcha hal qiluv qarori chiqarish masalasini qo‘yish bilan bog‘liq muddat uzrli sabablarga ko‘ra, o‘tkazib yuborilgan holda u FPKning 130-moddasida belgilangan tartibda sud tomonidan tiklanishi mumkin.

Qo‘shimcha hal qiluv qarori ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqargan sudya (sudyalar) tarkibida, hal qiluv qarorlariga nisbatan qo‘yilgan talablar asosida chiqariladi. Sud qo‘shimcha hal qiluv qarori chiqarishi chog‘ida hal qiluv qarorining mazmunini o‘zgartirishga yoki sud majlisida tekshirilmagan yangi masalalarni hal qilishga haqli emas.

Qo‘shimcha hal qiluv qarori ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Qo‘shimcha hal qiluv qarori chiqarish to‘g‘risidagi talabni rad etish haqidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

3. Hal qiluv qarorini tushuntirish. Chiqarilgan hal qiluv qarori tushunarsiz bo‘lgan taqdirda, ishni hal qilgan sud o‘z tashabbusi bilan yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, shuningdek, sud ijrochisining arizasiga ko‘ra hal qiluv qarorini uning mazmunini o‘zgartirmagan holda FPKning 215-moddasida belgilangan qoidalarga ko‘ra tushuntirishi mumkin. Agar hal qiluv qarori ijro qilinmagan va uni majburiy ijro qildirish mumkin bo‘lgan muddat o‘tmagan bo‘lsagina, uni tushuntirishga yo‘l qo‘yiladi. Hal qiluv qarorini tushunish qiyin bo‘lgan qismlarini to‘liqroq va tushunarli bayon etish maqsadida sud uning mazmunini o‘zgartirishga va hal qiluv qarorida bayon etilmagan masalalarni hal qilishga haqli emas.

Hal qiluv qarorini tushuntirish masalasi ishda ishtirok etayotgan shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Biroq, bu shaxslarning sudga kelmasligi hal qiluv qarorini tushuntirish masalasini ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi. Sud hal qiluv qarorini tushuntirib berish to‘g‘risidagi arizani u

kelib tushgan kundan e'tiboran, o'n kunlik muddatda ko'rib chiqadi. Hal qiluv qarorini tushuntirish masalasi yuzasidan sudning chiqargan ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

4. Hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib ijro etish, hal qiluv qarorini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish. FPKning 216-moddasiga binoan ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqargan sud yoki hal qiluv qarorini ijro etish joyidagi sud ishda ishtirok etayotgan shaxslarning arizasiga ko'ra alohida hollarda, taraflarning mulkiy ahvoli, qarzdorning kasalligi yoki boshqa e'tiborga molik holatlarni hisobga olib, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirishga yoki uni bo'lib-bo'lib ijro etishga yo'l qo'yish, shuningdek, uni ijro etish usuli va tartibini o'zgartirishga haqli.

Shu o'rinda hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish — bu uning ijro qilish vaqtini o'zgartirish hisoblanib, bo'lib-bo'lib ijro etish esa — qarzning ma'lum qismlarga bo'lib-bo'lib to'lanadigan davrini belgilashga aytiladi va ular sud qarori yoki ajrimi bilan o'rnatiladi. Ijroni kechiktirish, odatda, ijro predmeti bo'linmas bo'lganda qo'llaniladi. Bo'lib-bo'lib ijro etish esa ijro predmetini bo'lish imkoniyati bo'lgandagina qo'llaniladi.

Hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib ijro etish, hal qiluv qarorini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar yoki chiqarilayotgan vaqtdagi va chiqarilganidan keyingi holatlarda ham qo'llaniladi. Mazkur arizalar ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq bu shaxslarning kelmasligi sud oldiga qo'yilgan masalani hal etishga to'sqinlik qilmaydi.

Hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish yoki uni bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza u berilgan kundan e'tiboran, o'n kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqarilib, u undiruvchi hamda qarzdorga, shuningdek, sud hujjatini ijro etish sud ijrochisining ish yurituvida bo'lsa, sud ijrochisiga yuboriladi.

Hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish yoki uni bo'lib-bo'lib ijro etish to'g'risidagi, shuningdek, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish haqidagi masala bo'yicha sudning chiqargan ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

17.6. Sudning hal qiluv qarorini qonuniy kuchi

Sudning hal qiluv qarorini qonuniy kuchi deganda, ish bo'yicha chiqarilgan sud hal qiluv qarorining ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun, shuningdek, ishni ko'rgan sudning o'zi uchun hamda ishda ishtirok etgan-etmaganidan qat'i nazar, fuqaro va korxonalar uchun majburiy ekanligi nazarda tutiladi.

Sudning hal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat berilmagan yoki protest keltirilmagan bo'lsa, apellatsiya shikoyati berish va protest keltirish muddati o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi. FPKning 320-moddasiga ko'ra, sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, yigirma kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar hal qiluv qarori ustidan apellatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin.

Hal qiluv qarori ustidan apellatsiya shikoyati berilgan yoki apellatsiya protesti keltirilgan taqdirda, hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori instansiya sudi ko'rib chiqqanidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng ijro etiladi, darhol ijro etish hollari bundan mustasno. Chunki FPKning 219-moddasida hali qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari ham ijro etilishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach, bir qator huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Xususan, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin taraflar va ishda ishtirok etgan boshqa shaxslar, shuningdek, ularning huquqiy vorislari sudga o'sha talablar bilan, o'sha asoslar bo'yicha yangidan arz qilishlari, shuningdek, boshqa protsessda sud aniqlagan faktlar va huquqiy munosabatlar haqida nizolashishlari mumkin emas. Aks holda sud ularning arizalarini FPKning 152-moddasiga muvofiq qabul qilishni rad etadi.

17.7. Sud hal qiluv qarorlarini darhol ijro etish

Sudning quyidagi hal qiluv qarorlari darhol ijro etilishi shart:

- 1) alimentlar undirish to'g'risidagi;
- 2) xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi;
- 3) mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetishi, shuningdek, boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun to'lovlar undirish to'g'risidagi;

4) mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi, shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi;

5) sudda ishni ko'rish vaqtida javobgar da'voni butunlay yoki qisman tan olganligiga qarab, to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari.

Ma'lumki, FPKning 352-moddasiga ko'ra, nazorat tartibida protest keltirish huquqi berilgan prokuror va uning o'rinbosarlaridan tashqari mansabdor shaxslar tegishli hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning ijrosini nazorat tartibida ish yuritish tamom bo'lguniga qadar to'xtatib turishlari mumkin. Biroq, yuqorida qayd etilgan sud hal qiluv qarorlarining ijrosi to'xtatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sud quyidagi hal qiluv qarorlari butunlay yoki qisman darhol ijro etilishiga yo'l qo'yishi mumkin:

1) da'vogar va javobgar sudning chiqargan hal qiluv qaroriga va uning darhol ijro etilishiga rozi bo'lganda;

2) muallifning intellektual faoliyati natijasidan foydalanganlik uchun unga haq undirib berish to'g'risidagi hal qiluv qarori;

3) alohida holatlar natijasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko'p zarar keltirishi mumkin bo'lgan yoki ijroning bajarilishi mumkin bo'lmay qolgan hamma boshqa ishlar bo'yicha.

Hal qiluv qarorini darhol ijro etish masalasi qaror chiqarilayotganda yoki qaror chiqarilgandan keyin ham ko'rilishi mumkin. Masalan, hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar mazkur masalani hal qilish talab etilganida, ya'ni sud hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda, taraflarning roziligi sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi va taraflar tomonidan imzolanadi. Agar taraflarning roziligi sud nomiga yuborilgan yozma arizalarda ifodalangan bo'lsa, bu arizalar ishga qo'shib qo'yiladi, bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi.

Alohida holatlar natijasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko'p zarar keltirishi mumkin bo'lgan yoki ijroning bajarilishi mumkin bo'lmay qolgan hamma boshqa ishlar bo'yicha sud hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda sud da'vogardan sudning qarori bekor qilingan taqdirda, undirilgan narsalar qaytarilishini ta'minlashni talab qilishi mumkin.

17.8. Birinchi instansiya sudining ajrimlari, uning turlari (mazmuni, shakli, chiqarish tartibi) va qonuniy kuchi

Sud ajrimlari hal qiluv qarorlaridan farqli o'laroq, sud muhokamasi davrida, qaror chiqarilganidan keyin, hatto ijro bosqichidagi turli protsessual masalalarni hal qilish bo'yicha chiqarilishi mumkin. Birinchi instansiya sudi tomonidan chiqariladigan ajrim ishni mazmunan hal qilmaydigan qaror hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining mazmunidan (237—238-moddalari) kelib chiqib, birinchi instansiya sudining ajrimlarini quyidagi turga ajratish mumkin:

- sud tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) chiqariladigan ajrimlar;
- sud tomonidan murakkab bo'lmagan masalalar hal etilganida o'z joyida chiqariladigan ajrimlar.

Mazkur ajrimlarning turlari bir-biridan mazmuni, shakli, chiqarish tartibi va shikoyat qilish usullari bilan farqlanadi. Masalan, sud tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) chiqariladigan ajrimlar alohida protsessual hujjat shaklida chiqariladi. Sud tomonidan murakkab bo'lmagan va har tomonlama muhokama qilishni talab etilmaydigan masalalar yuzasidan o'z joyida chiqariladigan ajrimlar esa sud majlisining bayonnomasiga qayd qilinadi.

Masalan, sud majlisini boshqa kunga qoldirish, dalillarni tekshirish tartibi, qo'shimcha dalillar talab qilib olish va boshqa masalalar to'g'risidagi ajrimlar sud tomonidan ishning ahvoliga qarab, yo yuqorida ko'rsatilgan tartibda yoki alohida xona (maslahatxona)ga kirmasdan majlisning o'zidayoq kengashib, ayrim hujjat sifatida emas, balki sud majlisining bayonnomasiga yozish yo'li bilan chiqariladi¹.

Sud majlisi bayonnomasiga qayd qilib qo'yiladigan ajrimlar sudning alohida xonasi (maslahatxonasi)ga kirmasdan, o'z joyida chiqariladi. Boshqa barcha holatlarda ajrimlar sudning alohida xonasi (maslahatxona)da alohida protsessual hujjat shaklida chiqariladi.

Alohida protsessual hujjat shaklida chiqariladigan ajrimlar sud hal qiluv qarorlari kabi to'rt qismdan:

- kirish;
- bayon;

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 252-bet.*

- asoslantirish;
- xulosa qismlardan iborat bo'lad.

Sud ajrimlarining kirish qismida ajrimning chiqarilgan vaqti va joyi, sudning nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Bayon qismida nizo predmeti va ajrim bilan hal qilinayotgan masalaning mohiyati, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning fikrlari ko'rsatiladi. Asoslantirish qismida sudning xulosasiga olib kelgan asoslar va sud qo'llagan qonunlar keltiriladi. Xulosa qismida esa, sudning hal etilayotgan masala yuzasidan xulosasi, ajrim ustidan shikoyat berish (protest keltirish) tartibi va muddati ko'rsatiladi.

Sud tomonidan o'z joyida chiqariladigan ajrimda yuqoridagi ajrimlardan farqli ravishda kirish qismi, shikoyat qilish tartibi va muddati ko'rsatilmaydi (FPKning 238-moddasi).

17.9. Xususiy ajrimlar, ularning mazmuni va ahamiyati

Xususiy ajrimlar sudning boshqa ajrimlaridan o'zining maqsadi bilan alohida ajralib turadi. Sud fuqarolik ishini ko'rayotganida ayrim mansabdor shaxslar yoki fuqarolar tomonidan qonuniylik va huquq-tartibot buzilganligini aniqlasa, FPKning 19-moddasiga ko'ra, xususiy ajrim (qaror) chiqarib, uni tegishli organlar va mansabdor shaxslarga yuboradi. Ushbu shaxslar xususiy ajrimning (qarorning) nusxasini olgan kundan e'tiboran, bir oylik muddat ichida o'zlari ko'rgan choralar to'g'risida sudga xabar qilishlari talab etiladi.

Aytish joizki, xususiy ajrimlar sudning boshqa ajrimlari kabi rasmiylashtirilsa-da, lekin o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususiy ajrimlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — u qonunchilikning buzilishi va nizolar yuzaga kelishining oldini olish masalalari yuzasidan chiqarilib, sud organlarining fuqarolik ishlarini mazmunan ko'rib, hal qilish davomida qonunchilik buzilishining oldini olish bo'yicha protsessual qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan vazifalarini amalga oshirishning muhim protsessual vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Chunki sud organlari fuqarolik ishlari yuzasidan odil sudlovni amalga oshirish bilan bir qatorda, ish yuzasidan muayyan qonunbuzilishining oldini olish ishlarini olib borish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar va bu imkoniyat xususiy ajrim chiqarish orqali ro'yobga chiqadi.

Sud xususiy ajrimlarining fuqarolik nizoli ishlarini yuzaga kelishining oldini olishdagi ahamiyati muhim bo'lganligi bois,

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining bir qator qarorlarida, xususan, 1996-yil 19-maydagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko'rish amaliyoti to'g'risida»gi, 1998-yil 17-apreldagi «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanishi haqida»gi hamda 1998-yil 11-sentabrdagi «Sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi va boshqa qarorlarida ish yuzasidan xususiy ajrim chiqarishning muhimligi alohida ta'kidlanib, sudlarga ushbu yuzasidan tegishli tushuntirishlar berib o'tiladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sud qarorlari deganda nimani tushunasiz va uning mazmunini tavsiflovchi qanday jihatlar mavjud?
2. Sud qarorlarining turlari haqida gapiring.
3. Sud qarorlarini o'zaro farqlovchi jihatlari nimada?
4. Sud hal qiluv qarorlarining o'ziga xos belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Sud hal qiluv qarorlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
6. Sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qanday talablar qo'yiladi?
7. Sud hal qiluv qarorining tarkibiy qismi haqida gapiring.
8. Hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan undagi kamchiliklarini tuzatishning qanday tartiblari mavjud?
9. Qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish uchun nimalar asos bo'ladi?
10. Sudning hal qiluv qarorini qonuniy kuchi deganda nimani tushunasiz?
11. Hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishi qanday huquqiy oqibatlariga olib keladi?
12. Sudning qaysi hal qiluv qarorlari darhol ijro etiladi?
13. Birinchi instansiya sudining ajrimlari deganda nimani tushunasiz va uning qanday turlari bor?
14. Xususiy ajrim nima va uning boshqa ajrimlardan qanday farqi mavjud?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh.Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh.Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *M.M.Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Sud hal qiluv qarori haqida»gi 13-qarori.

18-bob. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISH

18.1. Sud buyrug'i asosida qarzni undirish. Sud buyrug'ini chiqarish bo'yicha talablar

Sud buyrug'i undiruvchining pul mablag'larini undirish to'g'risidagi yoki ko'char mol-mulkni nizosiz talablar bo'yicha qarzdordan talab qilib olish to'g'risidagi arizasi yuzasidan sudyaning sudda ishni ko'rmasdan chiqargan hujjatidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2006-yil 3-fevraldagi «Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 4-qarorining 1-bandida sud buyrug'i birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning alohida bir turi bo'lib, FPKning 238²-moddasida ko'rsatilgan talablar yuzasidan sud muhokamasi talab qilinmaydigan ishlar bo'yicha chiqariladi va u ijro hujjati kuchiga ega ekanligi haqida tushuntirish beriladi¹.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud buyruqlari qonunchilikda belgilangan qat'iy qoidalar asosida, faqat mulkiy tusdagi talablar yuzasidangina chiqariladi.

Mulkiy tusda bo'lmagan yoki ko'chmas mol-mulkni undirishga qaratilgan talablar yuzasidan sud buyruqlari chiqarilishiga qonun yo'l qo'ymaydi.

Mamlakatimizning fuqarolik protsessual qonunchiligida, sud buyruqlarini chiqarishning quyidagi talablari o'z ifodasini topgan:

- 1) agar talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo'lsa;
- 2) agar talab yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olingan bo'lsa, shu jumladan, agar kommunal xizmatlar to'lovi bo'yicha qarzni undirish haqidagi talab arz qilingan bo'lsa;
- 3) agar voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish haqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog'liq bo'lmagan talab arz qilingan bo'lsa;

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi axborotnomasi, 2006, № 1.

4) agar hisoblangan, lekin xodimga to'lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni undirish haqidagi talab arz qilingan bo'lsa;

5) agar fuqarolardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarni undirish haqidagi talab arz qilingan bo'lsa (FPKning 238²-moddasi).

18.2. Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni

Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizalar FPKning 145-moddasiga ko'ra, sudlovga taalluqlilikning umumiy qoidalari bo'yicha beriladi. Unga ko'ra, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizalar javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi sudga beriladi. Tashkilotlarga nisbatan sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizalar esa ularning organlari joylashgan hududdagi sudga beriladi.

Shuningdek, protsessual qonunchilik sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizalar uchun da'vogarning tanlashi bo'yicha sudlovlik qoidalarini ham belgilaydi. Xususan, aliment undirish haqidagi talab bilan arz qilinganda, arizalar FPKning 241-moddasiga ko'ra, arizachi yashab turgan joydagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risida sudga yozma shaklda ariza bilan murojaat qilish talab etiladi. Ariza shakli, mazmuni va matniga qo'yilgan talablar da'vo arizasiga qo'yilgan talablarga o'xshash bo'ladi. Shu bilan birga, buyruq chiqarish jarayonining o'ziga xosligini hisobga olib, uning shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini soddalashtirilgan tartibda himoya qilishini ko'zda tutadi. Lekin da'vo arizasi bilan murojaat qilishdagi jarayondan farqli ravishda buyruq tartibida ish yuritishda nizosiz va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan talablar ko'rib chiqiladi.

Demak, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizada talablar bayon qilinib, uni asoslovchi holatlar va tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilish bilan kifoyalanadi. Lekin shunday bo'lsa-da, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizalarning mazmuniga alohida e'tibor berish lozim. Unda ariza berilayotgan sudning nomi, undiruvchi va qarzdor shaxsning aniq manzili, joylashgan joyi va agar ulardan biri yuridik shaxs bo'lsa, uning rekvizitlari, undiruvchining talabi va talabga asos bo'lgan holatlar, arz qilingan talabni tasdiqlovchi va ilova etilayotgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatilishi lozim. Agar

undiruvchi tomonidan ko'char mol-mulk talab qilinayotgan bo'lsa, arizada ushbu mol-mulkning qiymati ham ko'rsatilishi talab etiladi.

Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza undiruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risida ariza berganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi «Davlat boji stavkalari haqida»gi 533-sonli qarori asosida tasdiqlangan ilovaga ko'ra, da'vo ishlarini yuritish uchun belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi. Arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda undiruvchi tomonidan to'langan davlat boji qaytarib beriladi. Sud buyrug'i bekor qilingan taqdirda to'langan davlat boji qaytarib berilmaydi, balki u undiruvchi qarzdorga nisbatan da'vo ishi yuritish tartibida ariza bilan sudga murojaat etgan taqdirda to'lanishi lozim bo'lgan boj hisobiga o'tkaziladi.

Agar ariza FPKning 2383-moddasi talablariga javob bermasa yoki davlat boji to'lanmagan bo'lsa, sudya sud buyrug'ini chiqarish haqidagi arizani qabul qilib, o'z ajrimi bilan undiruvchiga kamchiliklarni bartaraf etish yoxud davlat bojini to'lash uchun ko'pi bilan uch kun muhlat berishi mumkin. Undiruvchi belgilangan muddatda kamchiliklarni bartaraf etsa, davlat bojini to'lasa, ariza sudga dastlab taqdim etilgan kundan qabul qilingan hisoblanadi. Aks holda, sudya qonun talabiga muvofiq arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi. Sud buyrug'i chiqarish haqidagi arizani qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim uch kundan kechiktirilmay chiqariladi va mazmuni bo'yicha FPKning 153-moddasi talabiga javob berishi lozim.

18.3. Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish

Sudya sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilishni FPKning 152-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha rad etadi. Bundan tashqari, sudya quyidagi hollarda arizani qabul qilishni rad etishga haqli, agar:

1) arz qilingan talab FPKning 238²-moddasida nazarda tutilmagan bo'lsa;

2) qarzdor O'zbekiston Respublikasi sudlari yurisdiksiyasi doirasidan chetda bo'lsa;

3) arz qilingan talabni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa;

4) huquq to'g'risida nizo mavjud deb hisoblansa;

5) arizaning shakli va mazmuni FPKning 238³-moddasi talablariga javob bermasa;

6) ariza berganlik uchun davlat boji to'lanmagan bo'lsa.

Arizani qabul qilishning rad etilishi undiruvchining ushbu talab bo'yicha da'vo ishini yuritish tartibida da'vo taqdim etishga to'sqinlik qilmaydi. Agar undiruvchi sudyaning ko'rsatmalariga muvofiq, u belgilagan muddatda kamchiliklarni bartaraf etsa, davlat bojini to'lasa, ariza sudga dastlab taqdim etilgan kuni berilgan hisoblanadi. Aks holda, sudya FPKning 238⁵-moddasiga muvofiq arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi.

18.4. Sud buyrug'ini chiqarish tartibi, muddati va mazmuni

Fuqarolik protsessual qonunchilikda sud buyrug'ini chiqarish uchun protsessual muddat belgilangan bo'lib, unga ko'ra sud buyrug'i ariza kelib tushgan kundan e'tiboran, uch kun ichida sudya tomonidan chiqariladi. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi masalani sudya undiruvchi va qarzdorni chaqirmasdan hal etadi. Sud buyrug'i ishni mazmunan ko'rmasdan, sudyaning yakka o'zi tomonidan chiqariladigan hujjat hisoblanadi. Ushbu o'rinda sudya guvoh ko'rsatmalarini va ekspert xulosalarini tekshirmaydi, undiruvchi va qarzdorning tushuntirishlarini eshitmaydi, u mavjud hujjatlar asosida o'z buyrug'ini chiqaradi.

Sud buyrug'ining kirish qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

- ish yuritish tartib raqami va buyruq chiqarilgan sana;
- sudning nomi, buyruq chiqargan sudyaning familiyasi hamda ismi, otasining ismi bosh harflari;
- undiruvchining nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi), yashash joyi va joylashgan yeri;
- qarzdorning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi), yashash joyi va joylashgan yeri.

Sudya o'z buyrug'ida undiruvchining talabini qondirish uchun asos bo'lgan qonunni ko'rsatishi lozim bo'ladi. Bir qarashda bu sud buyrug'ining asoslantiruvchi qismiga o'xshasa-da, lekin ushbu qismda hujjatlar, boshqa faktik holatlar tekshirilmaydi va huquqiy tahlil etilmaydi.

Sud buyrug'ining xulosa qismida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- talabni qondirish uchun asos bo'lgan qonun;

• undirilishi lozim bo'lgan pul summasining miqdori yoki talab qilib olinishi lozim bo'lgan ko'char mol-mulkning qiymati ham ko'rsatilgan holdagi belgisi:

• agar qonunda yoki shartnomada neustoyka undirish nazarda tutilgan bo'lsa, neustoyka miqdori;

• qarzdordan undirilishi lozim bo'lgan davlat bojining summasi;

• arz qilingan talabga qarshi qarzdor tomonidan e'tiroz bildirish muddati va tartibi.

Voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirish to'g'risidagi sud buyrug'ida FPKning 238⁸-moddasi 1—5 va 8-bandlarida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari, shuningdek, qarzdorning tug'ilgan sanasi va joyi, ta'minoti uchun aliment undirilishi lozim bo'lgan bolaning ismi va tug'ilgan sanasi, qarzdordan har oyda undirilayotgan to'lovlar miqdori va ularning undirilish muddati ham ko'rsatilishi lozim. Sud buyrug'i sudya tomonidan imzolanadi.

Sud buyrug'i sudning muhri bilan tasdiqlangan bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada chiqariladi. Ushbu asl nusxaning bittasi sudga qolsa, ikkinchi nusxasi ijro etishga taqdim qilish uchun undiruvchiga beriladi. Sud buyrug'ining ko'chirma nusxasi u chiqarilganidan keyin darhol qarzdorga yuboriladi.

18.5. Sud buyrug'ini bekor qilish

Fuqarolik protsessual qonunchilik sud buyrug'i chiqarilganidan keyin sudyaga uning ko'chirma nusxasini darhol qarzdorga yuborish majburiyatini yuklaydi. Sud buyrug'ining ko'chirma nusxasini olgan kundan e'tiboran, o'n kunlik muddat ichida qarzdor arz qilingan talabga qarshi o'z e'tirozlarini buyruqni chiqargan sudga yuborishga haqli bo'ladi. Ta'kidlash joizki, FPKning 238⁹-moddasida nazarda tutilgan sud buyrug'ining nusxasini qarzdorga darhol yuborish tartibi, shuningdek, FPKning 238¹⁰-moddasida ko'rsatilgan sud buyrug'ini bekor qilish asoslari qarzdor huquqlarining kafolati hisoblanadi.

Agar belgilangan muddatda qarzdordan arz qilingan talabga qarshi e'tirozlar tushsa, sudya sud buyrug'ini bekor qilib, bu haqda ajrim chiqaradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimda sudya undiruvchiga arz qilgan talabni da'vo ishlarini yuritish tartibida taqdim etish mumkinligini tushuntiradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimning nusxalari ajrim chiqarilganidan keyin uch kundan kechiktirmay taraflarga yuboriladi.

Agar belgilangan muddatda qarzdordan sudga e'tiroz tushmasa, sudya sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug'ini ijro etishga taqdim qilish uchun undiruvchiga beradi. Undiruvchining iltimosiga ko'ra, sud buyrug'i ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuborilishi ham mumkin. Qarzdordan davlat bojini undirish maqsadida sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug'ining alohida nusxasi ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuboriladi.

Qonun talabiga ko'ra, qarzdorning davlat boji miqdori yuzasidan keltirgan e'tirozlari sud buyrug'ini bekor qilish uchun asos bo'la olmaydi, chunki davlat foydasiga davlat boji undirish undiruvchi va qarzdor o'rtasidagi munosabatlarga daxldor emas. Faqat asosiy talablar yuzasidan bildirilgan e'tirozlargina sud buyrug'ini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Sud buyrug'iga nisbatan e'tiroz bildirish uchun qonunda belgilangan o'n kunlik muddatning qarzdor tomonidan o'tkazib yuborilganligi sud tomonidan uzrli deb topilgan taqdirda, sud uning arizasiga asosan ushbu muddatni tiklashi mumkin. Muddatni tiklash haqida ariza bilan murojaat qilinmasdan turib, muddat o'tkazilgandan so'ng berilgan shikoyatlar sud tomonidan ko'rilmaydi va muallifga qaytariladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Buyruq tartibida ish yuritish tushunchasi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Sud buyrug'ini chiqarish asoslarini bayon eting.
3. Xo'jalik ishlari bo'yicha chiqarilgan sud buyruqlarining fuqarolik ishlari yuzasidan chiqarilgan sud buyrug'idan farqli jihatlari nimada?
4. Buyruq tartibida ish yuritishni qo'zg'atish tartibi qanday?
5. Sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizaga qo'yilgan talablar va arizani sud tomonidan qabul qilishni rad etish asoslarini bayon eting.
6. Sud buyrug'ining sud hal qiluv qaroridan farqi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Sud buyrug'ini bekor qilish tartibi haqida gapiring.
8. Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi buyruq tartibida ish yuritishning Xo'jalik protsessual kodeksidagi buyruq tartibida ish yuritishdan qanday farqli jihatlari mavjud?
9. Mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligidagi buyruq tartibida ish yuritishning MDHga a'zo davlatlarning shu haqdagi qonunidagi buyruq tartibida ish yuritishdan farqli tomonlari nimada?
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarori haqida gapirib bering.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. T., TDYI, 2010.
4. *M.M. Mamasiddiqov*. Buyruq tartibida ish yuritish. T., TDYI, 2007.
5. *M.M. Mamasiddiqov, U. Mirzayev*. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining «Buyruq tartibida ish yuritish» nomli 20'-hobiga sharh. Ilmiy-amaliy qo'llanma. T., «AL-FABA-SERVIS», 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2006-yil 3-fevraldagi «Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 4-qarori.

19-bob. SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQARISH

19.1. Sirtidan ish yuritish tushunchasi va ahamiyati

Sirtidan ish yuritish institutining kiritilishidan maqsad, fuqarolik protsessida tortishuvchilik tamoyilini qo‘shimcha ravishda kafolatlanishini mustahkamlash, taraflarning harakat (harakatsizligi) uchun javobgarlik darajasini oshirish, nizoli masalani hal etishni tezlashtirish, shuningdek, sudyalarning ixtiyorida bo‘lgan ishlarni mazmun mohiyatini yo‘qotmasdan belgilangan vaqtda ko‘rib hal etish bilan manfaatdor shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilishga qaratilgandir¹.

Sirtidan ish yuritish deganda, sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida qonunda belgilangan tartibda xabardor qilingan javobgarning uzrli sabablarsiz sud majlisiga kelmasligi va da‘vogar roziligi asosida ishni javobgarning ishtirokisiz ko‘rib hal qilish tushuniladi. Bunday sud jarayonlarida hech kimning huquq va manfaatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda, *birinchidan*, tegishli protsessual tartib va qoidalar buzilmaydi, *ikkinchidan*, da‘vogarning roziligi asosida ish ko‘rishga yo‘l qo‘yiladi, *uchinchidan*, javobgarning huquqlari buzilmasligi ta‘minlanadi.

Sirtidan ish yuritishning ahamiyati shundaki:

- *birinchidan*, taraflarning sud oldidagi huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglashlariga imkoniyat yaratilishi;
- *ikkinchidan*, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning mavjud protsessual tartibga rioya qilishlarini ta‘minlash;
- *uchinchidan*, jismoniy va yuridik shaxslarning odil sudlovni amalga oshirishga bo‘lgan mas‘uliyatini kuchaytirish;
- *to‘rtinchidan*, vaqtni tejash, protsessual muddatlarga rioya qilishni ta‘minlashga qaratilgan.

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov*. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. T., «Adolat», 2001, 254-bet.

19.2. Sirdan ish yuritish asoslari va tartibi

Fuqarolik ishini sirdan ko'rib chiqish jarayonida qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjud bo'lib, o'z navbatida ularga rioya qilinishi ish yuzasidan chiqarilajak hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishining kafolati hisoblanadi. Javobgar sud jarayonida ishtirok etmagan taqdirda, ishni sirdan ko'rib hal qilish mumkin bo'ladi va bu sirdan ish yuritishning birinchi sharti hisoblanadi. Javobgarning sud majlisiga kelmaslik sabablarini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin bo'ladi, chunonchi:

- agar ishda javobgarning sud majlisiga kelmaganligi to'g'risida tegishli ma'lumotlar bo'lmasa;
- agar sud javobgarning sud majlisiga kelmaganligi sababini uzrsiz deb topsa;
- agar javobgarning qasddan ish ko'rish muddatini cho'zayotganligi ma'lum bo'lsa va boshqalar.

Sirdan ish yuritishning shartlari (asoslari) quyidagicha tasniflanadi:

- *birinchidan*, sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmasa;
- *ikkinchidan*, javobgar tegishli tartibda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot mavjud bo'lsa;
- *uchinchidan*, ishni sirdan javobgarsiz ko'rishga da'vogar e'tiroz bildirmasa;
- *to'rtinchidan*, ishni sirdan ko'rish haqida sud ajrim chiqarsa va boshq.

Sirdan ish ko'rish tartibi ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, FPKning 226-moddasida ish sirdan ish yuritish tartibida ko'rilganida sud ishda mavjud dalillarni tekshirish bilan kifoyalanadi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vaj va iltimoslarini e'tiborga olib, sirdan hal qiluv qarori chiqaradi. Bunday tartibda ish yuritishda da'voning asosi yoki predmeti o'zgartirilishi yoki da'vo talablarining miqdori ko'paytirilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

19.3. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori va uning mazmuni

Sudning hal qiluv qarori — odil sudlov akti bo'lib, ishga oid dalillardan foydalangan holda ishning haqiqiy holatini ochish, moddiy va protsessual huquq me'yorlarini tatbiq etish orqali

fuqarolarning hamda yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan maqsad va vazifalarni o'zida ifodalaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 18-moddasiga ko'ra, barcha sud qarorlari kabi sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari ham qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozim.

FPKning 206-moddasida hal qiluv qarorining mazmuni ko'rsatilib, unga ko'ra, hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi¹.

Sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorining kirish qismida hal qiluv qarorining chiqarilgan vaqti va joyi, hal qiluv qarorini chiqargan sudning nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek, nizo predmeti ko'rsatiladi. Shuningdek, hal qiluv qarorining boshida «Sirtidan» degan jumla ishlatiladi.

Sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorining bayon qismida javobgarning e'tirozlari mavjud bo'lmaydi. Agar ishda javobgarning tushuntirishlari mavjud bo'lsa, u qatnashmagan holda ushbu tushuntirishlar va e'tirozlar tahlil etilganligi, albatta, belgilab qo'yilishi lozim bo'ladi.

Sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida, umumiy asoslarda chiqarilgan sud hal qiluv qarorlaridan farqli ravishda javobgarning tushuntirish va e'tirozlarini aks ettiruvchi holatlar va ushbu holatlarni tasdiqlovchi dalillar berilmaydi, chunki sud bunday ma'lumotga ega bo'lmaydi, jumladan, hal qiluv qarorining ushbu qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, ishning holatlari to'g'risidagi sud xulosalariga asos bo'lgan dalillar, sud u yoki bu dalilni rad qilishda asoslangan xulosalari, shuningdek, nizoli munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq me'yorlari (fuqarolik, oila, yer, mehnat, uy-joy to'g'risidagi va boshqa qonunlar) keltirilmog'i, qonunning nomi, moddasi, bandi hamda protsessual huquq me'yorlari ko'rsatilmog'i lozim.

Zarur holatlarda sud O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tegishli qarorlarini ham qo'llashi lozim bo'ladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning nomi to'liq keltirilishi,

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2011, 360-bet.

da'vo talablarini qanoatlantirilganligi (to'liq yoki qisman) haqidagi sudning qisqa va aniq xulosasi aks ettirilishi lozim. Shuningdek, sud xarajatlarining taqsimlanishi, sirdan hal qiluv qarori ustidan shikoyat va protest keltirish muddati va tartibi aniq ko'rsatilishi lozim.

19.4. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori ustidan ariza va shikoyat berish (protest keltirish) uchun asoslar, uni qayta ko'rish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 311-moddasiga binoan, sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv:

1) qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan apellatsiya shikoyati yoki apellatsiya protesti bo'yicha;

2) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;

3) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ustidan berilgan kassatsiya shikoyati yoki kassatsiya protesti bo'yicha;

4) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;

5) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim, qaror ustidan nazorat tartibida protest keltirish haqida berilgan ariza bo'yicha;

6) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqida berilgan ariza bo'yicha qo'zg'atiladi.

Yuqoridagi asoslar bilan birgalikda fuqarolik protsessual qonunchiligida sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda ham da'vogarning, ham javobgarning manfaatlari e'tiborga olinib, shikoyat berish (protest keltirish)ning turli shakllaridan foydalanish huquqi kafolatlangan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 229-moddasiga asosan, javobgar hal qiluv qarorini sirdan chiqargan sudga shu hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin 15 kun ichida uni qayta ko'rish haqida ariza berishga haqli.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi arizani ko'rish vaqti va joyi

haqida xabardor qiladi, ularga shu ariza va unga ilova qilingan materiallarning nusxalarini yuboradi (FPKning 231-moddasi).

Sud sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi arizani ariza tushgan paytdan e'tiboran, o'n kun ichida sud majlisida ko'radi. Sud majlisining vaqti va joyi haqida xabardor qilingan shaxslarning kelmasligi arizani ko'rish uchun to'sqinlik qilmaydi. Sud arizani ko'rganidan keyin ajrim chiqaradi. Sudning arizani qanoatlantirmaslik haqida chiqargan ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi mumkin (FPKning 232-moddasi).

Sud sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi arizani ko'rib, o'zining ajrimi bilan:

1) arizani qanoatlantirmay qoldirishga;

2) sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish va avvalgi tarkibdagi yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan ko'rishni tiklashga haqli (FPKning 233-moddasi).

Agar sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rish vaqtida sud tarafning sud majlisiga kelmaganligiga uzrli sabablar borligini va bu haqda sudni o'z vaqtida xabardor qilish imkoniyati bo'lmaganligini hamda taraf sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dalillarni taqdim qilayotganini aniqlasa, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori bekor qilinib, ishni mazmunan ko'rish tiklanishi lozim (FPKning 234-moddasi).

Agar sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori shu qarorni chiqargan sud tomonidan bekor qilinsa, ishni mazmunan ko'rish tiklanadi va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalar asosida olib boriladi. Agar FPKning 132—139-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga binoan xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmasa ham, ish bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarori sirdan chiqarilgan hisoblanmaydi. Javobgar bu hal qiluv qarori sirdan chiqarilgan qaror sifatida qayta ko'rilishini so'rab, ariza berishga haqli emas (FPKning 235-moddasi).

Xuddi shuningdek, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlari ustidan kassatsiya shikoyati (protesti) ham keltirish mumkin. Qonuniy kuchga kirgan, apellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin (FPK 348¹-moddasi).

19.5. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorining qonuniy kuchi va ijrosi

Har qanday fuqarolik nizosining yakuni uning ijrosi bilan belgilanadi. Agar sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori ustidan javobgar 15 kun ichida uni qayta ko'rish haqida ariza bilan shu sudga murojaat qilmagan yoki 20 kun muddat ichida taraflar shu sud orqali yuqori sudga apellatsiya shikoyati bermagan, prokuror esa protest keltirmagan bo'lsa, ushbu sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi. Shuningdek, qonuniy kuchga kirgan, apellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan bir yil ichida taraflar kassatsiya shikoyati berishlari, prokuror kassatsiya protesti keltirishi mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksining 217-moddasiga asosan, sudning hal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat berilmagan yoki protest keltirilmagan bo'lsa, apellatsiya shikoyati berish va protest keltirish muddati o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Hal qiluv qarori ustidan apellatsiya shikoyati berilgan yoki apellatsiya protesti keltirilgan taqdirda, hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori instansiya sudi ko'rib chiqqanidan keyin qonuniy kuchga kiradi.

Umumiy qoidaga ko'ra, FPKning 218-moddasiga asosan, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori ham qonuniy kuchga kirganidan so'ng ijro etiladi.

«Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga asosan, sudlar o'zlari qabul qiladigan sud hujjatlari (hal qiluv qarori, ajrim, qaror) asosida ijro varaqalari beradi va bu bevosita ijro hujjati sanaladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida sirdan hal qiluv qarori chiqarish institutining vujudga kelish tarixi va sabablarini tushuntiring.
2. Sirdan ish yuritish asoslari va tartibini tushuntiring.
3. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori va uning mazmunini izohlang.
4. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori ustidan ariza va shikoyat berish (protest keltirish) uchun asoslarni tushuntiring.
5. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini ijro etish xususiyatlarini izohlang.



1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, T., «Adolat», 2011.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. *M.M. Mamasiddiqov*. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. (Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. O.Oqyulov). T., TDYI, 2010.
5. *M.M. Mamasiddiqov*. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligining rivojlanishi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. T., AQHMI, 2009.
6. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar) . T., TDYI, 2010.
7. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
8. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
9. *E. Egamberdiyev*. Sud ishlarini yuritish muammolari. O'quv qo'llanma. T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
10. *C.A. Якубов*. Стороны в гражданском процессе. T., «Konsaudition form-Nashr», 2006.

20-bob. NIKOHNI TUGATISH BILAN BOG'LIQ ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

20.1. Nikohni tugatish bilan bog'liq ishlarning taalluqliligi va sudlovliligi

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas dargoh sanalib kelingan. Oilasiz kishilik jamiyatini tasavvur qilish juda qiyin. Oilasi mukammal bo'lgan yurtning ertasi porloq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega»¹, deb ta'kidlanadi. Shunday ekan, oilaga g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama yordam berish demokratik huquqiy davlatimizning muhim vazifalaridan biridir.

Oilaning asosini nikoh tashkil etadi. jamiyatda oila qurishning birdan bir asosi nikoh bo'lishi va uning Jamiyatda tutgan o'rnini e'tirof etib, «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi»ning 16-moddasida shunday deyiladi: «Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoinki diniga qarab biron bir cheklashsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganida ham, nikohda bo'lgan vaqtida ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar»².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida «Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi»³, deb yozib qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasida nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganda, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra, nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin⁴.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.

² Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill. T., 1992, 14-bet.

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2010.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., «Adolat», 2008.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi normalariga asosan, nikohga kirishning o'ziga xos shartlari mavjud:

- 1) nikohlanuvchilarning nikoh yoshiga yetganligi;
- 2) nikohlanuvchilarning o'zaro roziligi;
- 3) nikohlanuvchilarning ruhiy va tibbiy jihatdan sog'lomligi;
- 4) nikohni tegishli qonun talablari asosida rasmiylashtirilishi va h.k.

Ammo nikohning qanchalik muqaddas ekanligi, uning tegishli talablar va rasm-rusumlarga asosan tuzilganligiga qaramay, nikohning tugatilishi holatlari ham uchramoqda. Nikohlangan subyektlarning (er va xotin) o'zaro xarakterining to'g'ri kelmasligi, turmushdagi qiyinchiliklarga dosh berolmaslik, er va xotindan birining surunkali spirtli ichimliklar iste'mol qilishi, ulardan birining uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinishi, farzandsizlik, ular o'rtasida xiyonatning yuz berishi, oilaga, bolalarga nisbatan befarq munosabatda bo'lishi kabi holatlar nikohni tugatishga sabab bo'lmoqda.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarga doir ishlar (nizolar) tasniflanganda nikohning tugatilishi bilan bog'liq ishlar deganda:

- nikohdan ajratish (Oila kodeksining 40-moddasi);
- nikohni bekor qilish (Oila kodeksining 43-moddasi);
- nikohni haqiqiy emas deb topish (Oila kodeksining 50-moddasi);
- er-xotinning mol-mulkini bo'lish (Oila kodeksining 27-moddasi);
- nikoh shartnomasini o'zgartirish, bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish (Oila kodeksining 32—33-moddalari)ga oid ishlar nazarda tutiladi.

Nikohning tugatilishi bilan bog'liq ishlarining taalluqliligi ikki guruhga: Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish (FHDY)¹ va sud organlarida ko'rib, hal qilishga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 7-bobi (37—56-moddalar) nikohning tugatilish asoslari, turlari va tartibiga bag'ishlangan.

¹ Bundan keyin matnda «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish» «FHDY» deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-moddasida belgilangan nikohning tugatilish asoslari, shuningdek, 49-moddasida belgilangan nikohni haqiqiy emas, deb topish asoslariga ko'ra:

- *birinchidan*, er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilinishi munosabati bilan nikohning bekor qilinishi;

- *ikkinchidan*, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq nikohning bekor qilinishi;

- *uchinchidan*, nikoh er-xotindan biri yoki har ikkisinin arizasiga muvofiq nikohdan ajratilishi;

- *to'rtinchidan*, nikohni haqiqiy emas deb topilishi oqibatida nikohning tugatilishi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 42, 43-moddasida ko'rsatilgan qoidalardan kelib chiqib, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga tegishli bo'lgan nikohdan ajratish holatlari:

- 1) voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin nikohdan ajratishga o'zaro rozi bo'lsalar;

- 2) agar er-xotindan biri sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;

- 3) sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;

- 4) sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra.

Agar bolalar haqida, er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.

Bunday hollarda arizaga qo'shimcha ravishda quyidagilar ilova qilinadi:

- er (xotin)ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yo'qolgan deb topilganligi to'g'risida qonuniy kuchga kirgan sud qarori;

- er (xotin)ning uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida qonuniy kuchga kirgan sud hukmidan ko'chirma, shuningdek, sudlangan er (xotin)ning nikohdan ajratishga o'rtada bolalari va mol-mulki yuzasidan nizo yo'qligi to'g'risidagi roziligi.

Sodir qilingan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni ozodlikdan mahrum etish joyida o'tayotgan shaxs bilan nikohdan ajralishni xohlovchi er (xotin) o'z arizasida sudlangan shaxsning jazoni o'tayotgan joyini ko'rsatishi lozim. Arizani qabul qilgan FHDY organi shu kuniyoq bu to'g'rida jazoni ijro etish muassasasiga xabarnoma jo'natadi.

Muassasa ma'muriyati xabarnomani olgach, ikki hafta mobaynida mahkumning arizachi bilan o'rtada bolalar va mol-mulk to'g'risida nizosi yo'qligi haqida yozma ravishda bildirish-nomasini tasdiqlab, FHDY organiga jo'natadi. Mahkumning nikohdan ajratishga roziligi olingach, o'rtada bolalar va mol-mulk yuzasidan nizolari yo'q bo'lganda, FHDY organi ariza beruvchi ishtirokida nikohdan ajratishni qayd etadi.

O'zaro bolalari va mulkiy nizolari bo'lmagan hamda uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni nikohdan ajratish er-xotinning o'zaro roziligiga ko'ra: umumiy qoidalar asosida FHDY organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sudning er-xotindan birining bedarak yo'qolgan deb topilganligi to'g'risidagi qarori bo'yicha nikohdan ajratish er yoki xotindan birining turar joyidagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi. Sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxs qaytib kelganda uning murojaati bo'yicha FHDY organi unga ham nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 42-moddasiga ko'ra, er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birgalikda umumiy mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo bo'lgan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Nikohning tugatilishi bilan bog'liq ishlarning sudlovligi deganda nikoh munosabatlariga oid nizoli ishlarning muayyan sud bo'g'inlari hamda hududiy sudlovlik qoidalariga asosan hal qilinishiga aytiladi.

Bedarak yo'qolgan deb yoxud ruhiy holatining buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek, uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish haqidagi da'volar, da'vogarning xohishiga qarab, uning yashash joyida ko'rilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 241-moddasida ko'rsatilgan da'vogarning tanlashi bo'yicha sudlovlik qoidalariga ko'ra, agar da'vogarning voyaga yetmagan bolalari borligi, shuningdek, nogironligi yoki og'ir kasalligi tufayli u javobgar yashab turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga borishga qiynalsa, nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'volar da'vogarning yashaydigan joyida qo'zg'atilishi mumkin.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarning sudlovligi umumiy qoidaga ko'ra, javobgarning yashash joyidagi sudga tegishli bo'lib, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlar tomonidan ko'rib hal qilinadi.

20.2. Nikohni tugatish bilan bog'liq ishlarni sudda mazmunan ko'rish va ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarish

Bolalar tarbiyasi, eng avvalo, oilada vujudga keladi va shakllanadi. Shu bois Prezidentimiz I.A. Karimov o'z ma'ruzasida «har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir»¹, deb ta'kidlagan.

Chunki har bir bolaning ma'naviy olami oilada qaror topgan insoniy fazilatlariga, oiladagi muhitga qarab belgilanadi va rivojlanadi. Oilada ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar muhim o'rin tutadi, oilaning mustahkamligi, barqarorligi, turmushning farovonligi, axloqiy qadriyatlarining ustuvorligi, ayniqsa, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unlashuviga olib keladi.

¹ I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008, 52-bet.

Oilaning asosini nikoh tashkil etadi. Shu sababli oilani saqlab qolish, uning muqaddasligini e'tirof etish barchaning burchi sanaladi. Sudlar tomonidan nikohni tugatishga oid ishlar, xususan, nikohdan ajratish talablari ko'rilayotganda oilaning davlat va jamiyat himoyasida ekanligi, oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi, oilaning kelajak poydevori ekanligi kabi jihatlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Barcha fuqarolik ishlari kabi nikohni tugatishga oid ishlar bo'yicha sud jarayoni ish qo'zg'atish orqali boshlanadi va ish mazmunan ko'rib, sud qarorining ijro etilishi bilan yakunlangan hisoblanadi.

Nikohni bekor qilish, nikohdan ajratish, nikohni haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi da'vo talablari yuzasidan beriladigan da'vo arizalari Fuqarolik protsessual kodeksining 149-moddasida ko'rsatilgan talablar bo'yicha rasmiylashtiriladi. Albatta, ushbu toifadagi ishlar bo'yicha sudga murojaat qilishda ishning moddiy va protsessual-huquqiy xususiyatlarga ega ekanligini nazarda tutish zarur.

Nikohni bekor qilish, nikohdan ajratish, nikohni haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi da'vo talablari yuzasidan sudda ish qo'zg'atishda Fuqarolik protsessual kodeksining 97, 152, 154-moddalarida ko'rsatilgan talablarga rioya qilinadi hamda Fuqarolik protsessual kodeksining 151-moddasiga asosan fuqarolik ishini qo'zg'atish haqidagi ajrim chiqariladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 160-moddasiga ko'ra, sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlash yuzasidan qilgan harakatlarini ajrim shaklida rasmiylashtiradi. Asosan ishni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichida nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarni sudga qadar hal qilish imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligi, oilani saqlab qolish imkoniyati ta'minlanganligi o'rganilishi shart.

Fuqarolik protsessual kodeksining 161-moddasiga binoan, sudya ishni yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida ko'rishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi, taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ishni ko'rish vaqti va joyi haqida ma'lum qiladi. Shu tariqa ish sud majlisida mazmunan ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 40-moddasiga muvofiq, nikohdan sud tartibida ajratish quyidagicha amalga oshiriladi:

- nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Sud ishning

ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotining yarashish uchun olti oygacha muddat tayinlashga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 41-moddasiga binoan, sudning nikohdan ajratish asoslari belgilangan bo'lib, agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 39-moddasiga ko'ra, erning nikohdan ajratish to'g'risida talab qo'yishini man etadigan hollar quyidagi asoslar mavjud bo'lganda, ya'ni xotining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotining rozilgisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 44-moddasiga ko'ra, nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar belgilangan bo'lib, nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotining ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin. Agar yuqorida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lmagan taqdirda, shuningdek, ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

- nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;
- voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;
- er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko'ra, ularning birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lishi;
- er (xotin)dan ta'minot olishga haqli bo'lgan xotin (er)ning talabiga ko'ra ana shu ta'minot miqdorini belgilashi shart.

Mol-mulkni bo'lish uchinchi shaxslarning manfaatiga daxldor bo'lgan hollarda sud mol-mulkni bo'lish talabini alohida ish yuritish uchun ajratadi. Nikohdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganida to'yni o'tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 45-moddasiga binoan, sudning nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini

chiqarishida davlat boji miqdorini belgilash asoslari belgilangan bo‘lib, bunga ko‘ra, sud nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarish paytida nikohdan ajratish to‘g‘risidagi hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda er-xotinning har ikkisi yoki ulardan biri to‘laydigan davlat boji miqdorini belgilashi lozim. Agar sud bu bojni er-xotinning har ikkisidan undirishni lozim deb topsa, ularning har biri to‘laydigan boj miqdorini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 46-moddasiga muvofiq, nikohdan ajratilganda er (xotin)ning o‘z familiyasini o‘zgartirishi asoslari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, nikohga kirish vaqtida o‘z familiyasini o‘zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoxud uning xohishiga binoan, sud tomonidan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi qaror chiqarilayotganda unga nikohgacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 47-moddasiga asosan, nikohdan ajratilganda nikohning tugatilish vaqti nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratilganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan ajratilganlik ro‘yxatga olingan kundan, nikohdan sudda ajratilganda esa, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan va FHDY organida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan boshlab nikoh tugatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 48-moddasiga ko‘ra, sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilingan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan hollarda nikohning tiklanish asoslari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ya‘ni sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilingan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan va tegishli qarorlari bekor qilingan hollarda, nikoh er-xotinning birgalikdagi arizasiga ko‘ra fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi tomonidan tiklanishi mumkin. Agar er (xotin) yangi nikohga kirgan bo‘lsa, nikohni tiklash mumkin emas.

20.3. Nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asoslar, uning huquqiy oqibatlari

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 8-bobi nikohni haqiqiy emas deb topish masalalariga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 49-moddasiga muvofiq, nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari belgilangan bo‘lib, nikoh quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi:

- Oila kodeksining 14—16-moddalarida belgitangan shartlar (nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, nikoh yoshi, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar) buzilganda;

- soxta nikoh tuzilganda, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay nikoh qayd qildirganda;

- nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 50-moddasiga ko'ra, nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi belgilangan bo'lib, nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda pasportga yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatga tegishli belgi qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 51-moddasiga binoan, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas, deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ona-otasi yoki homiysi, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir. Ish sudda hal qilinish paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo'lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko'rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Agar ish hal qilinish paytigacha nikohni tuzish uchun monelik qiladigan holatlar tugagan bo'lsa, sud nikohni o'sha holatlar tugagan paytdan boshlab haqiqiy deb topishga haqli. Oila kodeksining 16-moddasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha nikohni haqiqiy emas deb topishni er-xotin, shu nikohning tuzilishi natijasida huquqlari buzilgan shaxslar, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi ishni sud vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Oila ko-

deksining 53-moddasiga muvofiq, majburlab tuzilgan nikoh jabrlanuvchi yoki prokurorning arizasi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 54-moddasiga asosan, er-xotin soxta nikoh qayd qildirgan va oila qurmagan bo'lishsa, nikoh haqiqiy emas, deb topilishi mumkin. Soxta nikohni haqiqiy emas, deb topishni prokuror talab qilishga haqli, er (xotin) oila qurish maqsadisiz nikohga kirgan hollarda esa, bunday talab xotin (er) tomonidan ham qo'yilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 55-moddasiga muvofiq, nikohni haqiqiy emas, deb hisoblash vaqti sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan nikoh tuzilgan vaqtdan boshlab haqiqiy emas, deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 56-moddasiga binoan, nikohni haqiqiy emas, deb topish oqibatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, haqiqiy emas deb topilgan nikoh er-xotin uchun Oila kodeksida belgilangan shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Nikohi haqiqiy emas, deb topilgan shaxslarning mulkiy huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi. Nikohning haqiqiy emas, deb topilishi shunday nikohdan tug'ilgan yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgan kundan keyin uch yuz kun ichida tug'ilgan bolalarning huquqlariga ta'sir etmaydi.

Sud nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishda shunday nikoh tuzilishi bilan huquqi buzilgan er (xotin)ni (insofli er (xotin)ni) ushbu kodeksning 118 va 119-moddalariga muvofiq xotin yoki eridan ta'minot olish huquqiga ega deb topishga haqlidir, nikohni haqiqiy emas, deb topish vaqtiga qadar birgalikda o'rttirilgan mol-mulki bo'lishga nisbatan esa, ushbu kodeksning 23, 27 va 28-moddalarida belgilangan qoidalarni tatbiq etishga, shuningdek, nikoh shartnomasini to'la yoki qisman haqiqiy deb topishga haqlidir.

Insofli er (xotin) o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashni fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha talab qilishga haqli. Insofli er (xotin) nikoh haqiqiy emas, deb topilganda, nikoh tuzish davlat ro'yxatiga olingan vaqtda tanlagan familiyasini saqlab qolishga haqlidir.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Nikohni tugatishga oid ishlarni tasniflang.
2. Nikohdan ajratish asoslarini tushuntiring.
3. Nikohdan ajrashish sabablarini ko'rsating.
4. Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlarini sanab o'ting.
5. Nikohni bekor qilish asoslarini tushuntiring.
6. Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish asoslarini tushuntiring.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. T., «Adolat», 2007.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2011.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., «Adolat», 2008.

21-bob. ALIMENT UNDIRISH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROSESSUAL XUSUSIYATLARI

21.1. Aliment huquq va majburiyatlarining umumiy tavsifi va turlari

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 11-moddasida belgilanganidek, oilaviy huquqlarni himoya qilish asosan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha umumiy sudlarda ko'rib hal etiladi. Ayni paytda sudlarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan fuqarolik ishlari, jumladan, aliment undirish, otalikni belgilash, otalikka e'tiroz bildirish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash, tiklash va bekor qilish, shuningdek, farzandlikka olishni bekor qilish yoki haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi hamda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq boshqa nizolar ko'rib chiqilmoqda.

Bunday turkumdagi ishlar fuqarolik sudlarida sud ishlarini yuritishning da'vo qo'zg'atish, alohida ish yuritish, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish hamda qonunda belgilangan holatlarda buyruq tartibida ish yuritish asosida ko'rib hal qilinadi.

Bolalarning aliment olish huquqlari hamda ota-onalarning aliment berish majburiyatlari ota-ona g'amxo'rligining asosini tashkil etadi. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish shartligi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasida ko'rsatib o'tilgan. Ota-onaning voyaga yetmagan bolaga aliment to'lash majburiyati uning bolaga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish shakli hamda moddiy jihatdan ta'minlash majburiyati sanaladi.

Aliment «*alimentium*» so'zidan olingan bo'lib, «ozuq-ovqat, ta'minot» ma'nolarini anglatadi. Aliment — voyaga yetmagan bolalarni mulkiy huquqlaridan biri, yashash manbai, ta'minot shakli sanaladi. U bolalarning ota-onasi o'zaro nikohda yoki nikohda turmasligidan, shuningdek, nikohi haqiqiy emas, deb topilishidan qat'i nazar, to'lanadi. Faqat bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi

guvohnomasida aliment to'lovchi ota-ona sifatida ko'rsatilgan yoki bolaga nisbatan otalik belgilangan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida aliment huquq va majburiyatlarining quyidagi, ya'ni:

- ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga nisbatan aliment huquq va majburiyatlari;

- ota-onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga nisbatan aliment huquq va majburiyatlari;

- ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan aliment huquq va majburiyatlari;

- bolalar muassasalariga joylashtirilgan bolalarga nisbatan aliment huquq va majburiyatlari;

- voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga nisbatan aliment huquq va majburiyatlari;

- muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning bir-birlariga nisbatan aliment huquq va majburiyatlari;

- qarindoshlar va boshqa shaxslarning bir-birlariga nisbatan aliment huquq va majburiyatlari kabi turlari mavjudligi belgilangan.

21.2. Aliment to'lash (undirish)ning shakllari

Aliment majburiyatlari quyidagi shakllarda, ya'ni:

- aliment majburiyatlarini ixtiyoriy amalga oshirish;
- aliment majburiyatlarini kelishuv yo'li bilan amalga oshirish;
- aliment majburiyatlarini sud tomonidan majburiy tartibda amalga oshiriladi.

Aliment majburiyatlarini yuqoridagi ixtiyoriy yoki kelishuv asosida amalga oshirish shakllari aliment to'lovchi bilan aliment oluvchi o'rtasidagi erkin, ixtiyoriy aliment to'lovlarini to'lashda ko'rinadi.

Aliment to'lashning ixtiyoriy shaklida aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan o'zi yoki o'z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi mablag' olayotgan joyida to'laydi. Alimentning bunday shaklida aliment to'lovchi shaxsan o'zi yoki pochta orqali tegishli pul mablag'larini topshirishi mumkin bo'ladi.

Aliment to'lashning kelishuv shakli – nikoh shartnomasida yoki alohida kelishuv bitimi asosida ixtiyoriy tarzda vujudga keladi.

Kelishuv ota-onalarning o'zaro nikohda yoki nikohdan ajrashganliklaridan qat'i nazar, tuzilishi mumkin¹.

Shu o'rinda *aliment to'lash to'g'risida kelishuv bitimi* tuzishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tish joiz sanaladi, jumladan:

- aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi;

- aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega ekanligi;

- aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv asosan aliment to'lovchi ishlab turgan korxonalar, tashkilot, muassasa hisob-kitob bo'limi tomonidan ushlanib qolishga yoki aliment to'lovchi tomonidan pul yoki boshqa shakldagi to'lovlar asosida to'lashga yo'l qo'yilishi;

- aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tuzish keyinchalik nizo kelib chiqqanda sudga murojaat etishni istisno etmasligi;

- aliment to'lashning kelishuv shakli aliment huquq va majburiyatlarining barcha turlariga nisbatan qo'llanilishi;

- alimentlar aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlarda vaqti-vaqti bilan to'lanadigan qat'iy summada, bir yo'la pul bilan to'lanadigan qat'iy summada, mol-mulk bilan yoki kelishuvda qayd etilgan boshqa usullarda (masalan, moddiy yordam yoki xizmatlar ko'rsatish shaklida ham) to'lanishi va boshqalar bilan izohlanadi.

Aliment undirishning majburiy shakli sud tomonidan amalga oshiriladigan harakat bo'lib, bu, o'z navbatida, qonunda ko'rsatilgan aliment majburiyatlariga doir normalar buzilganda yoki o'sha majburiyatlar aliment to'lovchi tomonidan bajarilmaganda tegishli mablag' sud tartibida aliment to'lovchidan majburiy tartibda undiriladi. Sud tartibida aliment undirishga buyruq tartibida hamda sudning hal qiluv qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Aliment undirish yuzasidan sudga da'vo arizasi bilan ota-onadan biri yoki aliment olish huquqiga ega bo'lgan boshqa subyektlar, shuningdek, prokuror, vasiylik va homiylik organi murojaat qilishga haqli.

Masalan, Toshkent shahar M. Ulug'bek tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudida 2003-yil 30-sentabrda ko'rib chiqilgan

¹ С.А. Калачева. Справочник адвоката. Решение споров без суда. М., «Приор», 2001, стр. 98—111.

da'vogar F.N.ning javobgar Y.R.ga nisbatan farzandi va o'zining ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi da'vosi bo'yicha yuritilgan 10226/03-fuqarolik ishida da'vogar (ona) F.N. sudga javobgar (ota) Y.R. ga nisbatan farzandi va o'zining ta'minoti uchun aliment undirish haqida da'vo arizasi bilan murojaat etgan¹.

Da'vogar sudda o'z da'vosini quvvatlab, javobgar bilan qonuniy nikohdan o'tib turmush qurganliklarini, o'rtada Z. ismli farzandi borligini, hozirda o'zaro munosabatlari yomonlashganligi sababli javobgar bolasi hamda o'zining ta'minoti uchun moddiy yordam bermayotganligi tufayli javobgardan bolasining va o'zining ta'minoti uchun aliment undirishni so'rab bayonot bergan.

Sud majlisida javobgar da'vogarning talablarini tan olgan va ishda tekshirilgan dalillarga asoslanib, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasiga ko'ra, javobgarning farzandi ta'minoti uchun moddiy yordam berishga majburligini, farzandining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasida otasi deb yozilganligini, tomonlar o'rtasidagi nikoh FHDY bo'limida qayd qilinib, shu kunga qadar bekor qilinmaganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 99-moddasida ko'rsatilgan miqdorda aliment undirishni hamda Oila kodeksining 117-moddasiga ko'ra, javobgardan da'vogar ta'minoti uchun to'uch yoshga yetgunga qadar har oyda o'n ming so'mdan aliment undirishni lozim deb topadi.

21.3. Alimentni sud tartibida undirish asoslari, tartibi va protsessual xususiyatlari

Oila kodeksining 142-moddasiga ko'ra, aliment o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun aliment to'lovchiga nisbatan javobgarlik belgilangan. Aliment to'lashdan qasddan bosh tortish o'z oqibatlariga ko'ra, aliment to'lovchini ota-onalik huquqidan mahrum qilishga (Oila kodeksining 79, 116-moddasi), aliment to'lovchini jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi (Jinoyat kodeksining 122-moddasi).

Yuridik adabiyotlarda aliment huquq va majburiyatlari ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarning bir turi sifatida

¹ Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining 10226-03-fuqarolik ishi bo'yicha hal qiluv qaroridan.

talqin etiladi¹. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 90-moddasida shunday deyiladi: «Voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaqa, uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanishi kerak».

Aliment bola ota-onasining birga yashashidan, o'zaro nikohda ekanligidan va bolaning ota-onasi bilan yoki ulardan biri bilan birga yashash-yashamasligidan qat'i nazar, to'lanishi kerak. Bu majburiyat ota-ona yoki ulardan biri tomonidan ixtiyoriy yoki kelishuv asosida, shuningdek, sud tartibida amalga oshiriladi. Yuridik manbalarda aliment huquq va majburiyatlarining ixtiyoriy va kelishuv shakli aliment to'lash deb yuritilsa, sud tartibida sud buyrug'i yoki hal qiluv qarori chiqarish usulini aliment undirish deb ataladi². Voyaga yetmagan bolalarning aliment olish huquqi ularni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida, bolalarni oziqlantirish, kiyintirish, o'qitish, sog'lig'ini saqlash va boshqa yashash uchun kerakli vositalar bilan ta'minlash, qolaversa g'amxo'rlik qilish harakatlarining boshqa moddiy shakllarida ko'rinadi.

Bu g'amxo'rlik, *birinchidan*, ota-ona, *ikkinchidan*, davlat tomonidan amalga oshiriladi. Ota-ona bolalarini faqat tarbiyalash, ta'minlash va g'amxo'rlik qilish, qolaversa, qonunda belgilangan holatlarda bolalari oldida aliment majburiyatlarini bajarsa, davlat kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, boquvchisini

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. (H. Rahmonqulovning umumiy tahriri ostida). T., «Adolat», 2000, 180—182-bet.; *F.M. Otaxo'jayev*. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. Darslik. (M.H. Rustamboyevning umumiy tahriri ostida). T., TDYI, 2005, 181—205-bet.; *F.M. Otaxo'jayev*, *Sh.R. Yo'ldosheva*. Oila huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007, 179—184-bet.; Гражданское и торговое право зарубежных стран. Учебное пособие. Под общ. ред. проф. В.В. Безбаха и проф. В.К. Пучинского. М., МЦФЭР, 2004, стр. 645—646.

² *S.A. Maripova*, *K.K. Olimova*. Aliment undirish to'g'risida ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. *Qarang*: Ayrim turkumdagi fuqarolik ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. Mas'ul muharrir prof. Sh.Sh. Shorahmetov. Mualliflar jamoasi. T., TDYI, 2006, 32—65-bet.; *F.M. Otaxo'jayev*. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. Darslik. (M.H. Rustamboyevning umumiy tahriri ostida). T., TDYI, 2005, 181—188-bet.; *F.M. Otaxo'jayev*, *Sh.R. Yo'ldosheva*. Oila huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007, 185—212-bet.; O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. (H. Rahmonqulovning umumiy tahriri ostida). T., «Adolat», 2000, 190—213, 251—262-bet.

yo'qotgan, nogiron bolalarga nafaqa va boshqa qo'shimcha xarajatlar qilish, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'z himoyasiga olish vazifalarini amalga oshiradi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'minot alimentga nisbatan keng tushuncha bo'lib, alimentni ta'minotning bir shakli sifatida qarasaq to'g'ri bo'ladi. Bizning nazarimizda voyaga yetmagan bolalarning aliment huquq va majburiyatlari boshqa subyektlarning aliment huquq va majburiyatlaridan deyarli farq qilib, o'ziga xos, moddiy va protsessual xususiyatlarga ega, jumladan, alimentga oid moddiy-huquqiy xususiyatlarga:

- bolani ta'minlashning muhim vositasi ekanligi;
- bolaning yashashi uchun asosiy manba ekanligi;
- ota-onaning voyaga yetmagan bolaga nisbatan majburiyatini amalga oshirish usuli ekanligi;

- bolaning tug'ilishidan to' voyaga etguncha to'lanishi shartligi;
- bolaning yashash yoki tarbiyalanish joyidan qat'i nazar, unga to'lanishi shartligi;

- bolaning ta'minlanganligi yoki uning biror mashg'ulot bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, aliment to'lanishi shartligi;

- bolaning ota (onasi) yoki ulardan birining ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki ular o'rtasida ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onalik munosabatlarining tugatilishidan qat'i nazar, bolaga nisbatan aliment majburiyatlarining saqlanishi;

- voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi;

- bolalarga aliment va boshqa ta'minotlar berishda ota-ona majburiyatlarining tengligi;

- aliment to'lashda ota-ona o'rtasida ixtiyoriy to'lov shakliga yoki kelishuv tuzishga yo'l qo'yilishi;

- voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berishning tartibi va shakli ota-onalar tomonidan mustaqil ravishda qonun talablariga rioya qilgan holda belgilanishi mumkinligi (ixtiyoriy, kelishuv va nikoh shartnomasi);

- ota-onalar bolalarga nisbatan aliment to'lash tartibi va shakli haqidagi kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi shartligi;

- har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining 3/1 qismidan kam bo'lmashligi lozimligi;

- ota-onaning bolalar ta'minoti uchun qo'shimcha xarajatlar (bolaning og'ir kasalligi, og'ir shikastlanishi va boshq.)da ishtirok etishi shartligi;

- aliment O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan ushlab qolinishi;

- qonunda ko'rsatilgan asoslarga binoan voyaga yetmagan bolaga nisbatan to'lanadigan aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to'lovchining aliment to'lashdan ozod qilishga yo'l qo'yilishi;

- aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs tomonidan alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan o'zi naqd pul asosida yoki o'z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi mablag' olayotgan joyida to'lanishi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 135-moddasi);

- alimentlar: aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlarda; vaqti-vaqtida pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; bir yo'la pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; mol-mulk bilan yoki kelishuvda qayd etilgan boshqa usullarda to'lanishi mumkinligi;

- alimentning ixtiyoriy ravishda to'lab turilishi aliment undiruvchini aliment undirish haqidagi da'vo yoki ariza bilan xohlagan vaqtda sudga murojaat qilishi huquqidan mahrum etmasligi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 135-moddasi);

- alimentning sudga murojaat etilgan paytdan boshlab undirilishi. Agar ta'minot uchun mablag' olish choralari sudga murojaat qilingunga qadar ko'rilganligi, ammo aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning uni to'lashdan bosh tortganligi oqibatida aliment olinmaganligi sud tomonidan aniqlansa, o'tgan davr uchun aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab uch yillik muddat doirasida undirib olinishi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 136-moddasi);

- sudning hal qiluv qarori yoki aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv bo'yicha aliment ushlab qolishi lozim bo'lgan ish beruvchi (tashkilot ma'muriyati) aliment to'lovchi shaxs bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida, shuningdek, uning yangi ish, o'qish joyi yoki turar joyi unga ma'lum bo'lsa, bu haqda sudning hal qiluv qarori ijro

etiladigan joydagi sud ijrochisiga yoki aliment oluvchi shaxsga uch kun muddat ichida xabar berishi shartligi. (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 138-moddasi);

- aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv yoki ijro varaqasi asosida o'tgan davrdagi aliment qarzi ijro varaqasi yoki aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv aliment undirish uchun taqdim qilingunga qadar o'tgan uch yildan ortiq bo'lmagan muddat uchun undirilishi;

- alimentlar ijro varaqasi yoki aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv bo'yicha aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning aybi bilan undirilmagan bo'lsa, alimentlar uch yillik muddatdan qat'i nazar, o'tgan barcha vaqt uchun undirilishi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 139-moddasi);

- taraflar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, aliment qarzini to'lashdan ozod qilish yoki uni kamaytirishga taraflarning o'zaro roziligi bo'lgandagina yo'l qo'yiladi, voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lanadigan hollar bundan mustasnoligi;

- agar sud aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs kasalligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra, aliment to'lamaganligini aniqlasa hamda uning moddiy va oilaviy ahvoli yig'ilgan aliment qarzni to'lashga imkon bermaydi deb topsa, aliment to'lovchining da'vosiga binoan, uni aliment qarzlarini to'lashdan to'la yoki qisman ozod etishga haqli ekanligi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 141-moddasi);

- ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lovchining oylik ish haqiga va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida yoki pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 102-moddasi).

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash (undirish)ning protsessual-huquqiy xususiyatlari:

- voyaga yetmagan bolalarga ota-onalar o'rtasida ixtiyoriy ravishda yoki kelishuv asosida aliment to'lanmagan hollarda sudga murojaat qilish mumkinligi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasi, Fuqarolik protsessual kodeksining 1, 5, 261-moddalari);

- sudlarda sud buyrug'i yoki sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undirishga yo'l qo'yilishi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 20'-bobi, Fuqarolik protsessual kodeksining 21'-bobi);

- sudlarda voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun da'vo arizasi berilgan kundan e'tiboran, aliment undirishga yo'l qo'yilishi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 136-moddasi);

- aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ishni sudda ko'rishga tayyorlash va mazmunan ko'rishda qisqartirilgan muddatlarning qo'llanilishi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 131-moddasi);

- sudlarda aliment undirish to'g'risidagi talablarni qonunda ko'rsatilgan asoslarga muvofiq, buyruq tartibida ish yuritish asosida ko'rilishi;

- da'vogarlar aliment undirish to'g'risidagi da'vo talabi yuzasidan da'vo bojidan ozod qilinishi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XVII bo'limi, 326—342-moddalari);

- aliment undirish haqidagi da'volar bo'yicha javobgarning amaldagi yashash joyi noma'lum bo'lsa, javobgarning qidirilishi shartligi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 140-moddasi);

- aliment undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha javobgar qidirilayotgan bo'lsa, bunday holda sudning ish yuritishni to'xtatib turish huquqi mavjudligi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 93-moddasi);

- aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha arizalar javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi sudga berilishi, shu bilan birgalikda da'vogarning tanlashi bo'yicha sudlovlik qoidalariga ko'ra, da'vogar aliment undirish to'g'risidagi da'volarni o'zi yashab turgan joydagi taqdim etishi mumkinligi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 145, 241-moddalari);

- aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha javobgarning sudga kelishi majburiyiligi, agar bunday holda javobgar sud majlisiga sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra kelmasa, u majburiy tartibda keltirilishi va unga eng kam oylik ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi shartligi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 261-moddasi);

- sudlarda aliment undirish to'g'risidagi da'vo talablari nikohdan ajratish, nikohni haqiqiy emas deb topish, otalikni belgilash, otalikka e'tiroz bildirish, bolaning yashash joyini belgilash, bolani ota yoki ona tarbiyasiga olib berish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, bu huquqni cheklash, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish yoki bekor qilish kabi da'volar bilan birga qo'shib ko'rilishi yoki bir necha talabdan ajratish asosida ko'rish mumkinligi

(O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 155, 156, 157-moddalari);

- aliment undirish to'g'risidagi hal qiluv qarori darhol ijro etilishi shartligi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 219-moddasi);

- voyaga yetmagan bolani aliment undirish to'g'risidagi da'vo talabiga nisbatan otalikka e'tiroz bildirish to'g'risidagi qarshi da'vo berilishi mumkinligi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 246—247-moddalari);

- aliment undirish to'g'risidagi sud qarorlarini ijro etishda ixtiyoriy va majburiy ijro choralari qo'llash zarurligi kabilar ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga buyruq tartibida ish yuritishning kiritilishi¹ aliment undirish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish jarayonini birmuncha soddalashtirishga olib kelmoqda. Shu bois ayni vaqtda aliment undirish to'g'risidagi ishlarni fuqarolik sudida sud buyrug'i yoki hal qiluv qarori chiqarish usuli orqali hal qilishga erishilyapti. Bu, o'z navbatida, sud ishlarini yuritishning soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan shakli sifatida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, sud va protsess ishtirokchilarining zarur vaqtlarini tejashda, qolaversa, qonunda ko'rsatilgan ishlarni o'z vaqtida, tez va to'g'ri ko'rilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotir.

FPKning 238²-moddasida ko'rsatilgan sud buyrug'ini chiqarish bo'yicha talablar ichida «Agar voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish haqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog'lik bo'lmagan talab bilan arz qilingan bo'lsa» deb ko'rsatilgan. Mazkur tartib-qoida *birinchidan*, voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga sud buyrug'i chiqarish orqali yo'l qo'yilishini bildirsa, *ikkinchidan*, ushbu talab nizosiz bo'lishini, ammo bu otalikni belgilash, ota (onalikka) e'tiroz bildirish, ishga uchinchi shaxslarni jalb etish, o'tgan davrlar uchun to'lanmagan aliment qarzini undirish to'g'risidagi nizoli talablar bilan bog'liq bo'lmasligini taqozo etadi. FPKning 238¹-moddasida sud buyrug'iga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, sud buyrug'i undiruvchining pul mablag'larini undirish to'g'risidagi yoki ko'char mol-mulknii nizosiz talablar

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004, № 1—2, 18-modda.

bo'yicha qarzdordan talab qilib olish to'g'risidagi arizasi bo'yicha sudya sudda ishni ko'rmasdan chiqargan hujjatdir.

Sud voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olib, uni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi hal qiluv qarorini chiqarishda yoxud ota va onaning har biridan mazkur muassasa foydasiga Oila kodeksining 99-moddasida belgilangan miqdorlarda aliment undirishi mumkin. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, Oila kodeksining 81-moddasiga ko'ra, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Shuningdek, Oila kodeksining 84-moddasida ham ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmasligi haqida ko'rsatilgan. Ushbu toifadagi ishlarni sudda mazmunan ko'rish va ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarishda sud ota-onadan (ularning biridan) bolaning ta'minoti uchun aliment undirish masalasini hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 116-moddasida aliment to'lashdan bosh tortganlik uchun javobgarlik choralari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar Oila kodeksining 79-moddasiga binoan oila huquqiy javobgarlik, ya'ni ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki Jinoyat kodeksining 122-moddasiga ko'ra, jinoiy javobgarlik belgilanishi mumkin.

Amaliyot materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat ota-onalar aliment to'lashi shart bo'lgan ota(ona) aliment to'lashdan bo'yin tovlasa Oila kodeksining 80-moddasiga muvofiq, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning), prokurorning, shuningdek, voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan, fuqarolik ishlar bo'yicha sudlarda ko'riladi. Ota (ona) ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi uni aliment to'lash huquqidan ozod etmaydi.

Shuningdek, aliment to'lash to'g'risidagi hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlash harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122-moddasi bilan malakalanib, sud departamentining hududiy bo'linmalarining taqdimnomasiga ko'ra, tergov organlari tomonidan 3 oydan ortiq muddat davomida aliment

to'lashdan bo'yin tovlagan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Lekin ish holatlariga ko'ra, aksariyat bunday turdagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasi qo'llanilib, yetkazilgan zarar to'liq qoplangani inobatga olinib, yarashuv chorasi asosida shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmoqda.

Keyingi paytlarda bu yo'nalishdagi muammolar sifatida ota-onalik majburiyatlarini bajarmaslik, alimentni o'z vaqtida to'lamaslik yoki javobgarning hech qayerda ishlamasligi (ishsizlik) va natijada ish haqi yoki boshqa daromadlarining bo'lmasligi, unga tegishli mol-mulkni topish imkoniyatining yo'qligi, er-xotin o'rtasidagi mojarolar, javobgarga nisbatan bir necha hal qiluv qarori bo'yicha undiruv qaratilganligi, javobgarlarning alimentga oid javobgarlik choralarning huquqiy oqibatlariga befarq munosabatda bo'lish va shu kabi holatlar kuzatilmoqda va bular, o'z navbatida, bolalarning ta'minotga oid manfaatlariga zarar yetkazadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Aliment huquq va majburiyatlari haqida tushuncha bering.
2. Aliment huquq va majburiyatlarining turlarini ayting.
3. Aliment to'lash (undirish)ning shakllari haqida ma'lumot bering.
4. Alimentni sud tartibida undirish asoslari, tartibi va protsessual xususiyatlarini tushuntiring.
5. Alimentni sudga qadar to'lash usullarini tushuntiring.
6. Aliment to'lamaganlik uchun qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqadi?
7. Alimentni sud buyrug'i asosida undirish haqida tushuncha bering.
8. Alimentga oid ishlar bo'yicha chiqarilgan sud qarorlarini ijro etish xususiyatlarini ko'rsating.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., «Adolat», 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008, № 1—2, 1-modda.
6. *G.S. Inomjonova.* Ota-onalar va bolalar huquqlarini himoya qilish muammolari. T., «Adolat», 2006.
7. *F.M. Otaxo jayev, Sh.R. Yo'ldosheva.* O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.

8. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
9. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
10. *Z.N. Esanova*. O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo tartibida sudda ko'rish. Risola. (Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. Sh.Sh. Shorahmetov). T., «Yangi asr avlodi», 2002.
11. *E. Egamberdiyev*. Sud ishlarini yuritish muammolari. O'quv qo'llanma. T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
12. *Z.N. Esanova*. O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. Monografiya. (Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. Sh.Sh. Shorahmetov). T., TDYI, 2005.
13. *Z.N. Esanova*. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. Monografiya. T., TDYI, 2010.
14. *Z.N. Esanova*. Bolalarning huquq va manfaatlari bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rish. Monografiya. T., TDYI, 2010.
15. *Z.N. Esanova*. Farzandlikka olish: moddiy va protsessual jihatlar. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2010.
16. *Z.N. Esanova*. Ota-onalik huquq va majburiyatlari bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rilishi: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2010.
17. *Sh.R. Yo'ldosheva*. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola huquqlarining himoya qilinishi. T., TDYI, 2007.
18. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. (Akad. H. Rahmonqulovning umumiy tahriri ostida). T., «Adolat», 2000.

22-bob. OTALIKNI BELGILASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

22.1. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi va sudlovliligi

Oilaviy-huquqiy munosabatlarga oid normalar ichida otalikni belgilash to'g'risidagi masalalar oila huquqining markaziy institutlaridan biri hisoblanadi. Oila qonunchiligida otalikni belgilash masalasi o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslar o'rtasida bola tug'ilishi va unga nisbatan nasl-nasab belgilanishi munosabati bilan vujudga keladi. Aynan shu ma'noda otalikni belgilash ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlashga asos bo'ladi. Odatda, otalik tushunchasi negizida biologik va yuridik asoslar mavjud bo'lib, ular birgalikda otalikni belgilash munosabatlarini vujudga keltiradi. Amaldagi Oila kodeksi normalariga binoan, *otalikni belgilash* deb o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolaga nisbatan qonunda belgilangan tartibda FHDY yoki sud organlarida nasl-nasabning belgilanishiga aytiladi.

Ota-onalar va bolalarning bir-birlariga nisbatan huquq-majburiyatlari bolalarning qonunda belgilangan tartibda guvohlantirilgan nasabiga asoslangan holda ularning huquq va majburiyatlari bolaning tug'ilish vaqtida vujudga keladi. Odatda, bola va ona o'rtasidagi huquq-majburiyatlar uning onasi nikohda bo'lishidan qat'i nazar, ularning tug'ishganlik fakti tibbiy ma'lumotnomaga asosan vujudga keladi. Lekin tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftarida otalik yozuvi quyidagi asoslarga ko'ra vujudga keladi, jumladan:

1) bola o'zaro nikohda bo'lgan shaxslardan tug'ilgan hollarda uning otasi to'g'risidagi yozuv to'g'ridan to'g'ri ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat va nikoh to'g'risidagi guvohnoma asosida yoziladi;

2) bola o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan hollarda ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki otaning arizasi yoxud otaning homiysi yoki vasiylik va homiylik organining arizasiga asosan yoziladi;

3) otalikni belgilash haqidagi sudning hal qiluv qaroriga asosan yoziladi;

4) o‘zaro nikohda bo‘lmagan ota-onadan bola tug‘ilganda ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki otalikni belgilash to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori bo‘lmasa, otaning familiyasi onaning familiyasi bo‘yicha, otaga tegishli ism otaning ismi va millati — onaning ko‘rsatmasi bo‘yicha yoziladi;

5) o‘zaro nikohda bo‘lgan va sun‘iy homila hosil qilish yoki embrionini ko‘chirishga yozma rozilik bergan shaxslarda shu usullarni qo‘llash natijasida bola tug‘ilsa, ularning roziligiga ko‘ra, bolaning otasi umumiy qoidalar asosida yoziladi.

1968-yil 27-iyunda qabul qilingan «SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to‘g‘risidagi qonun asoslari»ni tasdiqlash to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, sud tartibida otalikni belgilashga mazkur Asoslar kuchga kiritilganidan, ya‘ni 1968-yil 1-oktabrdan keyin tug‘ilgan bolalarga nisbatan joriy etilishi belgilandi. Asoslarga muvofiq, bolaning onasi bilan nikohda bo‘lmagan, lekin o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan holatlarda uning otalik faktini belgilashga qonunda ko‘rsatilgan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Barcha fuqarolik ishlari kabi otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarga ham taalluqlilikning umumiy qoidalari tatbiq qilinadi va shu asosda mazmunan ko‘rib hal qilinadi.

Taalluqlilik tushunchasi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning shakllarini belgilaydi. Chunki hozirgi kunda jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan va nizolashayotgan subyektiv huquqlari va ularning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega bo‘lgan bir qator davlat organlari va jamoat tashkilotlari mavjud. Bularning vakolatlarini bir-biridan ajratib olishda ishlarning taalluqliligi asosiy rol o‘ynaydi. Ma‘lumki, «Sud, prokuratura, hokimliklarning bo‘limlari, kasaba uyushmasi tashkilotlari, hakamlar sudi hamda fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilishga vakolatli bo‘lgan boshqa tashkilotlar fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qiluvchi organlar hisoblanadi»¹.

Agar ishning taalluqliligi nizosizlikka asosan belgilansa, bu taalluqlilikning umumiy mezonlari deb ataladi va bunday talablar asosan FHDY organlari tomonidan hal etiladi. Bunga FHDY organi tomonidan otalikni belgilash to‘g‘risida bolaning onasi bilan nikohda bo‘lmagan shaxsning birgalikda ariza berishi misol bo‘ladi.

¹Sh. Sh. *Shorahmetov*. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 125-bet.

Agar taalluqlilik taraflar o'rtasida nizoning mavjudligi bilan bog'liq ravishda belgilansa, bu taalluqlilikning maxsus mezonlari deb atalib, bunday talablar sud orqali hal etiladi. Masalan, er yoki xotindan birortasining talabi bo'yicha nikohdan ajratish to'g'risidagi talabning nizoliligi yoxud otalikni belgilash to'g'risida bir tomonning arizasi bo'lmasligi bunday talablarning sudga taalluqligidan dalolat beradi.

Bizning fikrimizcha, taalluqlilikning umumiy va maxsus mezonlari buzilgan huquqni qanday himoya qilishning shakllarini belgilashga xizmat qiladi. Lekin oila huquqiga oid nizolar ichida shunday fuqarolik ishlari mavjudki, ularni hal qilish faqat sudga taalluqlidir. Bunday ishlarga nikohni haqiqiy emas deb topish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan turib, bolani olib qo'yish, ota-onalik huquqini tiklash kabilar misol bo'ladi. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning taalluqliligini FHDY organi yoki sudga taalluqli ishlar deb turkumlash mumkin.

Oila huquqi normalarining qaysi biri buzilgan bo'lishiga qarab, ularni himoya qilish usullari ham turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra, himoya qilish sud tomonidan yoki ma'muriy tartibda amalga oshirilishi mumkin¹.

Binobarin, oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha, ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 11-moddasi).

Otalikni belgilash to'g'risidagi talab qaysi organga, ya'ni FHDY organi yoki sudga yoxud sudning qaysi ish yuritish turiga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, otalikni belgilash to'g'risida ish qo'zg'atish uchun yagona asos, bu — bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida FHDY organida qayd etilgan nikohning bo'lmasligidir. Boshqa holatlar esa, otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo yoki alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishiga turlicha ta'sir qiladi. Masalan, bolaning 1968-yil 1-oktabrgacha yoki undan keyin tug'ilganlik vaqti da'vo tartibida ish yuritishga imkon bersa, alohida tartibda ish yuritishda esa ushbu sana otalikni tan olish va otalik faktlarini belgilashga sabab bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. (Akad. H. Rahmonqulovning umumiy tahriri ostida). T., «Adolat», 2000, 33-bet.

Otalikni belgilash to'g'risidagi talabning FHDY organiga taalluqli bo'lishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi kerak:

- bolaning onasi bilan o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxs o'rtasida FHDY organida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;

- bolaning onasi bilan o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning birgalikdagi arizasining mavjudligi;

- ona vafot etganda, ona muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, ona onalik huquqidan mahrum qilinganda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining mavjudligi;

- bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganida ota homiysining vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining mavjudligi.

Otalikni sud yo'li bilan belgilashda sudya ish qo'zg'atish jarayonida dastlab talabning oila qonunchiligining tegishli normalariga mos kelish-kelmasligini, talabning sudga taalluqli ekanligini, talabning qaysi turkumdagi ish yuritish tartibida ko'rilishini hal qilishi lozim.

Da'voli ishlarni sudga taalluqligining umumiy qoidalariga asoslangan holda otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning sudga taalluqli ekanligini quyidagi shartlarda ko'rish mumkin:

- bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida FHDY organida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;

- bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida FHDY organiga birgalikda topshirilgan arizaning bo'lmasligi;

- otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning otalikni tan olganlik haqidagi vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining bo'lmasligi;

- bolaning asoslar amalga kiritilgandan keyin, ya'ni 1968-yil 1-oktabrdan keyin tug'ilgan bo'lishi;

- otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning hayot ekanligi.

FHDY organiga otalikni belgilash to'g'risida ariza beruvchi subyektlar sifatida ota-ona, voyaga yetmagan ota-onaning qonuniy vakili, muomalaga layoqatsiz otaning homiysi yoki vasiylik va homiylik organlarini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, FHDY organida otaning arizasi asosida otalikni belgilashga quyidagi holatlarda, ya'ni ona vafot etganda; ona sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda; onaning qayerdaligini aniqlash

imkoniyati yoki uning yashash joyini belgilashning imkoniyati bo'lmaganda; ona onalik huquqidan mahrum qilinganda yo'l qo'yiladi.

Bunday holatlarda vasiylik va homiylik organining roziligi olinib, arizaga onaning o'limi haqidagi guvohnoma nusxasi, onasi muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to'g'risidagi sud qarorining nusxasi, onaning onalik huquqidan mahrum etilganligi to'g'risidagi sud qarorining nusxasi, ichki ishlar organlarining olti oydan ortiq muddat davomida bolaning onasi haqidagi ma'lumotlarning mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi ilova qilinadi. Shuningdek, arizaga yuqoridagi holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari hamda vasiylik va homiylik organining roziligi ifodalangan hujjat ilova qilinishi kerakligi ta'kidlangan.

Sudlovlilik deb, sud organlariga taalluqli bo'lgan fuqarolik ishlarining sud tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishiga aytiladi. Ishning sudlovliligini belgilash mazkur ishni aynan qaysi sudning ko'rishga va hal etishga vakolatli ekanligini bildiradi¹.

Sudlovga tegishlilik, *birinchidan*, hal qilinadigan masalaning sudga tegishli bo'lishini belgilasa, *ikkinchidan*, mazkur ishning sud tizimi bo'g'inlari vakolatiga kirishini ifodalaydi. Sudlovlilikni aniqlashda nizoning predmetiga, subyektlar masalasiga, ularning yashash yoki mol-mulkining turgan joyiga e'tibor berish talab etiladi. Muayyan bir ishni hal qilishga qaysi sud vakolatli bo'lishi mumkinligini belgilashda sudlovlilikning turdosh va hududiy turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat fuqarolik ishlarini ko'rish vakolati O'zbekiston Respublikasi FPKning 141-moddasiga asosan, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining sudloviga berilgan.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning da'voli ishlar turkumiga mansubligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi FPKning 241-moddasiga asosan, umumiy qoida bo'yicha javobgarning doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joyidagi sudga beriladi. Agar javobgarning yashash joyi noma'lum bo'lsa, uning mol-mulki turgan joydagi yoki uning oxirgi yashash joyidagi sudga murojaat qilinadi.

Shu bilan birga, fuqarolarning huquq va manfaatlari hisobga olingan holda da'vog'ar aliment undirish to'g'risidagi, otalikni

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 141-bet.

belgilash haqidagi va mayib bo'lganlik hamda sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazganlik yoxud boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volarni o'zi yashab turgan joydagi sudga ham taqdim etishi mumkin va sudlovlilikning bunday shakli muqobil sudlovlilik deb yuritiladi.

Ko'pgina hollarda otalikni belgilash to'g'risidagi da'volarda bir vaqtning o'zida bolaga nisbatan aliment undirish to'g'risidagi talab ham keltirilishi mumkin. Bunday hollarda muqobil sudlovlilik qoidalariga rioya qilinishi kerak. Shunga asosan, bunday da'volar O'zbekiston Respublikasi FPKning 145-moddasiga ko'ra, javobgarning turar joyi yoki O'zbekiston Respublikasi FPKning 241-moddasi uchinchisi qismiga muvofiq, da'vogarning turar joyidagi sudga berilishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning alohida ish yuritish tartibida ham ko'rib chiqilishini inobatga olsak, bunday turkumdagi arizalar arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 284-moddasi).

22.2. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo qo'zg'atish tartibida sudda ko'rish asoslari va tartibi

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish da'vo qo'zg'atish va alohida ish yuritish tartibida amalga oshiriladi.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo qo'zg'atish tartibida sudda ko'rib hal qilish uchun quyidagi *maxsus shartlarning* bo'lishi talab etiladi:

1) bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida FHDY organlarida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;

2) bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida otalikni belgilash to'g'risida birgalikdagi arizaning mavjud emasligi;

3) otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning hayot ekanligi;

4) ona vafot etganda, ona muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, ona onalik huquqidan mahrum qilinganda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining bo'lmashligi;

5) bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganida ota homiysining vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining bo'lmashligi.

Bunday tasnif deyarli barcha yuridik adabiyotlarda ayrim o'zgartirishlar bilan berilgan¹.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlar bo'yicha yuqoridagi maxsus shartlar bilan birgalikda sudga murojaat qilishning quyidagi umumiy shartlari ham amal qiladiki, bularga: da'vogarning fuqarolik protsessual huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi; ishning sud organlariga taalluqli va uning sudlovga tegishli ekanligi; sudning aynan o'sha taraffar o'rtasida, aynan bir predmet to'g'risida va aynan bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorining yoki ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimining bo'lmasligi kabi holatlar kiradi. Bizning nazarimizda, otalikni sud yo'li bilan belgilash to'g'risida da'vo qo'zg'atgan ona protsessual ma'noda da'vogar deb e'tirof etilishi mumkin. Lekin ish bo'yicha ona haqiqiy da'vogar hisoblanmay, barcha hollarda da'vogar bola bo'lib qolaveradi.

Shuningdek, sud amaliyotida otalikni belgilash to'g'risidagi da'vo talabi bilan nikohsiz tug'ilgan bolaning o'zi voyaga yetgandan keyin, bola kimning qaramog'ida bo'lsa, o'sha shaxs tomonidan sudga murojaat qilish holatlari kuzatiladi. Bunga asosan bola onasining o'limi yoki bedarak yo'qolganligi yoxud muomalaga layoqatsizligi yoki boshqa sabablar asos bo'lishi mumkin. Masalan, «Navoiy shahar sudiga da'vogar S.X. murojaat qilib, qizi vafot etganligi tufayli uning qaramog'ida qolgan nevarasiga nisbatan javobgar B.M.ning otaligini belgilab berishlarini so'ragan»².

Ish qo'zg'atuvchi shaxslar qatorida nikohsiz tug'ilgan bolaning o'zi ham voyaga yetgandan keyin sudga murojaat qilishi belgilangan bo'lib, bunga bola onasining uzoq muddat kasalligi, o'limi, bedarak yo'qolganligi, muomalaga layoqatsizligi, sudga murojaat qilishni istamaganligi yoxud boshqa holatlar sabab bo'lishi mumkin.

22.3. Alohida ish yuritish tartibida otalikni tan olish va otalik faktining belgilanishi

Otalikni belgilash to'g'risidagi fuqarolik ishini da'vo qo'zg'atish tartibida ko'rib chiqishdan tashqari, alohida ish yuritish tartibida ko'rib hal qilishga ham yo'l qo'yiladi. Chunki amaldagi Oila kodek-

¹ Семейное право. Учебник. Под ред. С.А. Муратовой. М., «Юрист-пруденция», 2001, стр. 124.; Л.М. Пчелинцева. Семейное право России. Учебник. М., «Норма-Инфра», 1999, стр. 247.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi umumlashtirish va sud statistikasi bo'limining 2001-yilgi arxiv ma'lumotlaridan.

sining 62-moddasi to'rtinchi qismida bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkinligi ta'kidlangan.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, alohida tartibda ish yuritish — bu sud ishlarini yuritishning alohida turi bo'lib, fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga asoslangan holda huquqiy tartibga solishning maxsus usuli sanalib, sud organlariga tegishli huquq to'g'risidagi nizosiz ishlarni ko'rish tartibi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 283-moddasiga ko'ra, otalikni belgilash fakti yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar turkumiga kiritilgan bo'lib, uni alohida ish yuritish tartibida ko'rishda quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirdagina sud tomonidan qabul qilishga yo'l qo'yiladi:

- arizachiga bu faktni belgilash tegishli huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarsa;

- arizachi bu faktni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha (sudsiz) yo'l bilan olish yoki tiklash imkoniyatiga ega bo'lmasa;

- bu faktni belgilash fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlarini bevosita keltirib chiqarsa, o'zgartirsa yoki tugatsa.

Qonunchilikda alohida ish yuritish tartibida otalikni tan olish va otalik faktini belgilash kabi turlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ushbu faktlarni belgilash arizachiga qarindoshlik, qaramog'ida bo'lganlik, merosga bo'lgan huquqni belgilash, boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini olish kabi faktlarni belgilashga imkon tug'diradi.

Alohida tartibda ish yuritishda ham da'vo tartibida ish yuritishdagidek, fuqarolik protsessining ish qo'zg'atish, ishni sudda ko'rishga tayyorlash, sud muhokamasi, ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarish kabi bosqichlaridan o'tiladi. Lekin shu bilan birgalikda alohida tartibda ish yuritishga oid ba'zi xususiyatlar ham borki, ularga nizoning mavjud emasligi, nizolashuvchi taraflar, uchinchi shaxslarning bo'lmasligi, ish bo'yicha manfaatdor shaxslarning qatnashuvi, shuningdek, nizo yo'qligi sababli da'voli tartibda ish yuritishga xos yana boshqa institutlarning, chunonchi da'voni tan

olish, da'vodan voz kechish, ish bo'yicha kelishuv bitimi tuzish, qarshi da'vo berish, da'voni ta'minlash masalalarining bo'lmashligi haqida deyarli barcha yuridik adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan.

Alohida ish yuritish tartibida otalikni belgilash xususiyatlaridan biri – bu bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning vafot etganlik fakti hisoblanadi. Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida, ya'ni 1968-yil 27-iyunda qabul qilingan va 1968-yil 1-oktabrdan qonuniy kuchga kirgan «SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning Nikoh va Oila to'g'risidagi qonun Asoslari»da fuqarolarning otalikni belgilash to'g'risida sudga murojaat qilish huquqi belgilab berildi¹. Bu haqda amaldagi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 62-moddasi 4-qismida, bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

1968-yil 1-oktabr sanasi bilan bog'lab otalikni tan olish fakti va otalik faktlari deb turkumlash hozirgi kunda ham nazariyada qo'llanib kelinmoqda. Lekin amaliyotda sudyalardan tomonidan alohida ish yuritish tartibida otalikni belgilash yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorlarida otalikni tan olish va otalik fakti tushunchalarini chalkashtirib yuborish holatlari kuzatilmoqda. Vaholanki, bulardan kelib chiqadigan moddiy-huquqiy oqibatlar turlicha bo'ladi. Shuning uchun ushbu turkumdagi ishlarni to'g'ri tushunish va aniq belgilash maqsadida ularga taalluqli shartlarni izohlab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunonchi, otalikni tan olish faktini belgilash uchun quyidagi shartlar bo'lishi talab etiladi:

- bolaning onasi bilan o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs o'rtasida FHDY organlarida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;

- bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning vafot etganligi;

- bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs hayotligida bolani tan olgan bo'lishi;

¹ Ведомости Верховного Совета СССР, 1968, № 27, стр. 241.

- bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs qaramog'ida bo'lganligi;

- bolaning 1968-yil 1-oktabrigacha tug'ilgan bo'lishi.

Otalik faktini belgilashga doir shartlar quyidagilardan iborat:

- bolaning onasi bilan o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs o'rtasida FHDY organlarida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;

- bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning vafot etganligi;

- bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning bola tug'ilishiga qadar birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritgan bo'lishi yoki ular bolani bingalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganligi yoki otalikni tan olganlikni tasdiqlovchi boshqa dalillarning bo'lishi shartligi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 62-moddasi);

- bolaning 1968-yil 1-oktabrdan keyin tug'ilgan bo'lishi.

Hozirgi vaqtda 1968-yil 1-oktabrgacha tug'ilgan bolalarning hammasi voyaga yetganligi sababli bunday ishlarning deyarli kam uchrashi kuzatilmoqda. Shunga qaramasdan, hozirda ham amaliyotda otalikni tan olish va otalik faktini belgilashda bolaning 1968-yil 1-oktabrgacha yoki undan keyin tug'ilgan bo'lishi asosiy shartlardan biri ekanligiga sudlar tomonidan e'tibor berilyapti.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 62-moddasi to'rtinchi qismida bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan bo'lishiga qaramay, sudlar tomonidan ish bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlarida otalikni tan olish va otalik faktlarini belgilash tushunchalari noto'g'ri qo'llanilmoqda.

Alohida ish yuritish tartibida otalikni tan olish va otalik faktlarini belgilash to'g'risida sudda ish qo'zg'atish uchun O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 62-moddasida ko'rsatilgan ish qo'zg'atuvchi subyektlarning arizasi asos bo'ladi. Mazkur ariza, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 148—149-moddalari talablari asosida yoziladi. Arizada asosan ushbu faktni belgilash arizachiga

qanday maqsadlar uchun zarur ekanligini, ushbu faktni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni sudsiz tartibda olish mumkin emasligini yoki yo'qolgan hujjatlarni tiklab bo'lmazligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi zarur. (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 284-moddasi). Shuningdek, arizada ishda qatnashishi mumkin bo'lgan manfaatdor shaxslar doirasi aniq ko'rsatilishi talab etiladi.

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, alohida ish yuritish tartibida otalikni belgilashda sudga murojaat qilish huquqi bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olingan shaxsning vafoti bilan yuzaga keladi va bunga qarilik, uzoq muddatli kasallik, tasodifiy o'lim holatlari sabab bo'ladi. Shuning uchun bunday ishlar bo'yicha yosh senzi qat'iy emas, faqat tahlil etilgan hal qiluv qarorlari bo'yicha, asosan 30–40 va undan yuqori yoshdagi onalarning sudga murojaat qilishlari kuzatilmoqda.

Alohida ish yuritish tartibida otalikni belgilash uchun sudga murojaat qilish maqsadlarini umumiy va maxsus turlarga bo'lish mumkin.

Chunonchi, *umumiy maqsadlar* deganda: ona va bola manfaatlarini butun choralar bilan himoya qilish, har bir bolaning baxtli bolaligini ta'minlab berish, har bir insonning oilaga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, oilada bolalar tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan birga qo'shib olib borish kabilar nazarda tutilsa, *maxsus maqsadlarga* esa: FHDY organidagi tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftoriga ota haqidagi ma'lumotlarni kiritish, bola otasining kimligini his qilishi, bola otasining qarindoshlari bilan munosabatga kirishishi, bola uchun aliment undirilishi, merosdan hissa undirish yoki merosga egalik huquqini belgilash tushuniladi.

22.4. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning xususiyatlarini moddiy va protsessual huquqiy jihatdan tasniflash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishning *moddiy-huquqiy xususiyatlari* deganda:

- otalikni belgilash to'g'risidagi ishlar oila huquqiga oid normalardan biri ekanligi;
- bolalarning nasl-nasabini belgilovchi vosita ekanligi;

- ota-onalar va bolalar o'rtasida huquq va majburiyatlarni vujudga keltiruvchi asos ekanligi.

Ishning *protsessual-huquqiy xususiyatlari* deganda:

- mazkur toifadagi ishlarning sud ishlarini yuritishning ikki turiga, ya'ni da'vo va alohida ish yuritish tartibida ko'rish mumkinligi;

- bunday turdagi ishlar ona va bola ta'minoti uchun aliment, yetkazilgan ma'naviy zararni undirish, shuningdek, otalikka e'tiroz bildirish to'g'risidagi qarshi da'vo talablari bilan birgalikda ko'rishga yo'l qo'yilishi;

- otalikni belgilash to'g'risidagi da'volarning ham javobgarining, ham da'vogarning turar joyi bo'yicha sudga taqdim etilishiga oid muqobil sudlovlilik qoidalari asosida ko'rilishi, shuningdek, otalikni alohida ish yuritish tartibida belgilashda esa ariza beruvchining turar joyidagi sudga, ya'ni umumiy sudlovlilik qoidalarining tatbiq etilishi;

- da'vo qanoatlantirilishiga qarab, javobgarning davlat bojini va boshqa turdagi sud xarajatlarini to'lashga majburligi;

- otalikni belgilash haqidagi da'volar bo'yicha ishlarning yopiq sud majlisida ko'rilishi mumkinligi;

- mazkur toifadagi ishlarni hal qilishda Oila kodeksida mustahkamlangan maxsus dalillarga asoslanishi;

- otalikni belgilash haqidagi ishlar yuzasidan taraflar tomonidan kelishuv bitimi tuzishning mumkin emasligi;

- mazkur toifadagi ishlarni sudda ko'rish jarayonida sud lozim deb topgan hollarda prokuror ishtirokining shartligi;

- bunday toifadagi ishlar bo'yicha ish holatiga ko'ra, ekspertiza o'tkazishga yo'l qo'yilishi;

- otalikni belgilash to'g'risidagi da'volarning aliment undirish va boshqa da'vo talablari bilan birgalikda ko'rilishini nazarda tutib, ishlarni sudda ko'rishga tayyorlash va mazmunan ko'rish uchun umumiy muddatlar (1 oy) belgilanganligi;

- otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning aliment undirish to'g'risidagi da'volar bilan birgalikda ko'rilishini hisobga olib, ish bo'yicha javobgarining qayerdaligi noma'lum bo'lsa, sud ish yuritishni to'xtatib (FPKning 93-moddasi 3-qismi va 140-modda), ichki ishlar organlari orqali qidiruv e'lon qilishi mumkinligi;

- agar tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftarida bolaning otasi sifatida aniq bir shaxs ko'rsatilgan bo'lsa, bunday holda sudlar otalikni belgilash haqidagi arizani o'z ish yurituviga qabul qilmay,

ularga yuqorida ko'rsatilgan yozuvga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 63-moddasi talablari asosida otalikka e'tiroz bildirishi to'g'risida da'vo taqdim etishlari mumkinligini tushuntirishi lozimligi;

- otalikni belgilash to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorining aliment undirish haqidagi qismiga nisbatan darhol ijro usulining qo'llanilishi;

- mazkur toifadagi ishlar bo'yicha qonun bilan da'vo muddatini chegaralanmaganligi sababli, sud tomonidan otalikni belgilash masalasi bola tug'ilgandan keyin barcha davrlarda ko'rib hal etilishi mumkinligida ko'rinadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi va sudlovligini tushuntiring.
2. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo qo'zg'atish tartibida sudda ko'rish asoslari va tartibini tushuntiring.
3. Alohida ish yuritish tartibida otalikni tan olish va otalik faktining belgilanishi hamda ularning da'vo tartibida otalikni belgilashdan farqli jihatlarini sanab o'ting.
4. Otalikni belgilash ishlari bo'yicha isbotlash va dalillarni ko'rsating.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2011.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., «Adolat», 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008, № 1–2, 1-modda.
6. *F.M. Otaxo'jayev.* O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. Darslik. T., TDYI, 2005.
7. *F.M. Otaxo'jaev, Sh.R. Yo'ldosheva.* Oila huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
8. *F.M. Otaxo'jayev, Sh.R. Yo'ldosheva.* O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
9. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
10. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.

11. *Z.N. Esanova*. O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo tartibida sudda ko'rish. Risola. (Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. Sh.Sh. Shorahmetov). T., «Yangi asr avlodi», 2002.
12. *E. Egamberdiyev*. Alohida tartibda sud ishlarini yuritish. O'quv qo'llanma. T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
13. *E. Egamberdiyev*. Sud ishlarini yuritish muammolari. O'quv qo'llanma. T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
14. *Z.N. Esanova*. O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. Monografiya. (Mas'ul muharrir yu.f.d. prof. Sh.Sh. Shorahmetov). T., TDYI, 2005.
15. *Z.N. Esanova*. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. Monografiya. T., TDYI, 2010.
16. *Z.N. Esanova*. Bolalarning huquq va manfaatlarini bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rish. Monografiya. T., TDYI, 2010.
17. *Z.N. Esanova*. Farzandlikka olish: moddiy va protsessual jihatlar. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2010.
18. *Z.N. Esanova*. Ota-onalik huquq va majburiyatlari bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rilishi: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2010.

23-bob. MEHNATGA OID NIZOLI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

23.1. Mehnat nizolarining taalluqliligi va sudlovligi

Mehnat nizolarining *taalluqliligi* deganda mehnat nizolari mazmuni bo'yicha qaysi organ tomonidan ko'rib hal qilinishi anglashiladi. Mehnat nizolarining taalluqliligi, ya'ni ularning qayerda ko'rib chiqilishi lozimligi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 269 va 276-moddalari hamda FPKning 31-moddasi bilan tartibga solinadi. Yakka tartibdagi mehnat nizolarida nizoning xususiyati va uni keltirib chiqaruvchi huquqiy munosabat hamda nizolashuvchi shaxslarning tarkibi, ayrim hollarda esa nizoning predmeti taalluqlilikni belgilovchi asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi.

Mehnat nizosining taalluqliligini belgilashda, avvalo, nizoning qaysi turda ekanligini, yakka tartibdagi nizo bo'lsa, uning xususiyatini, mehnat qonunchiligini qo'llash yoki yangi mehnat shartlarini belgilash bo'yicha va yana qaysi huquqiy munosabatlardan kelib chiqqanini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Xususan, mehnatga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan, ammo boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mehnat ishlarining taalluqligini belgilash shular jumlasidandir. Masalan, ishga joylashtirish, ishga qabul qilishni rad etish bilan bog'liq mehnat nizolari mehnat nizolari komissiyasida ko'rish uchun taalluqli bo'lmaydi.

Shuningdek, mazkur komissiya nafaqa to'lash bilan bog'liq mehnat nizolarini ham ko'rib, hal qilish vakolatiga ega emas. Shuning uchun ham mehnat nizolarining yuqoridagi xususiyatlariga alohida e'tibor berishlik talab etiladi, aks holda mehnat ishlarining taalluqliligi noto'g'ri belgilanishi hamda ish ko'rishga vakolatli bo'lmagan organ tomonidan chiqarilgan qaror bekor qilinishi mumkin.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mazkur nizoli ishlarni ko'rib hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

mehnat nizolari komissiyasi;
sud organlari;

bo'ysinuv tartibida yuqori turuvchi organlar.

Yakka tartibdagi mehnat nizolarining yuqoridagi organlarning qaysi biriga taalluqli bo'lishini belgilash ushbu nizoning mazmuniga, huquqiy munosabatlarning turiga, unda ishtirok etuvchi subyektlar tarkibiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 260-moddasida ko'rsatilganidek, mehnat nizolari bo'yicha xodim mehnat nizolari komissiyasiga yoki bevosita tuman (shahar) sudlariga murojaat etishga haqlidir. Mehnat nizolari komissiyasi o'n kunlik muddat ichida mehnat nizosini ko'rib chiqmasa yoki hal etmasa, manfaatdor xodim ushbu nizoni ko'rishni tuman (shahar) sudiga o'tkazishga haqlidir (Mehnat kodeksining 267-moddasi).

Bevosita fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo (shahar) sudlarida ko'rilishi lozim bo'lgan mehnat nizolarining ro'yxati Mehnat kodeksining 269-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra mehnat nizolari quyidagi hollarda bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'rib chiqiladi:

- agar xodimning ish joyida mehnat nizolari komissiyasi tuzilmagan bo'lsa;

- mehnat nizolari mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'i nazar, ishga tiklash to'g'risida, mehnat shartnomasini bekor qilish vaqti va asoslari ta'rifini o'zgartirish to'g'risida, majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun haq to'lashga doir bo'lsa;

- mehnat nizolari xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni to'lanishi haqida bo'lsa;

- mehnat nizolari mehnat vazifalarini bajarayotganda xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilgani oqibatidagi zararni (shu jumladan, ma'naviy zararni) yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan zararni ish beruvchi tomonidan to'lanishi haqida bo'lsa;

- ish beruvchi tomonidan taklif qilingan shaxslarni ishga qabul qilmaslik, ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo'lgan (belgilangan kvota hisobidan ishga yuborilgan nogironlar va o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni; homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarni tegishincha ularning homiladorligi yoki bolasi borligini vaj qilib) ishga qabul qilmaslik yuzasidan kelib chiqqan nizolar ham bevosita sudlarda ko'rib hal qilinadi (Mehnat kodeksining 78-moddasi).

Shuningdek, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan oldindan kelishib hal etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan mehnat nizolari ham bevosita sudlar tomonidan ko‘rib chiqilishiga alohida e‘tibor berish lozim.

Mehnatga oid nizoli ishlar yuzasidan sudda da‘vo qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani to‘g‘ri hal qilish uchun nizoli ish qaysi sudning sudloviga tegishli bo‘lishligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Mehnat nizoli ishlarining sudlovligini aniqlash birinchi instansiya sudining qaysi birida mazkur nizo hal qilinishini aniqlash demakdir. Umumiy qoida bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha arizalar javobgarining doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg‘ul bo‘lgan joydagi sudga beriladi.

Tashkilotlarga nisbatan ariza ularning organlari joylashgan hududdagi sudga beriladi (FPKning 145-moddasi).

Mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarining aksariyati (masalan, ishga tiklash, avvalgi ish joyiga o‘tkazish, mehnat shartnomasini bekor qilish ta‘rifini o‘zgartirish, mehnatga haq to‘lash to‘g‘risidagi nizoli ishlar) javobgar ish beruvchi joylashgan joydagi sudlarda qo‘zg‘atiladi. Lekin xodimlar tomonidan yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risidagi da‘volar bilan korxonada joylashgan sudga murojaat qilish mumkinligini qonun istisno qilmaydi.

Darhaqiqat, FPKning 241-moddasiga muvofiq, fuqaroning yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volar zarar yetkazilgan joyda ham taqdim qilinishi mumkinligi mazkur nizoli ishlar uchun da‘vogarning tanlashi bo‘yicha (muqobil) sudlovlik joriy qilinganligidan dalolat beradi. Shuningdek, FPKning 241-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, o‘z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganlik yoxud boquvchisi ish bilan bog‘liq holda vafot etganligi natijasida ko‘rilgan zarar o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volarni da‘vogar o‘zi yashab turgan joyda ham taqdim etishi mumkin.

23.2. Mehnatga oid nizoli ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar

Ish beruvchilar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakt)ni bekor qilishdan kelib chiqadigan nizoli ishlarda ishtirok etuvchi taraflarning tarkibi mehnat shartnomasi hamda qonun bilan qat‘iy belgilab qo‘yilganligi ushbu turkumdagi nizoli ishlarining o‘ziga

xos xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun ham mazkur turkumdagi ishlarda mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ishtirok etishmaydi, mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning ishtiroki esa cheklangan bo'ladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizoli ishlarda taraflar korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va xodimlar hisoblanib, ular o'rtasida nizo mehnat qonunchiligini qo'llash borasida yuzaga kelib, sudlarda ko'rish uchun tegishli bo'ladi.

Sudda buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida da'vo arizasi taqdim etish huquqini amalga oshirishning muhim shartlaridan biri protsessual harakatlarni amalga oshirishga qobiliyatli bo'lish, ya'ni protsessual muomala layoqatiga ega bo'lish hisoblanadi.

Sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegishlidir (FPKning 38-moddasi). Fuqaro 18 yoshga to'lgach, fuqarolik protsessida shaxsan ishtirok etishi, protsessual harakatlarni amalga oshirishi va o'ziga tegishli protsessual huquqlardan foydalanishi mumkin bo'ladi. Voyaga yetmagan, ya'ni yoshi o'n to'rt dan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylik tomonidan himoya qilinadi (FPKning 38-moddasi).

Mazkur qoidadan istisno ravishda mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha xodimlarning fuqarolik muomala layoqati 15 yoshdan boshlanadi. Mehnat kodeksining 77-moddasiga ko'ra, xodimlarning mehnat huquq layoqati umumiy qoida bo'yicha 16 yoshdan boshlanadi. Voyaga yetmagan xodim sudda boshqa turkumdagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar yuzasidan protsessual muomala layoqatiga ega bo'lmasligi mumkin, lekin mehnat ishlari bo'yicha o'zining protsessual huquq va majburiyatlarini to'la hajmda amalga oshirish huquqiga ega.

Xususan, FPKning 38-moddasiga muvofiq, mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega ekanliklari e'tirof etiladi.

Mehnat ishlari bo'yicha sudga shaxsan murojaat qilish huquqiga yoshidan qat'i nazar, barcha xodimlar haqli bo'ladi. Shunday ekan,

sudya mehnat ishlari bo'yicha 18 yoshga to'lmagan xodimning da'vo arizasini FPKning 152-moddasi 6-bandiga ko'ra, ya'ni ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilganligini asos qilib qabul qilishni rad etishi mumkin emas.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun sudya o'z tashabbusi bilan ularning ota-onalarini, farzandlikka olganlar yoki homiylarini sud protsessiga jalb qilishi mumkinligi fuqarolik protsessual qonunchiligida o'z aksini topgan (FPKning 38-moddasi). Ushbu huquqiy norma voyaga yetmagan xodimlarning protsessual muomalaga layoqatini cheklashga qaratilmay, balki voyaga yetmagan shaxslarning sudda huquqlarini himoya qilinishining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarda boshqa turkumdagi ishlardan farqli ravishda birgalikda ishtirok etuvchilar ko'plab uchraydi. Protsessual ishtirokchilikning asosi sifatida da'voning predmeti bo'lmish moddiy huquqiy munosabatning bir xilda bo'lishligi, nizoli huquqning yoki nizoli majburiyatning bir necha shaxslarga tegishli bo'lishi, sud faoliyati va sud hal qiluv qarorining yagona bo'lishligi e'tirof etiladi. Sudlarda mehnatga oid nizoli ishlarning ko'rilishida fakultativ ishtirokchilik nisbatan ko'proq uchraydi.

Sherik ishtirokchilikning mazkur turi bir xil ishni bajargan xodimlar ish haqi yoki mukofotni olishdan bir asosda mahrum bo'lganlarida va ushbu talablar bilan bir necha xodimlar sudga da'vo bilan murojaat qilganlarida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda bir xil asos bilan bir necha xodimlar ishdan bo'shatilishi mumkin va ushbu xodimlar sudda sherik da'vogarlari sifatida e'tirof etiladi.

Ish beruvchilarning hamda xodimlarning mehnatga oid huquqlarini, shuningdek, jamoatchilik manfaatini himoya qilish uchun sud boshqa shaxslarning iltimosiz, o'z tashabbusi bilan ishda ishtirok etish uchun korxonaning mansabdor shaxsini jalb qilish va uning zimmasiga xodimga majburiy bekor yurgan vaqti uchun ish haqi to'lashi munosabati bilan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklashi mumkin.

FPKning 259-moddasida mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan yoki noqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimlarni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga yoki boshqa ishga o'tkazishga farmoyish bergan mansabdor shaxsni uchinchi shaxs sifatida ishda ishtirok etish uchun javobgar tomonidan jalb qilishi shartligi o'z ifodasini topgan. Ushbu qoidaning kiritilishidan ko'zlangan maqsad mehnat shartnomasini bekor qilinishi yoki boshqa ishga o'tkazish ochiqdan ochiq qonunga xilof bo'lganligini aniqlagan sud shu protsessning o'zidayoq, mansabdor shaxs zimmasiga majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ish berilgan vaqt uchun xodimga ish haqi to'lash natijasida ish beruvchiga yetkazilgan zarar o'rini qoplash majburiyatini yuklashdan iboratdir.

Mansabdor shaxsning ish beruvchi oldidagi mazkur javobgarligi fuqarolik-huquqiy javobgarlikning bir ko'rinishi bo'lmay, balki mehnatga oid huquqiy me'yorlarda nazarda tutilgan mastaqil javobgarlik turi hisoblanadi. Mazkur javobgarlik masalasini hal qilar ekan sudlar, basharti, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o'tkazish qonunni ochiq-oydin buzgan holda amalga oshirilgan bo'lsagina yo'l qo'yilishiga alohida e'tibor berishlari lozim bo'ladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rilishida vakillarning ishtiroki o'zining maqsadi va vazifalari bilan vakillikning boshqa turlaridan ajralib turadi.

Mehnatga oid nizoli ishlarda xodimning vakili sifatida xodim ishlayotgan korxonaning kasaba uyushmasi qo'mitasi ishtirok etishi mazkur turkumdagi ishlarning o'ziga xos protsessual xususiyatlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 20-moddasiga muvofiq, kasaba uyushmalari, ularning korxonadagi saylab qo'yiladigan organlari, xodimlar tomonidan saylab qo'yiladigan organlari, ish beruvchilarning vakillik organlari mehnatga oid munosabatlarning subyektlari sifatida qatnasha oladilar.

Xodimning vakillik organi bo'lmish kasaba uyushmalari mehnat nizolarini ko'ruvchi organlarda xodimlar manfaatini himoya qilish huquqiga ega bo'lib, ushbu huquqni o'z vakillari orqali bajaradilar.

23.3. Mehnat ishlari bo'yicha fuqarolik ishini qo'zg'atish

Mehnat kodeksining 270-moddasiga muvofiq, mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha quyidagi muddatlar belgilangan:

- ishga tiklash nizolari bo'yicha xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab bir oy;

- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to'lash haqidagi nizolar bo'yicha zarar yetkazilganligi ish beruvchiga ma'lum bo'lgan kundan boshlab bir yil;

- boshqa mehnat nizolari bo'yicha — xodim o'z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab uch oy.

Da'vo muddatlari mehnatga oid barcha nizoli ishlar uchun ham qo'llanilmaydi. Xususan, Mehnat kodeksining 270-moddasiga ko'ra, mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan o'z mehnat vazifalarini bajarayotgan xodimning sog'lig'iga shikast yetkazish oqibatidagi zararni yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan zararni ish beruvchidan undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha da'vo muddatlari joriy etilmaydi.

Shuningdek, da'vo muddatlari joriy etilmaydigan da'vo talablari qatoriga mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'naviy zararni undirish haqidagi talablarni ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 163-moddasida da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar ro'yxati ko'rsatilgan bo'lib, ushbu ro'yxatlar jumlasida shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablar ham nazarda tutilgan. Ma'naviy zararni qoplash nomoddiy boyliklarni va nomulkiy huquqlarni himoya qilishning birdan-bir manbai hisoblanishi bois, Fuqarolik kodeksining 163-moddasi birinchi qismiga muvofiq, ma'naviy zararni undirish haqidagi talablar bo'yicha da'vo muddati joriy qilinmasligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2000-yil 28-apreldagi «Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarorida ham tushuntirishlar berib o'tiladi¹.

Mehnat kodeksining 268-moddasiga ko'ra:

- 1) xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari;

- 2) mehnatning huquq bo'yicha inspektori;

- 3) ish beruvchi, mehnat nizolari komissiyasining qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda, shuningdek, unga xodim tomonidan yetkazilgan zararni qoplash haqidagi nizolar bo'yicha;

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2000-yil 28-apreldagi qarorlari. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2000, 23-bet.

4) prokurorlar mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudda da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'ladilar.

Mehnat nizolarini sudda qo'zg'atishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida mehnatga oid huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqlarini himoya qilib, xodimlar vakillik organlarining, jumladan kasaba uyushmasining mehnat ishlarini qo'zg'atishga bo'lgan huquqini e'tirof etish mumkin.

Agar xodimlar o'zlarining buzilgan huquqlarini himoya qilish maqsadida sudda da'vo qo'zg'atsalar, kasaba uyushmasi qo'mitalari esa o'zlariga qonun bilan belgilangan boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish vakolatlaridan kelib chiqib, sudga murojaat qiladilar. Xususan, «O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining 11-moddasiga ko'ra, kasaba uyushmalari mehnatkashlarning mehnat huquqlarini himoya qilib, da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqli ekanligi ko'rsatilgan¹.

Mehnat nizolarini ko'rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar qatorida mehnatning huquq bo'yicha inspektorlari ham e'tirof etiladilar (Mehnat kodeksining 268-moddasi).

Sudda fuqarolik ishlari yozma shaklda ariza berish yo'li bilan qo'zg'atiladi (FPKning 148-moddasi). Da'vogarning asosiy talablari da'vo arizada ko'rsatilishi lozim. Agar huquqi buzilgan shaxsning yoki qonuniy manfaatini sud orqali himoya qiluvchi manfaatdor shaxsning arizasi (da'vo arizasi) bo'lmasa, protsessual kafolatlar kafolatligicha qolaveradi, da'vo arizasi buzilgan huquqni yoki qonuniy manfaatni himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan sud faoliyatini qo'zg'atishda alohida ahamiyatga ega².

O'zbekiston Respublikasi FPKning 155-moddasiga muvofiq, da'vogarlarga bir arizada o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha talabni birlashtirish huquqi beriladi. Da'vo asoslari va predmetlari umumiy bir-biri bilan bog'liq, talablar ham bir turda bo'lganida — da'volarning obykti sifatida birlashtirilishi kerak³.

¹ O'zbekistonning yangi qonunlari, № 6. T., «Adolat», 1993, 77-bet.

² E.E. Egamberdiyev. Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari. T., «Kamalak», 1997, 5-bet.

³ Sh.Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 158-bet.

Darhaqiqat, boshqa ishga o'tkazish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilar ekan, xodim ushbu arizada bir vaqtning o'zida ushbu talab bilan birga avvalgi ishiga tiklash va majburiy bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirish to'g'risidagi yoki avvalgi ish haqi o'rtasidagi farqni undirish to'g'risidagi talablarni ham birlashtirishi va sud majlisida ko'rib chiqilishini so'rashi mumkin. Agar da'vo asosi va predmetlari umumiy bo'lmay, turli huquqiy munosabatlardan kelib chiqaruvchi talablardan iborat bo'lsa, sud bir turda bo'lmagan talabni ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqarishi lozim bo'ladi.

Sudda buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida da'vo qo'zg'atish shartlaridan biri da'vo arizalari uchun davlat bojining to'lanishi hisoblanadi. FPKning 104-moddasida davlat boji undirilishi lozim bo'lgan hujjatlar o'z aksini topgan. Bunga ko'ra, sudlarga da'vo arizalari berganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 277-moddasiga muvofiq, mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlar bo'yicha sudga murojaat qilgan da'vogarlardan da'vo arizalari uchun davlat boji undirilmaydi. Bu esa mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlaridan biri bo'lib, xodimlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora sifatida e'tirof etiladi.

Xuddi shu kabi norma O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 329-moddasida ham nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, da'vogarlar — ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi¹.

23.4. Mehnatga oid ishlarni sudda ko'rishga tayyorlash va ko'rishning protsessual tartibi

Mehnat ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirishga fuqarolik ishini qo'zg'atganidan so'ng kirishadi. Qonun mehnat ishini qo'zg'atmasdan avval tayyorlov harakatlarini amalga oshirishni nazarda tutmaydi. Aks holda fuqarolik

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007, № 52 (I).

sud ishlarini yuritishning qonunda nazarda tutilmagan bosqichi yuzaga kelishi mumkin.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risida ajrim chiqarilishi sudya tomonidan ishni sudda ko'rishga tayyorlash harakatlarini boshlaganligidan dalolat beradi. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudyaning amalga oshirishi lozim bo'lgan protsessual harakatlari FPKning 160-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, tayyorlov jarayonida sudya ish holatlaridan kelib chiqib, mazkur moddada ko'rsatilmagan boshqa tayyorlov harakatlarini ham amalga oshirishi mumkin.

Ish beruvchining tashabbusi bilan ishdan bo'shatilgan yoki boshqa ishga o'tkazilgan xodimni ishga tiklash to'g'risidagi nizoni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichida sudya bu to'g'risida buyruq bergan mansabdor shaxsni javobgar tomonidan turib ishtirok etish uchun uchinchi shaxs sifatida jalb etish masalasini hal qiladi. Shu o'rinda ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida mansabdor shaxsni xodimni ishdan bo'shatganlik yoki boshqa ishga o'tkazganlik sabablarini aniqlash maqsadida so'roqlashi lozim.

FPKning 160-moddasiga ko'ra, sudya mehnat nizolari yuzasidan sud majlisida davlat boshqaruvi organlari, mehnat jamoasi va jamoat tashkilotlari vakillarining ishtirok etish masalasini hal qiladi. Shu o'rinda, mehnat intizomini buzish, ish beruvchining mol-mulkiga zarar yetkazish to'g'risidagi ishlar bo'yicha mehnat jamoasining vakilini jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlari vakillarining sud majlisiga jalb qilish sudyaning ajrimi asosida hal qilinadi. Mazkur ajrimda yuzaga kelgan nizoning mazmuni, ishtirok etish maqsadi, kelishmovchilikning sud majlisigacha mehnat jamoalarida hal qilinishi hamda vakil vakolatini rasmiylashtirish tartibi ko'rsatilishi mumkin.

Mehnatga doir huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda ko'rishga tayyorlashning muhim protsessual xususiyatlari mazkur turkumdagi ishni sudda ko'rishga tayyorlash uchun maxsus muddatlarning joriy etilganligidir. Xususan, mehnatga doir huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan talablar bo'yicha ishni sudda ko'rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab, o'n kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim (FPKning 131-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlarida ham mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishga tayyorlash uchun maxsus qisqartirilgan muddatlarning belgilan-

ganligini e'tiborga olib, da'vo ariza qabul qilingan bo'lsa, sud tomonidan ishni ko'rishga tayyorlash qonunda belgilangan muddatlar doirasida hal qilinishini lozimligi yuzasidan tushuntirishlar beriladi.

Sudlar tomonidan mehnatga oid huquqiy munosatlardan kelib chiqayotgan ishlar yuzasidan chiqarilayotgan hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishining eng muhim shartlaridan biri ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning to'liq va ushbu holatlarning isbotlanishidir. Mazkur shartlarni to'liq bajarmay turib, nizoli huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi mehnat huquqi normalarini to'g'ri qo'llash mumkin bo'lmaydi.

Aynan, fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash vazifalaridan biri ham sudlarning ishni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillar doirasini aniqlash va ularning o'z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta'minlashdan iboratdir. Mehnat ishlari bo'yicha taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan dalillarning daxldorligi masalasini hal qilar ekan, sudya ushbu shaxslarga aynan qaysi holat mazkur dalillar bilan isbotlanishi mumkinligini ko'rsatishlarini taklif qiladi.

Ish yuzasidan u yoki bu dalilning taqdim etilishi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish asoslariga ko'proq bog'liq bo'ladi. Binobarin, shtatlar qisqarganligi munosabati mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ishlarda ishni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillar sifatida shtatlar jadvali e'tirof etiladi.

Ma'naviy zararni undirish haqidagi talablar mavjud bo'lgan mehnat ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur bosqichda sud taraflarning talab va e'tirozlarini asoslaydigan faktlarni, shuningdek, nizoni to'g'ri hal etish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqa isbotlash predmetlarini aniqlashi lozim. Ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha isbotlash predmeti bo'lib quyidagilar tan olinadi:

1) javobgar tomonidan sodir etilgan harakat (harakatsizlik) bilan da'vogarga yetkazilgan ma'naviy zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, javobgarning xatti-harakatlari nimalardan iborat ekanligi va uning qachon sodir etilganligi;

2) javobgar tomonidan sodir etilgan ushbu harakat (harakatsizlik) natijasida da'vogarning qanday shaxsiy nomoddiy huquqlari buzilganligi;

3) da'vogarning jismoniy va ruhiy azoblanishi nimada aks etganligi;

4) zarar yetkazuvchining ayb darajasi;

5) jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari;

6) to'lovning miqdori¹.

Bizga ma'lumki, xodimning ishdan bo'shatilganligining qonuniyligi yoki uning sog'lig'iga, mol-mulkiga zarar yetkazilmaganligi, mehnat shartnomasini bekor qilish ta'rifi mehnat qonunlariga muvofiq kelishligi va umuman, xodimning mehnat huquqlari buzilmaganligini isbotlash burchi ish beruvchi-javobgar zimmasiga yuklatiladi.

Xuddi shuningdek, xodimga o'z xatti-harakatlari (harakatsizligi) oqibatida ma'naviy zarar yetkazilmaganligini isbotlash burchi ham ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi. Boshqacha qilib aytganda, javobgar zimmasida zarar yetkazishda o'z aybining mavjud emasligini isbotlash burchi yotadi.

Ayrim hollarda zarar yetkazuvchining aybi mavjud bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, qonun ma'naviy zarar uchun to'lovlar undirilishini nazarda tutadi. Masalan, oshiqcha xavf manbai xodim mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda vafot etsa yoki uning sog'lig'iga yetkazilgan taqdirda zarar yetkazuvchining aybidan qat'i nazar, ma'naviy zarar uchun to'lovlar undirilishi lozim bo'ladi.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichida ma'naviy zararni undirish haqidagi ishni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillar doirasini aniqlash va ular o'z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, isbotlash burchining taqsimlanishining ish uchun muhim bo'lgan dalillarni sudga taqdim etish majburiyati bilan o'zaro bog'liqdir. FPKning 57-moddasi 3-qismiga ko'ra, dalillar taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi.

Agar qo'shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirsa, sud ularning iltimosnomasiga ko'ra, dalillar to'plashda ularga yordam ko'rsatadi. Xususan, boshqa sudlarga sud topshiriqlarini jo'natadi, zarur hollarda dalillarni ta'minlash tartibida joyga borib ko'zdan kechirish

¹ М.А. Степанов. Предмет доказывания по гражданским делам о компенсации морального вреда. Журнал «Закон и право», 2000, № 12, стр. 35.; А.М. Эрделевский. Компенсация морального вреда в России и за рубежом. М., 1997, стр. 177.

o'tkazadi, guvohlar so'roq qilinadi, yozma va ashyoviy dalillar talab qilib olinadi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, har bir taraf o'zining talabi va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashi shart (FPKning 57-moddasi). Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlar yuzasidan isbotlash burchining taqsimlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Xususan, ishga tiklash to'g'risidagi nizoli ishlar bo'yicha isbotlash burchi asosan ish beruvchiga yuklatiladi. Chunki ish bo'yicha asosiy dalillar ish beruvchida mavjud bo'ladi.

Ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonida (MKning 100-moddasi) mehnat qonunlarini qo'llash tashabbusi ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham sudga taqdim etilishi lozim bo'lgan quyidagi dalillar: dalolatnomalar, xodimlarning tushuntirish xatlari, tabelalar, ish jadvali va ish beruvchida mavjud bo'ladi.

Mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rish muddatlarida o'ziga xos protsessual xususiyatlar mavjudligini alohida qayd etish lozim. Jumladan, FPKning 131-moddasiga muvofiq, mehnat ishlari birinchi instansiya sudi tomonidan sudda ko'rishga tayyorlab bo'lingan kundan e'tiboran, o'n kun ichida, basharti, taraflar bir tuman yoki shaharda joylashgan bo'lsalar, yigirma kundan kechiktirmay ko'rilishi lozim. Mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rish muddatining bir oy qilib belgilanishiga qonun yo'l qo'ymaydi.

23.5. Mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarori

Qonunchilikda ham har bir ish bo'yicha sud hal qiluv qarorlari qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozimligi qayd etiladi (FPKning 18-moddasi).

Mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudlar tomonidan qabul qilinadigan hal qiluv qarorlari to'liq ravishda FPKning 203—207-moddalari talablariga javob berishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Sud hal qiluv qarori haqida»gi qarorida hal qiluv qarorlarini qabul qilishda sudyalarda ishlarni qonun asosida ishning holatiga muvofiq, sudyalarga chetdan ta'sir ko'rsatmaydigan sharoitda hal qilishlari lozimligi, FPKning 7-moddasidagi talablarga

qat'iy rioya etishga majbur ekanliklari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan¹.

Sud hal qiluv qarorlari kirish, bayon qilish, asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Mehnatga oid ishlar bo'yicha chiqariladigan sud hal qiluv qarorlarining kirish qismida hal qiluv qarori chiqarilgan vaqt va joy, hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, prokuror, agar ish ochiq yoki yopiq sud majlisida ko'riladigan bo'lsa, bu haqdagi ma'lumot, ko'rilayotgan ishning nomi, qanday korxonada, tashkilot va muassasa tomonidan da'vo berilganligi (to'liq nomi bilan), agar da'vo prokuror yoki bo'ysunuv tartibidan yuqori turuvchi ish beruvchi tomonidan berilgan bo'lsa, qaysi yuridik shaxs manfaati ko'zlanganligi, da'vo arizada ko'rsatilgan yoki sud tomonidan jalb etilgan barcha javobgarlar (familiya, ismi va sharifi ko'rsatilgan holda), da'vosining summasi ko'rsatilishi kerak.

Adabiyotlarda sud hal qiluv qarorining bayon qilish qismida, agar nizo mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiyada ko'rilsa, nizing bu organlarda ko'rilishi natijalari ko'rsatilishi, agar korxonada bunday organlar bo'lmasa, ularning yo'qligi qarorda aks ettirilishi ta'kidlanadi². Agar ish FPKning 259-moddasiga binoan, mansabdor shaxs jalb qilinib, ko'rilgan bo'lsa, bu to'g'rida qarorning barcha qismlarida yozilishi kerak. Jumladan, qarorning bayon qilish qismida uning bergan tushuntirishlari qisqacha ifodalanishi, asoslash qismida sudning qanday xulosalarga kelganligi, qaror qismida esa uning korxonaga to'lashi lozim bo'lgan zarar haqining miqdori aniq belgilab ko'rsatilishi kerak.

Mehnat ishlari bo'yicha yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi sud hal qiluv qarorining bayon qilish qismida ish beruvchining talablari, da'voni nimalar bilan asoslayotganligi, da'vogarning fikricha, javobgar yoki bir necha javobgarlardan har biri qancha miqdorda zararni to'lashligi; da'vogar tomonidan yetkazilgan moddiy zararni undirish to'g'risidagi Mehnat kodeksining 270-moddasida ko'rsatilgan sudga murojaat qilish muddati o'tkazib yuborilgan bo'lsa, qanday asoslarga ko'ra, uning tiklanishini so'rayotganligi ko'rsatiladi.

¹ Qonun nomi bilan. O'zbekiston Respubikasi Oliy sudi axborotnomasi, 1998, № 1—2.

² *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001, 304-bet.

Xodimlar tomonidan ish beruvchiga nisbatan yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismiga alohida e'tibor berish talab etiladi. Xususan, ushbu qismda ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, xodimlarning moddiy javobgarligini keltirib chiqaruvchi asos va shart-sharoitlar, ish beruvchiga yetkazilgan haqiqiy zarar miqdori, zarar va uning miqdori nimalar bilan asoslanayotganligi, javobgarning huquqqa xilof xatti-harakatlari (harakatsizligi) nima bilan ifodalanishi, uning haqiqiy zarar bilan miqdor o'rtasidagi sababiy bog'lanish, ishning holatlari to'g'risidagi sud xulosalariga asos bo'lgan dalillar, sud u yoki bu dalilni rad qilishda asoslangan xulosalar, javobgar yoki javobgarlar uchun moddiy javobgarlikning qaysi turi (to'liq yoki qisman) qo'llanilishi, mazkur javobgarlik qaysi qonunlarda o'z aksini topganligi, sud amal qilgan moddiy va protsessual huquq normalari ko'rsatilmo'g'i lozim.

Sud albatta, xodimdan (yoki xodimlarning har biridan) undirilishi lozim bo'lgan zarar miqdorining hisobini aniqlashi kerak bo'ladi. *Lekin mazkur turkumdagi nizolarni hal qilish jarayonida sudlar tomonidan moddiy javobgarlik turi va undirilishi lozim bo'lgan zararning miqdorini aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda.*

Agar javobgarlar yoki javobgar yetkazilgan moddiy zararni undirish to'g'risidagi ish beruvchining talablarini tan olsa, ushbu holat sud tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorida ko'rsatilishi mumkin.

Ish beruvchi tomonidan Mehnat kodeksining 270-moddasida ko'rsatilgan sudga murojaat qilish muddati sud tomonidan tiklangan bo'lsa, uning uzrli sabablarga ko'ra, o'tkazib yuborilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

Agar sud xodimning zarar yetkazishdagi aybini va uning moddiy ahvolini hisobga olib, zarar miqdorini kamaytirishni lozim topsa, hal qiluv qarorida zarar miqdorini kamaytirishning sabablarini asoslab berishi lozim.

Umumiy qoida bo'yicha, bir necha javobgar tomonidan zarar yetkazilganida sud ularning yetkazilgan zarardagi ayb darajasini, moddiy javobgarlik turi va doirasidan kelib chiqib, o'z hal qiluv qarorida ular majburiyatlarini aniqlaydi. Lekin, agar sudning hukmi bilan bir necha xodimlarning yoki xodim va korxonalar bilan mehnat munosabatlarida bo'lmagan boshqa shaxslar tomonidan yetkazilganligi ko'rsatib qo'yilgan bo'lsa, hal qiluv qarorida mazkur shaxslarning birgalikdagi javobgarligi ko'rsatilishi kerak.

Agar hukm e'lon qilinib, unda fuqarolik da'vosi ko'rilmasdan qolgan bo'lsa yoki hukmning fuqarolik da'vosi bekor qilinib, ishning bu qismi fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida yangidan ko'rish uchun yuborilgan bo'lsa, sud fuqarolik ishlarini yuritish tartibida mazkur shaxslardan yetkazilgan zararni birgalikda undirib olish huquqiga ega.

Shu bilan birga sud sudlanuvchilar zimmasiga, birgalikdagi xatti-harakatlari oqibatida yetkazilgan zarar uchun umumiy emas, balki alohida-alohida moddiy javobgarlik yuklashi ham mumkin. Zarar undirishning mazkur tartibi da'vogarning manfaatlariga to'g'ri kelsa va zarar undirishni ta'minlashga yordam bersagina, yo'l qo'yiladi.

Ushbu turkumdagi ishlar yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarorining xulosa qismida sudning arz qilingan talablarni qanoatlantirishi yoxud butunlay yoki qisman rad etish to'g'risidagi xulosasi, da'vogarning foydasiga javobgardan (yoki har bir javobgar) undiriladigan zararning aniq summasi, sud xarajatlarining miqdori, uning taqsimlanishi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko'rsatilishi lozim.

23.6. Mehnatga oid nizoli ishlar bo'yicha sud hal qiluv qarorini ijro etish xususiyatlari

Qonunchilik mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlar bo'yicha sud hal qiluv qarorlarini ijro qilishning qator xususiyatlarini nazarda tutadi. Jumladan, xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi hamda mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi, shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarorlari darhol ijro etiladi (FPKning 219, MKning 273-moddasi).

Mazkur holatda hal qiluv qarorining darhol ijro etilishi sudning yo'l qo'yish huquqiga bog'liq bo'lmay, qonunga ko'ra, hal qiluv qarorining chiqarilishi bilan darhol ijroga qaratiladi. Boshqa hollarda esa sud, agar alohida holatlar natijasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko'p zarar keltirishi mumkin yoki ijroning bajarilishi mumkin bo'lmay qoladi deb hisoblasa, o'z hal qiluv qarorining xulosa qismida yoki alohida ajrim chiqarish orqali hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yishga haqli bo'ladi (FPKning 220-moddasi).

Misol uchun, korxonaning tugatilishi munosabati bilan natura shaklida xodimga otgul (ortiqcha ishlagan vaqti uchun olingan dam olish kuni) berish to'g'risidagi sud hal qiluv qarorining ijrosini bajarish mumkin bo'lmay qoladi. Bu holda sud hal qiluv qarorining darhol ijro etilishini ta'minlashga haqlidir.

Mehnatga oid nizoli ishlar bo'yicha chiqarilgan sud hal qiluv qarorlari ijro qilish predmetiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

a) javobgardan ma'lum pul summasini undirish to'g'risidagi sud hal qiluv qarorlari;

b) javobgar tomonidan ma'lum bir xatti-harakatlarni (masalan, mulkni natura shaklida berish, ishga tiklash to'g'risidagi va boshq.) amalga oshirish to'g'risidagi sud hal qiluv qarorlari.

Qaytarma ijroning cheklanishi to'g'risidagi qoida mehnat nizolari komissiyasining qaroriga asosan, xodimlarga to'langan pul summasini qayta undirish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin.

Mehnat qonunchiligida mehnat nizolari yuzasidan mehnat nizolari komissiyasi chiqargan qaror, shuningdek, sud chiqargan qaror asosida to'langan summalarni, hasharti, qaror xodimning bergan yolg'on ma'lumotlariga yoki taqdim etgan soxta hujjatlariga asosan qabul qilingan bo'lib, pirovardida u nazorat tartibida bekor qilingan hollardagina, xodimdan qayta undirishga yo'l qo'yilishi o'z ifodasini topgan (MKning 278-moddasi).



NAZORAT SAVOLLARI

1. Mehnatga oid nizoli ishlarni ko'rib hal qiluvchi qanday organlarni bilasiz?
2. Qanday mehnat nizolari bevosita sudda ko'rib, hal etilishi lozim?
3. Mehnatga oid nizoli ishlarining taalluqliligi va sudlovligi haqidagi qoidalarga rioya qilmaslikning oqibatlari qanday?
4. Mehnatga oid nizoli ishlarda taraflar kimlar, ularning protsessual huquq va majburiyatlari nimadan iborat?
5. Mehnat ishlari bo'yicha protsessual huquqiy vorislikka yo'l qo'yishning qanday xususiyatlari mavjud?
6. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslar sifatida kimlar jalb etiladi?
7. Mehnat nizolari yuzasidan sudga murojaat qilish muddatlarini ko'rsating.
8. Mehnat nizoli ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash bosqichida sudya tomonidan qanday protsessual harakatlar amalga oshirilishi lozim?
9. Mehnat ishlari bo'yicha chiqarilgan sud hal qiluv qarorlariga qanday talablar qo'yiladi?
10. Mehnatga oid ishlar yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarorlarini ijro etishning qanday xususiyatlari mavjud?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
4. *M.M. Mamasiddiqov*. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. (Monografiya). T., TDYI, 2005.
5. *M.M. Mamasiddiqov*. Mehnatga oid yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi ishlarni sudda undirishning nazariy va amaliy muammolari. T., TDYI, 2008.

**24-bob. DAVLAT ORGANLARI VA BOSHQA
ORGANLAR, SHUNINGDEK, MANSABDOR
SHAXSLARNING XATTI-HARAKATLARI
(QARORLARI) USTIDAN BERILGAN SHIKOYAT
VA ARIZALAR BO‘YICHA ISHLARNI YURITISH**

**24.1. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning
xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan
shikoyatlarni ko‘rib hal etishning umumiy tavsifi**

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, fuqarolar huquqlarini sudda himoya qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Avvalo, Konstitutsiyamiz fuqarolarning huquq va erkinliklarini sudda himoya qilishning huquqiy asosi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga ko‘ra, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlandi¹. Shuningdek, fuqarolarning sud himoyasida bo‘lish huquqi, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida»gi Xalqaro paktning 14-moddasida va «Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi 1-qismida ham mustahkamlangan².

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasida ham har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarining, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O‘zbekiston», 2011.

² O‘zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar davri. Mualliflar A.A. Polvonzoda, G.A. Abdumajidov va boshq. T., «Adolat», 2002, 38-bet.

Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas. Mazkur tamoyilning bir qator qonun hujjatlarida mustahkamlanishi davlatimiz tomonidan fuqarolarning buzilgan huquq yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishning eng samarali tizimi joriy etilganidan dalolat beradi.

Umumiy qoida bo'yicha, idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari)ga beriladigan shikoyatlar asosan ma'muriy tartibda ish yuritish qoidasiga amal qilgan holda ko'riladi¹.

Biroq, fuqarolarning idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlar bo'yicha sudga murojaat qilishning Konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlanishi, mazkur ishlarni ma'muriy tartibda hal etishga nisbatan samarali va qulay hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 3-kichik bo'limi «Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish»ga bag'ishlangan bo'lib, unga asosan Fuqarolik protsessual kodeksining 264-moddasiga ko'ra, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar;

2) notariusning, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organlarining harakatlarni bajarishni rad etganligi yoxud ularni noto'g'ri bajarganligi ustidan berilgan shikoyatlar;

3) prokurorning huquqiy aktini g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasi bo'yicha ishlar².

Demak, yuqorida ko'rsatilgan ishlar bo'yicha fuqarolar sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritishda taraflar, ya'ni shikoyatchi va mansabdor shaxs bo'ladi. Mazkur ishlarda davlat boji O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yildagi «Davlat boji

¹ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008, 17–18-boblar.

² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.

stavkalari haqida»gi 533-qarorida ko'rsatilishicha, shikoyat tartibida ko'riladigan ishlarda sudning hal qiluv qarori chiqarilgandan so'ng aybdor tomondan undiriladi¹. Demak, ushbu ishlarda fuqaro sudga murojaat qilganda dastlab davlat boji to'lashdan ozod etiladi. Ushbu qoidaning mustahkamlanishi fuqarolarga sudga shikoyat qilishda davlatimiz tomonidan berilgan qulaylik va imtiyozlardan biridir.

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar fuqaroning xohishiga ko'ra, o'zi yashab turgan joydagi sudga yoki davlat organi va boshqa organ yoxud mansabdor shaxsning ish joyi joylashgan hududdagi sudga beriladi.

24.2. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ish yuritish

Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi². Shuningdek, mazkur huquqiy norma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida, «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunida o'z aksini topgan.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlari ustidan shikoyat berish davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritishning bir turi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 19-maydagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko'rish amaliyoti to'g'risida»gi qarorida ko'rsatilishicha, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq, davlat organlari, korxonalar, muassasalar,

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat boji stavkalari haqida»gi qarori.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.

tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarning quyidagi:

- fuqaroning huquqlari va erkinliklari buzilishiga sababchi bo'lgan;

- fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga monelik tug'dirgan;

- fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sababchi bo'lgan kollegial yoki yakka tartibdagi xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Shuni hisobga olgan holda, ham yakka tartibdagi, ham umumiy xususiyatga ega bo'lgan har qanday qarorlar ustidan yuqorida ko'rsatilgan qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilish mumkin.

Jumladan, tegishli organlarning pasportdagi millat haqidagi yozuvni o'zgartirishni, chet elga chiqishga ruxsat berishni rad etganligi, davlat organlarining va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'muriy hudud tashqarisiga tovarlar va mahsulotlarni olib chiqishni cheklash to'g'risidagi, qo'shimcha boj va yig'imlar belgilash to'g'risidagi qarorlari, ma'muriy jazoga tortish vakolatiga ega bo'lmagan shaxsning jarima solish va boshqa ma'muriy jazolarga tortish haqidagi qarori va hokazolar sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Shuningdek, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, uy-joy qurilish kooperativlari, hissadorlik jamiyatlari, kasaba uyushmasi tashkilotlari va shu kabilarning umumiy majlislari hamda ularning boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari ham sudga shikoyat qilinishi mumkin¹.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 269-moddasiga muvofiq, fuqaro o'zining huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan bevosita sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori organga, mansabdor shaxsga murojaat qilishga haqli.

Bo'ysunuv tartibidagi yuqori organ va mansabdor shaxslar shikoyatni bir oy muddat ichida ko'rib chiqishi shart. Agar fuqaroning shikoyatiga rad javobi berilsa yoki u shikoyat bergan kundan e'tiboran, bir oy ichida javob olmasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilishga haqli.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1991—2006. II jild. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2007, 55—61-bet.

Shikoyat huquqlari va erkinliklari buzilgan fuqaro yoki uning vakili, shuningdek, fuqaroning iltimosiga binoan tegishli ravishda vakolat berilgan jamoat birlashmasining, mehnat jamoasining vakili tomonidan berilishi mumkin.

Harbiy xizmatchi o'zining huquqlari va erkinliklarini buzayotgan harbiy boshqaruv organlari va harbiy mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda harbiy sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli¹.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 270-moddasi va O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga ko'ra, sudga shikoyat bilan murojaat qilish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:

- fuqaro o'z huquqlari va erkinliklari buzilganligidan xabar topgan kundan boshlab uch oy;

- fuqaro yuqori turuvchi organ, mansabdor shaxsning shikoyatni qanoatlantirishni rad etish haqidagi yozma bildirishini olgan kundan boshlab bir oy;

- agar fuqaro o'z shikoyatiga yozma javob olmagan bo'lsa, shikoyat berganidan keyin bir oy muddat o'tgan kundan boshlab bir oy.

Shikoyat berishning uzrli sabablarga ko'ra, o'tkazib yuborilgan muddati sud tomonidan tiklanishi mumkin².

Demak, yuqorida qonunda ko'rsatilgan muddatda fuqaro o'zining buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash maqsadida sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga murojaat qilishga haqli.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar, qarorlar ustidan sudga beriladigan shikoyatlar ham Fuqarolik protsessual kodeksining 149, 150-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat boji stavkalari haqida»gi qarorida belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.

² O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995, № 9, 183-modda.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar, qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlar sud tomonidan qabul qilinganidan so'ng, Fuqarolik protsessual kodeksining 268-moddasiga ko'ra, sudya quyidagi harakatlarni bajaradi:

1) tegishli organlar va mansabdor shaxslardan zarur hujjatlarni talab qilib oladi;

2) fuqaroning iltimosi yoki o'zining tashabbusi bilan shikoyat qilingan xatti-harakat (qaror)ning ijrosini to'xtatish masalasini hal etadi.

Ushbu protsessual harakatlarni bajarilishi ishning haqiqiy holatni to'liq aniqlanishiga hamda mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilgan qarorning ijro etilishi natijasida kelib chiqadigan turli xil oqibatlar va sabablarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mazkur turdagi ishlar bo'yicha shikoyat fuqarolik protsessual qonunchiligida belgilangan umumiy asoslarga ko'ra ko'rib chiqiladi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 19-iyuldagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko'rish amaliyoti to'g'risida»gi qarorida belgilanishicha, shikoyat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining umumiy qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunida va Fuqarolik protsessual kodeksining 27-bobida belgilangan istisno va qo'shimchalarni hisobga olgan holda sud tomonidan u berilgan paytdan boshlab, o'n kunlik muddat ichida ko'rib chiqilishi lozim¹. Demak, ushbu ishlar sudlar tomonidan qisqartirilgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Mazkur ishlar bo'yicha sud shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hal qiluv qarori chiqaradi. Sud shikoyatning asosli ekanligini aniqlasa, shikoyatga sabab bo'lgan xatti-harakat (qaror)ni g'ayriqonuniy deb topadi, fuqaroning talabini qanoatlantirish vazifasini yuklaydi, unga nisbatan qo'llangan javobgarlik choralari bekor qiladi yoki uning buzilgan huquqlari va erkinliklarini boshqa yo'llar bilan tiklaydi. Agar sud shikoyatga sabab bo'lgan xatti-harakatni (qarorni) qonuniy, fuqaroning huquqlari va erkinliklari buzilmagan deb topsa, u shikoyatni qanoatlantirishni rad etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1991—2006. II jild. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2007.

Sudning hal qiluv qarori tegishli organ yoki mansabdor shaxsga, shuningdek, fuqaroga hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin o'n kundan kechiktirmay yuboriladi.

Hal qiluv qarorining ijrosi haqida hal qiluv qarori olingan kundan e'tiboran, bir oydan kechiktirmay sud va fuqaroga ma'lum qilinishi lozim. Hal qiluv qarori ijro etilmagan taqdirda sud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni qo'llaydi (FPKning 271-moddasi).

24.3. Saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rish muddati va tartibi

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi huquqiy demokratik davlatning asosiy ajralmas belgilaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 32-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi», deb ko'rsatilishining o'zi ham fuqarolarning siyosiy huquqlaridan foydalanishining huquqiy jihatdan kafolati bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, bu borada fuqarolarning siyosiy huquqlaridan foydalanishdagi faolligini kuchaytirish va o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish uchun barcha huquqiy shart-sharoit yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosiga uning saylov huquqlari sud yo'li bilan himoya etilishi, saylov komissiyalarining, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatlari kafolatlanadi. Demak, fuqarolar o'zining buzilgan saylov huquqlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlar ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar turkumiga kirsa-da, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 272-moddasiga ko'ra, saylov

komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Fuqarolar saylovchilar ro'yxatidagi noto'g'riliklar ustidan (masalan, familiyasi, ismi va otasining ismi noto'g'ri yozilganligi, ro'yxatga kiritilmaslik, ro'yxatdan chiqarilganlik va h.k.) ham sudga shikoyat qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni 10-moddasiga ko'ra, «Saylovchi saylovchilar ro'yxatidagi xato va noaniqlar to'g'risida saylov komissiyasiga arz qilish huquqiga ega. Uchastka saylov komissiyasi yigirma to'rt soat ichida bunday arizani ko'rib chiqishi hamda xatoni tuzatishi yoki arizachiga uning asosli tarzda rad etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani berishi shart».

Ushbu qoidadan kelib chiqib aytish mumkinki, fuqaro saylovchilar ro'yxatidagi xato va noaniqliklar ustidan saylov komissiyasiga shikoyat qilishi yoki arizani rad etganlik ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin. Mazkur shikoyat saylov komissiyasi joylashgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga beriladi. Shikoyatga albatta, uning arizasi rad qilinganligi to'g'risidagi uchastka saylov komissiyasining asoslantirilgan ma'lumoti ilova qilinadi.

Mazkur ishlar bo'yicha shikoyatlar sudlovlilikning umumiy qoidalaridan kelib chiqib, agar shikoyat uchastka saylov komissiyasi ustidan berilsa, uchastka saylov komissiyasi joylashgan joydagi sudga, okrug saylov komissiyasi ustidan shikoyat, okrug saylov komissiyasi joylashgan joydagi sudga, markaziy saylov komissiyasi ustidan shikoyat O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, ushbu toifadagi ishlar sud tomonidan eng qisqa muddatda, ya'ni saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat sud tomonidan shikoyat berilgan kundan e'tiboran, uch kundan kechiktirmay ko'rib chiqilishi, agar saylovga olti kundan kam vaqt qolgan bo'lsa, darhol ko'rib chiqilishi lozim (FPKning 272-moddasi).

Ushbu ishlar sud tomonidan arizachi va tegishli saylov komissiyasining vakili, prokuror, agar shikoyat arizachiga emas, balki boshqa fuqaroga daxldor bo'lsa, o'sha shaxsni ham chaqirgan holda ko'rib chiqiladi. Bu shaxslarning kelmasligi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Mazkur ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarori chiqarilishi bilan darhol tegishli saylov komissiyasiga va arizachiga topshiriladi.

Shuningdek, ushbu ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi «Fuqarolik ishlarini apellatsiya tartibida ko'rish amaliyoti haqida»gi qarorida belgilanishicha, saylovlar va referendumlarda ishtirok etayotgan fuqarolarning saylov huquqi buzilganligini aniqlagan sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berilmaydi (protest keltirilmaydi). Ushbu qoidaning belgilanishi, fuqarolarning buzilgan siyosiy huquqlarini sud tomonidan qisqa muddatda tiklanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolarning siyosiy huquqlarini sud orqali himoya qilinishi ularni davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda samarali ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

24.4. Notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan shikoyat berish tartibi

O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, notarial harakatlarni hamda ular bilan bevosita bog'liq huquqiy va texnik tUSDagi harakatlarni notariuslar tomonidan amalga oshirish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga da'vat etilgan huquqiy institutdir. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat notarial idoralarning notariuslari tomonidan amalga oshiriladi.

Notariuslar tomonidan notarial harakatlar noto'g'ri bajarilganida, kechiktirilganida yoki notarial harakatni amalga oshirish rad etilganida manfaatdor shaxs bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuni va Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Mazkur turdagi ishlar bo'yicha shikoyat fuqaroning xohishiga ko'ra, bevosita sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, ya'ni adliya boshqarmalariga murojaat qilishga haqli.

Ushbu turdagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasi va Fuqarolik protsessual kodeksining 273-moddasiga muvofiq, amalga oshirilgan notarial harakatni, notarial harakatni kechiktirish yoki notarial harakatni amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi qarorni noto'g'ri deb hisoblagan manfaatdor shaxs bu xususda notarial idora turgan joydagi sudga shikoyat qilishga haqlidir.

Mansabdor shaxslar tomonidan vasiyatnomalar va ishonch qog'ozlari noto'g'ri tasdiqlanganligi yoki ularni tasdiqlash rad

etilganligi haqidagi shikoyatlar tegishli kasalxona, boshqa statsionar davolash-profilaktika muassasasi, sanatoriy, qariyalar va nogironlar uyi, ekspeditsiya, gospital, harbiy davolash muassasasi, harbiy qism, qo'shilma, harbiy o'quv yurti, jazoni ijro etish joyi o'rnatilgan hududdagi sudga beriladi.

Notarial harakat noto'g'ri bajarilganligi yoki uni bajarish rad etilganligi haqidagi shikoyatlar notarial harakat noto'g'ri bajarilganligi yoki bunday harakatni bajarish rad etilganligi arizachiga ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran, yigirma kunlik muddatda beriladi.

Ushbu turdagi fuqarolik ishlari bo'yicha shikoyat ham fuqarolik protsessual qonunchiligini umumiy talablaridan kelib chiqib taqdim etiladi. Shikoyatda bajarilgan notarial harakatning yoki bunday harakatni bajarishni rad etishning noto'g'riligi nimalardan iborat ekanligi ko'rsatilishi lozim. Shikoyat berish muddati o'tkazib yuborilganda uni tiklash haqidagi iltimos sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi.

Notarial harakat noto'g'ri bajarilganligi yoki uni bajarish rad etilganligi haqidagi shikoyatlar fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy asoslaridan kelib chiqib ko'rib hal etiladi.

Shikoyat qanoatlantirilgan taqdirda, sud bajarilgan notarial harakatni bekor qilish haqida hal qiluv qarori chiqaradi yoki notarius yoxud notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxs zimmasiga zarur harakatlarni bajarish majburiyatini yuklaydi (FPKning 275-moddasi).

24.5. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organining muayyan harakatlarni bajarishni rad etish yoki noto'g'ri bajarganligi ustidan sudga shikoyat qilish va ishni ko'rish tartibi

Fuqarolik holati aktlarini qayd etish organining muayyan harakatlarni bajarishni rad etish yoki noto'g'ri bajarganligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi deganda, har bir shaxsning o'zining huquqi va erkinliklarini buzgan davlat organlari, mansabdor shaxslar ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxsga yoxud bevosita sudga qonunda belgilangan tartibda va muddatda shaxsan o'zi yoki vakili orqali buzilgan huquq va manfaatini tiklab olishini talab qilish huquqiga aytiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 201-moddasi va Fuqarolik kodeksining 38-moddasida ko'rsatilishicha, fuqarolik

holati dalolatnomalari yozish organlari fuqarolar hayotidagi tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish kabi voqea hamda faktlarni belgilab beradi. Ushbu qonunlarda ko'rsatilishicha, manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lsa yoki fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi yozuvni tuzatish yoki o'zgartirishni rad etsa, fuqarolik holati hujjatlaridagi yozuvlarda jiddiy tafovutlar bo'lsa, nizo sud tomonidan hal qilinadi¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, agar fuqarolar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksida yuqorida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirishda manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lsa yoki fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi yozuvni tuzatish yoki o'zgartirishni rad etsa, nizo sud tomonidan hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1992-yil 13-noyabrdagi «Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida»gi qarorida belgilanishicha, sudga berilayotgan arizada fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlariga va qanday o'zgartirish yoki tuzatish yoxud qo'shimchalar kiritish lozimligi, yozuvlardagi xatolar qanday dalillar bilan tasdiqlanishi ko'rsatilishi lozim. Arizaga tegishli guvohnoma nusxasi, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining hujjatlardagi xatolarni tuzatish yoki ularga o'zgartirish yoxud qo'shimchalar kiritishni rad etish haqidagi xulosasi va shu masalaga oid boshqa hujjatlar ilova etilishi kerakligi belgilangan².

Demak, mazkur turdagi ishlar bo'yicha shikoyatga FHDYning dalolatnoma yozuviga o'zgartirish, tuzatish kiritish yoki qo'shimchalar kiritish haqidagi arizasini rad etish xulosasi ilova qilinishi lozim.

Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlariga tuzatish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilab qo'yilgan. Agar dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lib, manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lmaganda

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., 2008; O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. T., 2007.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1991—2006. I jild. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2007, 20—23-bet.

ushbu dalolatnoma yozuvi saqlanayotgan joydagi FHDY organlari tomonidan amalga oshiriladi¹.

Qonun dalolatnoma yozuviga o'zgartirishlar kiritish uchun *birinchidan*, yetarli asoslar bo'lishini; *ikkinchidan*, manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lmasligini shart qilib qo'yadi². Nizo bo'lganda dalolatnoma yozuviga o'zgartirishlar kiritish masalasi sud tartibida hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo'llanilishi haqida»³gi qarorida fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilash to'g'risida ariza, agar dastlabki yozuvlar saqlangan yoki tiklangan bo'lsa yoki ularga farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiyasi, ismi, otasining ismini o'zgartirish, voyaga yetmagan bolaning familiyasini o'zgartirish munosabati bilan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, FKning 38-moddasi, Oila kodeksining 228-moddasi, FPKning 274-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari»⁴ga binoan, sudlar tomonidan ko'riladi.

Mazkur turdagi ishlar bo'yicha ariza sudlovlik qoidalariga rioya qilingan holda beriladi. Agar arizani sudga qabul qilishda yoki ish yuritishda huquq to'g'risida nizo aniqlansa, sudya arizani qabul qilishni rad etadi yoki ko'rmasdan qoldiradi va manfaatdor shaxslarga umumiy asoslarda da'vo qo'zg'atish mumkinligini tushuntiradi. Bunday hollarda xatoliklarni tuzatish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasi sud tomonidan da'vo arizasi bilan birga hal etiladi.

Ushbu turdagi ishlarni sudda ko'rishga tayyorlashda sudya Fuqarolik protsessual kodeksining 158—160-moddalarida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshiradi va umumiy asoslarda

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., 2008, 228-modda.

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. T., «Adolat», 2000, 408-bet.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1996—2001-yillar. I jild. T., «O'qituvchi», 2007, 20-bet.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari». T., «Adolat», 1997, 42-bet.

ko'rib chiqiladi. Sudda, albatta, FHDY organining vakili ishtirok etishi talab etiladi.

Fuqarolik holati aktlarini qayd etish daftaridagi noto'g'riliklar ko'rsatilgan sudning hal qiluv qarori fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlarining bunday yozuvlarga tuzatish kiritishi uchun asos bo'ladi (FPKning 275-moddasi).

24.6. Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi bo'yicha ishlar

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni 2-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir¹.

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan hiri sudlarda fuqarolik ishlarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish hisoblanadi (4-modda).

Demak, prokuror sudlarda fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilgan hujjatlarning qonuniyligini tekshirish maqsadida ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 276-moddasiga binoan, prokuror qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqida ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida sudga ariza berishi uchun O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasiga ko'ra, quyidagi asoslar mavjud bo'lishi kerak:

1) prokurorning qonunga zid bo'lgan hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga protest keltirishi;

¹ O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 168-modda.

2) protestni shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilishi, shuningdek, protest qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmasligi.

Demak, yuqoridagi asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, prokuror ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Agar prokuror hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida bevosita sudga ariza bersa, sud arizani qabul qilmaydi. Chunki, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi talablaridan kelib chiqib aytdigan bo'lsak, prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasi bo'yicha ishlar to'g'ridan to'g'ri sudga taalluqli emas. Shuning uchun ushbu ishlarda shartli taalluqlilik qoidalari qo'llaniladi.

Ya'ni, dastlab prokuror huquqiy hujjatni qabul qilgan organga protest keltiradi. Protest kelib tushgan vaqtdan boshlab, shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan o'n kunlik muddatdan kechiktirmay ko'rib chiqilishi shart. Ushbu muddat zarur hollarda prokuror tomonidan qisqartirilishi mumkin. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Sudga ariza protest rad etilganligi to'g'risidagi xabar olingan paytdan boshlab yoki protestni ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tganidan keyin bir oylik muddat ichida berilishi mumkin. Prokuror tomonidan sudga ariza berilishi protest keltirilgan hujjatning amal qilishini ariza sudda ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib qo'yadi.

Prokuror sudga ariza berganlik uchun davlat boji to'lamaydi. Ushbu ariza fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, sud tomonidan yigirma kun ichida prokuror ishtirokida va protestni rad etish to'g'risida qaror qabul qilgan yoxud protestni ko'rib chiqmagan organning rahbari yoki uning vakili ishtirokida ko'rib chiqadi.

Sud majlisiga organ rahbari yoki uning vakili uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi prokurorning arizasini ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi, biroq, sud bu shaxsning kelishini shart deb topishi mumkin.

Sud prokurorning arizasi asosli ekanligini aniqlasa, arizani qanoatlantirish haqida hal qiluv qarori chiqaradi va huquqiy hujjatni

g'ayriqonuniy deb topadi. Agar sud protest keltirilgan hujjat uni chiqargan organning vakolatlari doirasida qonunga muvofiq qabul qilingan deb topsa, u arizani qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarori chiqaradi. Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi bo'yicha sud chiqargan hal qiluv qarori protestni rad etish to'g'risida qaror qabul qilgan yoki protestni ko'rmagan organ rahbariga yuboriladi (FPKning 278-moddasi).



NAZORAT SAVOLLARI

1. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarning turlarini ayting.
2. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha davlat boji qancha miqdorda to'lanadi?
3. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar, qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish asoslari qanday?
4. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar, qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish muddatlarini tushuntiring.
5. Saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarni sudda ko'rish muddati va tartibini tushuntiring.
6. Notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan sudga shikoyat berish muddati, sudlovliligini ayting.
7. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organining muayyan harakatlarni bajarishni rad etish yoki noto'g'ri bajarganligi ustidan sudga beriladigan shikoyatni ko'rish tartibini tushuntiring.
8. Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqida sudga ariza berish asoslarini ayting.
9. Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi sudda qancha muddatda ko'riladi?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2007.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 168-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari». O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plami, 1999, № 4, 18-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDI) organlarida ish yuritish tartibi haqida Yo'riqnomasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006, № 17, 142-moddasi.
7. *M. Doniyorov*. Fuqarolarning huquq erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan berilgan ariza va shikoyatlarni sudga ko'rishning protsessual xususiyatlari. (Mas'ul muharrir prof. Sh.Sh. Shorahmetov). O'quv qo'llanma. T., «Ofset Print» MChJ, 2007.
8. *M.M. Mamasiddiqov, D.Y. Habibullayev*. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi (sxema va jadvallar). T., TDYI, 2006.
9. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). T., TDYI, 2010.
10. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. T., «Adolat», 2001.
11. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
12. *Sh. Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.

25-bob. ALOHIDA TARTIBDA KO'RILADIGAN ISHLAR

25.1. Alohida tartibda ko'riladigan ishlar tushunchasi va turlari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 2-moddasiga ko'ra, alohida tartibda ko'riladigan ishlar fuqarolik sud ishlarini yuritish turlaridan biri hisoblanadi. Alohida tartibda ish yuritish bu - fuqarolik sud ishlarini yuritishning bir turi sifatida huquq to'g'risida nizo bo'lmagan va manfaatdor shaxslarning arizasi bo'yicha ish yuritishdir. Alohida tartibda ko'riladigan ishlarda huquq to'g'risida nizoning yo'qligi va buning natijasida taraflarning mavjud bo'lmasligi bu turkumdagi sud ishlarini yuritishni mustaqil turi sifatida e'tirof etish uchun asos bo'ladi.

Alohida tartibda ko'riladigan ishlarning turlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 279-moddasida ko'rsatilgan. Unga ko'ra, sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'riladigan ishlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar;
- 2) fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar;
- 3) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar;
- 4) mol-mulk (ashyo)ni egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar;
- 5) taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar (chaqirib ish yuritish).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining alohida tartibda ish yuritish deb nomlangan kichik bo'limiga «G'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish» to'g'risida 33¹-bob kiritilgan. Bu esa, o'z navbatida, mazkur ishlar-ning ham alohida tartibda ko'riladigan ishlar hisoblanishidan dalolat beradi.

25.2. Alohida tartibda ish yuritishning boshqa fuqarolik ishlaridan farqi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 2-moddasiga ko'ra, fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari da'vo tartibidagi ishlarni, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarni, buyruq tartibidagi ishlarni hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

Sud ishlarini yuritishning mustaqil turi sifatida alohida tartibda ko'riladigan ishlar o'zining xususiyatlari bilan da'voli tartibda, buyruq tartibida hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlardan tubdan farq qiladi.

Jumladan, alohida tartibda ko'riladigan ishlarda nizo bo'lmasligi, taraflar bo'lmasligi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 31-moddasiga ko'ra, faqat sudga taalluqli bo'lishi, sudlovliligi, hal qiluv qarorini bekor qilish tartibi bilan ham boshqa fuqarolik sud ishlarini yuritish turlaridan farq qiladi.

25.3. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlar

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilashning sud tartibi fuqarolarning Konstitutsiyada mustahkamlangan shaxsiy va mulkiy huquqlarining mehnatga, nikoh va oilaga oid hamda boshqa huquqlarning himoya qilinishini, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarining mulkka bo'lgan huquqlarini qo'riqlashga ham xizmat qiladi¹.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlarini chiqarish fuqarolar hamda tashkilotlarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni sud tartibida belgilashning o'zi bir necha turlarga bo'linadi. Fuqarolik protsessual qonunchiligida fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy, mulkiy

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov*. Fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga oid protsessual hujjat namunalari sharh. T., TDYI, 2005, 231-bet.

huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki tugashiga sabab bo'ladigan quyidagi faktlarni sud tartibida belgilash ko'rsatilgan:

- 1) shaxslarning qarindoshlik aloqalarini;
- 2) shaxs bironing qaramog'ida ekanligi faktini;
- 3) otalikni tan olish (belgilash) faktini, bolaning u yoki bu onadan tug'ilganligi faktini, shuningdek, tug'ilgan vaqtini;
- 4) bolalikka olish, nikoh, ajralish va o'limning qayd etilganlik faktini;
- 5) er-xotindan birining o'limi natijasida fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlarida nikohni po'yxatdan o'tkazish mumkin bo'lmay qolsa, qonunda belgilangan hollarda ularning haqiqatda er-xotinlik munosabatlarida bo'lganlik faktini;
- 6) shaxsning huquqni vujudga keltiruvchi hujjatlarda (jamoat birlashmalariga a'zolik biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar, fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlari beradigan guvoynomalardan tashqari) ko'rsatilgan ismi, otasining ismi va familiyasi uning pasportidagi yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvoynomasidagi ismi, otasining ismi va familiyasi bilan mos kelmagan taqdirda, mazkur hujjatlarning unga tegishliligi yoki tegishli emasligi faktini;
- 7) baxtsiz hodisa faktini;
- 8) imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish faktini;
- 9) merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktini;
- 10) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni, agar qonun hujjatlarida ularni belgilashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa¹.

Yuqorida ko'rsatilgan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar ro'yxati qat'iy emasligiga sudlar alohida e'tibor berishi lozim. Chunki, boshqa yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar ham sudga taalluqli ekanligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida tushuntirishlar berib o'tilgan. Unga ko'ra, quyidagi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar ham sud tartibida belgilanadi:

- otalik faktlarini, otalikni qayd qilish faktlarini, 1968-yil 1-oktabrgacha tug'ilgan bolalarga nisbatan otalikni tan olganlik (belgilaganlik) faktlarini;
- ixtironi joriy etish faktlarini, taklifni ratsionalizatorlik sifatida tavsiflanganlik faktlarini;

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011, 283-modda.

- binoga, payga, avtomobilga va boshqa maxsus ro'yxatdan o'tkaziladigan mulkka egalik qilish faktlarini;

- nikohdan ajralishmasdan, lekin oilaviy munosabatlar tugatilganidan so'ng imoratni er-xotindan birining mablag'lariga qurilganlik faktlarini, sug'urta guvohnomasining qarashlilik faktlarini;

- fuqaroni yoki uning ota-onasini Ikkinchi Jahon urushi davrida evakuatsiya qilinganlik faktlarini ham belgilashga haqlidirlar.

Shu o'rinda aytish joizki, amaldagi qonunlarda belgilashning boshqacha (sudsiz) tartibi nazarda tutilgan faktlarni belgilash to'g'risidagi arizalar sud tartibida ko'rilishi mumkin emas. Jumladan, mehnat stajini (pensiya tayinlash uchun, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va bola tug'ilishi munosabati bilan nafaqa tayinlash uchun, ish haqiga foiz qo'shimchalarni qo'shib hisoblash uchun, uzoq yillar qilgan xizmati uchun bir yo'la mukofot puli to'lash uchun va h.k.), haqiqiy harbiy xizmatni o'taganlik, partizan otryadida bo'lganlik, janglarda yaralanganlik, oliy o'quv yurtini, texnikumni, o'rta maktabni va boshqa o'quv yurtlarini bitirganlik faktlarini belgilash to'g'risidagi, partiya, kasaba uyushmalari hujjatlarini, pasport va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan beriladigan guvohnomalarni tegishlilik faktlarini belgilash to'g'risidagi arizalar sudda ko'rilmaydi.

Darhaqiqat, mazkur turkumdagi ishlar bo'yicha arizalar arizachi yashab turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga beriladi. Arizaning mazmuni va protsessual rasmiylashtirilish tartibi Fuqarolik protsessual kodeksining 149-moddasiga rioya qilingan holda tuziladi. Arizada muayyan faktni aniqlash arizachiga qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi ko'rsatilishi, shuningdek, arizachining tegishli hujjatlarini olish imkoniyatiga ega emasligini yoxud yo'qolgan hujjatlarni tiklab bo'lmasligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi kerak (FPKning 284-moddasi). Ushbu turkumdagi arizalar uchun eng kam ish haqining 10 foizi miqdorda davlat boji to'lanadi.

Yuridik faktni belgilash to'g'risidagi arizalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 280, 283-moddalariga binoan, alohida ish yuritish tartibida ko'rishda quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirdagina sud tomonidan qabul qilinishi mumkin:

a) agar bu faktni belgilash fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlarini bevosita keltirib chiqarsa, o'zgartirsa yoki tugatsa;

b) agar manfaatdor shaxslar o'rtasida huquq haqida sudga taalluqli nizo bo'lmasa, faktni belgilash shu faktdan kelib chiqadigan (fuqaroning nasabini, kelib chiqishi, merosni qabul qilish muddatini uzaytirish, meros haqidagi guvohnoma berilishining asosiligi, shartnomani haqiqiy emas deb topish haqida) huquq haqidagi nizoni kelgusida hal qilish bilan bog'liq bo'lmasa, qachonki manfaatdor shaxslarda tegishli da'vo bilan sudga murojaat qilish imkoniyati bo'lsa;

d) agar ariza beruvchi shu faktni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha yo'l bilan olish yoki tiklash imkoniyatiga ega bo'lmasa¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkin-ki, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni sud tartibida belgilashning o'ziga xos shartlariga rioya qilinganida sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

25.4. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish instituti alohida tartibda ko'riladigan ishlarning bir turi sifatida ham fuqarolik huquqi, ham fuqarolik protsessual huquqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish shartlari va asoslari fuqarolik qonunchiligida ko'rsatilgan bo'lsa, fuqarolik protsessual qonunchilikda esa ushbu turumdagi ishlar bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi, ishni sudda ko'rishga tayyorlash va ko'rish hamda ushbu ishlar bo'yicha hal qiluv qarori chiqarish va uning huquqiy oqibatlari to'g'risidagi qoidalar mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga ko'ra, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1991—1998. 2-jild. (Tahrir hay'ati: U.Q. Mingboyev va boshq.) T., «Sharq», 1999, 5-bet.

Yo'qolgan shaxs to'g'risida oxirgi ma'lumotlar olingan kunni aniqlash mumkin bo'lmasa, bedarak yo'qolgan deb hisoblash muddati yo'qolgan shaxs to'g'risida oxirgi ma'lumotlar olingan oydan keyingi oyning birinchi kundan, bu oyni belgilash mumkin bo'lmagan taqdirda esa — keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlanadi.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish uchun asoslar Fuqarolik kodeksining 36-moddasida berilgan. Bu qoidaga ko'ra, agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti, u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo'lgan kundan e'tiboran, kamida ikki yil o'tgandan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan kun vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning o'lgan kuni deb hisoblanadi. O'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan fuqaro vafot etgan deb e'lon qilingan taqdirda, sud uning taxmin qilingan halokat kunini ushbu fuqaroning o'lgan kuni deb topishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish bunday fuqaroning huquq va burchlari borasida uning o'limi olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni vujudga keltiradi¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish uchun fuqarolik qonunchilikda belgilangan muddatlar o'tganidan keyingina sudga manfaatdor shaxslar tomonidan ariza berilishi mumkin. Mazkur turkumdagi ishlar faqat fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lib, ariza arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi. Ushbu arizalar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi «Davlat boji stavkalari

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2007.

to'g'risida»gi 533-sonli qaroriga ko'ra, eng kam oylik ish haqining 10 foizi miqdorida davlat boji to'lanadi¹.

Ariza fuqarolik protsessual qonunchiligining 149-moddasida ko'rsatilgan talablar asosida rasmiylashtirilgan bo'lishi talab etiladi. Mazkur turdagi ishlar bo'yicha ariza sud tomonidan qabul qilingandan keyin, sudya umumiy asoslarga ko'ra, fuqarolik ishini sudda ko'rishga tayyorlash bosqichini amalga oshiradi. Mazkur bosqich sud muhokamasining keyingi faoliyatida sudning samarali faoliyat yuritishi hamda qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlari chiqarishi uchun tamal toshi vazifasini bajaradi.

Shuning uchun, ushbu turdagi ishlar bo'yicha, sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlashda bedarak yo'qolgan odam to'g'risida kimlar (qarindosh-urug'lari, birga ishlovchilar va shu kabilar) ma'lumot bera olishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek, bedarak yo'qolganning ma'lum bo'lgan so'nggi yashash joyi va ish joyidagi tegishli tashkilotlardan (ichki ishlar organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan) bedarak yo'qolgan odam to'g'risida bor ma'lumotlarni so'rab oladi.

Sudya arizani qabul qilib olgach, ayni vaqtda vasiylik va homiylik organiga bedarak yo'qolganning mol-mulkini saqlash, shuningdek, boshqarish uchun shaxs tayinlashni taklif qilishi mumkin (FPKning 287-moddasi). Shuningdek, fuqaroni doimiy yashash joyida yashamayotganligini tasdiqlovchi dalillar (fuqaroning doimiy yashayotgan joyida yashamayotganligi haqida mahalla qo'mitasidan ma'lumotnoma, adres byurosidan ma'lumotnoma, qidiruv e'lon qilingan bo'lsa, qidiruv ishlar tugallanganligi haqida hujjat va boshq.). Uning mol-mulki qarovsiz va qaramog'idagi shaxslar ta'minotsiz qolganligi haqidagi ma'lumotlar talab qilib olinadi².

Mazkur turkumdagi ishlar bo'yicha sud albatta prokurorni xabardor qilishi shart. Chunki, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar, albatta, prokurorning ishtitokida ko'rilishi shartligi to'g'risidagi qoida Fuqarolik protsessual qonunchilikda hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 11-maydagi «Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari to'plami. T., 1994, № 11, 49-modda.

² B. Jamolov. A. Boboqulov. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2005, 252—253-bet.

va ta'sirchanligini oshirish to'g'risida»gi 22-buyrug'ida¹ mustahkamlangan.

Sudya ishni yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida ko'rishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi, arizachi va protsessning boshqa ishtirokchilariga ishni ko'rish vaqti va joyi haqida ma'lum qiladi.

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan umumiy qoidalarga asosan ko'rib chiqiladi va hal qiluv qarori chiqariladi. Sudning fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish haqidagi hal qiluv qarori bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulki turgan joydagi vasiylik va homiylik organining bu mulkka nisbatan boshqaruvchi tayinlashi uchun asos bo'ladi. Sudning fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish haqidagi hal qiluv qarori fuqarolik holati aktlarini qayd etish organining fuqarolik holati aktlarini qayd etish daftariga mazkur fuqaroni o'lgan deb yozib qo'yishi uchun asos bo'ladi.

Agar bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda sudga chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Ushbu ariza sud tomonidan ko'rib chiqiladi va yangi hal qiluv qarori bilan o'zining ilgari hal qiluv qarorini bekor qiladi.

Shuningdek, vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelganida Fuqarolik kodeksining 37-moddasida nazarda tutilgan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Ya'ni, vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o'tib qolgan mavjud mol-mulkini o'ziga qaytarib berishni uch yil mohaynida sud orqali talab qilishga haqli, Fuqarolik kodeksining 229-moddasi ikkinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo'lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom

¹ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari to'plami. T., 2005, 235-bet.

to'lamagan bo'lishsa, bu holda to'lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o'tadi. Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulkini haq to'lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib sotib olganliklari isbotlansa, ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli holida qaytarib berishning imkoni bo'lmasa, uning qiymati to'lanadi.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan va sotib yuborilgan bo'lsa, fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi¹.

25.5. Fuqaroning muomala layoqatini cheklash va muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi (FKning 22-moddasi).

Muomala layoqatiga ega bo'lishning sharti shundan iboratki, muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar aqli rasolik bilan o'z harakatlarining oqibatlarini tushunib harakat qiladilar².

Qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdan tashqari hech kimning huquq layoqati yoki muomala layoqati cheklanishi mumkin emas (FKning 23-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasiga ko'ra, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Agar spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2007.

² I. Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. T., TDYI, 2006, 85-bet.

tartibda cheklab qo'yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi (FKning 31-moddasi).

Spirтли ichimliklar, giyohvand moddalari va psixotrop moddalar suiiste'mol qilish natijasida fuqaroni muomalaga layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi yoki fuqaroni ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish uning oila a'zolari, vasiylik va homiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari bergan ariza bo'yicha qo'zg'atilishi mumkin (FPKning 291-moddasi).

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi ariza muqobil sudlovlikka asosan mazkur fuqaroning yashab turgan joydagi sudga beriladi, agar bu shaxs shifoxonada bo'lsa, shifoxona joylashgan joydagi sudga beriladi. Ushbu ariza mazmuni FPKning 149-moddasi talablariga binoan yozilishi kerak. Arizada fuqaroni muomalaga layoqati cheklangan deb topish haqidagi arizada spirтли ichimliklarni yoki narkotik moddani suiiste'mol qiluvchi shaxs o'z oilasini moddiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yayotganligini isbotlovchi holatlar ko'rsatilishi kerak. Ariza sud tomonidan qabul qilinganidan so'ng ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlashda sudya fuqaroning spirтли ichimliklar, giyohvand moddalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishini tasdiqlovchi dalillar (ichki ishlar tomonidan tuzilgan dalolatnomalar, mayda bezorilik uchun javobgarlikka tortilganligi haqida sudning qarori, tibbiy hushyorxonalar ma'lumotnomasi, spirтли ichimliklar iste'mol qilgan holda ishga kelganligi sababli ishdan chetlashtirilganligi yoki ishdan bo'shatganligi haqida buyruq va boshq.), o'z oilasini moddiy jihatdan qiyin ahvolga solib qo'yganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar, muomala layoqati cheklanganligi haqida ish qo'zg'atilgan shaxsning mulkiy ahvoli to'g'risida ma'lumotnoma (xususan, ish haqi, nafaqa, mavjud mulklar, oila a'zolarining soni va qaramog'ida bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumotnoma)larni talab qilib oladi¹.

Sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlab bo'lganidan keyin ishni sudda ko'rishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ishni sudda ko'rishga

¹ B. Jamolov, A. Boboqulov. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2005, 257—258-betlar.

tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan, albatta, shu shaxsning o'zi, vasiylik va homiylik organlari vakili ishtirokida ko'rib chiqadi. Shuningdek, ushbu ishlarda Fuqarolik protsessual kodeksining 294-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yildagi 22-buyrug'iga ko'ra, prokuror ishtirok etishi shart¹. Agar fuqaro (javobgar) sud majlisiga kelmasa, Fuqarolik protsessual kodeksining 261-moddasiga ko'ra, sud majlisiga majburiy keltiriladi.

Mazkur ishlar sud tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng hal qiluv qarori chiqariladi. Sudning fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarilishi muomala layoqati cheklangan shaxsga homiy tayinlashi uchun asos bo'ladi.

Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ariza mazkur fuqaro yashab turgan joydagi, agar bu shaxs davolash muassasasiga joylashtirilgan bo'lsa, mazkur muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi.

Sudya arizani olgach, ishni sudda ko'rishga tayyorlash tartibida, fuqarolarning ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi to'g'risidagi manfaatdor shaxslar tomonidan to'plangan va sudga taqdim etilgan hujjatlarni yetarli bo'lganida, uning ruhiy ahvolini aniqlash uchun sud-ruhiy ekspertizasini tayinlaydi.

Fuqarolarni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishni sud prokurorning vasiylik va homiylik organlari vakilining ishtiroki bilan ko'radi. Ishi ko'rilayotgan fuqarolarning sog'lig'i imkon bersa, u sudga chaqiriladi.

Sudning fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarori muomalaga layoqatsiz shaxsga vasiy tayinlash uchun asos bo'ladi. Muomalaga layoqatsiz shaxslarga nisbatan vasiy tayinlanishi ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish nazarda tutiladi. Homiylik va vasiylik o'z himoyalardagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatnomasini himoya qilishlari mumkin².

¹ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari to'plami. T., 2005, 235-bet.

² H. *Rahmonqulov*. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-qismiga umumiy tavsif va sharhlar (birinchi jild). T., 1997, 109-bet.

Agar fuqarolar spirtli yoki narkotik moddalarni suiiste'mol qilishni tashlasa, sud uning layoqatliligini bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi. Sud qaroriga asosan unga homiy tayinlash ham bekor qilinadi (FPKning 296-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasi uchinchi qismida ko'rsatilgan hollarda fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish uchun sud vasiyning, shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksining 291-moddasida ko'rsatilgan davlat organlari tashkilotlar va shaxslarning, sud-psixiatriya ekspertizasi ekspertining ishtirokida ishni mazmunan ko'radi. Fuqarolarni muomalaga layoqatli deb yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlarni yuritish bo'yicha sud xarajatlari ariza beruvchidan undirilmaydi.

Agar, sud arizani fuqaroning muomala layoqatini asossiz cheklashga yoki uni muomala layoqatidan mahrum etish maqsadida berilgan deb topsa, ish yuritish xarajatlarini ariza bergan oila a'zolari hisobiga o'tkazadi (FPKning 297-moddasi).

25.6. Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar

Darhaqiqat, shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim hollarda mulkning egasi yo'qligi yoki egasi noma'lum bo'lgan mulklar o'z navbatida nobud bo'lishi yoki yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun ham qonun ijodkorligi tomonidan mulk (ashyo)ni yo'q bo'lib ketishining oldini olish maqsadida fuqarolik qonunchiligiga mol-mulk yoki ashyoni egasiz deb topish to'g'risida alohida huquqiy norma kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 191-moddasiga ko'ra, egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ko'chmas ashyolar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi. Egasiz ko'chmas ashyo, hisobga olingandan keyin uch yil muddat o'tgach, davlat mol-mulkini boshqarishga vakolati bo'lgan organ yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bu ashyoni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etishi mumkin.

Sudning hal qiluv qaroriga binoan davlat mulkiga o'tmagan deb hisoblangan egasiz ko'chmas ashyo uni tashlab ketgan

mulkdorning egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga yana qabul qilinishi yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qoʻlga kiritilishi mumkin. Egasiz ashyolarni aniqlash va hisobga olish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi.

Yuqoridagi qoidadan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mulk (ashyo)ni egasiz deb topish sud orqali hal etiladi. Demak, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 298-moddasiga koʻra, mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish haqidagi ariza moliya organi yoki hoshqa vakolatli organ tomonidan mol-mulk (ashyo) turgan joydagi sudga beriladi. Mulk joylashgan joydagi sudga ariza berilishi mustasno sudlovlilik qoidasidan kelib chiqadi (FPKning 242-moddasi). Ushbu ishlar boʻyicha arizalar mulk hisobga olingan kundan eʼtiboran uch yil oʻtgandan soʻng berilishiga sudlar eʼtiborni qaratishi lozim.

Chunki, ushbu muddat oʻtmasdan turib, ariza taqdim etiladigan boʻlsa, sudya arizani qabul qilishni rad etishi lozim. Mazkur muddatga rioya qilinmasligi moddiy huquq normalarini buzilishi hisoblanib, oqibatda sud qarorini yuqori sudlar tomonidan bekor boʻlishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu ishlar boʻyicha ariza fuqarolik protsessual qonunchiligini 149-moddasi talablariga rioya qilingan holda taqdim etilishi va unda qaysi mol-mulk (ashyo)ni egasiz deb topish lozimligi koʻrsatilishi, shuningdek, mol-mulk (ashyo) egasini belgilashning imkoni yoʻqligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi kepak.

Sudya arizani qabul qilganidan soʻng, ishni oʻz vaqtida va toʻgʻri koʻrib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sudda koʻrishga tayyorlaydi va Fuqarolik protsessual kodeksining 158—160-moddasida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Shundan keyin, mol-mulk (ashyo) kimga tegishli ekanligi toʻgʻrisida maʼlumot berishi mumkin boʻlgan shaxslarni (mol-mulk (ashyo)ning mulkdorlari, unga amalda egalik qilib turganlar, qoʻshnilar va boshqalarni) aniqlaydi, shuningdek, moliya organi yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlaridan mol-mulkka doir mavjud maʼlumotlarni soʻraydi.

Shuningdek, amaliyot xodimlari ham ushbu ishlarni sudda koʻrishga tayyorlashda, mol-mulk toʻgʻrisidagi hujjatlar, mahalladan mulkning egasi vafot etganligi yoki egasi yoʻqligi toʻgʻrisidagi hujjatlar, uy-joy boshqarmalardan mulkni roʻyxatga olinganligi

to'g'risidagi hujjat va qonunda belgilangan muddatlarga e'tibor berish kerakligini ta'kidlashadi¹.

Ishni tayyorlab bo'lganidan so'ng, ishni sudda ko'rishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi. Mol-mulkni egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'rib chiqiladi. Mazkur ishlarni sudda ko'rib chiqish muddati aniq ko'rsatilmaganligi bois, fuqarolik protsessining umumiy qoidalaridan kelib chiqib, sud bir oylik muddatda ishni ko'rib chiqishi kerak (FPKning 131-moddasi).

Sud ish holatlaridan kelib chiqib, agar mol-mulk (ashyo)ning mulkdori yo'q yoki noma'lum deb topsa, mol-mulk (ashyo)ni egasiz deb topish va uni davlat mulkiga o'tkazish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi.

25.7. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar (chaqirib ish yuritish)

Alohida tartibda ko'riladigan ishlarning bir turi sifatida taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar o'zining sudda ko'rib chiqilishidagi xususiyatlari bilan boshqa ishlardan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 301-moddasiga ko'ra, shaxs pul mablag'lari qo'yilganligi haqida yoki qimmatli narsalar yoxud davlat zayomi obligatsiyalari saqlash uchun topshirilganligi to'g'risida bank tomonidan taqdim etuvchiga berilgan qiymatli hujjatni yo'qotgan taqdirda, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda, suddan yo'qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish va yo'qolgan hujjat bo'yicha huquqlarini tiklash to'g'risida iltimos qilishi mumkin.

Shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi 1992-yil 13-noyabrdagi «Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish) haqidagi arizalarning sudlar tomonidan ko'rilishi to'g'risida»gi qarorida ko'rsatilishicha, bunday huquqlarni tiklash bank tomonidan taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlarni, nafaqat yo'qotilganida, balki hujjatlar befarq saqlangani natijasida

¹ B. Jamolov, B. Aliqulov. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2005, 140-bet.

mablag'ning hajmini aniqlash xususiyatini yo'qotgan holda va boshqa hollarda (omонат daftarchasida va nazorat varaqasida raqam soni saqlanmagan holda omonat daftarchasida mablag' qoldig'i to'la saqlanmaganida va boshqa sabablarga ko'ra) amalga oshiriladi¹.

Demak, yuqorida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqqan holda ham shaxs sudga ushbu hujjatni tiklab berish to'g'risida ariza berish huquqiga ega. Mazkur ishlar bo'yicha arizalar taqdim etuvchiga deb hujjat bergan muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi. Ushbu ariza ham Fuqarolik protsessual kodeksining 149-moddasida ko'rsatilgan umumiy talablarga javob berishi kerak hamda Fuqarolik protsessual kodeksining 301-moddasida belgilangan ma'lumotlar, ya'ni hujjat qanday vaziyatda yo'qolganligi, taqdim etuvchiga deb hujjat bergan muassasaning, hujjatning nomi ko'rsatilishi, hujjatning alohida belgilari va yo'qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish haqidagi iltimos bayon qilinishi va arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati ko'rsatilishi kepak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash haqidagi arizalarning sudlar tomonidan ko'rilishi to'g'risida»gi qarorining 5-punktida ko'rsatilishicha, FPKning 301-moddasida ko'rsatilgan yo'qotilgan hujjatning alohida belgilari deb hisob soni, nazorat varaqasi (talon)ning soni, omonat qo'yilgan kun, omonat bo'yicha operatsiya amalga oshirilgan kuni, omonatning miqdori yoki qolgan qismi, obligatsiya raqamlari, saqlash uchun topshirilgan qimmatliklarning tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi².

Agar arizada yuqorida ko'rsatilgan talablaridan biri bo'lmasa yoki davlat boji to'lanmagan bo'lsa, sudya arizani Fuqarolik protsessual kodeksining 154-moddasiga asosan harakatsiz qoldirish to'g'risida ajrim chiqaradi va arizachiga bu haqda xabar berib, kamchiliklarni tuzatish uchun muhlat beradi. Agar arizachi belgilangan muddatda kamchiliklarni bartaraf etsa, ariza sudga dastlab

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi. T., 1993, № 2, 15—17-bet.; Qonun nomi bilan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi. T., 1997, № 3, 36—38-bet.; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1991—1998. 2-jild. (Tahrir hay'ati: U.Q. Mingboyev va boshq.) T., «Sharq», 1999, 27-bet.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1991—1998. 2-jild. (Tahrir hay'ati: U.Q. Mingboyev va boshq.) T., «Sharq», 1999, 28-bet.

taqdim etilgan kuni berilgan hisoblanadi, aks holda ariza qabul qilinmagan hisoblanib, arizachiga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yildagi 533-sonli «Davlat boji stavkalari haqida»gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash haqidagi arizalarning sudlar tomonidan ko'rilishi to'g'risida»gi qarorida belgilanishicha, ushbu ishlar bo'yicha sudga ariza berganlik uchun eng kam ish haqining 10 foizi miqdorida davlat boji to'lanishi lozim¹.

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash haqidagi ariza sud tomonidan qabul qilinganidan keyin, sudya Fuqarolik protsessual kodeksining 302-moddasida nazarda tutilgan quyidagi protsessual harakatlarni amalga oshirish haqida ajrim chiqaradi:

1) ariza beruvchining hisobidan mahalliy gazetada e'lon chiqarish to'g'risida;

2) taqdim etuvchiga deb hujjat bergan muassasaning yo'qolgan hujjat bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishini va pul berishini ish suda ko'rilguniga qadar taqiqlash to'g'risida.

Yuqorida ko'rsatilgan talablar bo'yicha chiqarilgan sud ajrimining nusxasi darhol hujjatni bergan muassasaga yuborilishi kerak. Shuni ta'kidlash joizki, matbuotda chiqariladigan e'lonning mazmunida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 303-moddasida nazarda tutilgan qoidalar o'z aksini topishi kerak. Ular quyidagilar:

1) hujjat yo'qolganligi haqida apiza tushgan sudning nomi;

2) arizachining familiyasi, ismi, otasining ismi va yashaydigan joyi;

3) hujjatning nomi va alohida belgilari;

4) yo'qolganligi haqida ariza berilgan hujjatni saqlovchiga e'lon chiqqan kundan e'tiboran, uch oy muddat ichida o'zining mazkur hujjatga bo'lgan huquqlari to'g'risida sudga arz qilishi haqidagi taklif².

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat boji stavkalari haqida»gi qarori.

² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.

Mazkur e'lon chiqqan kundan e'tiboran, uch oy muddat o'tguniga qadar hujjatni saqllovchi, ya'ni hujjatni topib olgan shaxs ajrim chiqargan sudga o'zining hujjatga bo'lgan huquqlari to'g'risida ariza berishi va shu bilan birga hujjatning asl nusxasini taqdim etishi shart. Agar hujjat yo'qolganligi haqida e'lon chiqqan kundan e'tiboran, uch oy muddat ichida hujjatni saqllovchidan sudga ariza tushgan taqdirda, sudya ajrim chiqarib, unda hujjati yo'qolganligi haqida ariza bergan shaxsга hujjatni saqllovchidan hujjatni olib qo'yish to'g'risida unga qarshi umumiy tartibda da'vo taqdim etish uchun muddat beradi va bu haqda hujjatni saqllovchini xabardor qiladi. Bu muddat ikki oydan oshmasligi lozim (FPKning 305-mod-dasi).

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqni tiklash to'g'risidagi ishlar ayrim hollarda da'vo tartibida ko'rilishi mumkin. Agar hujjati yo'qolganligi haqida ariza bergan shaxsni hujjatni saqllovchidan hujjatni olib qo'yish to'g'risida unga qarshi umumiy tartibda da'vo taqdim etishi o'z-o'zidan huquqiy nizoni vujudga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, da'voli ish hisoblanib, u alohida tartibda ko'riladigan ish hisoblanmasdan qoladi. Chunki, bu holatda taraflar, ya'ni da'vogar va javobgar huquq to'g'risida nizolashadi. Shunday holat yuzaga kelsa, sud Fuqarolik protsessual kodeksining 282-moddasiga ko'ra, arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqarishi kerak va da'vo tartibida murojaat qilish huquqini tushuntirishi lozim.

Mazkur da'vo ariza fuqarolik protsessual qonunchilikni umumiy qoidalaridan kelib chiqib, javobgar yashab turgan joydagi sudga berilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorida ham tushuntirish berib o'tilgan¹.

Agar e'londa ko'rsatilgan muddat ichida hujjatni saqllovchidan ariza tushmasa, sud ishni ko'rishga tayinlaydi va ish ko'riladigan kun to'g'risida arizachi ham, hujjatni bergan muassasa ham xabardor qilinadi. Biroq, ularning kelmasligi ishni ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

Ushbu turdagi ishlar fuqarolik protsessual qonunchilikni 131-mod-dasiga ko'ra umumiy muddatda, ya'ni bir oylik muddatda ko'rib

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami. 1991—1998. 2-jild. (Tahrir hay'ati: U.Q. Mingboyev va boshq.) T., «Sharq», 1999, 29-bet.

chiqiladi. Ishni ko'rgach, sud hal qiluv qarori chiqaradi. Basharti, arizani qanoatlantirsa, sud o'zining hal qiluv qarorida yo'qolgan hujjat haqiqiy emasligini ko'rsatadi. Bu hal qiluv qarori arz qiluvchiga omonatni yoki haqiqiy emas deb topilgan hujjat o'rniga yangisini berish uchun asos bo'ladi.

Mazkur turdagi ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarori hujjatni bergan muassasa tomonidan ijro etiladi.

25.8. G'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi ishlar

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga 2000-yil 14-dekabrda «G'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risida»gi 33¹-bob kiritildi. Ushbu ishlar ham alohida tartibda ko'riladigan ish hisoblanadi.

Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning statsionarda yotish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza sudga shaxs yotgan psixiatriya muassasasi tomonidan beriladi. Mazkur ariza fuqarolik ishlarining sudlovlik qoidalaridan kelib chiqib, psixiatriya muassasasi joylashgan joydagi sudga beriladi.

Ariza O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi talablaridan kelib chiqib, rasmiylashtiriladi va unda g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar hamda shifokor psixiatrlardan iborat komissiyaning shaxsning psixiatriya statsionarida bundan keyin bo'lishi zarurligi to'g'risidagi asoslantirilgan xulosasi arizaga ilova qilinadi.

Sud arizani qabul qilish bilan bir paytda arizani sudda ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan muddatda shaxsning psixiatriya statsionarida bo'lib turishi masalasini hal etadi.

Mazkur ishlar sudda Fuqarolik protsessual kodeksining 297² - moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 11-maydagi «Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini va ta'sirchanligini oshirish to'g'risida»gi 22-buyrug'iga¹ ko'ra prokuror, statsionarga yotqizilayotgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari to'plami. T., 2005, 235-bet.

shaxsning qonuniy vakili va statsionarga yotqizishning asosligi to'g'risida xulosa bergan komissiya tarkibidagi shifokor psixiatr, shuningdek, shaxs yotgan psixiatriya muassasasi vakili ishtirokida ko'rib chiqiladi. Sud majlisiga muassasa vakilining uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi, biroq, sud uning kelishini shart deb topishi mumkin.

Ushbu turdagi ishlar sud tomonidan qisqa muddatda, ya'ni o'n kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi. Yuqorida ko'rsatilgan holatlar mazkur ishlarning o'ziga xos protsessual xususiyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu ishlar sudda ko'rib chiqilganidan so'ng hal qiluv qarori chiqaradi. Sudning arizani qanoatlantirish to'g'risidagi hal qiluv qarori shaxsni psixiatriya statsionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Alohida tartibda ish yuritish tushunchasi va turlarini ayting.
2. Alohida tartibda ish yuritishni boshqa fuqarolik sud ishlarini yuritish turlaridan farqli jihatlarini tushuntiring.
3. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar turlarini sanab bering.
4. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish muddati to'g'risida gapiring.
5. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risida fuqarolik qonunchiligida qanday muddatlar ko'rsatilgan.
6. Fuqaroni muomala layoqatini cheklash asoslarini aytib bering.
7. Fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish tartibi qanday?
8. Mol-mulkni egasiz deb topish asoslarini tushuntiring.
9. Mol-mulkni egasiz deb topish to'g'risida sudga ariza berishga kimlar vakolatli?
10. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqlarni tiklash haqidagi arizaga qo'yiladigan talablar qanday?
11. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksiga «G'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish» to'g'risidagi ish qachon kiritildi?
12. Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish tartibini tushuntiring.



1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2007.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 168-modda.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
6. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
7. *I.B. Zokirov*. Fuqarolik huquqi. Darslik. T., TDYI, 2006.
8. *H.R. Rahmonqulov*. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1997.
9. *B. Jamolov, B. Aliqulov*. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2005.
10. *E. Egamberdiyev*. Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari. T., «Kamalak», 1996.
11. *D.Y. Habibullayev*. Alohida tartibda ish yuritish. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2008.
12. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). T., TDYI, 2010.

26-bob. BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN APELLATSIYA SHIKOYATI BERISH (PROTEST KELTIRISH)

26.1. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan apellatsiya shikoyati berish (protest keltirish)ning mazmuni va ahamiyati

Respublikamizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining mantiqiy davomi sifatida 2000-yil 14-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni¹ning e'lon qilinishi, 2000-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni²ning qabul qilinishi va shu asosda 2000-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga apellatsiya, kassatsiya institutlariga oid yangi bobning vujudga kelishi bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar³ning kiritilishi umumiy yurisdiksiya sudlari tarkibida fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning ixtisoslashuvi, sud qarorlarini apellatsiya tartibida qayta tekshirish institutining joriy etilishi, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari hamda erkinliklarini himoya qilinishi kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadlari va vazifalarini kafolatlaydi.

Apellatsiya tartibida ish ko'rishning asosiy mazmuni birinchi instansiya sudining qarorlarini qonunda belgilangan asoslar va muddatlarga muvofiq, vakolatli organlar tomonidan apellatsiya tartibida qayta ko'rilishiga aytiladi. Ushbu faoliyatning ahamiyati shundaki, birinchi instansiya sudlari tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini

¹ O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, T., 2000, № 3, 30-modda.

² O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, T., 2000, № 11, 155-modda.

³ O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, T., 2000, № 3, 30-modda.

qayta tekshirish vositasi hisoblanib, bu bosqich orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligi tekshiriladi, shu tariqa fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga erishiladi.

Apellatsiya instansiyasida ish yuritish — fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi hisoblanib, bevosita birinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini qayta tekshirish vositalaridan biri sanaladi. Apellatsiya instansiyada ish yuritish uchun ikkita asos, ya'ni apellatsiya protesti va apellatsiya shikoyati berilgan va qonunda belgilangan tartibda sudlar tomonidan ish yuritish uchun qabul qilingan bo'lishi lozim.

Protsessualist olim Sh.Sh. Shorahmetov apellatsiya instituti haqida fikr bildirib, shunday degan edi: «Apellatsiya tartibida ish ko'rish kassatsiya sudidagi ish yuritishga birmuncha o'xshash bo'lsa-da, biroq bu institutlar o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi»¹.

Shuning uchun apellatsiya institutining protsessual xususiyatlarini alohida tushuntirishni shart deb bilamiz. Rus huquqshunos olimlaridan Y.A. Borisova, G.A. Jilin va boshqalar apellatsiya institutining o'ziga xos xususiyatlari va uning boshqa institutlardan farqli jihatlarini ko'rsatib berishgan².

Bizning fikrimizcha, apellatsiya tartibida ish ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish lozim bo'ladi:

- apellatsiya instansiyasi sudi qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarini qayta ko'rish vositasi ekanligi;
- ishlarni maxsus vakolat berilgan yuqori instansiya tomonidan hay'at tarkibidagi sudyalar tomonidan ko'rilishi;
- apellatsiya shikoyati (protesti)ni berishda va ishni apellatsiya instansiyasida ko'rishda maxsus muddatlarga rioya qilinishi;
- apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlarini to'liq tekshirib chiqishi shartligi;
- apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan ishning yakuni sifatida qonunda belgilangan mazmundagi ajrim chiqarishga yo'l qo'yilishi va h.k.

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov*. Apellatsiya sudi yoxud huquqiy himoya qiluvchi sud bosqichi. «Hayot va qonun» jurnali, 2003, № 5, 25-bet.

² *E.A. Borisova*. Апелляция в гражданском и арбитражном процессе. М., 1997, стр. 67; *G.A. Жилин*. Комментарий в ГПК РФ. М., 2003, стр. 605.

Yuqoridagi protsessual xususiyatlar bizga apellatsiya instansiyasi faoliyatini boshqa sud instansiyalari faoliyati bilan o'zaro o'xshash hamda farqli jihatlarini bilishimizga ko'maklashadi.

26.2. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan shikoyat berish hamda protest keltirish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 37-bobi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan apellatsiya shikoyati berish (protesti keltirish)ga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 320-moddasiga asosan, sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, yigirma kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar hal qiluv qarori ustidan apellatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan shikoyat (protest) ko'rilmaydi va shikoyat (protest) bergan shaxsga qaytariladi. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklashga yo'l qo'yiladi.

Apellatsiya instansiyasida ish yuritish vaqti va joyi to'g'risida ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilinadilar. Biroq, ish ko'riladigan vaqt va joy to'g'risida tegishlicha tartibda xabardor qilingan shaxslarning kelmasligi ishni ko'rish uchun to'sqinlik qilmaydi. Sud bunday hollarda kelmaganlik sabablarini uzrli deb topsa, ishni ko'rishni keyinga qoldirishga haqli. Lekin ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi sud majlisiga kelmagan bo'lsa va u(lar)ni ishni ko'rish vaqti, joyi to'g'risida tegishlicha xabardor qilinganligi to'g'risida ishda ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, sud ishni ko'rishni keyinga qoldiradi.

Apellatsiya instansiyasida ish ko'rish vaqtida taraflar ishni kelishuv bitimi tuzish asosida, da'vogarning da'vodan voz kechish natijasida tugallashlari ham mumkin bo'ladi. Bunday hollarda apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qiladigan ajrim chiqaradi va ish yuritishni tugatadi (FPKning 330-moddasi).

Apellatsiya instansiyasida, shuningdek, javobgar da'voni tan olishi ham mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, da'voni tan olish protsessni da'vogar foydasiga hal qilish bilan tugallanishi bois, apellatsiya instansiya sudi, ya'ni hal qiluv qarorining chiqarilishi

yoki ish yuzasidan moddiy va protsessual huquq normalari buzilgan bo'lsa, hal qiluv qarorini qabul qilib, ishni yangidan ko'rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborish, shuningdek, da'voni tan olish bilan bog'liq holatlar tekshirilishi mumkin.

Sud jarayonida prokuror yoki advokatning uzrli sabablarga ko'ra, kelmaganligi to'g'risida sud xususiy ajrim chiqaradi va bu haqda tegishli yuqori turuvchi prokurorga yoki malaka komissiyasiga ma'lum qiladi (FPKning 337-moddasi).

Prokuror, agar uning tomonidan apellatsiya protesti berilgan bo'lsa, apellatsiya instansiyasi sudida protestni qo'llab-quvvatlab so'zga chiqadi, agar protest bilan murojaat qilmagan bo'lsa, ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlaridan keyin so'zga chiqib, hal qiluv qarorining qay darajada qonuniy, asosli va adolatli ekanligi to'g'risida xulosa beradi. Apellatsiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshira borib, birinchi instansiya sudi tomonidan dalillarga berilgan baho to'g'riligini tekshirishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 321-moddasiga muvofiq quyidagilar:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari — tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

2) O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — okrug va hududiy harbiy sudlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'atining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 322-moddasiga asosan, apellatsiya shikoyatlari va protestlari

apellatsiya instansiyasi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

Vakil tomonidan berilgan apellatsiya shikoyatiga ishonchnoma yoki vakil huquqlarini tasdiqlaydigan boshqa hujjat ilova qilinishi lozim. Apellatsiya shikoyati yoki protesti sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan beriladi. Zarur hollarda sudya, apellatsiya shikoyati bergan shaxs yoki apellatsiya protesti keltirgan prokuror zimmasiga apellatsiya shikoyati yoki protestiga ilova qilingan yozma hujjatlarning nusxalarini ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga mutanosib miqdorda topshirish majburiyatini yuklashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 323-moddasida belgilanganidek, apellatsiya shikoyati yoki protestida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

1) shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi;

2) shikoyat yoki protest keltirayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi);

3) shikoyat qilinayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud;

4) hal qiluv qarorining noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi;

5) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning iltimosi;

6) shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati.

Apellatsiya shikoyati shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Apellatsiya protestini ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat'i nazar, prokuror yoki uning o'rinbosari keltiradi va imzolaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 324-moddasiga ko'ra, agar apellatsiya shikoyati berish yoki protest keltirish paytida FPKning 322 va 323-moddalarining talablari buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa yoki davlat boji to'lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat berish uchun boj to'lamagan bo'lsa, apellatsiya shikoyati yoki protesti harakatsiz qoldiriladi.

Apellatsiya shikoyati yoki protestini harakatsiz qoldirish to'g'risida sudya bu shikoyat yoki protestning harakatsiz qoldirilishiga asos bo'lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko'rsatib ajrim chiqaradi. Shikoyat bergan yoki protest

keltirgan shaxs ajrimda ko'rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda tuzatsa, shikoyat yoki protest dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanib, shikoyat bergan yoki protest keltirgan shaxsga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 325-moddasiga asosan, sudya yoki sud raisi apellatsiya shikoyati yoki protestini olgandan so'ng:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxalarini yuborishi;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga apellatsiya instansiyada ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida ma'lum qilishi;

3) hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish uchun belgilangan muddat o'tgan vaqtdan e'tiboran, o'n kun ichida ishni tushgan shikoyat yoki protest bilan birga apellatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart.

Hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish va protest keltirish uchun belgilangan muddat ichida hech kim ishni suddan talab qilib olishi mumkin emas. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudga ish materiallari va tushgan shikoyatlar yoki protest bilan tanishishga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 326-moddasiga muvofiq, protsessda apellatsiya shikoyati bergan taraf tomonida qatnashayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishlari mumkin. Shikoyatga qo'shilish haqida ariza bergan vaqtda davlat boji olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 327-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat yoki protest yuzasidan sudga tushuntirish berish (e'tiroz bildirish)ga haqlidirlar. Bu tushuntirish (e'tiroz)ni tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilib topshiriladi. Tushuntirish (e'tiroz) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan sudga taqdim etiladi. Bu nusxalarni sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi (yuboradi).

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 328-moddasiga ko'ra, apellatsiya instansiyasi sudi zarur hollarda:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protest yuzasidan tushuntirish (e'tiroz) berishni yoki protest keltirishni tavsiya qiladi. Tushuntirish (e'tiroz), shuningdek, ularga ilova qilin-

gan hujjatlar ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosih miqdorda nusxalari bilan taqdim etiladi. Bu nusxalarni sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi yoki o'zining tashabbusi bilan dalillarni talab qilib oladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 329-moddasiga binoan, apellatsiya shikoyati bergan shaxs uni to'ldirish, o'zgartirish yoki undan voz kechishga haqli. Biroq, bunday voz kechish qonunga zid bo'lmasa yoki bironing huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga xilof bo'lmasagina, sud uni qabul qilishi mumkin.

Apellatsiya protesti bildirgan prokuror, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror sud majlisi boshlanguniga qadar protestni to'ldirish, o'zgartirish yoki qaytarib olishga haqli. Agar hal qiluv qarori ustidan boshqa shaxslar shikoyat bermagan bo'lsa, shikoyatdan voz kechish qabul qilinganida va protest qaytarib olinganida, apellatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarib, apellatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 330-moddasiga muvofiq, apellatsiya shikoyati berilgan yoki protest keltirilgandan keyin da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda bayon etilib, apellatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi lozim. Agar ishni ko'rish vaqtida da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechsa, javobgar arz qilingan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsalar, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi va bayonnomani tegishlicha da'vogar, javobgar yoki har ikki taraf imzolaydi. Sud da'vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da'vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Apellatsiya instansiya sudi da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishini qabul qilganida yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlaganida chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi. Agar da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoxud bironing huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga xilof bo'lsa, sud voz kechishni rad qilib yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlamay, ishni apellatsiya tartibida ko'radi.

26.3. Apellatsiya instansiyasida ish ko'rish tartibi va apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

Sud ishni apellatsiya instansiyasi tartibida ko'rayotganda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qay darajada qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshiradi. U yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to'liq tekshirib chiqishi shart.

Apellatsiya instansiyasida ish ko'rish tartibi garchi ish hay'at tarkibida ko'rilsa-da, sud majlisi tartibi birinchi instansiya sudi qoidalariga deyarli o'xshaydi. Masalan, apellatsiya instansiyasida sud majlisi ham to'rt qismdan, ya'ni sud majlisining tayyorlov, sud majlisining mazmunan ko'rish, muzokara, ajrim chiqarish bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Faqat Fuqarolik protsessual kodeksining 339-moddasiga asosan, ish yuzasidan ma'ruza qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ishni apellatsiya instansiyasi sudida ko'rish raislik qiluvchi yoki sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. Ma'ruzachi ishning holatini, birinchi instansiya sudi chiqargan hal qiluv qarorining mazmunini, apellatsiya shikoyati yoki protestida keltirilgan dalillarni va ular yuzasidan berilgan tushuntirishlar (e'tirozlar)ni, keltirilgan yangi dalillarning mazmunini, shuningdek, hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish uchun sud ko'rish zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni bayon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 331-moddasida ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi apellatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e'tiboran, yigirma kundan kechiktirmay ko'rish lozim. Ish o'ta murakkab bo'lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko'pi bilan yana o'n kunga uzaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apellatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e'tiboran, bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi lozim. Alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki uning o'rinbosari bu muddatni ko'pi bilan yana bir oyga kechiktirishi mumkin. Ishni apellatsiya instansiyasida ko'rish muddati kechiktirilgan taqdirda,

ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish ko'riladigan kun oldindan xabar qilib qo'yilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 332-moddasiga ko'ra, sud ishni apellatsiya tartibida ko'rayotganda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qay darajada qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshiradi. U yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to'liq tekshirib chiqishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 333-moddasiga muvofiq, apellatsiya instansiyasi sudining majlisida raislik qiluvchi FPKning 164, 165 va 166-moddalariga amal qilgan holda, sud majlisida tegishli tartibni ta'minlash choralari ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 334-moddasiga asosan, raislik qiluvchi sud majlisini ochadi va kimning shikoyati yoki protesti bo'yicha hamda qaysi sudning hal qiluv qarori yuzasidan qanday ish ko'rilishini e'lon qiladi. Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qaysi biri kelmaganligini, kelmaganlik sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini aniqlaydi, sudga kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek, mansabdor shaxslar hamda vakillarning vakolatini tekshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 335-moddasiga ko'ra, raislik qiluvchi sud tarkibini e'lon qiladi, sud majlisining kotibi, prokuror, ekspert, tarjimon sifatida kimlar qatnashayotganligini ma'lum qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga chetlatish haqida arz qilish huquqlarini tushuntiradi. Chetlatish uchun asoslar, chetlatish haqidagi arzni hal qilish tartibi va bunday arzlarni qanoatlantirish oqibatlari ushbu kodeksning 3-bobiga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 336-moddasiga muvofiq, raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 337-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi sud majlisiga kelmagan bo'lsa va u ishni ko'rish vaqti, joyi to'g'risida tegishli xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, sud ishni ko'rishni keyinga qoldiradi.

Ishda ishtirok etuvchi, ish ko'riladigan vaqt va joy to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan shaxslarning kelmasligi ishni ko'rish uchun to'sqinlik qilmaydi. Biroq, sud bunday hollarda ham

kelmaganlik sabablarini uzrli deb topsa, ishni ko'rishni keyinga qoldirishga haqli.

Prokuror yoki advokatning uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi to'g'risida sud xususiy ajrim chiqaradi va bu haqda tegishlicha yuqori turuvchi prokurorga yoki advokatlar malaka komissiyasiga ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 338-moddasiga muvofiq, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishni apellatsiya instansiyasida ko'rish bilan bog'liq barcha masalalarga oid iltimosnomalari va arizalari ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning fikr-mulohazalari tinglanganidan keyin sud tomonidan hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 339-moddasiga binoan, ishni apellatsiya instansiyasi sudida ko'rish raislik qiluvchi yoki sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. Ma'ruzachi ishning holatini, birinchi instansiya sudi chiqargan hal qiluv qarorining mazmunini, apellatsiya shikoyati yoki protestida keltirilgan dalillarni va ular yuzasidan berilgan tushuntirishlarni (e'tirozlarni), keltirilgan yangi dalillarning mazmunini, shuningdek, hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish uchun sud ko'rish zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni bayon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 340-moddasiga asosan, sud raislik qiluvchi yoki sudyalardan birining ma'ruzasidan keyin sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishini tinglaydi, bu shaxslar apellatsiya shikoyati yoki protestida ko'rsatilmagan vajlar keltirishga va qo'shimcha materiallar taqdim etishga ham haqli.

Dastavval, apellatsiya shikoyatini bergan shaxs va uning vakili yoki agar ish protest bo'yicha ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, prokuror so'zga chiqadi. Hal qiluv qarori ustidan har ikki taraf ham shikoyat bergan bo'lsa, birinchi bo'lib da'vogar so'zga chiqadi.

FPKning 5 va 48-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ishda ishtirok etuvchi davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning vakillari, shuningdek, fuqarolar, agar sudning hal qiluv qarori ustidan shikoyat bermagan bo'lsalar, apellatsiya sudida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so'zga chiqadilar. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlaridan keyin prokuror hal qiluv qarori qay darajada qonuniy, asosli va adolatli ekanligi to'g'risida fikrini bayon qiladi, prokurorning protesti bo'yicha qayta ko'rilayotgan hal qiluv qarorlari bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 341-moddasiga muvofiq, apellatsiya instansiyasi sudi ish bo'yicha ish yuritishni FPKning 7-bobida nazarda tutilgan tartibda to'xtatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 342-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning fikri tinglab bo'linganidan keyin apellatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga chiqadi.

Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi ish ko'rilganidan keyin darhol chiqariladi. Alohida hollarda asoslantirilgan ajrim tayyorlash ko'pi bilan uch kunga kechiktirilishi mumkin, lekin ajrimning xulosa qismini sud ishni apellatsiya tartibida muhokama qilish tamomlangan majlisning o'zidayoq e'lon qilishi kerak. Sudyalarning maslahatlashuvi, ajrim chiqarish va uni e'lon qilish FPKning 14-moddasida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari singari, protsessual hujjat sifatida tuzilishiga ko'ra, apellatsiya sudi ajrimi kirish, bayon, asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Ammo apellatsiya sudlov instansiyasining ajrimi birinchi instansiya sudining ajrimlaridan mazmuniga ko'ra, farqli ravishda ishni mazmunan hal qiluvchi vakolatga ega protsessual hujjat sifatida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 343-moddasiga asosan, sud ishni apellatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan:

1) hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;

2) ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) FPKning 314-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko'rib chiqish uchun yuborishga;

4) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda FPKning 97 va 100-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko'rmasdan qoldirishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 38-bobida birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat berish (protest keltirish)ga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 346-moddasiga ko'ra, birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan:

1) FPKda nazarda tutilgan hollarda;

2) sudning ajrimi ishning ilgarilashiga keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qiladigan hollarda, sud tomonidan ajrim topshirilgan kundan

e'tiboran, o'n kun ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar apellatsiya instansiyasi sudiga sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat berishlari, prokuror esa, protest keltirishi mumkin.

Birinchi instansiya sudining boshqa ajrimlari ustidan xususiy shikoyat berilmaydi va protest keltirilmaydi, biroq bunday ajrimlarga qarshi e'tirozlar apellatsiya shikoyati yoki protestiga kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 347-moddasiga binoan, xususiy shikoyatlar va protestlar FPKning 37-bobida belgilangan tartibda beriladi va ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348-moddasiga asosan, apellatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyat yoki xususiy protestni ko'rib chiqib:

1) ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;

2) ajrimni bekor qilishga va ishni mazmunan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;

3) ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga haqli.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligida apellatsiya institutining vujudga kelishi haqida tushuncha bering.
2. *Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan apellatsiya shikoyati berish (protest keltirish)ning protsessual tartibini tushuntiring.*
3. Sud qarorlarini apellatsiya tartibida bekor qilish asoslarini izohlab bering.
4. Apellatsiya instansiyasida ish ko'rish tartibi va apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlarini sanab o'ting.
5. Apellatsiya shikoyati va protestining mazmunini tushuntiring.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2011.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.

27-bob. BIRINCHI INSTANSIYA SUDNING HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN KASSATSIYA SHIKOYATI BERISH (PROTEST KELTIRISH)

27.1. Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlarini kassatsiya tartibida qayta tekshirish institutining vazifasi va mohiyati

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining «Birinci instansiya sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protesti keltirish)» deb nomlangan 38-bobi 2000-yil 14-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonuniga muvofiq kiritilgan¹.

Shu davrga qadar fuqarolik protsessual qonunchiligida kassatsiya sudlov instansiyasi amalda faoliyat yuritayotgan edi. Apellatsiya instansiyasining vujudga kelishi munosabati bilan amaldagi kassatsiya instituti yangi jihatlar bilan yanada takomillashtirildi. Endilikda nazariya va amaliyotda sud qarorlarini qayta tekshirishning appellatsiya, kassatsiya, nazorat va yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ish yuritish bosqichlaridan foydalanilmoqda.

Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlarini kassatsiya tartibida qayta tekshirish institutining vazifasi respublikamizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining mazmun-mohiyatini ro‘yobga chiqarish, sudlar tomonidan odil sudlovni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolik ishlarini hal qilishda moddiy va protsessual huquq normalariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlash va shu orqali sud qarorlarini qonuniy, asosli va adolatli chiqarilishiga erishish, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmini yanada kuchaytirish kabilarga qaratilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2001, № 1—2, 11-modda.

Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlarini kassatsiya tartibida qayta tekshirish institutining mohiyati ushbu institutning vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi:

- *birinchidan*, Fuqarolik protsessual kodeksida sud qarorlarini qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan qayta tekshirish bosqichining mavjudligi;

- *ikkinchidan*, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmining (shikoyat berish, protest keltirish orqali) yaratilganligi;

- *uchinchidan*, kassatsiya instansiyasi sudining ishni ko'rish doirasi, muddatlari va sudning vakolatlarining keng qamrovli ekanligi va boshq.

27.2. Kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi va tartibi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹-moddasiga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan, apellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348²-moddasiga asosan, quyidagilar:

- 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

- 2) O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi okrug va hududiy harbiy sudlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

4) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay‘ati — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay‘atining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348³-moddasiga ko‘ra, kassatsiya shikoyatlari va protestlari kassatsiya instansiyasi sudi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

Vakil tomonidan berilgan kassatsiya shikoyatiga ishonchnoma yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlaydigan boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Kassatsiya shikoyati yoki protesti ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdordagi nusxalari bilan sudga beriladi. Sudya, zarur hollarda, kassatsiya shikoyati bergan shaxs yoki kassatsiya protesti keltirgan prokuror zimmasiga kassatsiya shikoyati yoki protestiga ilova qilingan yozma materiallarning nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga mutanosib miqdorda taqdim etish majburiyatini yuklashi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348⁴-moddasiga binoan, kassatsiya shikoyati yoki protestida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

1) shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi;

2) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi);

3) shikoyat berilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud;

4) hal qiluv qarorining noto‘g‘riligi nimadan iborat ekanligi;

5) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning iltimosi;

6) shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro‘yxati.

Kassatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Kassatsiya protesti ushbu ishda qatnashganligidan qat’iy nazar prokuror yoki uning o‘rinbosari tomonidan keltiriladi va imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348⁵-moddasiga muvofiq, agar kassatsiya shikoyati berish yoki protesti keltirish paytida FPKning 348³ va 348⁴-moddalari talablari

buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa yoki davlat boji to'lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat berganlik uchun boj to'lamagan bo'lsa, kassatsiya shikoyati yoki protesti harakatsiz qoldiriladi. Kassatsiya shikoyati yoki protestini harakatsiz qoldirish to'g'risida sudya bu shikoyat yoki protestning harakatsiz qoldirilishiga asos bo'lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko'rsatib ajrim chiqaradi.

Agar shikoyat bergan yoki protest keltirgan shaxs ajrimda ko'rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda tuzatsa, shikoyat yoki protest dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanib, shikoyat bergan yoki protest keltirgan shaxsga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348⁶-moddasiga ko'ra, sudya yoki sud raisi kassatsiya shikoyati yoki protestini olgandan so'ng:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxalarini yuborishi;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ishni kassatsiya instansiyasida ko'rish vaqti va joyi to'g'risida ma'lum qilishi;

3) sud qarori ijrosini (agar u ijro etilmagan bo'lsa) ish kassatsiya tartibida ko'rilguniga qadar to'xtatib qo'yishi va bu xususda manfaatdor shaxslar, tashkilotlarni xabardor etishi;

4) kassatsiya shikoyati yoki protesti kelib tushgan kundan e'tiboran, yigirma kunlik muddat ichida ishni tushgan shikoyat yoki protest bilan birga kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va tushgan shikoyatlar yoki protestlar bilan tanishishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348⁷-moddasiga binoan, protsessda kassatsiya shikoyati bergan taraf tomonida qatnashayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishlari mumkin. Shikoyatga qo'shilish haqida ariza bergan vaqtda davlat boji undirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348⁸-moddasiga muvofiq, ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat yoki protest yuzasidan sudga tushuntirish berish (e'tiroz bildirish)ga haqli, bu tushuntirish (e'tiroz)ni tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilib topshiriladi. Tushuntirish (e'tiroz) ishda ishtirok etuvchi

shaxslarning soniga mutanosib miqdordagi nusxalari bilan sudga taqdim etiladi. Bu nusxalarni sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi (yuboradi).

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348⁹-moddasiga asosan, kassatsiya instansiyasi sudi zarur hollarda:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protest yuzasidan tushuntirish berish (e'tiroz bildirish)ni taklif qiladi. Tushuntirishlar (e'tirozlar)ning, shuningdek, ularga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha dalillarni talab qilib olishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹⁰-moddasiga binoan, kassatsiya shikoyati bergan shaxs uni to'ldirish, o'zgartirish yoki undan voz kechishga haqli. Kassatsiya protesti keltirgan prokuror, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror sud majlisi boshlanguniga qadar protestni to'ldirish, o'zgartirish yoki qaytarib olishga haqli. Agar hal qiluv qarori ustidan boshqa shaxslar shikoyat bermagan bo'lsa, shikoyatdan voz kechish qabul qilinganligi to'g'risida va protest qaytarib olingan taqdirda, kassatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarib, kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹¹-moddasiga ko'ra, kassatsiya shikoyati berilgan yoki protest keltirilgandan keyin da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda bayon etilib, kassatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi lozim. Agar ishni ko'rish vaqtida da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechsa, javobgar arz qilingan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzishsa, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yib, uni tegishlicha da'vogar, javobgar yoki har ikki taraf imzolaydi. Sud da'vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da'vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi qabul qilingan yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlangan taqdirda kassatsiya instansiyasi sudi chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor

qiladi va ish yuritishni tugatadi. Agar da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoxud kimningdir huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo'lsa, sud voz kechishni rad qiladi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlamaydi hamda ishni kassatsiya tartibida ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹²-moddasiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e'tiboran, bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi lozim. Ish o'ta murakkab bo'lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko'pi bilan yana yigirma kunga uzaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e'tiboran, bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi lozim. Alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki uning o'rinbosari bu muddatni ko'pi bilan yana bir oyga uzaytirishi mumkin.

Ishni kassatsiya instansiyasida ko'rish muddati uzaytirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish ko'riladigan kun oldindan xabar qilib qo'yilishi lozim.

27.3. Shikoyat va protest yuzasidan kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹³-moddasiga muvofiq, ishni kassatsiya tartibida ko'rayotganida sud birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini kassatsiya shikoyati yoki protestining vajlari hamda ular yuzasidan bildirilgan e'tirozlar doirasida tekshiradi. U yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹⁴-moddasiga asosan, kassatsiya instansiyasining sud majlisi FPKning 14, 333—342-moddalarida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹⁵-moddasiga ko'ra, sud ishni kassatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan:

1) hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;

2) hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) FPKning 314-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda ishni yangidan ko'rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga haqli;

4) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda FPKning 97 va 100-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko'rmasdan qoldirishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹⁶-moddasiga binoan, birinchi instansiya sudining apellatsiya tartibida ko'rilmagan ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida holda kassatsiya instansiyasi sudiga sud ajrimi chiqarilgan kundan e'tiboran, bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan shikoyat berilishi hamda prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 348¹⁷-moddasiga asosan, kassatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyat yoki xususiy protestni ko'rib:

1) ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;

2) ajrimni bekor qilishga va ishni mohiyatan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;

3) ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga hamda masalani mohiyatan hal qilishga haqli.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Kassatsiya tartibida qayta tekshirish institutining vazifalarini sanab bering.
2. Kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi va tartibini tushuntiring.
3. Shikoyat va protest yuzasidan kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlarini izohlang.
4. Kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi berilgan subyektlar haqida ma'lumot bering.
5. Kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirishda davlat boji belgilanganmi?
6. Kassatsiya tartibida ish yuritishda amal qilinadigan protsessual muddatlarga to'xtalng.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2011.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. *J.T. Xolmo'minov, A.X. Dusmanov, T.N. Tillayeva*. Fuqarolik protsessi. Ma'ruzalar kursi. T., O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
6. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.

28-bob. QONUNIY KUCHGA KIRGAN HAL QILUV QARORLARI, AJRIMLAR VA QARORLARNI NAZORAT TARTIBIDA QAYTA KO'RISH

28.1. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida tekshirishning mazmuni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 39-bob (349—361-moddalar)ji qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qayta tekshirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu institutning maqsadi va vazifasi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirishga qaratilgan.

Sud qarorlarini nazorat tartibida tekshirishning mazmuni quyidagilarda ko'rinadi:

- *birinchidan*, ushbu institut fuqarolik protsessining muhim va mustaqil bosqichi sanaladi;

- *ikkinchidan*, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida tekshirish faoliyatini amalga oshiradi;

- *uchinchidan*, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida tekshirish orqali ularning qonuniy, asosli va adolatli ekanligini ta'minlaydi;

- *to'rtinchidan*, nazorat tartibida sud qarorlarini tekshirish faoliyati qonunda ko'rsatilgan (FPKning 349-moddasi) maxsus subyektlar tomonidan amalga oshiriladi;

- *beshinchidan*, nazorat tartibida sud qarorlarini tekshirish va qayta ko'rish faoliyatida maxsus subyektlar nomiga nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi ariza berish yo'li bilan fuqarolarning ishtiroki ta'minlanishiga yo'l qo'yiladi.

- *oltinchidan*, nazorat tartibida sud qarorlarini qayta ko'rishda aniq protsessual qoidalar (maxsus subyektlar, sudga murojaat qilish muddati, ish ko'rish doirasi, ishni talab qilib olish, sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish, ishni nazorat tartibida ko'rayotgan sudning vakolatlari va boshq.) mustahkamlangan bo'ladi.

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida tekshirishning ahamiyati shundaki, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarining himoyasi ta'minlanadi hamda qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qonuniy, asosli va adolatli ekanligini nazorat tartibida tekshirish imkoniyati tug'iladi hamda fuqarolarning odil sudlovni amalga oshirish tizimiga bo'lgan hurmat va ishonchi yanada ortadi.

28.2. Fuqarolik ishlari bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar ustidan nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 349-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi barcha sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari quyidagilar keltirgan protestlar bo'yicha nazorat tartibida qayta ko'rilishi mumkin:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi raisi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislari — tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining, okrug va hududiy harbiy sudlarning hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan hamda tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudlov hay'atlari apellatsiya, kassatsiya ajrimlari ustidan keltirgan protestlar bo'yicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqilgan ishlar yuzasidan apellatsiya, kassatsiya ajrimlari bundan mustasno;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining, okrug va hududiy harbiy sudlarning hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan hamda tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudlov hay'atlari

apellatsiya, kassatsiya ajrimlari ustidan keltirgan protestlar bo'yicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqilgan ishlar yuzasidan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari bundan mustasno;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosarlari — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan keltirgan protestlar bo'yicha;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan keltirgan protestlar bo'yicha;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi — O'zbekiston Respublikasi barcha sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan keltirgan protestlar bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 350-moddasiga asosan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi ariza tegishli yuqori sudning raisi nomiga yoziladi va yuqori sudga beriladi.

Nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi ariza mazmun jihatidan ushbu kodeksning 323-moddasiga muvofiq bo'lishi lozim. Arizaga sud chiqargan hal qiluv qarorining nusxasi, agar ish apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ham ko'rib chiqilgan bo'lsa, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudlarining ajrimlari (qarorlari) nusxalari ham ilova qilinadi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 350-moddasiga ko'ra, protest keltirish haqidagi arizaga qo'yilgan talablar (FPKning 323-moddasi)ga rioya qilinmagan yoki davlat boji to'lanmagan taqdirda, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi ariza harakatsiz qoldiriladi, arizachiga esa, kamchiliklarni bartaraf etish tartibi va muddati tushuntiriladi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran, uch yil o'tgandan keyin berilgan arizalar ko'rilmaydi.

Protest keltirish to'g'risidagi ariza bir oylik muddatda, ish talab qilib olinadigan va tekshiriladigan hollarda ikki oygacha bo'lgan

muddatda ko'rib chiqilishi kerak. Protest keltirish uchun asos bo'lmasa, ariza bergan shaxsga arizani qanoatlantirmasdan qoldirish sabablari ko'rsatilib, yozma javob berilishi lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi raisi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari hamda O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisi protest keltirishni rad qilganligi ustidan arizachi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki uning o'rinbosarlariga shikoyat berishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori hamda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori protest keltirishni rad qilganligi ustidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlariga shikoyat berish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 351-moddasiga binoan, ishni talab qilib olish ushbu kodeksning 349-moddasida sanab o'tilgan mansabdor shaxslar, shuningdek, tuman va shahar prokurorlari nazorat tartibida protest keltirishga asos bor-yo'qligi masalasini hal qilish uchun o'z vakolatlari doirasida tegishli sudlardan fuqarolik ishlarini talab qilib olishga haqlidirlar. Basharti, ishni talab qilib olgan shaxs muayyan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorga nisbatan protest keltirish huquqiga ega bo'lmasa, u zarur hollarda, protest keltirish huquqiga ega bo'lgan yuqori mansabdor shaxsga nazorat tartibida protest keltirishni tavsiya qilib murojaat etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 352-moddasiga asosan, nazorat tartibida protest keltirish huquqi berilgan prokuror va uning o'rinbosarlaridan tashqari mansabdor shaxslar tegishli hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning ijrosini nazorat tartibida ish yuritish tamom bo'lguniga qadar to'xtatib turishlari mumkin, ushbu kodeksning 219-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Protest keltirish uchun asos bo'lmagan taqdirda, shu mansabdor shaxslar tegishli hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning ijrosini to'xtatib turishni bekor qiladilar. To'xtatib turish va to'xtatib turishni bekor qilish haqida manfaatdor shaxslarga, tashkilotlarga va sudga ma'lum qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 353-moddasiga ko'ra, protest keltirish uchun asos mavjud bo'lsa, ushbu kodeksning 349-moddasida sanab o'tilgan mansabdor shaxslar protest yozib, uni ish bilan birga tegishli sudga yuboradilar.

Protestning mazmuni ushbu kodeksning 323-moddasida bayon etilgan qoidalarga mos kelishi lozim. Protest sudda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib ravishda nusxalari bilan taqdim qilinadi.

28.3. Fuqarolik ishlari bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida ko'ruvchi sudlar va ish yuritishning protsessual tartibi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 354-moddasiga muvofiq, protestlarni ko'radigan sudlar:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining rayosatlari tegishincha mazkur sudlarning, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari chiqargan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan keltirilgan protestlari bo'yicha ishlarni ko'radi.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari rayosatlarining qarorlari ustidan keltirilgan protestlar bo'yicha, shuningdek, mazkur sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar bo'yicha apellatsiya va kassatsiya ajrimlari bo'yicha ishlarni ko'radi.

- O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining rayosati mazkur sudning okrug va hududiy harbiy sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar ustidan chiqargan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan keltirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'radi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosatining qarorlari ustidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining mazkur sud tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar ustidan keltirilgan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari yuzasidan keltirilgan protestlari bo'yicha ishlarni ko'radi.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan keltirilgan protestlar bo'yicha ishlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining nazorat tartibida chiqargan ajrimlarini ko'radi.

• O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenumi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining qarorlari ustidan nazorat tartibida keltirilgan protestlar bo‘yicha ishlarni ko‘radi.

Zarur hollarda protestlar bo‘yicha ishlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudini chetlab o‘tib, nazorat tartibida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay‘atlari tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 355-moddasiga asosan, taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ularning ishi bo‘yicha keltirilgan protestning nusxasi yuboriladi. Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ishni ko‘rish vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilinadi.

Protestning nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud tomonidan yuboriladi. Sud ishni ko‘rish vaqtini tayinlaganida ishda ishtirok etuvchi shaxslar protest yuzasidan yozma tushuntirishlari (e‘tirozlari)ni va qo‘shimcha materiallarni sudga taqdim qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini hisobga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 356-moddasiga ko‘ra, nazorat tartibida protest keltirgan mansabdor shaxs protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki qaytarib olishga haqli.

Prokuror keltirgan protestni yuqori turuvchi prokuror ham to‘ldirishi, o‘zgartirishi yoki qaytarib olishi mumkin.

Protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki qaytarib olishga protest ko‘riladigan sud majlisi boshlanguniga qadargina yo‘l qo‘yiladi. Protest to‘ldirilganligi, o‘zgartirilganligi yoki qaytarib olinganligi haqida ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilinadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 357-moddasiga binoan, sud ishni nazorat tartibida ko‘rganida birinchi instansiya va apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarining moddiy va protsessual huquq normalarini ishdagi mavjud materiallar bo‘yicha protestda keltirilgan vajlar doirasida qanchalik to‘g‘ri qo‘llaganliklarini tekshiradi.

Basharti, sud qarorida boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari buzilgan bo‘lsa, sud protest doirasidan chetga chiqishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 358-moddasiga ko‘ra, nazorat tartibida keltirilgan protestni ko‘rishda ushbu kodeksning 333, 335 va 336-moddalarida bayon etilgan

qoidalar shu bobda bayon etilgan istisnolarni hisobga olgan holda qo'llanadi.

Sudlov hay'atida, sud rayosati va plenumida rais yoki uning topshirig'iga binoan, ilgari ishni ko'rishda qatnashmagan sudya, rayosat yoki plenum a'zosi ish yuzasidan ma'ruza qiladi. Ma'ruzada: ishning holatlari, ish bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror, shuningdek, protestning mazmuni bayon etiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish ko'riladigan vaqt va joy haqida xabardor qilinmagan bo'lishlariga qaramay, sudga kelgan hollarda ham sud majlisiga kiritiladilar. Bu shaxslar sudga ish bo'yicha ma'ruza qilinganidan keyin tushuntirishlar beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 359-moddasiga asosan, ishni nazorat tartibida ko'rishda prokuror qatnashib, o'zi yoki yuqori turuvchi prokuror keltirgan protestni quvvatlaydi yoxud sud raisi yoki uning o'rinbosari keltirgan protest bo'yicha ko'rilayotgan ish yuzasidan o'z fikrini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 360-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosatlarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining ajrimlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlari ushbu kodeksning 14 va 204-moddalarida nazarda tutilgan tartibda chiqariladi. Protest qanoatlantirilishini yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar teng bo'lib qolsa, protest rad etilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atining nazorat tartibidagi protest bo'yicha chiqargan ajrimi sudning to'liq tarkibi tomonidan imzolanadi. Sud rayosatining qarori rayosat majlisida raislik qiluvchi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

28.4. Sud qarorlarini nazorat tartibida ko'rayotgan sudning vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 361-moddasiga binoan, sud ishni nazorat tartibida ko'rib, o'zining ajrimi yoki qarori bilan:

1) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni o'zgarishsiz, protestni esa qanoatlantirmay qoldirishga;

2) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni butunlay yoxud qisman bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudi yoki apellatsiya yoxud kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;

3) hal qiluv qarorini, ajrim yoxud qarorni butunlay yoki qisman bekor qilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko'rmasdan qoldirishga;

4) ish bo'yicha ilgari chiqarilgan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarordan birini o'z kuchida qoldirishga;

5) hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va ishni yangidan ko'rib chiqish uchun yubormasdan, yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli.

28.5. Nazorat tartibida sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qayta ko'rishning kassatsiya tartibida ish ko'rishdan farqi (subyekti, obyekti, protsessual tartibi va vakolatlari bo'yicha)

Nazorat tartibida sud qarorlarini qayta ko'rishning kassatsiya tartibida ish ko'rish bilan o'xshashlik jihatlari:

*Birinchi*dan, kassatsiya va nazorat tartibida ish yuritish o'z obyektiga ko'ra, bir-biriga o'xshaydi, chunonchi mazkur qayta tekshirish institutlarining obyekti bo'lib qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari (hal qiluv qarori, ajrim, qaror) sanaladi. Aynan qonuniy kuchga kirganlik xususiyati ularning faoliyat maqsadini belgilaydi, lekin obyekti bo'yicha ayrim farqli jihatlarni ham ko'rish mumkin.

*Ikkinchi*dan, FPKning 312–314-moddalariga binoan, sud qarorlarini bekor qilish asoslariga ko'ra, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari faoliyati bir-biriga o'xshaydi.

*Uchinchi*dan, faoliyat maqsadiga ko'ra, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari faoliyatining o'xshashligi shundaki, FPKning 310-moddasiga binoan, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirishga qaratilgan.

*To'rtinchi*dan, FPKning 315-moddasiga ko'ra, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari ajrimi (qarori)ning mazmuni (yozilish shakli) bir-biriga o'xshaydi.

Mazkur instansiyalarning farqli jihatlari quyidagilar orqali ochib beriladi:

Birinchidan, obyektiga ko‘ra, kassatsiya tartibida ish ko‘rishda birinchi instansiya sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish va protest keltirish mumkin.

Nazorat tartibida ish ko‘rishda qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar ustidan protest yoki protest keltirish to‘g‘risidagi ariza berish mumkin.

Ikkinchidan, subyektiga ko‘ra, kassatsiya tartibida ish ko‘rishda sudga murojaat qiluvchi shaxslar deganda taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushuniladi.

Nazorat tartibida ish ko‘rish bosqichida esa FPKning 349-moddasida ko‘rsatilgan protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar (maxsus subyektlar)ning keltirgan protestlariga asosan jarayon boshlanadi.

Uchinchidan, shikoyat va protest berish muddatlariga ko‘ra, kassatsiya tartibida ish ko‘rish uchun sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e‘tiboran, bir yil ichida kassatsiya shikoyati berilishi hamda prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Nazorat tartibida ishni qayta ko‘rish bosqichida FPKning 350-moddasiga ko‘ra, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran, uch yil ichida nazorat protestini keltirish to‘g‘risidagi ariza berilishi mumkin.

To‘rtinchidan, shikoyat (protest) berish tartibiga ko‘ra, kassatsiya shikoyatlari va protestlari kassatsiya instansiyasi sudi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

Nazorat tartibida protest keltirish to‘g‘risidagi ariza tegishli yuqori sudning raisi nomiga yoziladi va yuqori sudga beriladi.

Beshinchidan, ish ko‘rish doirasiga ko‘ra, FPKning 348¹³-moddasida kassatsiya instansiyasi sudning ishni ko‘rish doirasi ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra, sud ishni kassatsiya tartibida ko‘rayotganida birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini kassatsiya shikoyati yoki protestining vajlari hamda ular yuzasidan bildirilgan e‘tirozlar doirasida tekshiradi. U yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

FPKning 357-moddasida ishni nazorat tartibida ko‘rish doirasi ko‘rsatilgan bo‘lib, sud ishni nazorat tartibida ko‘rganida birinchi instansiya va apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarining moddiy va protsessual huquq normalarini ishdagi mavjud materiallar bo‘yicha protestda keltirilgan vajlar doirasida qanchalik to‘g‘ri

qoʻllaganliklarini tekshiradi. Basharti, sud qarorida boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlari buzilgan boʻlsa, sud protest doirasidan chetga chiqishi mumkin.

Oltinchidan, vakolatiga koʻra, FPKning 361-moddasida ishni nazorat tartibida koʻrayotgan sudning vakolatlari berilgan boʻlib, unga koʻra, sud ishni nazorat tartibida koʻrib, oʻzining ajrimi yoki qarori bilan:

1) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni oʻzgarishsiz, protestni esa qanoatlantirmay qoldirishga;

2) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni butunlay yoxud qisman bekor qilishga va ishni yangidan koʻrish uchun birinchi instansiya sudi yoki apellatsiya yoxud kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;

3) hal qiluv qarorini, ajrim yoxud qarorni butunlay yoki qisman bekor qilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud arizani koʻrmasdan qoldirishga;

4) ish boʻyicha ilgari chiqarilgan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarordan birini oʻz kuchida qoldirishga;

5) hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni oʻzgartirishga yoxud bekor qilishga va ishni yangidan koʻrib chiqish uchun yubormasdan, yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat berilganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni koʻradigan kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari FPKning 348¹⁵-moddasida koʻrsatilgan boʻlib, unga asosan sud ishni kassatsiya tartibida koʻrib chiqqach, oʻz ajrimi bilan:

1) hal qiluv qarorini oʻzgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;

2) hal qiluv qarorini oʻzgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) ushbu kodeksning 314-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud boʻlgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda ishni yangidan koʻrib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga haqli;

4) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda ushbu kodeksning 97 va 100-moddalarida koʻrsatilgan asoslarga koʻra, ish yuritishni tugatishga yoxud arizani koʻrmasdan qoldirishga haqli.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida tekshirishning ahamiyatini tushuntiring.
2. Hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarga nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini izohlang.
3. Hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida ko'ruvchi sudlar va ish yuritishning protsessual tartibini tushuntiring.
4. Sud qarorlarini nazorat tartibida ko'rayotgan sudning vakolatlariga to'xtaling.
5. Nazorat tartibida ish ko'rish doirasini tushuntiring.
6. Nazorat tartibida sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarini qayta ko'rishning kassatsiya tartibida ish ko'rishdan farqli jihatlari (obyekti, subyekti, protsessual tartibi va vakolatlari bo'yicha)ni izohlang.



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2011.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. *J.T. Xolmo'minov, A.X. Dusmanov, T.N. Tillayeva*. Fuqarolik protsessi. Ma'ruzalar kursi. T., O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
6. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.

29-bob. QONUNIY KUCHGA KIRGAN HAL QILUV QARORLARI, AJRIMLAR VA QARORLARNI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH

29.1. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish tushunchasi va asoslari

Fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilinishini ta'minlash, har bir shaxsning odil sudlov faoliyatiga nisbatan ishonch va hurmatini yanada oshirish, ishlarni sudda ko'rish jarayonida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual tartibga qat'iy rioya qilish mexanizmini kuchaytirish hamda ularning amalga oshirayotgan protsessual harakatlarining oqibatlarini to'g'ri anglashlariga imkoniyat va sharoit yaratish, qolaversa, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli chiqarilishini ta'minlashga erishish maqsadida fuqarolik protsessual huquqida yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 40-bobi (362—369-moddalar) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish masalalariga bag'ishlanadi.

Yuridik adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, «Yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud qarorlarini qayta tekshirish instituti fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi sanalib¹, bizning nazarimizda, qonunda belgilangan asoslarga muvofiq fuqarolik ishlarining mazmuni bo'yicha (takroran) qayta ko'rish sharoitini yaratadi

¹ *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., «Adolat», 2001, 488—491-bet; *Гражданский процесс. Особенная часть.* М., «Норма», 2010, стр. 730—744; *Гражданский процесс. Учебник.* 3-е изд. Пер. и доп. (Под ред. М.К. Треушников). М., «Городец», 2010, стр. 669—676; *Г.В. Сахнова.* Курс гражданского процесса: теоретические начала и основные институты. М., «Волтерс Клувер», стр. 578—587.

hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan «sud xatosi»ni oldini olish va lozim bo'lganda tuzatish imkoniyatini beradi».

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning maqsadi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qonunda belgilangan asoslarga binoan, qayta tekshirish hamda lozim bo'lganda qayta ko'rishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 362-moddasida qayta ko'rish asoslari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rilishi mumkin:

1) arizachiga noma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar;

2) sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan va noqonuniy, asossiz yoki adolatsiz qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan holatlar, ya'ni guvohning bila turib bergan yolg'on ko'rsatmasi, ekspertning bila turib bergan yolg'on xulosasi, atayin noto'g'ri qilingan tarjima, qalbaki hujjatlar yoki ashyoviy dalillar;

3) sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning yoki sudyalarning muayyan ishni ko'rishda sodir etgan jinoiy qilmishlari;

4) sud chiqargan hal qiluv qarori, hukm, ajrim yoki qarorning yoxud shu hal qiluv qarori, ajrim va qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan boshqa organlar qarorining bekor qilinishi kabi holatlar belgilangan.

29.2. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning protsessual tartibi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 363-moddasida hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'radigan sudlar tizimi berilgan bo'lib, unga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yangi ochilgan holatlar bo'yicha shu hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan qayta ko'riladi. Birinchi instansiya sudi chiqargan hal qiluv qarorini o'zgartirgan yoki yangi hal qiluv qarori chiqargan apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudlarining ajrim va qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish hal qiluv qarorini o'zgartirgan yoki yangi hal qiluv qarori chiqargan sud tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 364-moddasiga asosan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish haqidagi ariza ishda ishtirok etgan shaxslar yoki prokuror tomonidan hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni chiqargan sudga beriladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bunday arizani hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran, uch oy muddat ichida berishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 365-moddasiga binoan, ariza berish muddati:

1) ushbu kodeksning 362-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan hollarda — ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlar ochilgan kundan e'tiboran;

2) ushbu kodeksning 362-moddasi 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda - sudning hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran;

3) ushbu kodeksning 362-moddasi 4-bandida nazarda tutilgan hollarda — qayta ko'rilayotgan hal qiluv qaroriga, ajrim yoki qarorga asos bo'lgan hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorga mazmunan qarama-qarshi bo'lgan sud hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan yoxud boshqa organing ana shunday qarori chiqarilgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 366-moddasiga ko'ra, arizani ko'rish sud yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi arizani arizachini va ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'radi. Biroq, bu shaxslarning kelmasligi arizani ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 367-moddasiga asosan, sud yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib, uni qanoatlantiradi va hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni bekor qiladi yoxud ishni qayta ko'rishni rad qiladi. Mazkur holatlarni sud o'z ajrimi orqali rasmiylashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 368-moddasiga binoan, sudning ajrimi ustidan shikoyat berish asoslari quyidagicha:

- Hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi arizani qanoatlantirish to'g'risida sudning chiqargan ajrimi ustidan shikoyat berilmaydi.

- Hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi arizani rad qilish to'g'risidagi ajrim ustidan qonunda (FPKning 346—347-moddalari) nazarda tutilgan tartibda apellatsiya shikoyati berilishi yoki protest keltirilishi mumkin.

- Hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, ish sud tomonidan umumiy asoslarda ko'riladi.

29.3. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning nazorat tartibida ish ko'rishdan farqli jihatlarini

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish fuqarolik protsessual huquqidagi sud qarorlarini qayta tekshirish institutlaridan biri sanalib, mazkur institut subyektini, obyekti, mazmuni, muddatlari, qayta ko'rish asoslari va protsessual tartibiga ko'ra, boshqa sud qarorlarini qayta tekshirish institutlari faoliyatidan sezilarli farq qiladi. Xususan, ushbu institut obyektiga ko'ra, sud qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rishga o'xshaganligi sababli ularning o'zaro farqli jihatlarini ham ko'rsatishga harakat qilindi:

Birinchidan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishga oid munosabatlarning subyektini bo'lib, Fuqarolik protsessual kodeksining 33-moddasida ko'rsatilgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanadi.

Nazorat tartibida ish yuritishda Fuqarolik protsessual kodeksining 349-moddasida ko'rsatilgan maxsus subyektlar (protest keltirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar) tomonidan keltirilgan protestlarga ko'ra ish qo'zg'atiladi.

Ikkinchidan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ish ko'rishning obyektiga esa faqat qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar kiradi. Bunday sud qarorlari deganda birinchi va yuqori sudlov instansiyalari tomonidan chiqarilgan sud qarorlari tushuniladi.

Nazorat tartibida ish yuritishda ham qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar tekshiriladi.

Uchinchidan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishga oid munosabatlarning mazmuni deganda yangi ochilgan holatlar

bo'yicha ish yuritish vakolatiga ega bo'lgan sudlar tomonidan mazkur tartibda ish ko'rish bosqichida vujudga keladigan protsessual huquqiy munosabatlar, protsessual harakatlar, protsessual huquq va burchlar tushuniladi.

Nazorat tartibida ish yuritishda maxsus subyektlarning sudga murojaati natijasida alohida sudlov instansiyasida vujudga keladigan protsessual huquqiy munosabatlar nazarda tutiladi.

To'rtinchidan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritish asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 362-moddasida belgilab qo'yilgan asoslarga muvofiq ish yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 322-moddasida sudning qarorini apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida bekor qilishga quyidagilar asos bo'lishi ko'rsatilgan:

1) ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'liq aniqlanmaganligi;

2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

3) sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;

4) moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanganligi;

Ushbu asoslar, nafaqat, nazorat tartibida, balki apellatsiya, kassatsiya tartibida sud qarorlarini tekshirish uchun ham qo'llaniladi.

Beshinchidan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishda faqat qonunda belgilangan yangi ochilgan holatlar bo'yicha berilgan arizaga asosan ish ko'riladi. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish haqidagi ariza ishda ishtirok etgan shaxslar yoki prokuror tomonidan hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni chiqargan sudga beriladi.

Nazorat tartibida ish yuritishda sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish haqidagi murojaat (ariza va protest)larga asosan ish ko'riladi. Mazkur holatda FPKning 349-moddasida belgilangan protest keltirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan protest keltiriladi. FPKning 350-moddasiga ko'ra, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi ariza tegishli yuqori sudning raisiga yoki protest keltirish huquqiga ega bo'lgan prokurorga beriladi.

Oltinchidan, murojaat qilish muddatiga ko'ra, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishda FPKning 364, 365-moddalariga asosan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar bunday arizani hal qiluv

qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran, uch oy muddat ichida berishlari mumkin.

Nazorat tartibida ish yuritishda FPKning 350-moddasiga binoan, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran, uch yil o'tgandan keyin berilgan arizalar ko'rilmaydi, deb belgilab qo'yilgan. Shu bois sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran, uch yil mobaynida shaxslar tomonidan ariza berishga yo'l qo'yiladi.

Yettinchidan, ish ko'rish doirasiga ko'ra, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishda FPKning 369-moddasiga binoan, hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish sudning ishni qayta ko'rish to'g'risidagi ajrimiga asosan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, ish sud tomonidan umumiy asoslarda ko'riladi.

Nazorat tartibida ish yuritishda FPKning 357-moddasiga ko'ra, sud ishni nazorat tartibida ko'rganida birinchi instansiya va apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarining moddiy va protsessual huquq normalarini ishdagi mavjud materiallar bo'yicha protestda keltirilgan vajlar doirasida qanchalik to'g'ri qo'llaganliklarini tekshiradi.

Basharti, sud qarorida boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatleri buzilgan bo'lsa, sud protest doirasidan chetga chiqishi mumkin.

Sakkizinchidan, ish ko'ruvchi sudlar tizimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 363-moddasiga binoan, hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'radigan sudlar.

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yangi ochilgan holatlar bo'yicha shu hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan qayta ko'riladi. Birinchi instansiya sudi chiqargan hal qiluv qarorini o'zgartirgan yoki yangi hal qiluv qarori chiqargan apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudlarining ajrim va qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish hal qiluv qarorini o'zgartirgan yoki yangi hal qiluv qarori chiqargan sud tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 354-moddasiga asosan, protestlarni ko'radigan sudlar quyidagilar hisoblanadi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar

sudlarining rayosatlari tegishincha mazkur sudlarning, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari chiqargan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan keltirilgan protestlari bo'yicha ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari rayosatlarining qarorlari ustidan keltirilgan protestlar bo'yicha, shuningdek, mazkur sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar bo'yicha apellatsiya va kassatsiya ajrimlari bo'yicha ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining rayosati mazkur sudning okrug va hududiy harbiy sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar ustidan chiqargan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan keltirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'radi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosatining qarorlari ustidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining mazkur sud tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar ustidan keltirilgan apellatsiya va kassatsiya ajrimlari yuzasidan keltirilgan protestlari bo'yicha ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining apellatsiya va kassatsiya ajrimlari ustidan keltirilgan protestlar bo'yicha ishlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining nazorat tartibida chiqargan ajrimlarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining qarorlari ustidan nazorat tartibida keltirilgan protestlar bo'yicha ishlarni ko'radi.

Zarur hollarda protestlar bo'yicha ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini chetlab o'tib, nazorat tartibida bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

To'qqizinchidan, ish ko'ruvchi sudlarning vakolatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 367-moddasiga asosan sud yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib, uni qanoatlantiradi va hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni

bekor qiladi yoxud ishni qayta ko'rishni rad qiladi hamda bu haqda ajrim chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 360-moddasiga binoan, nazorat tartibidagi protestlar bo'yicha ajrim va qarorlar quyidagi sudlar tomonidan:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosatlarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlarining ajrimlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlari ushbu kodeksning 14 va 204-moddalarida nazarda tutilgan tartibda chiqariladi.

Protest qanoatlantirilishini yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar teng bo'lib qolsa, protest rad etilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atining nazorat tartibidagi protest bo'yicha chiqargan ajrimi sudning to'liq tarkibi tomonidan imzolanadi. Sud rayosatining qarori rayosat majlisida raislik qiluvchi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 361-moddasiga asosan, ishni nazorat tartibida ko'rayotgan sudning vakolatlarini quyidagilar tashkil etadi.

Sud ishni nazorat tartibida ko'rib, o'zining ajrimi yoki qarori bilan:

1) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni o'zgarishsiz, protestni esa qanoatlantirmay qoldirishga;

2) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni butunlay yoxud qisman bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudi yoki apellatsiya yoxud kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;

3) hal qiluv qarorini, ajrim yoxud qarorni butunlay yoki qisman bekor qilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko'rmasdan qoldirishga;

4) ish bo'yicha ilgari chiqarilgan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarordan birini o'z kuchida qoldirishga;

5) hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va ishni yangidan ko'rib chiqish uchun yubormasdan, yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish asoslarini izohlang.
2. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning protsessual tartibini tushuntiring.
3. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning nazorat tartibida ish ko'rishdan farqli jihatlarini tushuntiring.
4. Sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishda davlat boji va boshqa chiqimlar masalasi qanday hal etiladi?
5. Arizachiga noma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar deganda nimani tushunasiz?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T., «Adolat», 2011.
3. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *E. Egamberdiyev*. Sud ishlarini yuritish muammolari. O'quv qo'llanma. T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.

30-bob. SUD QARORLARI IJROSI

30.1. Sud va boshqa idoralar qarorlarining ijrosi fuqarolik protsessining yakunlovchi bosqichi

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar natijasida sud qarorlarini ijro etish sohasi rivojlandi va yanada takomillashib borayotganligini alohida qayd etish joiz. Sud qarorlarini ijro etish fuqarolik protsessining so'nggi bosqichi sifatida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, shaxsning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari shu bosqichda tiklanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 217-moddasiga ko'ra, sudning hal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat berilmagan yoki protest keltirilmagan bo'lsa, apellatsiya shikoyati berish va protest keltirish muddati o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi.

Hal qiluv qarori ustidan apellatsiya shikoyati berilgan yoki apellatsiya protesti keltirilgan taqdirda, hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori instansiya sudi ko'rib chiqqanidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Demak, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan so'ng ijro etiladi, Fuqarolik protsessual kodeksining 219-moddasida ko'rsatilgan darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlari bundan mustasno.

Qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonunlarda belgilangan tartibda ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga ko'ra, undiruvchi va qarzdor ijro ishi yuritishdagi taraflar hisoblanadi. Ijro hujjati kimning foydasiga yoki manfaatlarini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxs undiruvchi hisoblanadi. Ijro hujjatida nazarda tutilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkn undiruvchiga berish yoxud muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki ularni amalga

oshirishdan o'zini tiyish majburiyati zimmasiga yuklatilgan shaxs qarzdor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 371-moddasiga ko'ra, sud qarorining majburiy ijrosi qarorni qabul qilgan sud beradigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi. Ijro varaqasi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan so'ng sud tomonidan undiruvchiga beriladi, darhol ijro etish hollari bundan mustasnodir, bunda ijro varaqasi hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin darhol beriladi.

Har bir hal qiluv qarori bo'yicha bitta ijro varaqasi beriladi. Biroq, agar ijro turli joylarda yoki bir necha undiruvchining foydasiga amalga oshiriladigan bo'lsa, sud undiruvchilarning iltimosiga binoan, ijro joyini yoki hal qiluv qarori ijrosining har bir ijro varaqasiga tegishli qismini aniq ko'rsatgan holda bir necha ijro varaqasi beradi.

Bir necha javobgardan pul summalarini undirish to'g'risidagi hukm yoki hal qiluv qarori asosida javobgarlarning soni bo'yicha bir necha ijro varaqasi beriladi. Bunda, agar sherik javobgarlardan undirish nazarda tutilayotgan bo'lsa, har bir ijro varaqasida undiruvning umumiy summasi ko'rsatilishi va sherik javobgar ekanligi ko'rsatilgan holda javobgarlarning hammasi sanab o'tilishi lozim. Ijro varaqasi undiruvchiga beriladi yoki uning iltimosiga ko'ra, ijro qilish uchun bevosita sud tomonidan yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 2009-yil 10-apreldagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunini qo'llashda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar haqida»gi qo'shma qarorida ko'rsatilishicha, sud hujjati ijroga qaratilishining muhim sharti uning qonuniy kuchga kirishi hisoblanadi. Binobarin, sud hujjati qonuniy kuchga kirgan va shu asosda ijro varaqalari berilgandan so'ng kelib tushgan apellatsiya shikoyati (protesti)ning muddati tiklanib, ish yurituvga qabul qilinsa, sudning muddatni tiklash va apellatsiya shikoyat (protest)ini qabul qilish haqidagi ajrimida sud qarorining ijrosini to'xtatish masalasi ham hal qilinmog'i lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, sud qonun bo'yicha quyidagi hollarda har bir qaror bo'yicha bitta ijro varaqa berish lozimpligi to'g'risidagi qoidadan chekinishi mumkin, agar:

- sud hujjati bir necha undiruvchi foydasiga chiqarilgan bo'lsa;

• sud hujjatida bir necha qarzdordan undiruv nazarda tutilgan bo'lsa;

• sud hujjati turli joylarda ijro etilishi lozim bo'lsa.

Agar, sherik javobgarlardan undirish nazarda tutilayotgan bo'lsa, har bir ijro varaqasida undiruvning umumiy summasi ko'rsatilishi va sherik javobgar ekanligi ko'rsatilgan holda javobgarlarning hammasi sanab o'tilishi kerak¹.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessaul kodeksi 375-moddasiga ko'ra, ijro varaqasida ijro varaqasini bergan sudning nomi, ijro varaqasining qaysi ish yuzasidan berilganligi, uning raqami, hal qiluv qarori chiqarilgan vaqt, hal qiluv qarorining xulosa qismi (so'zma-so'z), hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirgan vaqti, ijro varaqasining berilgan vaqti va uni ijroga topshirish muddati, undiruvchi va qarzdorning nomlari (famiyasi, ismi, otasining ismi) hamda manzillari ko'rsatiladi. Ijro varaqasini sudya imzolaydi va sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni 3-moddasiga ko'ra, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti organlarining sud ijrochilari zimmasiga yuklatiladi.

Pul mablag'larini undirish to'g'risidagi sud hujjatlarining va boshqa organlar hujjatlarining talablarini ijro etish qonunda nazarda tutilgan hollarda soliq organlari, banklar hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud hujjatlarining va boshqa organlar hujjatlarining talablari qonunda nazarda tutilgan hollarda o'zga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ham ijro etilishi mumkin.

Fuqarolik protsessining oxirgi bosqichi sifatida sud qarorlarining ijro etish ishda ishtirok etuvchi taraflarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilinishini amalda ta'minlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 2009-yil 10-apreldagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunini qo'llashda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar haqida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi, № 3, 2009.

30.2. Ijro ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar

Odatda, ijro ishlarini yuritishda sud ijrochisi, undiruvchi, qarzdor, ularning vakillari, tarjimon, xolislar, mutaxassislar, davlat organlari, kredit tashkilotlari va boshqa tashkilotlar ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni 83-moddasiga ko'ra, o'rta maxsus (yuridik) yoki oliy (yuridik) ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sud ijrochisi bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi katta sud ijrochisi bo'lishi mumkin. Sud ijrochisi lavozimiga tayinlash uchun kadrlarni tanlab olish tanlov asosida amalga oshiriladi. Katta sud ijrochilari va sud ijrochilarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish Sud departamenti direktori bilan kelishilgan holda Sud departamenti hududiy boshqarmasi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

Sud ijrochisi O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunida ko'rsatilgan huquqlar va majburiyatlardan foydalanadi.

Ijro ishini yuritishda taraf sifatida undiruvchi va qarzdor ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Taraflar ijro harakatlarini amalga oshirishda o'z vakillari orqali ishtirok etish, ijrodan voz kechish, kelishuv bitimi tuzish, ijro ishi yuritish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar, nusxalar olish, qo'shimcha materiallar taqdim etish, iltimosnomalar berish, ijro harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etish, ijro harakatlari jarayonida og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ijro ishi yuritilishi davomida paydo bo'ladigan masalalar yuzasidan o'z vajlari va fikr-mulohazalarini bildirish, ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlari va fikr-mulohazalariga qarshi e'tiroz bildirish, rad qilish, sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

Taraflar ijro harakatlarini amalga oshirayotganda sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablarini bajarishlari shart.

Ijro ishi yuritishda voyaga yetmaganlarning huquqlarini ularning qonuniy vakillari — ota-onalari, farzandlikka oluvchilari, vasiylari yoki homiylari amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar ijro ishi

yuritishda o'z huquqlari va majburiyatlarini vakillariga topshirish huquqiga ega. Agar ijro hujjati bo'yicha qarzdor zimmasiga faqat uning o'zi shaxsan ijro etishi mumkin bo'lgan majburiyatlar yuklatilgan bo'lsa, shuningdek, ijro hujjatining xususiyati undiruvchining shaxsan ishtirokini talab qilgan hollarda ularni ijro etishda qarzdor yoki undiruvchi o'z vakili orqali harakat qilishga haqli emas.

Ijro ishi yuritishda vakil ishtirok etish uchun asos bo'lib, qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchnomada vakolat beruvchi tomonidan ijro hujjatini ijroga topshirish va uni chaqirib olish, undiruvdan voz kechish, vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (ishonib topshirish), sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat berish va uni rad qilish, undirilgan mol-mulkni (shu jumladan, pulni) olish, kelishuv bitimi tuzish kabi protsessual huquqlar ko'rsatib o'tilgan bo'lishi kerak.

Sud qarorlar va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ijro harakatlarini tushunarli, sifatli amalga oshirish maqsadida ijro ishi yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi ta'minlanadi. Tarjimon sud ijrochisining qarori bilan tayinlanadi. Tarjimon bila turib, noto'g'ri tarjima qilgan taqdirda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi, bu haqda uni sud ijrochisi yozma ravishda ogohlantiradi.

Ijro ishlarini yuritishda ijro harakatlari qonuniyligini ta'minlash maqsadida xolislar ham ishtirok etadi. Xolislar sifatida ijro harakatlarini amalga oshirishdan manfaatdor bo'lmagan va o'zaro yoki ijro ishi yuritish ishtirokchilari bilan qarindosh bo'lmagan, bir-biriga bo'ysunmaydigan va bir-birini nazorat qilmaydigan voyaga yetgan har qanday muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar taklif etiladi. Xolislar ikki kishidan kam bo'lmasligi kerak. Xolislar qonunda ko'rsatilganidek, qarzdorning xonalari va omborlarini ochish, mol-mulkini ko'zdan kechirish, xatlash, olib qo'yish va berish bilan bog'liq ijro harakatlarini amalga oshirishda xolislar ishtirok etishi shart. Shuningdek, xolislar sud ijrochisining ixtiyoriga ko'ra ham chaqirilishi mumkin.

Ijro ishlarini yuritishda, shuningdek, sud ijrochisi va taraflarga yordam berish maqsadida ayrim masalalarni tushuntirib berish uchun sud ijrochisi o'z tashabbusiga yoki taraflarning iltimosiga binoan, o'zining qarori bilan mutaxassis tayinlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasiga ko'ra, mutaxassis sifatida zarur bilimlarga ega shaxs tayinlanishi mumkin. Mutaxassis yozma ravishda xulosa beradi. Mutaxassis sud ijrochisining chaqiruvi bo'yicha kelishi, qo'yilgan masalalar yuzasidan xolisona xulosa berishi, o'zi bajarayotgan harakatlarni tushuntirib berishi shart. Mutaxassis ijro harakatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bajargan ishi uchun haq olish huquqiga ega. Bu haq ijro harakatlarini amalga oshirish xarajatlariga kiritiladi.

2009-yil 15-yanvardagi «Ijro ishi yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, sud ijrochilarining, nafaqat, ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorligi, endilikda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya, davlat kadastri davlat qo'mitasining organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, banklar va boshqa kredit tashkilotlari, davlat soliq xizmati organlari, g'aznachilik organlari, Davlat chegarasini qo'riqlash organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi belgilandi.

30.3. Ijro hujjatlarini majburiy ijroga topshirish muddatlari

Sud orqali buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishga oid xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, shaxs manfaatlarini to'la-to'kis himoya qilishda sud organlari va boshqa organlarning hujjatlarini ijro etish o'ziga xos o'rin tutadi. Darhaqiqat, qonuniy va asosli chiqarilgan sud hal qiluv qarorining o'zi bilan buzilgan huquqni to'la va har tomonlama tiklanishiga erishib bo'lmaydi. Buning uchun, avvalo, ushbu sud qarori to'liq ijro etilishi lozim bo'ladi.

Sud qarorlari ixtiyoriy ravishda ijro etilmagan taqdirda majburiy tartibda ijro etilishi shaxslarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning, qolaversa, jamiyatda qonuniylikni hamda huquq-tartibotni ta'minlashning hozirgi kundagi eng samarali usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham ijro ishlarining tezkor va samarali ravishda amalga oshirilishi ijroga topshirish muddatlariga bog'liq bo'ladi.

Sud hal qiluv qarori, ajrim va qarorlar va boshqa idoralarning ijro bilan bog'liq hujjatlarining ijroga topshirish muddatlariga oid

qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining IV bo'limi va O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonunida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 377-moddasiga ko'ra, sudning hal qiluv qarori, agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, qonuniy kuchga kirgan paytidan boshlab uch yil ichida majburiy tartibda ijro etish uchun topshirilishi mumkin.

Davrli to'lovlarni undirish uchun berilgan ijro varaqalari bu to'lovlar undiriladigan butun davr ichida ijroga topshirilishi mumkin. Ijro varaqasi ijroga topshirilgunga qadar o'tgan vaqt uchun davrli to'lovlar yuqorida belgilangan muddatlar doirasida undiriladi. Ushbu muddatlarning o'tishi har bir to'lov muddati tugagan kundan e'tiboran, davom etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuni 27-moddasida ko'rsatilishicha, ijro hujjatlari quyidagi muddatlarda ijroga topshirilishi mumkin:

1) umumiy yurisdiksiya sudlarining sud hujjatlari asosida beriladigan ijro varaqalari — uch yil mobaynida, xo'jalik sudlarining sud hujjatlari esa — olti oy mobaynida;

2) hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish to'g'risidagi sud hujjatlari asosida beriladigan ijro varaqalari — olti oy mobaynida;

3) notariuslarning ijro xatlari — uch yil mobaynida;

4) mehnat nizolari komissiyalarining guvohnomalari — uch oy mobaynida;

5) ishlarni ma'muriy tartibda ko'rish vakolatiga ega organlarning (mansabdor shaxslarning) qarorlari — uch oy mobaynida.

Boshqa ijro hujjatlarini ijroga topshirish muddatlari tegishli ijro hujjatlarini berish shartlari va tartibini belgilovchi qonun hujjatlarida ko'rsatiladi¹.

Ijroga topshirish muddati, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ijro varaqasining ijroga berilishi, shuningdek, hal qiluv qarori qisman ijro qilinishi bilan uziladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 169-modda.

Muddat uzilgandan so'ng uning o'tishi yangidan boshlanadi, bunda oldingi o'tgan vaqt yangi muddat hisobiga kiritilmaydi. Agar ijro varaqasi to'liq yoki qisman undirilmay qaytarilsa, ijro varaqasini ijroga topshirish uchun yangi muddatni hisoblash ijro varaqasi undiruvchiga qaytarilgan kundan e'tiboran, boshlanadi (FPKning 378-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 2009-yil 10-apreldagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunni qo'llashda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar haqida»gi qo'shma qarorida ko'rsatilishicha, Fuqarolik protsessual kodeksining 379-moddasi va Xo'jalik protsessual kodeksining 215-moddasida ijro varaqasini ijroga topshirishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash tartibi belgilangan. Muddatning o'tkazib yuborilganligi sud tomonidan uzrli deb topilsa, u tiklanishi mumkin.

O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash haqidagi arizani ko'rib chiqish natijasi bo'yicha ajrim chiqarilib, u undiruvchi va qarzdorga yuboriladi. Arizani ko'rib chiqish natijasi bo'yicha xo'jalik sudining ajrimi ustidan shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi, fuqarolik ishlari bo'yicha sudining o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash rad qilinganligi haqidagi ajrimi ustidan esa xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin¹.

30.4. Ijro ishini yuritishning umumiy qoidalari

Sud qarorlarini ijro etishda sud ijrochisi ijro ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga, prinsiplariga rioya qilishi shart. Jumladan, taraflarning tengligi, ijro ishlari yuritiladigan til, fuqarolarning turar joy daxlsizligi, oshkoralik, fuqarolarning qonun va sud oldida tenglik kabi tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ijro ishlarini yuritish sud ijrochisi tomonidan ijro hujjatlarini qabul qilib olgandan so'ng ijro ishini qo'zg'atish orqali boshlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuni 7-moddasiga ko'ra, quyidagilar ijro hujjatlari hisoblanadi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 2009-yil 10-apreldagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunni qo'llashda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar haqida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axbotnomasi, № 3, 2009.

1) sudlar o'zlari qabul qiladigan sud hujjatlari asosida beradigan ijro varaqalari;

2) hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish yuzasidan sudlar beradigan ijro varaqalari;

3) chet el sudlari va arbitrajlar qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi sudlari beradigan ijro varaqalari;

4) sud buyruqlari;

5) alimentlar to'lash to'g'risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvlar;

6) notariuslarning ijro xatlari;

7) mehnat nizolari komissiyalari o'z qarorlari asosida beradigan guvohnomalar;

8) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdor shaxslar) chiqargan qarorlar;

9) o'zboshimchalik bilan turar joyni egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslarni ma'muriy tartibda ko'chirish to'g'risidagi prokurorlarning qarorlari;

10) sud ijrochilarining qarorlari;

11) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlari.

Ijro hujjatining asl nusxasi yo'qolgan taqdirda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning dublikati undiruv uchun asos bo'ladi.

Yuqoridagi hujjatlar asosida sud ijrochisi ijro ishini qo'zg'atadi. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonun 23-moddasida ko'rsatilishicha, sud ijrochisi ijro hujjatini sud yoki boshqa organdan yoxud undiruvchidan olgan kundan e'tiboran, uch kundan kechiktirmay ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqaradi. Sud ijrochisi ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda ijro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish uchun ijro ishi yuritish qo'zg'atilgan kundan e'tiboran, ko'pi bilan besh kun muddat belgilaydi.

Ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nusxasi u chiqarilgan kunning etasidan kechiktirmay undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek, hujjati ijro etilishi lozim bo'lgan sud yoki boshqa organga yuboriladi. Ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish yoki protest bildirish mumkin.

Ijro hujjatlari ichida sud ijrochilari tomonidan ko'proq ijro varaqalari ijro etiladi. Shuning uchun ham ijro varaqasi va uning mazmunini bilib olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 375-moddasiga ko'ra, ijro varaqasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- 1) ijro varaqasini bergan sudning nomi;
- 2) ijro varaqasining qaysi ish yuzasidan berilganligi, uning raqami;
- 3) hal qiluv qarori chiqarilgan vaqt;
- 4) hal qiluv qarorining xulosa qismi (so'zma-so'z);
- 5) hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirgan vaqti;
- 6) ijro varaqasining berilgan vaqti va uni ijroga topshirish muddati;
- 7) undiruvchi va qarzdorning nomlari (famiyasi, ismi, otasining ismi) hamda manzillari.

Ijro varaqasini sudya imzolaydi va sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi. Demak, ijro varaqasi yuqorida ko'rsatilgan talablarga asosan rasmiylashtirilishi lozim.

Agar ijro hujjati O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida» gi Qonuni 8-moddasi talablariga javob bermasa yoki ijroga topshirish muddati o'tgan bo'lsa, sud ijrochisi ijro hujjatini olgan kundan e'tiboran, uch kunlik muddat ichida qaytarib yuborish to'g'risida qaror chiqariladi, uning nusxasi qaror chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay undiruvchiga, ijro hujjatini bergan sud yoki boshqa organga yuboriladi.

Shuningdek, ijro hujjatida noaniqliklar yoki arifmetik xatolar mavjud bo'lsa, bu haqda sud ijro hujjatini bergan sudga sud hujjatini tushuntirishni sud ijrochisi talab qilishi mumkin. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 2009-yil 10-apreldagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunni qo'llashda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar haqida»gi qo'shma qarorida ham ijro hujjati talablarida noaniqliklar mavjud bo'lgan yoki u bilan sud hujjati orasida tafovut aniqlangan holda sud ijrochisi, Qonunning 31-moddasiga muvofiq, ijro hujjatini bergan sudga sud hujjatini tushuntirish, mazkur hujjatlarda yo'l qo'yilgan yozuv, bosma va arifmetik xatolarni bartaraf etish to'g'risida ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Sud ijrochisining arizasida sud hujjatining qonuniyligi masalasida mushohada yuritilishi mumkin emas. Sud bunday arizani u kelib tushgan kundan boshlab o'n kunlik muddat ichida ko'rib chiqadi va natijasi bo'yicha Fuqarolik protsessual kodeksining 215-moddasi, Xo'jalik protsessual kodeksining 150-moddasiga muvofiq ajrim chiqaradi. Sud tomonidan faqat ijro etilmagan sud hujjati yoki uning ijro etilmagan qismi yuzasidan tushuntirish beriladi¹.

Ijro harakatlari O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuni talablaridan kelib chiqib, ish kunlarida soat 8.00 dan 22.00 gacha amalga oshiriladi. Ijro harakatlarini amalga oshirish muddati ikki oy qilib belgilangan. Ijro harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lganda, sud ijrochisi ijro harakatlarini qarzdorning arizasiga yoki o'z tashabbusiga ko'ra, ko'pi bilan o'n kun muddatga kechiktirishi mumkin. Sud ijrochisi ijro harakatlarini keyinga qoldirish asosini va ijro harakatlari qaysi muddatga qoldirilganligini ko'rsatgan holda qaror chiqaradi. Chiqarilgan qaror haqida ijro ishi yuritishdagi taraflar, ijro hujjatini bergan sud yoki boshqa organ xabardor qilinadi.

Sud qarorlarini ijro etish jarayonida belgilangan tartibda jalb etilgan tarjimonlar, mutaxassislar va boshqa shaxslarga, qarzdorning mol-mulkini tashish, saqlash va realizatsiya qilishga, undirilgan summalarni undiruvchiga pochta orqali o'tkazishga (jo'natishga), qarzdorni, uning mol-mulkini yoki qarzdordan sudning qarori bo'yicha olib qo'yilgan bolani qidirish uchun xarajatlar qilinadi. Ushbu qilingan xarajatlar umumiy qoidaga ko'ra qarzdordan undiriladi. Agar undiruvchining arizasiga ko'ra, ijro hujjati qaytarib berilganida, ijro hujjatini ijro etish uchun qilingan xarajatlar undiruvchidan undiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuniga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartishga ko'ra, sud ijrochisi tomonidan ijro hujjatlarini majburiy ijro etish bo'yicha harakatlar amalga oshirilganligi uchun qarzdordan ijro yig'imi undiriladi. Ijro yig'imining miqdori va undirilish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 2009-yil 10-apreldagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunni qo'llashda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar haqida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi, № 3, 2009.

Ijro hujjatlarini har doim ham o'z vaqtida ijro etishning imkoni bo'lmaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonunida ijro ishini yuritishni to'xtatib turish subyektlari va asoslari belgilab qo'yilgan. Ijro ishlarini to'xtatib turishning ikki xil asoslari mavjud:

- 1) ijro ishlarini to'xtatib turishning majburiy asoslari;
- 2) ijro ishlarini to'xtatib turishning fakultativ asoslari.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuni 34-moddasida ijro ishlarini yuritishning majburiy asoslari ko'rsatilgan bo'lib, ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to'xtatib turilishi shart:

1) agar sud tomonidan aniqlangan huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa, qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda yoki bedarak yo'qolgan deb topilganda;

2) qarzdor muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

3) agar qonun hujjatlarida nizolashishga yo'l qo'yilgan bo'lsa, qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashganda;

4) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlarning qarorlari (mansabdor shaxslarning harakatlari) ustidan sudga shikoyat berilganda;

5) ijro hujjati bo'yicha undiruv qaratilgan mol-mulkni ro'y-xatdan chiqarish (xatlashdan ozod qilish) to'g'risida sudga da'vo arizasi berilganda;

6) ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan boshqa asoslar vujudga kelganda.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi shart:

1) qarzdor muddatli harbiy xizmatda bo'lganda yoki muddatli harbiy xizmatda bo'lgan undiruvchi iltimos qilganda;

2) qarzdorning nochorligi (bankrotligi) to'g'risidagi ish bo'yicha xo'jalik sudi tomonidan ish yuritish qo'zg'atilganda, shu jumladan, kuzatuvni joriy etish to'g'risida, sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish va (yoki) ularning muddatini uzaytirish to'g'risida xo'jalik sudi tomonidan ajrim qabul qilinganda, O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ijro etilishi to'xtatib turilishi mumkin bo'lmagan ijro hujjatlari bundan mustasno;

3) ijro hujjatini berish uchun asos bo'lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjatini ijro etishni to'xtatib turish huquqi qonunda qaysi mansabdor shaxsga berilgan bo'lsa, o'sha mansabdor shaxs tomonidan qaror chiqarilganda.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuni 35-moddasida ijro ishlarini yuritishni to'xtatib turishni fakultativ asoslari ko'rsatilgan. Unga ko'ra, ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to'xtatib turilishi mumkin:

1) qarzdor yoki undiruvchi ijro hujjatini bergan tegishli sudga yoki boshqa organga ijro hujjatini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda;

2) qarzdor uzoq muddatli xizmat safarida bo'lganda;

3) qarzdor statsionar davolash muassasasida davolanayotganda;

4) sud ijrochisining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilganda;

5) ro'yxatga olingan mol-mulkni baholash natijalari yuzasidan nizolashilganda;

6) undiruvchi iltimos qilganda.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi mumkin:

1) sud ijrochisi ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjatini tushuntirish to'g'risidagi, ijro hujjatini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib ijro etish haqidagi, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi arizalar bilan ijro hujjatini bergan tegishli sudga yoki boshqa organga murojaat qilganda;

2) qarzdor jismoniy shaxs, uning mol-mulki yoki olib qo'yilishi lozim bo'lgan bola qidirilayotganda;

3) sud ijrochisi tomonidan jarima tariqasidagi jinoiy jazoni boshqa jazo turiga almashtirish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritilganda.

O'zbekiston Respublikasining Bosh sud ijrochisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh sud ijrochilari ularga bo'ysunuvchi sud ijrochilarining harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyat kelib tushganda, zarur bo'lgan hollarda, ijro ishi yuritishni to'xtatib turishga haqli.

Sud hujjati ijrosini nazorat tartibida to'xtatib turish huquqi faqat FPKning 352-moddasida ko'rsatilgan muayyan mansabdor shaxslarga berilganligi tufayli mazkur shaxslar muayyan ishni

chaqirib olish masalasini hal qilish vaqtida sud hujjati ijrosini to'xtatib turish masalasini ham hal etishi mumkin.

Ijro ishlarini yuritish sud va sud ijrochisi tomonidan qonunda belgilangan asoslarga ko'ra tugatilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan tugatiladi:

1) undiruvchi yoki qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda, bedarak yo'qolgan deb topilganda, agar sud hujjati yoxud boshqa organning hujjatida qo'yilgan talablar yoki majburiyatlar huquqiy vorisga yoki bedarak yo'qolganning mol-mulkini ishonchli boshqarib turgan shaxsga o'tishi mumkin bo'lmasa;

2) muayyan harakatlarni amalga oshirish yoxud bunday harakatlarni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi ijro hujjatini ijro etish imkoniyati yo'qolganda.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud ijrochisi tomonidan tugatiladi:

1) undiruvchi undiruvdan voz kechganda, agar voz kechish sud tomonidan qabul qilingan bo'lsa;

2) undiruvchi va qarzdor o'rtasida sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi tuzilganda;

3) jarima tariqasidagi jinoiy jazoni boshqa jazo turiga almashtirish yoxud jarima tariqasidagi jinoiy jazodan amnistiya aktiga asosan ozod qilish to'g'risida sud tomonidan ajrim chiqarilganda;

4) ijro hujjatini berishga asos bo'lgan sud hujjati yoki boshqa organning hujjati bekor qilinganda yoxud qonunga ko'ra, ijro hujjati bo'lgan hujjat bekor qilinganda yoki haqiqiy emas deb topilganda.

Yuqoridagi asoslarga ko'ra, ijro ishi yuritishni tugatish to'g'risida sud ajrim chiqaradi, sud ijrochisi qaror chiqaradi.

30.5. Majburiy ijro etish choralari

Sud qarorlarini ijro etish jarayonida sud ijrochisi tomonidan qarzdorga ixtiyoriy ijro etish uchun besh kunlik muddat beriladi. Agar ushbu muddatda qarzdor ijro hujjatini ijro etmasa, sud ijrochisi majburiy ijro etish choralarini ko'radi. Demak, ixtiyoriy berilgan muddatning o'tishi majburiy ijro etish choralarini qo'llashga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilish to'g'risida»gi Qonuni 46-moddasiga ko'ra,

sud ijrochisi quyidagi majburiy ijro etish choralarini qo'llashi mumkin:

1) undiruvni qarzdorning pul mablag'lariga va boshqa mol-mulkiga qaratish;

2) undiruvni qarzdorning boshqa shaxslarda turgan pul mablag'lariga va boshqa mol-mulkiga qaratish;

2¹) undiruvni qarzdorning debitorlik qarzig'a, shu jumladan, qarzdor undiruvchi sifatida ishtirok etayotgan ijro hujjati bo'yicha unga tegishli bo'lgan mablag'larga qaratish;

2²) undiruvni qarzdorga tegishli bo'lgan alohida mulkiy huquqlarga qaratish;

3) undiruvni qarzdorning ish haqi, stipendiyasi, pensiyasi va boshqa turdagi daromadlariga qaratish;

4) ijro hujjatida ko'rsatilgan muayyan ashyolarni qarzdordan olib qo'yish va undiruvchiga topshirish;

5) ijro hujjatining ijro etilishini ta'minlovchi qonunlarga muvofiq ko'riladigan boshqa choralar.

Biroq, har doim qarzdorning mulki yoki pul summalariga majburiy ijro qaratib bo'lmaydi, uning qanday mulklaridan yoki pul summalaridan haq undirish mumkin emasligi qonunda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni 69-moddasiga ko'ra, undiruv quyidagi pul summalariga qaratilishi mumkin emas:

- mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik, shuningdek, boquvchisining vafot etganligi sababli ko'rilgan zararni to'lash summalariga;

- xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida mayib bo'lgan (yaralangan, shikastlangan, kontuziyaga uchragan) shaxslarga va mazkur shaxslar halok bo'lgan (vafot etgan) taqdirda, ularning oila a'zolariga to'lanadigan summalariga;

- bola tug'ilganligi munosabati bilan to'lanadigan summalariga;

- aliment majburiyatlari bo'yicha to'lanadigan summalariga;

- mehnat sharoiti noqulay va o'ziga xos bo'lgan ishlar uchun to'lanadigan summalariga, shuningdek, radiatsiya ta'siriga uchragan shaxslarga va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda to'lanadigan summalariga;

- homiladorlik va tug'ish bo'yicha to'lanadigan nafaqa summalariga;

- dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa summalariga;

- qisman haq to'lanadigan ta'til davrida bolani parvarishlash uchun to'lanadigan summalariga;

- bola tug'ilishi, qarindoshlar vafot etishi, nikoh tuzish munosabati bilan korxonaga, muassasa yoki tashkilot tomonidan to'lanadigan summalariga;

- xizmat safari, boshqa joyga ishga o'tkazilganligi, qabul qilinganligi yoki yuborilganligi munosabati bilan to'lanadigan summalariga;

- mehnatga oid munosabatlar bekor qilinganda ishdan bo'shatish nafaqasi tariqasida to'lanadigan summalariga¹.

Shuningdek, mazkur Qonunning 52-moddasiga ko'ra, ijro hujjatlari bo'yicha undiruv qarzdor jismoniy shaxsga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan yoki uning umumiy mulkdagi ulushi bo'lgan yagona uyga (kvartiraga), agar qarzdor va (yoki) uning oila a'zolari unda doimiy ravishda yashayotgan bo'lsa qaratilmaydi, ijro hujjatida undiruvni mazkur uyga (kvartiraga) qaratish nazarda tutilgan yoxud ushbu mol-mulk majburiyat bo'yicha garov narsasi bo'lgan hollar bundan mustasno. Undiruv boshqa uylarga (kvartiralarga) ularda qarzdor va (yoki) uning oila a'zolari yoxud o'zga shaxslar doimiy ravishda yashab turgan-turmaganligidan qat'i nazar, qaratilishi mumkin.

Undiruvchi yoki sud ijrochisining arizasiga ko'ra, undiruv sud tomonidan qarzdorning yagona uyiga (kvartirasiga) yoxud uy hududidagi alohida turgan binoga yoki uyning muayyan qismiga, agar sud uyni (kvartirani), shu jumladan, unga tutash hududni qismlarga bo'lish mumkin, qarzdor tasarrufida qolgan qismi esa qarzdor va uning oila a'zolari normal turmush kechirishi uchun yetarli deb topgan taqdirda qaratilishi mumkin.

Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan, qarzdor va uning oila a'zolari normal turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan uy anjomlari va jihozlari, kiyimlar hamda boshqa buyumlarga ijro hujjatlari bo'yicha undiruv qaratilishi mumkin emas.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 258-II sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 169-modda.

30.6. Undirilgan summani undiruvchilar o'rtasida taqsimlash

Ijro ishlarini yuritishda undirilgan summalarni taqsimlash tartibi O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonunosti hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Umumiy qoidaga ko'ra, qarzdordan undirilgan summalar undiruvchi talablarini qanoatlantirishga, ijro ishini yuritishda ketgan xarajatlarga, ijro yig'imiga, solingan jarimalar uchun ushlab qolinadi. Agar undirilgan pul summasi barcha talablar qanoatlantirilgandan so'ng, ortib qolsa, qolgan pul summasi qarzdorga qaytariladi.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni 80-moddasiga ko'ra, qarzdordan undirilgan pul summasi ijro hujjatlari bo'yicha barcha talablarni qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmasa, bu summa undiruvchilar o'rtasida belgilangan navbat bo'yicha taqsimlanadi.

Birinchi navbatda, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha talablar; mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan talablar; alimentlar undirish bo'yicha talablar; mualliflik shartnomalari bo'yicha haqlarni to'lash bo'yicha talablar; hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablar; advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam haqini to'lash bo'yicha talablar qanoatlantiriladi.

Ikkinchi navbatda, ijtimoiy sug'urta bo'yicha talablar; jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablar qanoatlantiriladi.

Uchinchi navbatda, majburiy sug'urta organlarining talablari qanoatlantiriladi.

To'rtinchi navbatda, garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatidan undiruv to'g'risidagi garov bilan ta'minlangan talablar qanoatlantiriladi.

Beshinchi navbatda, jismoniy va yuridik shaxslarning garov bilan ta'minlanmagan talablari qanoatlantiriladi.

Oltinchi navbatda, qolgan barcha talablar qanoatlantiriladi.

Qarzdorga bir necha talablar (ijro hujjatlari) bo'yicha solingan ijro yig'implari ushbu moddaning birinchi—oltinchi qismlarida belgilangan tegishli talabni qanoatlantirish uchun mo'ljallangan

ketma-ketlikka muvofiq undiriladi. Bunda qarzdorga nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari bo'yicha solingan ijro yig'implari, shuningdek, qonunda belgilangan muddatda realizatsiya qilinmagan mol-mulk mulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari bo'yicha undiruvchiga o'tkazilgan hollarda birinchi navbatdagi talablarga tenglashtiriladi¹.

30.7. Bekor qilingan sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarning ijrosini qaytarish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 382-moddasiga ko'ra, ijro etilgan hal qiluv qarori bekor qilingan va ish yangidan ko'rib chiqilganidan keyin talablarni qanoatlantirishni to'liq yoki qisman rad etish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilgan yoxud ish yuritishni tugatish to'g'risida yoki arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqarilgan taqdirda, bekor qilingan hal qiluv qarori bo'yicha javobgardan da'vogarning foydasiga undirilgan narsalarning hammasi javobgarga yana qaytarib berilishi lozim (hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi).

Demak, hal qiluv qarori bekor qilingan taqdirda, sud hal qiluv qarorini qaytarma ijrosi bilan bog'liq masala hal etadi. Agar ushbu masala hal etilmagan bo'lsa, bu to'g'risida javobgar bu sudga qaytarma ijro to'g'risida ariza berishga haqli.

Ushbu ariza umumiy da'vo muddatida beriladi. Hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi to'g'risidagi ariza uchun javobgar davlat boji to'lamaydi. Bu ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda sud majlisida ko'riladi (FPKning 383-moddasi). Hal qiluv qarorini qaytarma ijro etishga apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudida ham yo'l qo'yiladi.

Ishni apellatsiya, kassatsiya shikoyati bo'yicha yoki nazorat tartibidagi protest bo'yicha ko'rib chiqayotgan sud, agar o'zining ajrimi yoki qarori bilan huquq to'g'risidagi nizoni uzil-kesil hal qilsa yoki ish yuritishni tamomlasa, hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masalani hal qilishi yoki uni hal qilish uchun birinchi instansiya sudiga topshirishi shart. Agar yuqori sudning ajrimida yoki qarorida qaytarma ijro to'g'risidagi masala bo'yicha hech qanday ko'rsatma bo'lmasa, javobgar birinchi instansiya sudiga

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 258-II sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9–10, 169-modda.

tegishli ariza berishga haqli. Birinchi instansiya sudi bu arizani Fuqarolik protsessual kodeksining 383-moddasi qoidalariga binoan ko'rib chiqadi va hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 385-moddasida alohida toifadagi fuqarolik ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarini qaytarma ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha pul summasi undirish to'g'risidagi, intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun pul mukofoti undirish to'g'risidagi, aliment undirish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa hoshqacha shikast yetganlik, shuningdek, boquvchining o'limi natijasida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash uchun haq undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha hal qiluv qarorlari bekor qilingan taqdirda qaytarma ijroga yo'l qo'yilmaydi.

Agar ushbu ishlar bo'yicha hal qiluv qarori da'vogar bergan soxta ma'lumotlarga yoki u taqdim etgan qalbaki hujjatlarga asoslangan holda bekor qilingan taqdirdagina qaytarma ijroga yo'l qo'yiladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar qarorlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan va uning mazmunini tushuntiring.
2. Sud ijrochisi bo'lish uchun qanday talablar qo'yilgan?
3. Ijro varaqasida nimalar ko'rsatiladi?
4. Ijro ishlarini yuritishda kimlar ishtirok etadi?
5. Sud ijrochilari ijro ishlarini yuritishda qaysi organlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi?
6. Ijro ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror qancha muddatda chiqariladi va unda nimalar ko'rsatiladi?
7. Ijro harakatlarini amalga oshirish muddati qancha?
8. Ixtiyoriy va majburiy ijroni tushuntiring.
9. Ijro ishlarini to'xtatib turishning majburiy asoslarini aytib bering.
10. Qachon ijro ishlarini yuritish tugatiladi?
11. Ijro hujjatlarini majburiy ijroga topshirish muddatlarini ayting.
12. Ijro ishini yuritishning asoslarini ayting.
13. Majburiy ijro etish choralari tushuntiring.
14. Undirilgan summa undiruvchilar o'rtasida qanday taqsimlanadi?
15. Bekor qilingan sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarning qaytarma ijrosi qanday?
16. Ijro hujjatlarini ijro etmaganlik uchun javobgarlik qanday?



1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 168-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 169-modda.
6. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
7. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
8. *D.Y. Habibullayev*. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). T., TDYI, 2010.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma plenumining 2009-yil 10-apreldagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunini qo'llashda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar haqida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi, № 3, 2009.

31-bob. FUQAROLIK PROTSESSIDA CHET EL FUQAROLARI VA TASHKILOTLAR, FUQAROLIGI BO‘LMAGAN SHAXSLARNING ISHTIROKI

31.1. Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ishtiroki

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ayrim hollarda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet el tashkilotlari ishtirok etadi. Ushbu shaxslarning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari Fuqarolik protsessual kodeksining 5-bo‘limi, 386—391-moddalarida mustahkamlangan. Unga ko‘ra, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga egadirlar va fuqarolik protsessual huquqlardan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan haravar foydalanadilar. Chet el tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga egadirlar va o‘zlarining manfaatlarini himoya qilish uchun fuqarolik protsessual huquqlardan foydalanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlarining fuqarolik protsessual huquqlari maxsus cheklanishiga yo‘l qo‘yilgan davlatlarning fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob tariqasidagi cheklashlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Demak, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet el tashkilotlari ham Fuqarolik protsessual kodeksining 34-moddasida ko‘rsatilgan protsessual huquq va majburiyatlardan foydalanadilar. Jumladan, ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nusxalar ko‘chirish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi hoshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko‘rish davomida tug‘iladigan hamma masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari,

iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug'i ustidan shikoyat qilish, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyruqning majburiy ijrosini talab qilish, sud ijrochisining harakatlari vaqtida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadirlar.

Shuningdek, ular ham sud majlisida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishi, sud tomonidan talab etilgan dalillarni taqdim etish, sud majlisiga o'z vaqtida kelish kabi majburiyatlarni bajarishi talab etiladi.

Chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham sudga murojaat qilganida qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda davlat boji to'laydi. Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolarning, shuningdek, taraflaridan loaqal bittasi chet elda yashab turgan nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston Respublikasi sudlarining sudloviga taalluqli bo'lishi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqarolik protsessual kodeksi bilan belgilanadi (FPKning 388-moddasi).

Chet el sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet el sudlariga topshiriq bilan murojaat qilish tartibi Fuqarolik protsessual kodeksining 390-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni (chaqiruv qog'ozlari va boshqa hujjatlarni topshirish, taraflar va guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish, joyga borib ko'rish va boshq.) bajarish to'g'risida belgilangan tartibda bergan topshiriqlarini ijro qiladilar. Bundan quyidagi hollar istisnodir:

1) topshiriqni ijro etish O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga zid bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasining xavfsizligiga tahdid solsa;

2) topshiriqni ijro etish sudning huquq doirasiga kirmasa.

Chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi topshiriqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlariga ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida topshiriq bilan murojaat qilishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlari bilan aloqada bo'lish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

Chet el davlat sudlari va arbitrajlarining qarorlarini O'zbekiston Respublikasida ijro etish tartibi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi. Chet el davlat sudi yoki arbitrajining hal qiluv qarori, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, bu qaror qonuniy kuchga kirgan vaqtdan e'tiboran, uch yil ichida majburiy ijroga topshirilishi mumkin (FPKning 391-moddasi).

31.2. Huquqiy yordamlar

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasiga ko'ra, basharti, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Ushbu qoidadan ko'rinib turibdiki, sudlar ishlarni ko'rishda xalqaro shartnomalarni ham qo'llashi mumkin. Mazkur masala ko'proq chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan yoki chet el tashkilotlari bilan bog'liq nizolarda tatbiq etiladi.

Demak, chet davlat fuqarolari va yuridik shaxslar boshqa davlatning sud organlarida harakat qilishlarida shartnoma yoki bitimlar asosida huquqiy yordam oladilar. O'zbekiston Respublikasi hozirda bir qator davlatlar bilan o'zaro huquqiy yordam va huquqiy munosabatlarga oid shartnomalarni imzolagan. Jumladan, 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiya» hozirda Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish, sudlovlikka oid qoidalar, sud qarorlarini ijro etish, nikohdan ajratish, farzandlikka olish, otalik va onalikni belgilash, yuridik faktlarni belgilash kabi masalalarni hal etishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 12-moddasiga binoan, sud ishlarni O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida hal qilishi shart. Sudda, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid bo'lsa, boshqa normativ hujjatlarni ham qo'llanadi. Sud qonunga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi. Nizoli munosabatni tartibga soladigan qonun bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan qonunni tatbiq etadi, bordi-yu, bunday

qonun ham bo'lmasa, respublika qonun hujjatlarining umumiy asoslari va ma'nosiga tayanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan normadan ko'rinib turibdiki, sudlar qonunga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq, chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va tashkilotlarini fuqarolik protsessual huquqlaridan foydalanish tartibini tushuntiring.
2. Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar qaysi sudlarning sudloviga taalluqli bo'ladi?
3. Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish tartibi qanday?
4. Chet davlat sudlari va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini ijro etish tartibi qanday?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. T., TDYI, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9—10, 169-modda.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov*. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., TDYI, 2007.

32-bob. HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORI BILAN BOG'LIQ ISHLARNI YURITISH

32.1. Hakamlik sudlarining mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni erkinlashtirishdagi ahamiyati

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi xo'jalik nizolari xo'jalik sudi bilan bir qatorda hakamlik sudlari tomonidan ham ko'rib chiqilishi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida belgilab qo'yilgan edi. Keyinchalik hakamlik sudlarining tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullandi va 2007-yildan e'tiboran kuchga kirdi.

Hakamlik sudlari huquq to'g'risidagi nizoni, kelishmovchiliklarni ko'rish va hal qilish uchun taraflarning xohish-irodasiga muvofiq erkin tanlanadigan nodavlat sudining bir shakli hisoblanadi. Ya'ni, u doimiy faoliyat ko'rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudlaridan iborat bo'lib, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi xo'jalik nizolarini hal etuvchi nodavlat organidir. Davlat sudlari (xususan, xo'jalik va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar)dan farqli ravishda hakamlik sudlari taraflarning kelishuviga asosan tashkil etilgan sud tarzida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda hakamlik sudlarida nizolarni ko'rishning quyidagi afzallik jihatlari to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz:

- taraflarda sudyani mustaqil tanlash imkoniyati mavjud. Taraflar doimiy faoliyat ko'rsatadigan hakamlik sudlarida uni tashkil etgan yuridik shaxs tasdiqlagan ro'yxatdagi hakamlik sudyalari orasidan

tanlashlari mumkin bo'ladir. Muvaqqat hakamlik sudi sudyasini esa hakamlik bitimi taraflari o'zaro kelishuv asosida tanlaydilar;

- nizolar bitta instansiyada hal etiladi. Hakamlik sudlari qandaydir bir tizimni tashkil etmaydi va bir-biriga bo'ysunmaydi, ya'ni hakamlik sudining yuqori turuvchi instansiyasi mavjud emas.

- ish ko'rish qisqa muddatlarda amalga oshiriladi. «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunda hakamlik sudida nizoni ko'rib chiqish muddati belgilanmagan. Mazkur muddat taraflar o'rtasida tuziladigan hakamlik bitimida yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan hakamlik sudlarining reglamentida ko'rsatiladi;

- hakamlik sudi xarajatlari nizolarni xo'jalik va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarida ko'rish va hal etish uchun ketadigan sud xarajatlaridan bir necha bor kam va hakamlik sudlariga taqdim etilgan da'vo arizalaridan davlat boji undirilmaydi;

- hakamlik sudi muhokamasi maxfiy va oshkor qilinishi mumkin emas. Hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni hakamlik muhokamasi taraflari yoki ularning huquqiy vorislari roziligisiz oshkor qilishga haqli bo'lmaydi;

- hakamlik muhokamasi taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining nizomi va reglamentida sud muhokamasi taraflar hamda sud uchun qulay bo'lgan joyda o'tkazilishi belgilab qo'yiladi.

«Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunda hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida ariza berish yo'li bilan nizolashishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur Qonunga muvofiq, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, vakolatli sud (xo'jalik va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar) bergan ijro varaqasi asosida amalga oshirilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Lekin ta'kidlash joizki, «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunda hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni hamda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi belgilanmagan. Chunki vakolatli davlat sudlarining hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish hamda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi boshqa qonun hujjatlari bilan, xususan, Fuqarolik protsessual kodeksi va Xo'jalik protsessual

kodeksi bilan tartibga solinadi. Shuning uchun ham amalda hakamlik sudlarining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ushbu sudga murojaat qilgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilish maqsadida ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish talab etilar edi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 22-fevralda qabul qilingan hamda Senat tomonidan 2007-yil 29-iyunda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi hamda «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi va Xo'jalik protsessual kodeksi qoidalari O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni normalari bilan muvofiqlashtirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni 36-moddasining, «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni 5, 7 va 27-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi 25, 52, 86, 88 va 117-moddalarining o'zbek tilidagi matnlaridagi eskirib qolgan «xolislar sudi» atamasini «hakamlik sudi» degan yangi atamalar bilan almashtirildi. Mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining «Ish yuritishni tugatish asoslari» deb nomlangan 100-moddasi va «Arizani qabul qilishni rad etish» deb nomlangan 152-moddasidagi «hakamlar sudiga» degan so'zlar «hakamlik sudiga» degan so'zlar bilan, «shartnoma tuzilgan» degan so'zlar esa «hakamlik bitimi tuzilgan» degan so'zlar bilan almash-tirildi.

Bundan tashqari, mazkur kodeksning «Da'voni ta'minlash asoslari» deb nomlangan 248-moddasi hakamlik sudida ko'rib chiqiladigan da'voni ta'minlash choralari ko'rish bilan bog'liq

masalani sud tomonidan ko'rish tartibi haqidagi ikkita yangi qism bilan, «Da'voni ta'minlashni bekor qilish» deb nomlangan 254-moddasi esa da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish haqidagi hakamlik sudining hal qiluv qarori da'voni ta'minlash choralari sud tomonidan bekor qilinishi uchun asos bo'lishi to'g'risidagi yangi qism bilan to'ldirildi.

32.2. Hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish hamda uni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalar bo'yicha ishlar va ularning mohiyati

O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni hamda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi to'g'risidagi normalar bilan to'ldirilishi shaxs manfaatlarini sud orqali himoya qilish sohasini yanada kengaytirishda hamda hakamlik sudi qarorlarini ijro etish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, mazkur Qonunning 3-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi uch bob va o'n uch moddadan iborat bo'lgan «Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish» deb nomlangan 5-kichik bo'lim bilan to'ldirildi. Hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalar bo'yicha ishlar hamda hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish to'g'risidagi arizalar bo'yicha ishlar FPKning 35¹—35³-boblarida ko'rsatilgan istisno va qo'shimchalar bilan birgalikda fuqarolik sudlov ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga binoan ko'rib chiqilishi belgilab qo'yildi (309²-modda). Shuningdek, mazkur bobda fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'riladigan hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlar, bu ishlarni ko'rish tartibi haqidagi normalar mustahkamlab qo'yildi.

Ayniqsa, mazkur bobda fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi

yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish to'g'risidagi, shuningdek, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkinligi to'g'risidagi qoidaning mustahkamlab qo'yilishi shaxs huquqlarini qo'shimcha ravishda kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish» deb nomlangan 5-kichik bo'limning 35²-bobi «Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishlarni yuritish» deb ataladi va unda hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni, mazkur arizani ko'rib chiqish tartibi, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ish bo'yicha ajrim chiqarishga doir qoidalar o'z ifodasini topdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish, uning hal qiluv qarorini bekor qilishga doir qoidalari ko'plab davlatlarning qonunchiligida, shuningdek, xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham nazarda tutilgan. Lekin *mamlakatimiz qonunchiligida belgilangan hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashishga oid qoidalarning boshqa ayrim davlatlar qonunchiligidagi shunga o'xshash qoidalardan ustun jihatlari mavjud. Masalan, Rossiya Federatsiyasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra (40-moddasi), agar hakamlik bitimida hakamlik sudining qarori qat'iy, o'zgartirib bo'lmasligi yuzasidan kelishuvga erishilgan bo'lsa, u holda hakamlik sudi chiqargan hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish mumkin bo'lmasligi belgilab qo'yilgan.*

O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunida (46-moddasi) hamda shunga muvofiq kiritilgan FPKning 309⁴-moddasida hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining hal qiluv qarorini olgan kundan e'tiboran, o'ttiz kun ichida vakolatli sudga ushbu hal qiluv qarorini bekor qilishni so'rab ariza berish yo'li bilan hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashishi mumkinligi belgilanib, bu o'z navbatida, hakamlik sudlari tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qonunbuzilish-

larning oldini oladi, tadbirkorlik subyektlarining o'z rahbarlari tomonidan korxonalar manfaatlariga zid bo'lgan kelishuvlar tuzilishiga barham beradi, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlar vakolatli sudlar tomonidan tiklanishiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida ariza hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan joydagi sudga (xo'jalik va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga) berilib, mazkur arizalardan tegishli davlat boji undirilishi belgilandi.

Natijada O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 328-moddasida sudlarga beriladigan hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan davlat boji undirilishi belgilandi. FPKning «Davlat boji» deb nomlangan 104-moddasiga ham shunday qo'shimchalar kiritildi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 30-oktabrdagi «Hakamlik sudlari hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 235-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qo'shimchalar kiritilib, unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi 533-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat boji stavkalarida 1-bandga hakamlik sudi qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek, hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida davlat boji undirilishi belgilandi.

32.3. Hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish hamda uni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizalarning malakali yozilishini ta'minlash maqsadida arizaning shakli va mazmuniga oid qoida belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, mazkur arizalar yozma shaklda berilib, hal qiluv qarori yuzasidan nizolashayotgan hakamlik muhokamasi tarafi yoki uning vakili tomonidan imzolandi. Mazkur arizalar fuqarolik ishlari yuzasidan taqdim etiladigan arizalarning mazmuni (FPKning 149-mod-

dasi)dan o'zga xos jihatlari bilan farqlanishini, ta'bir joiz bo'lsa, birmuncha takomillashtirilganligini ham ta'kidlab o'tish kerak.

Xususan, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizada telefonlar, fakslar raqamlari, elektron pochta manzillari va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkinligi, unga ilova qilinadigan hujjatlarning aniq ro'yxati berilishi kabi qoidalar shular jumlasidandir (309⁵-modda). Qonunda hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibini belgilovchi maxsus norma mavjud bo'lib (3096-modda), unda ariza sud majlisida ko'rib chiqilishi, sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida hakamlik muhokamasi taraflari, albatta, xabardor qilinishi kabi qoidalar belgilangan.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizalar Fuqarolik protsessual kodeksining 131-moddasida nazarda tutilgan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

32.4. Hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish hamda uni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibi

Ta'kidlash joizki, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibi boshqa fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishning umumiy qoidalaridan farqlanadi. Xususan, sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli bo'lmaydi.

Shuningdek, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilishga faqat «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgandagina yo'l qo'yiladi. «Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish» deb atalgan 35³-bob esa u ijro varaqasi berishning umumiy qoidalari, ijro varaqasi berish so'ralgan arizaning shakli va mazmuni, arizani ko'rib chiqish tartibi, ijro varaqasi berishni rad etish asoslari to'g'risidagi hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ish yuzasidan ajrim chiqarishi taomili haqidagi qoidalarni o'zida aks ettiradi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Hakamlik sudlari tomonidan qanday hujjatlar qabul qilinadi?
2. Hakamlik sudi hal qiluv qarorlarining vakolatli sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hal qaluv qarorlaridan qanday farqlari mavjud?
3. Hakamlik sudining qo'shimcha hal qiluv qarori deganda nimani tushunasiz?
4. Hakamlik sudining hal qiluv qaroridan norozi bo'lgan taqdirda qanday choralar ko'rilishi lozim?
5. Hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaga nisbatan qanday talablar qo'yilgan?
6. Hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaning vakolatli sudlarga taqdim etiladigan da'vo arizalaridan qanday farqi mavjud?
7. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaga qanday hujjatlar ilova qilinadi?
8. Hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaga nisbatan qo'yilgan talablarga rioya qilmaslik qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?
9. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishning protsessual tartibi haqida nimalarni bilasiz?
10. Hakamlik sudining hal qiluv qarori qanday ijro etiladi?
11. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizaga nisbatan qanday talablar qo'yilgan?
12. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizaga qanday hujjatlar ilova qilinadi?
13. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rishning protsessual tartibi qanday?



TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011.
2. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga shartlar. T., TDYI, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2006, № 10, 541-modda.
4. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.
5. *Sh.Sh. Shorahmetov.* O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
6. *С.Ф. Инютова.* Правовая природа третейского суда как органа, разрешающего юридические споры. Т., TDYI Axborotnomasi, 2009.
7. *С.Ф. Инютова.* Вопросы принудительного исполнения решений третейского суда. «Davlat va huquqning dolzarb muammolari» yosh tadqiqotchilar nigohida aspirant va tadqiqotchilarning ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T., TDYI, 2009.

AYRIM ATAMALAR IZOHI

Ajrim — sud tomonidan chiqariladigan protsessual hujjatlardan biri, sud qarorlarining bir turi sifatida qaraladi. Ajrimlar birinchi instansiya va yuqori sudlov instansiyalari tomonidan sud majlisida va sud majlisidan tashqari fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida qonunda belgilangan asoslarga muvofiq chiqariladigan akt (protsessual hujjat).

Alohida tartibda ish yuritish — fuqarolik sud ishlarini yuritish turlaridan biri bo'lib, qonunda belgilangan nizosiz ishlar (faktlar)ni belgilash tartibi tushuniladi. Alohida tartibda ko'riladigan ishlarda huquq haqidagi nizo bo'lmaydi va shunga ko'ra, u da'vo ishlarini yuritishdan farq qiladi. Alohida tartibda yuritiladigan ishlar sifatida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash; fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish; fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish; g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish mol-mulk (ashyo)ni egasiz deb topish; taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ular bo'yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish)ga oid ishlar ko'riladi. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlar bo'yicha arizalar arizachi (da'vogar) yashab turgan joydagi sudga beriladi.

Apellatsiya — lotincha «*appelatio*» so'zidan olingan bo'lib, «murojaat» degan ma'noni anglatib, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlarini qayta tekshirish instituti sanalib, fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, yigirma kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin. Apellatsiya shikoyatlari va protestlari appellatsiya instansiyasi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

Apellatsiya instansiyasi — appellatsiya tartibida ish ko'ruvchi sud tizimi bosqichi bo'lib, ularga Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati kiradi.

Apellatsiya instansiyasi ajrimi — ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning fikri tinglab bo'linganidan keyin appellatsiya

instansiyasi sudi ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga chiqadi. Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi ish ko'rilganidan keyin darhol chiqariladi.

Apellatsiya protesti — fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran, yigirma kun ichida prokuror tomonidan keltiriladigan (e'tiroznoma) protest keltirish. Ushbu protest sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv o'tkazish uchun asos bo'ladi. Prokuror muayyan ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat'i nazar, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o'z vakolati doirasida protest keltiradi.

Apellatsiya sudining vakolatlari — sud ishni appellatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka; ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga; qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko'rib chiqish uchun yuborishga; hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda kodeksning 97 va 100-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko'rmasdan qoldirishga haqli.

Apellatsiya shikoyati — ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish haqidagi shikoyat (ariza) bilan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran yigirma kun ichida qonunda belgilangan tartibda murojaat qilish.

Arz qilish — fuqarolarning sud va boshqa organlarga turli masalalar (g'ayriqonuniy xatti-harakatlar, huquq buzilishlar, huquq va erkinliklarni amalga oshirish yo'lida to'sqinliklar va boshq.) yuzasidan murojaat qilish.

Ariza — ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud va boshqa organlarga murojaat qilish shakli, vositasi sanaladi. Sudga berilgan ariza ish qo'zg'atish uchun asos bo'ladi.

Arizani qabul qilishni rad etish — sud tomonidan arizani qabul qilish va ish qo'zg'atish jarayonida amalga oshiriladigan protsessual harakat bo'lib, sud o'z ajrimi bilan quyidagi hollarda arizani qabul qilishni rad etadi, agar:

- 1) ariza sudga ko'rishga tegishli bo'lmasa;
- 2) sudning aynan taraflar o'rtasida, aynan bir narsa to'g'risida va aynan bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoxud da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilish yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrimi mavjud bo'lsa;
- 3) sud aynan bir taraflar o'rtasida, aynan bir narsa to'g'risida va aynan bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo'lsa;
- 4) taraflar o'rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlilik sudiga topshirish haqida hakamlilik bitimi tuzilgan bo'lsa;
- 5) ish shu sudning sudloviga taalluqli bo'lmasa;

6) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

7) manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs bergan bo'lsa.

Sudyaning ushbu modda 5, 6 va 7-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani qabul qilishni rad etishi, basharti yo'l qo'yilgan xatolar bartaraf etilsa, shu ish bo'yicha sudga ikkinchi marta ariza bilan murojaat etishga to'sqinlik qilmaydi.

Arizachi — sud va boshqa organlarga ariza bilan murojaat qilgan shaxs.

Ashyoviy dalillar — ishni mazmunan hal qilish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan narsalar ashvoviy dalillar hisoblanadi. Ashyoviy dalilni taqdim etuvchi yoki talab qilib olishni iltimos qilayotgan shaxs shu dalil orqali ish uchun ahamiyatli bo'lgan qanday holatlarni aniqlash mumkinligini ko'rsatishi shart.

Ashyoviy dalillar va hujjatlarni olib qo'yish — ashvoviy dalillar sudning ajrimiga binoan, ishga qo'shib qo'yiladi va ishda saqlanadi yoki alohida ro'yxat qilinib, sudning ashvoviy dalillar saqlanadigan xonasiga topshiriladi. Sudga keltirib bo'lmaydigan ashvolar turgan joyida saqlanadi. Ular batafsil ta'riflanishi, surg'uchlangan, zarur hollarda esa, foto yoki video suratga ham olingan bo'lishi lozim. Ashvoviy dalillar sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin kimdan olingan bo'lsa, o'sha shaxslarga qaytarib beriladi yoki sud shu ashvolariga kimning huquqi bor deb topgan bo'lsa, o'sha shaxslarga beriladi.

Bayonnoma — barcha organlar tomonidan yuritiladigan faoliyatni, xususan, olib boriladigan majlislarni rasmiylashtirish shakli. Sudning har bir sud majlisi to'g'risida, shuningdek, sud majlisidan tashqari qilingan har bir alohida protsessual harakat to'g'risida bayonnoma tuziladi.

Birinchi instansiya sudi — sudlarga taalluqli fuqarolik ishlarini ko'rish vakolatiga ega bo'lgan fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari fuqarolik ishlarini tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudi birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chiqadi. Viloyat, Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi hududidagi har qanday fuqarolik ishini tumanlararo (shahar) sudidan olib birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yuritishiga qabul qilishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi har qanday fuqarolik ishini O'zbekiston Respublikasining istalgan sudidan olib, birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yuritilishiga qabul qilib olishga haqli.

Vakil — sud va boshqa organlarda muayyan harakatlar (protsessual harakatlar)ni vakolat beruvchi nomidan amalga oshirish huquqini olgan shaxs.

Vakillik — manfaatdor shaxsning topshirig'i bo'yicha yoki qonunda nazarda tutilgan barcha asoslarga ko'ra, sudda va boshqa organlarda protsessual harakatlarni o'z vakillari (qonuniy va shartnomali vakillari) orqali ish yuritishlariga aytiladi.

Vakolat — sudda va boshqa organlarda ish yuritish vakolatlari vakilga barcha harakatlar (protsessual harakatlar)ni vakolat beruvchi nomidan

amalga oshirish huquqini beradi. Shartnoma va ustav bo'yicha vakillik qiluvchining arz qilingan talablardan butunlay yoki qisman voz kechish, ularning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vogarning talablarini tan olish, kelishuv bitimi tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sudning hal qiluv qarori (ajrimi) ustidan shikoyat berish, ijro varaqasini undiruvga qaratish, da'vo qo'zg'atuvchiga tegishli deb qaror chiqarilgan mol-mulk yoki pulni olish vakolati to'g'risida har bir alohida holda vakolat beruvchi tomonidan topshirilgan vakolatnomada maxsus izoh berilishi kerak.

Guvoh — ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi. Ammo vakil yoki himoyachi vazifalarini bajarishlari munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida — fuqarolik ishlari bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishlari bo'yicha himoyachilar; jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli faktlarni to'g'ri idrok qilishga yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuv berishga layoqatsiz shaxslar bundan mustasno.

Davlat boji — sud va boshqa organlarda amalga oshiriladigan muayyan harakatlarni qoplash uchun olinadigan xarajat. Sudlarga da'vo arizalari, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlar, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalar, sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellatsiya, kassatsiya tartibida shikoyatlar va nazorat tartibida protest keltirish to'g'risida arizalar, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risida arizalar, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risida arizalar berganlik uchun, shuningdek, sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalari berilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi.

Dalil — taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlar mavjudligi yoki mavjud emasligini sud va boshqa organlarning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar bo'yicha dalil hisoblanadi.

Dalillar taqdim qilish — har bir taraf o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashi shart. Sud qanday holatlar ish uchun ahamiyatga ega ekanligini, ularni taraflardan qaysi biri isbotlashi kerakligini aniqlaydi, hatto taraflar bu holatlarni dalil qilib keltirmagan bo'lsalar ham, ularni muhokamaga qo'yadi. Dalillar taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Sud ularga qo'shimcha dalillar taqdim qilishni taklif etishi mumkin. Agar qo'shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirsa, sud ularning iltimosnomasiga ko'ra, dalillar to'plashda ularga yordam ko'rsatadi.

Dalillarga baho berish — sud dalillarga ishning hamma holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda, har taraflama, to'liq va xolis ko'rib chiqish asosida ichki ishonch bo'yicha baho beradi. Har bir dalil ishga daxldorligi, maqbulligi va ishonchligi nuqtai nazaridan, dalillarning hammasi esa, yetarli darajada to'plangan yoki to'planmaganligi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim. Agar tekshirish natijasida dalilning haqiqatga to'g'ri kelishi aniqlansa, u ishonchli deb e'tirof etiladi. Hech qanday dalil sud uchun oldindan belgilab qo'yilgan kuchga ega emas.

Da'vo — sudga murojaat qilishning protsessual shakli. Shaxslar (jismoniy va yuridik)ning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida ushbu huquqlarni himoya qilish (tiklash) maqsadida vujudga keladigan jarayon. Da'vo ikki element: da'vo predmeti va da'vo asosidan iborat. Da'voli ishlar undirish va tan olish to'g'risidagi da'volarga bo'linadi.

Da'vo arizasi — buzilgan huquq va manfaatlarni himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilishning protsessual shakli (protsessual hujjat). Arizada quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) da'vogarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) va yashash joyi, agar da'vogar tashkilot bo'lsa, uning qayerda joylashganligi, shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili;
- 3) javobgarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi), yashash joyi yoki agar javobgar tashkilot bo'lsa, uning qayerda joylashganligi;
- 4) da'vogarning talabi;
- 5) agar da'voni baholash lozim bo'lsa, uning bahosi;
- 6) da'vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar;
- 7) arizaga ilova qilingan hujjatlarning ro'yxati.

Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, arizaga ishonchnoma yoki uning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Da'vo predmeti — da'vo elementlaridan biri hisoblanib, sudga murojaat qiluvchi (da'vogar)ning sud orqali talab qilgan talabi (narsasi).

Da'vogar — fuqarolik protsessining taraflaridan biri, ishda ishtirok etuvchi shaxs. Da'vogar — o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxs.

Da'volarning qo'shilishi — bir arizada o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha talab (da'volar)ni birlashtirish. Sudya shu sudda aynan bir taraflar ishtirok etayotgan bir turdagi bir necha ish yuritilayotganligini yoxud bir shaxsning turli javobgarlarga yoki bir necha da'vogarning aynan bitta javobgarga nisbatan arizalari bo'yicha bir necha ish yuritilayotganligini

aniqlasa, agar bu ishlarni birlashtirish ishning o'z vaqtida va to'g'ri hal qilinishiga yordam bersa, ularni birgalikda ko'rish uchun bitta ishga birlashtirishga haqli.

Da'voni ta'minlash — sud (sudya) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan yoki o'z tashabbusi bilan da'voni ta'minlash choralari ko'rishi mumkin. Da'voni ta'minlash choralari ko'rmaslik sud chiqargan hal qiluv qarorining ijrosini qiyinlashtirsa yoki uni bajarib bo'lmaydigan qilib qo'ysa, da'voni ta'minlashga yo'l qo'yiladi. Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash choralari hakamlik muhokamasi tarafining da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizasiga binoan hakamlik sudi joylashgan yerdagi yoxud javobgar joylashgan yerdagi yoki yashaydigan joydagi yoinki javobgarning mol-mulki turgan joydagi sud tomonidan ko'rilishi mumkin. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizaga da'voning hakamlik sudiga taqdim etilganligini isbotlovchi dalillar, hakamlik sudining da'voni ta'minlash choralari ko'rish haqidagi ajrimi ilova qilinadi. Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani sud tomonidan ko'rib chiqish va da'voni ta'minlash haqida ajrim chiqarish kodeksning 249–258-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Quyidagilar da'voni ta'minlash choralari bo'lishi mumkin:

1) javobgarga tegishli bo'lgan va uning o'zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulk yoxud pul summasini xatlash;

2) javobgarning muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash;

3) boshqa shaxslarning javobgarga mol-mulk berishini yoki unga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishini taqiqlash;

4) mol-mulkni xatlashdan chiqarish to'g'risida da'vo qo'zg'atilgan taqdirda, uni sotishni to'xtatish;

5) agar qarzdor ijro hujjati yuzasidan da'vo tartibida nizolashayotgan bo'lsa va bunday nizolashishga qonun hujjatlarida yo'l qo'yilsa, bu hujjat bo'yicha undiruvni to'xtatish.

Yozma dalillar — yozma dalillar ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan hujjatlar, xizmatga daxldor va shaxsiy yozishmalar.

Yopiq sud majlisi — barcha sudlarda ishlar oshkora ko'riladi, davlat yoki tijorat sirlarini saqlash manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga yo'l qo'yimaslik, shuningdek, farzandlikka olish siri va yozishmalar siri saqlanishini ta'minlash maqsadida sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan, ish sudning yopiq majlisida ko'rilishiga yo'l qo'yiladi. Ish sudning yopiq majlisida sudlov ishlari yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda ko'riladi. Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
<i>1-bob.</i> Fuqarolik protsessual huquqining predmeti, tushunchasi va tizimi	6
<i>2-bob.</i> Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari	18
<i>3-bob.</i> Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar va ularning subyektlari	26
<i>4-bob.</i> Fuqarolik protsessida taraflar	33
<i>5-bob.</i> Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslarning ishtiroki	39
<i>6-bob.</i> Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki	45
<i>7-bob.</i> Fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtiroki	52
<i>8-bob.</i> Sud va vakillik qilish	60
<i>9-bob.</i> Sud xarajatlari. Sud jarimalari	64
<i>10-bob.</i> Protsessual muddatlar	74
<i>11-bob.</i> Fuqarolik ishlarining taalluqliligi	78
<i>12-bob.</i> Fuqarolik ishlarining sudlovliligi	88
<i>13-bob.</i> Da'vo qo'zg'atish huquqi	94
<i>14-bob.</i> Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar	104
<i>15-bob.</i> Fuqarolik ishlarini sud va ko'rishga tayyorlash	116
<i>16-bob.</i> Fuqarolik ishlarini sud va muhokama qilish	123
<i>17-bob.</i> Birinchi instansiya sudining qarorlari	136
<i>18-bob.</i> Buyruq tartibida ish yuritish	150
<i>19-bob.</i> Sirdan hal qiluv qarori chiqarish	157
<i>20-bob.</i> Nikohni tugatish bilan bog'liq ishlarni sud va ko'rishning protsessual xususiyatlari	164
<i>21-bob.</i> Aliment undirish to'g'risidagi ishlarni sud va ko'rishning protsessual xususiyatlari	175
<i>22-bob.</i> Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sud va ko'rishning protsessual xususiyatlari	188
<i>23-bob.</i> Mehnatga oid nizoli ishlarni sud va ko'rishning protsessual xususiyatlari	202
<i>24-bob.</i> Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ishlarni yuritish	220

25-bob. Alohida tartibda ko'riladigan ishlar	236
26-bob. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan apellatsiya shikoyati berish (protest keltirish)	256
27-bob. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish)	268
28-bob. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida qayta ko'rish	276
29-bob. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish ...	287
30-bob. Sud qarorlari ijrosi	296
31-bob. Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki	316
32-bob. Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish	320
Ayrim atamalar izohi	328

M23 Mamasiddiqov M.M. va boshq. Fuqarolik protsessual huquqi. Yuridik kollejlarda uchun o'quv qo'llanma. T.: «ILM ZIYO», 2012. —336 b.

УДК 347.9(075)
КВК 67.410

ISBN 978—9943—16—070—5

MUZAFFAR MUSAJONOVICH MAMASIDDIQOV,
ZAMIRA NORMUROTOVNA ESANOVA,
DAVLATJON YO'LCHIBOYEVICH HABIBULLAYEV

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

Yuridik kollejlarda uchun o'quv qo'llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *G. Azizova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.
2012-yil 7-sentabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90¹/₁₆.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 21,0.
Nashr tabog'i 20,0. 1662 nusxa. Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma № 17

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 34 —2012.

•PAPER MAX» xususiy korxonasiida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.